ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRLIGI
ÁJINIYAZ ATÍNDAĞÍ NÓKIS MÁMLEKETLIK PEDAGOGIKALÍQ INSTITUTÍ

“ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ AYMAQLARÍN TURAQLÍ RAWAJLANDÍRÍWDÍŃ GEOGRAFIYALÍQ TIYKARLARÍ”

Respublikalıq ilimiy-teoriyalıq konferenciyası



Digital object identifier
Google Scholar
OpenAIRE

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ AYMAQLARÍN TURAQLÍ RAWAJLANDÍRÍWDÍŃ GEOGRAFIYALÍQ TIYKARLARÍ

atamasındağı respublikalıq ilimiy-teoriyalıq

KONFERENCIYA TOPLAMÍ

Nókis, Ózbekstan

2025-jıl 11-aprel

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI

Nukus, O‘zbekiston

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

республиканской научно-практической конференции

ГЕОГРАФИЧЕСКИМ ОСНОВАМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТЕРРИТОРИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Нукус, Узбекистан

Ózbekstan Respublikası aymaqların turaqlı rawajlandırıwdıń geografiyalıq tiykarları / – Nókis. – 2025. – 349 b.

«Ózbekstan Respublikası aymaqların turaqlı rawajlandırıwdıń geografiyalıq tiykarları» atamasındaǵı Respublikalıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya materiallarına Ózbekstan Respublikasınıń joqarı hám orta arnawlı oqıw orınları pedagog-xızmetkerleri, úlken ilimiy xızmetker-izleniwshiler, doktorantlar, magistrantlar, studentler hám ulıwma bilim beriw mektepleri muǵallimleriniń geografiya páni hám onı oqıtıwdıń aktual máselelerine arnalǵan ilimiy bayanatları kirgizilgen.

Konferenciya materiallarınıń mazmunı hám onda kórsetilgen dereklerdiń durıslıǵına avtorlar juwapker.

Juwaplı redaktor
Genjexan Utepova
geografiya ilimleriniń kandidatı, docent

Pikir bildiriwshiler
Qoshqarbay Seytniyazov
geografiya ilimleriniń kandidatı, docent
Izimbet Turdımambetov
geografiya ilimleriniń doktorı, professor

Redkollegiya aǵzaları
Kuandik Kadirov
Polat Kalxanov
Maman Sarıbaev
Roza Gaypova
Uktamjon Eshimbetov
Jangabay Abdiramanov
Abdijan Nurlanov
Alisher Iskenderov
Muzaffar Radjapov
Nariman Otenov
Omirbay Baltabayev
Zamira Turdıbekova
Ernazar Tolepov
Yerkinbay Saliyev
Tulebayev Seydulla
Orazbayeva Sanovar

Materiallardı toplap, baspaǵa tayarlawshı
Koblan Uzakbaev

Bul ilimiy-teoriyalıq konferenciya toplamı Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı ilimiy Keńesiniń 2025-jıl 27-marttaǵı 7-sanlı qararı menen baspaǵa usınıs etildi.

GIDROLOGIYALÍQ TOPOTERMINLERDIŃ QARAQALPAQSTANDA TOPONIM PAYDA ETIWDEGI ROLI HÁM ÁHMIYETI

Turdımambetov I.R,
Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti professorı, geografiya ilimleri doktorı

Baltabayev O.O
Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti (DSc) doktorantı, geografiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD)

Abdinasırov Q.A
Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti magistrantı

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15169209*

Geografiyalıq atamalar áyyemgi hám uzaq tariyxıy dáwirlerdiń jemisi bolıp, úlkemizdiń tariyxı, geografiyası, tábiyatı, toponimlerdiń payda bolǵan tili hám t.b. sol sıyaqlı qunlı materiallardı ózinde saqlawshı derek esaplanadı. Sol qatarı toponimlerdiń bir túri esaplanǵan gidronimler suw obyektleri atamaları bolıp, olar ózleriniń jaylasıw ornı, mánis-mazmunı menen geografiyalıq kartalardıń janı esaplanadı. Sonday-aq, gidronimlerdiń payda bolıwında jiyi ushırasatuǵın *kól, dárya, say, ózek, arna, arıq, bulaq* hám t.b. usı sıyaqlı jergilikli geografiyalıq terminler kópshilikti quraydı. Bizlerdiń aymaq Aral teńiziniń qubla jaǵası, Ámiwdárya deltasında jaylasqanlıǵımız aymaǵımızda kóplegen gidronimlerdiń, atap aytqanda, *kól* jergilikli geografiyalıq termini qatnasında payda bolǵan toponimler, gidronimler anaǵurlım kóp. Sonlıqtan, biz bul miynetimizde *kól* topoterminiiniń mánis-mazmunın, etimologiyasın, sonday-aq, úlkemizdiń qanday geografiyalıq obyekt túrlerinde ushırasatuǵınlıǵın, sanın hám aymaqlıq tarqalıwın izertleymiz.

L.Shubaev kól terminine tómendegishe túsindirme bergen *“kól – qurǵaqlıqtıń átirapı tuyıq saylıqlarda jaylasqan aǵımsız yamasa aǵımı tómen, okean menen óz ara baylanıspaǵan, ózine tán ekologiyalıq sharayat hám organizmlerge iye bolǵan suw basseynlerine aytıladı”.* Qaraqalpaq tili túsindirme sózliginde, *“aylanası tábiyiy yamasa jasalma túrde tuyıqlanıp suw jatqan jer”, kól* delingen. A.Chebotarev bolsa, *kólge “tábiyiy suw basseyni bolıp, ol samal tásirinde tolqınlanıp hám háreket etiwshi, jaǵa zonası profiline hám áste-aqırın suw almasıw processine iye jer júzesindegi suw menen tolǵan shuqırlıq” – dep, táriyp bergen.*

Kól termini túrkiy tilge tiyisli termin. Hár tilde hár túrli aytıladı. Túrkmenstanda – *kyol*, Kavkaz aldı ellerinde – *gyol*, Yakutiyada – *kyuel*, Tájikstanda – *kul*, Altayda – *kol* dep aytıladı.

Mahmud Qashǵariy sózliginde *kól* sózi: 1) “*háwiz”*; 2) *“kól”*; 3) *“teńiz”* degen mánilerdi ańlatıp, jáne *“toplanıp qalǵan suw”* dep te bildirilgen.

Al, B.Bafoev bolsa: “*Kól* ataması VII-VIII ásirlerde *dárya* mánisin bildirgen, X-XI ásirlerge kelip, tek ǵana, aqpaytuǵın suw obyektlerine baylanıslı qollanılǵan” degen pikirdi aytadı. Al, toponimist-alım A.Nizomov hám t.b.lar bolsa, *“... hámme limtoponimlerdiń túp dúzilisinde kól qosımtası qatnasadı hám óz-ózinen kórsetilgen orında kól bar ekenliginen derek beredi”* - degen, juwmaqqa kelgen. Tómendegi kestede biz Qaraqalpaqstan Respublikası aymaǵında *kól* termini qatnasında payda bolǵan geografiyalıq atamalar haqqında maǵlıwmat beremiz (1-keste).

1-keste

Qaraqalpaqstanda *kól* topotermini qatnasında payda bolǵan toponimler DIZIMI

№	Geografiyalıq obyekt ataması	Geografiyalıq obyekt túri	Geografiyalıq obyekt jaylasqan aymaq (16 rayon hám Nókis qalası)
1.	Aqkól	Kól	Beruniy
2.			Taxtakópir
3.		Elatlı punkt	
4.		Urochishe	Moynaq
5.			Qońırat
6.	Aqqoyankól		Moynaq
7.	Aqqumkól		
8.	Aqshakól	MPJ	Ellikqala
9.		Kól	
10.			Beruniy
11.		Elatlı punkt	Ellikqala
12.	Aqshunkól	Kól	Qońırat
13.	Altınkól	Elatlı punkt	Qanlıkól
14.		Qalasha	Qońırat
15.		MPJ	
16.			Qanlıkól
17.		Kól	Qońırat
18.			Qaraózek
19.		Kanal	Qońırat
20.		Urochishe	Moynaq
21.	Amantaykól		
22.	Arantakól		Kegeyli
23.	Arpakól	Elatlı punkt	Bozataw
24.			Shomanay
25.		Urochishe	Kegeyli
26.	Atakól	Kól	Taxtakópir

27.		APJ	
28.		Elatlı punkt	
29.	Álimbaykól	Kól	Kegeyli
30.	Álimabadkól	Urochishe	Qońırat
31.	Balıqlıkól	Kól	Shımbay
32.	Bayrashkól	Urochishe	Qońırat
33.	Bayjankól		Moynaq
34.	Bulaqkól	Kól	Ámiwdárya
35.	Bujuqkól	Elatlı punkt	
36.	Daxmankól	Kól	Qaraózek
37.	Dalakól	Urochishe	Moynaq
38.			Beruniy
39.	Dalakólli	Taqır	Qaraózek
40.	Darkashkól	Urochishe	Moynaq
41.	Dawıtkól	Elatlı punkt	Bozataw
42.		Kól	
43.	Dáwkempirkól	Urochishe	Moynaq
44.	Dáwmenkól	Kól	Kegeyli
45.	Delekekól	Urochishe	
46.	Divankól	Kollektor	Ámiwdárya
47.	Dóńlikól	Urochishe	Shımbay
48.	Dumalaqkól		Moynaq
49.	Duzlankól	Kól	Ámiwdárya
50.	Duzlıkól	Urochishe	Moynaq
51.	Ekelikól		Qońırat
52.	Xojakól	Kanal	Ámiwdárya
53.		Urochishe	
54.		Elatlı punkt	
55.		Urochishe	Shımbay
56.		Keramzit shiyki zatı káni	Qaraózek
57.	Xojakóltoǵay	Urochishe	Ámiwdárya
58.	Xojankól	Elatlı punkt	Shımbay
59.	Ilmekól	Urochishe	Moynaq
60.	Imetullakól		
61.	Ishetkól	Ózek	Shımbay
62.	Jamankól	Urochishe	Kegeyli
63.	Jankól		
64.	Jekenlikól		
65.	Jelekekól		
66.	Jiyenbaykól	Kól	
67.	Joldıbaykól	Urochishe	Qońırat
68.	Jumalaqkól		

69.	Kishikól		Moynaq
70.	Kishkene Qarakól	Qurıp qalǵan ózek	Taxtakópir
71.	Kókkól	Urochishe	Kegeyli
72.		Elatlı punkt	Shomanay
73.	Kóklikól iyshan	Áwliye	Qanlıkól
74.	Kókshekól	Kóller	Kegeyli
75.	Kólimar	Kól	Qaraózek
76.	Kúnjilikól	Elatlı punkt	Shomanay
77.	Qamıslıbógetkól	Urochishe	Moynaq
78.	Qanlıkól	Rayon	Qanlıkól
79.		Qalasha	
80.		MPJ	
81.		Temir jol stanciyası	
82.	Qanlıkóljap	Kanal	
83.	Qarabalakóli	Urochishe	
84.	Qarakól	MPJ	Shımbay
85.		Ealtlı punkt	Xojeli
86.			Ellikqala
87.			Qaraózek
88.		Kól	
89.			Qońırat
90.			Nókis
91.			Taxtakópir
92.		Urochishe	Kegeyli
93.			Shımbay
94.		Qurıp qalǵan ózek	Taxtakópir
95.	Qarakólka	Urochishe	Qońırat
96.		Dóńlik	
97.	Qaratóbekól	Urochishe	Moynaq
98.	Qaratorkól	Dóńlik	Qońırat
99.	Qarashúńgilkól	Kól	Ámiwdárya
100.	Qattıkól	Elatlı punkt	Shomanay
101.	Qazaqkól	Urochishe	Moynaq
102.	Qazalıkól		
103.	Qılıshoykól		Qońırat
104.	Qılkóllijap	Jap	Kegeyli
105.	Qıpshaqkól	Elatlı punkt	Qaraózek
106.	Qırqtıńkóli	Urochishe	Kegeyli
107.	Qoǵalaykól		
108.	Qoltıqkól		
109.	Qońıratkól	Elatlı punkt	Taxtakópir
110.		APJ	

111.	Qopaqkól	Kól	Kegeyli
112.		Elatlı punkt	Bozataw
113.	Qoskól	Kól	Nókis q.
114.		MPJ	
115.	Qoyǵankól	Kól	Taxtakópir
116.	Qoshankól	Urochishe	Qońırat
117.	Qubıtkól		Kegeyli
118.	Qudiyarkól	Kól	
119.	Qulaqkól	Urochishe	
120.	Qurkól		Moynaq
121.	Qutankól	MPJ	Nókis
122.		Urochishe	Kegeyli
123.	Quwlıkól	Elatlı punkt	Nókis
124.			Qanlıkól
125.		Urochishe	Kegeyli
126.	Maqpalkól		Moynaq
127.	Malshıkól		Qońırat
128.	Marjankól	APJ	Taxtakópir
129.		Elatlı punkt	
130.	Maylıkól		Ámiwdárya
131.	Mashankól		Qońırat
132.		Kól	
133.		Urochishe	Moynaq
134.	Meńlikól		Qanlıkól
135.	Meterkól	Kól	Shımbay
136.	Moyınkól	Elatlı punkt	Bozataw
137.		Urochishe	Kegeyli
138.	Nawrızkól		Moynaq
139.	Naymankól	MPJ	Taqıyatas
140.		Qalasha	
141.		Elatlı punkt	
142.		Temir jol stanciyası	Xojeli
143.	Nıshankól	Kól	Qońırat
144.	Noǵaykól		
145.	Nókerkól	Elatlı punkt	Shımbay
146.	Ospankól		Bozataw
147.	Pishenkól		Taxtakópir
148.	Saǵırkól	Kól	Qońırat
149.		Urochishe	Moynaq
150.	Saxarnumkól		
151.	Saqakól		Shımbay
152.	Saqarkól	Kól	Ámiwdárya

153.	Samankól	APJ	Xojeli
154.	Saraykól	MPJ	Beruniy
155.			Taqıyatas
156.		Elatlı punkt	
157.			Beruniy
158.	Sarıkól	Elatlı punkt	
159.			Taxtakópir
160.		Urochishe	Moynaq
161.	Sarıkólqudıq	Dóńlik	Taxtakópir
162.	Sarıshakól	Kóller	
163.	Sarmanbaykól	APJ	Shomanay
164.		Elatlı punkt	
165.	Sasıqkól	Kól	Kegeyli
166.		Urochishe	Moynaq
167.	Sáwirkól		Kegeyli
168.	Signaykól		Moynaq
169.	Sorkól	Kól	Taxtakópir
170.	Sókkól	Urochishe	Tórtkúl
171.		Dóńlik	
172.	Tabankól	Elatlı punkt	Qanlıkól
173.		Urochishe	Shımbay
174.	Taqırkól	APJ	Nókis
175.		Elatlı punkt	
176.		Temir jol stanciyası	
177.	Tamırlıkól	Urochishe	Qońırat
178.	Tasmankól	Kól	Shımbay
179.	Tazakól		Ellikqala
180.			Tórtkúl
181.	Tájiǵalıkól	Kóller	Ámiwdárya
182.	Teppekól	Elatlı punkt	Taxtakópir
183.	Tınıqkól	Kól	
184.	Tıshqaqqumkól	Urochishe	Moynaq
185.	Tomarkól		Qońırat
186.	Tomarshekkól		Moynaq
187.	Tubakól	Kól	Xojeli
188.	Túrkmenkól	Qalasha	Tórtkúl
189.	Ubankól	Urochishe	Shımbay
190.	Uyalıkól		Kegeyli
191.	Uyǵırkól	Elatlı punkt	Bozataw
192.	Uzınkól	MPJ	Nókis q.
193.		Elatlı punkt	Nókis
194.	Úlken Taxtakól	Urochishe	Moynaq

195.	Yaqıpbaykól		
196.	Zakirkól		
197.	Zeykól	Kól	Beruniy
198.	Shaǵalakól	MPJ	Xojeli
199.	Shaǵırkól	Elatlı punkt	Taxtakópir
200.	Shaǵırlıkól	Urochishe	Moynaq
201.			Qońırat
202.	Shaxankól	Elatlı punkt	Xojeli
203.	Shańkól	Kól	Taxtakópir
204.	Shegekól		Moynaq
205.	Shılımkól	Elatlı punkt	Bozataw
206.		Urochishe	Kegeyli
207.	Shomaqkól	Elatlı punkt	Shomanay
208.	Shorkól		Nókis
209.	Shortanlıkól	Kól	Beruniy
210.	Shólkemkól	Urochishe	Qońırat
211.	Shómishkól	Kól	Ámiwdárya
212.		Ózek	Moynaq
213.		Áwliye	Qaraózek
214.	Shuqırkól	Urochishe	Moynaq
215.	Chaykól	MPJ	Ámiwdárya
216.		Elatlı punkt	

Keste Geografiyalıq obyektler atamaları katalogı maǵlıwmatları tiykarında dúzildi

Joqarıda kestede keltirilgen maǵlıwmatlar analizinen kóriwimiz múmkin, Qaraqalpaqstan aymaǵında kól topotermini qatnasında payda bolǵan toponimler kópshilikti quraydı. Bunda topotermin tiykarınan kól, urochishe, awıl puqaralar jıyını (APJ), mákan puqaralar jıyını (MPJ), sonday-aq, kóplegen elatlı punktlerdiń atamalarında qatnasqan. Sonıń menen birge, aymaqlıq tarqalıw ózgesheliginde tiykarınan Qaraqalpaqstan Respublikasınıń arqa rayonları esaplanǵan Moynaq, Qońırat, Taxtakópir rayonları toponimlerinde úles eń joqarı ekenligin kóriwimiz múmkin. Bunnan biz bul aymaqlarda aldıńǵı dáwirlerde kóplegen tarmaqlasqan kóller sisteması bolǵanlıǵın biliwimiz múmkin.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Балтабаев О.О. Қарақалпақстан ойконимлериниң пайда болыўында гидрообъектлердиң роли ҳәм әҳмийети // Ilim hám jámiyet, 2022. №4. – Б. 31-33.
2. Бафоев Б. Кўл сўзининг маънолари ва тарихи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1992. № 2. – Б. 18-20.
3. Махмуд Қошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). III том. – Т.: Ўзфанакаднаш, 1963. – 463 б.
4. Миракмалов М.Т. Ҳалқ табиий географик терминлари. (Монография). – Т.: Fan va texnologiya, 2009. – 176 б.

5. Низомов А., Рахимова Г., Расулова Г. Топонимика. (Ўқув қўлланма). – Т.: Sharq, 2013. – 120 б.
6. Турдимамбетов И.Р., Балтабаев О.О. Қорақалпоғистон Республикаси ойконимларининг шаклланишида маҳаллий гидрологик топотерминларнинг роли ва аҳамияти // “Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand. 17-18 may 2024. – B. 254-258.
7. Чеботарев А.И. Гидрологический словарь. – Л.: Гидрометеоиздат, 1978. – 308 с.
8. Шубаев Л.П. Умумий ер билими. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – 367 б.
9. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. III том, К – Н. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1988. – 368 б.
10. Allanazarov K., Urinbaeva F., Baltabayev Ó. Qaraqalpaqstanda kól termininiń toponim payda etiwdegi roli (Taxtakópir rayonı mısalında) // «География пәни ҳәм оны оқытыўдың актуаль мәселелери» атамасындағы Республикалық илимий-теориялық конференциясы топламы. – Нөкис, ҚМУ, 2018. – Б. 5-7.
11. Allanazarov K.J., Atabaev A.A., Bayramova M.D. Jergilikli geografiyalıq terminler. – Nókis, 2021. – 52 b.
12. Allanazarov K.J., Baltabayev O.O. Taxtakópir rayonı toponimleri (Monografiya). – Nókis, ILIMPAZ, 2024. – 80 b.
13. Geografik obyektlar nomlari kartalogi. – Toshkent, 2024. – 722 b.
14. Turdimambetov I.R. Baltabayev O.O. Qoraqalpog‘iston Respublikasi oykonimiyasining hududiy tarkibi va tarixiy-madaniy ahamiyati (Monografiya). – T.: “ZEBO PRINT”, 2024. – 240 b.

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СУҒОРИШ ТИЗИМЛАРИДАН СУВ ЧИҚАРИШНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ, ҚАЙТАРИЛГАН СУВЛАРНИНГ МИНЕРАЛЛАШУВИ

Хожамуратова Роза Тажимуратовна,
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети профессори, география фанлари доктори (DSc)

Жангабаев Данияр Мансурович,
Ирригация ва сув муаммолари илмий-тадқиқот институти таянч докторанти

Иманмурзаев Адилбек Қалдибаевич,
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети стажёр ўқитувчиси

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15169216*

Аннотация: *Тезисда асосан сув ва қишлоқ хўжалигида, ишлаб чиариш ва саноатда ишлатиладиган оқова сувларни сифатини яхшилаш ва уни Минерализацияси ва тузлилик даражаси ўрганилган.*
Калит сўзлар: *мелиорация, миграция, сувнинг ирригация сифати, коллекторлар, тупроқ, тузларнинг кўчиши.*

Аннотация: *В диссертации в основном рассматривается улучшение качества сточных вод, используемых в водном и сельскохозяйственном, производственном и промышленном секторах, а также их минерализация и степень солености.*
Ключевые слова: *мелиорация, миграция, ирригационное качество воды, коллекторы, почва, миграция солей.*

Abstract: *The thesis primarily focuses on improving the quality of wastewater used in water and agriculture, production, and industry, as well as its mineralization and salinity levels.*
Keywords: *land reclamation, migration, irrigation quality of water, collectors, soil, salt migration.*

Кириш: Коллектор-зовур тармоқларидан фойдаланиш табиий сув ҳавзаларига сезиларли таъсир кўрсатади ва коллектор-зовур сувларининг (КЗС) гидрокимёвий таркиби ер ости сувлари ва сув қабул қилгичларнинг гидрокимёси билан узвий боғлиқ. Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудида гидромелиоратив тизимларни қуриш ўтган асрнинг 50-70 йиллари ўрталарида бошланган. Бугунги кунда Қорақалпоғистоннинг Шимолий зонасида КС-1, КС-3, КС-4, ККС, ГКЛ, Устюрт каби Жанубий зонада Беруний ва Аёзқалъа йирик магистраль коллекторлар қурилиб фойдаланилмоқда.

Асосий қисм: Коллектор-зовур оқимининг энг кичик ҳажмлари (0,45-0,79 км^3) 1968-1972 йилларда кузатилган, бунда ўртача ҳисобий минераллашув 2,48 дан 4,27 г/л гача ўзгарган. 1973-1976 йиллар оралиғида коллектор-дренаж оқими ҳажми 0,82-1,52 км^3 гача ошди, ўртача минераллашув миқдори 1,96-4,2 г/л оралиғида ўзгарди. 1986-1990 йилларда коллектор-зовур

оқимининг ҳажми 1,9-2,6 км^3 гача ошди, ўртача минерализация миқдори ҳам бироз ошди ва 3,91-4,33 г/л оралиғида ўзгарди. Коллектор-зовур оқими ҳажмининг ортиши минтақада суғориладиган майдонларнинг кўпайиши, шу муносабат билан суғориш учун олинадиган сув миқдорининг ортиши, шунингдек, коллектор-зовур тармоғининг кенгайиши билан изоҳланади. 1968-1976 йилларда суғориладиган ҳудудларга тузларнинг кириб келиши ва чиқиб кетиши ўртасидаги ижобий фарқ бу йилларда уларда шўрланиш жараёнларининг ривожланиши кузатилганлигидан далолат беради. 1986-1990 йилларда суғориладиган майдонларнинг бироз шўрсизланиши кузатила бошлади, бу осон эрийдиган тузларнинг кириб келишидан кўра кўпроқ чиқиб кетиши билан изоҳланади. Коллектор-дренаж сувларининг катта ҳажмларига қарамай, улар халқ хўжалигида деярли фойдаланилмаган ва фақат чўл пастликларига ёки яқин атрофдаги кўлларга оқизилган. Масалан, ҚКРМЭ маълумотларига кўра, 1990 йилда суғориш учун фақат 15,75 млн. м^3 коллектор-зовур сувлари қайта фойдаланилган.

Маълумки, суғориладиган ҳудудда коллектор-зовур тармоғининг мавжудлиги ва ундан тўғри фойдаланиш суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш ҳамда уларни сув босиши ва ботқоқланишдан муҳофаза қилиш омилларидан бири ҳисобланади. 2004 йил 1 январдаги расмий маълумотларга кўра, республика ҳудудида 19865,8 км коллектор-дренаж тармоғи мавжуд бўлиб, шундан 3444,6 км магистраль ва хўжаликлараро коллекторлар, 16421,2 км эса ички хўжалик коллекторлари ҳисобланади. Магистраль ва хўжаликлараро коллекторлар Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги ташкил этилгунга қадар "Қорақалпоқсувхўжалик" ИБ балансида бўлган. Ҳозирда улар Қорақалпоғистон мелиорация экспедицияси балансида турибди. Коллектор-зовур тармоғининг солиштирма узунлиги сўнгги йилларда республика бўйича ўртача 39,72 пм/га ни, хўжалик ичидаги коллекторларники эса 32,34 пм/га ни ташкил этмоқда. Коллекторлардан тўғри фойдаланишга қаратилган ўз вақтида тозалаш уларнинг иш қобилиятини яхшилайди ва ер ости сувларининг олинишини мақбул даражагача камайтиришга ёрдам беради, шунингдек, қишлоқ хўжалиги экинларини етиштириш учун қулай шароит яратади. Йилнинг сувлилигига қараб, сўнгги ўн йилликда умумий сув олиш қиймати 2,17 дан 8,10 км^3 гача ўзгарган; суғориш сувларининг ўртача минерализацияси 1,01-1,26 г/л оралиғида ўзгариб турган; суғориш суви билан тузларнинг кириши 3,04-9,19 млн. тоннани ташкил этган. Коллектор-зовур сувлари оқими 0,59-2,8 км^3 оралиғида ўзгариб турган; коллектор-зовур сувларининг ўртача минерализацияси 3,05 дан 4,31 г/л гача ўзгариб турган;

коллектор-зовур сувлари билан тузларнинг олиб чиқилиши 2,47-9,76 млн. тоннани ташкил этган.

ХУЛОСА

Коллектор-зовур оқимининг ҳажми ва минераллашув даражаси йиллар давомида ўзгариб келган бўлиб, бу ўзгаришлар суғориладиган майдонлар миқдори, суғориш учун олинадиган сув ҳажми ва дренаж тармоқларининг ҳолати билан боғлиқ. 1968-1972 йилларда коллектор-зовур оқими энг паст даражада бўлиб, кейинги йилларда ҳажм ортиб борган. Бу, айниқса, 1986-1990 йилларда сезиларли даражада ошган. Суғориладиган майдонларда шўрланиш ва шўрсизланиш жараёнлари тузларнинг кириши ва чиқишига боғлиқ бўлган.

Коллектор-дренаж сувлари катта ҳажмда бўлишига қарамай, улардан халқ хўжалигида самарали фойдаланиш кам бўлган. 1990 йилда фақат 15,75 млн м³ сув қайта ишлатилган. Республика ҳудудида 19865,8 км узунликдаги коллектор-дренаж тармоғи мавжуд бўлиб, унинг тўғри эксплуатация қилиниши суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилашга хизмат қилади. Сўнгги йилларда республика бўйича коллектор-зовур тармоғининг солиштирма узунлиги 39,72 пм/га ни ташкил қилган. Коллекторларни ўз вақтида тозалаш ва тўғри фойдаланиш ер ости сувларини мақбул даражада ушлаб туришга ва қишлоқ хўжалиги учун қулай шароит яратишга ёрдам беради. Йилнинг сувлилигига қараб, сўнгги ўн йилликда умумий сув олиш 2,17-8,10 км³ оралиғида ўзгариб турган. Шу билан бирга, суғориш сувларининг минераллашуви 1,01-1,26 г/л, коллектор-зовур сувларининг эса 3,05-4,31 г/л даражасида бўлган. Коллектор-зовур сувлари билан олиб чиқилган тузлар миқдори йиллар давомида ўзгарган. Бу жараён ҳудуддаги шўрланишни камайтиришда муҳим роль ўйнаган. Шунингдек, келгусида сув ресурсларидан самарали фойдаланиш ва дренаж тармоқларини такомиллаштириш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Чембарисов Э. И. и др. Многолетние изменения качества речных вод Узбекистана //Природные ресурсы, среда и общество. – 2020. – №. 3 (7). – С. 55-58.
2. Чембарисов Э. И. и др. Загрязненность воды Амударьи по длине реки //Образование, наука и технологии: основные проблемы и направления развития: материалы Международной научно-практической конференции, Москва, ЦПНП. – 2022. – Т. 31. – С. 230-234.
3. Хожамуратова Р. Т., Жангабаев Д. М., Иманмурзаев А. К. МНОГОЛЕТНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ МИНЕРАЛИЗАЦИИ ГРУНТОВЫХ ВОД НА ОРОШАЕМОЙ ТЕРРИТОРИИ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН //Экономика и социум. – 2024. – №. 1 (116). – С. 1541-1550.
4. Хожамуратова Р. Т., Кутыбаева Д. К. АНАЛИЗ МНОГОЛЕТНИХ ИЗМЕНЕНИЙ ВОДНОГО РЕЖИМА РЕКИ АМУДАРЬИ ВО ВРЕМЕНИ //Экономика и социум. – 2024. – №. 6-1 (121). – С. 1424-1427.
5. Imanmurzaev A. Q. et al. TÓMENGI ÁMIWDÁRYA SUW OBYEKTLERINIŃ GIDROGRAFIYALIQ TÁRIYPI //Hamkor konferensiyalar. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 23-27.

6. Хожамуратова Р., Далжанов К. Методика комплексной оценки влияния мелиорации на гидроэкологическое состояние водных ресурсов Республики Каракалпакстан //Экономика и социум. – 2021. – №. 6-2 (85). – С. 486-488.

ЭКОЛОГИК ХАВФСИЗЛИК – ДАВР ТАЛАБИ

Утепова Г.,
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти доценти г.ф.н

Оразбаева С.,
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти стажёр ўқитувчиси

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15169220*

XX асрнинг 70-йилларидан бошлаб табиий географик фанларнинг ўрганиш предмети асосан экологик муаммоларнинг ечимини топишга йўналтирилди. XXI асрга келиб экологик муаммоларга янгича ёндашиш даврининг бошланиши, яъни табиатни муҳофаза қилиш босқичидан экологик хавфсизликни таъминлаш босқичига ўтилиши, экологик хавфсизлик муаммосининг географик, айниқса табиий географик жиҳатларини тадқиқ қилишни талаб этади. Экологик хавф табиий географик қонуниятларга боғлиқ равишда турли даражада намоён бўлади ва муайян ҳудудий бирликлар доирасидан чиқиб кетади.

Экологик хавфсизликнинг **ҳудудий жиҳатлари** табиий географик қонуниятлар асосида - зоналлик, азоналлик ва ҳудудий таксономик бирликлар доирасида қараб чиқилиши мақсадга мувофиқ. Бунга сабаб хавфли вазиятлар кўлами ва ҳолати ҳамда хавфсизликни таъминлаш масалаларининг зонал-азонал қонуниятлар, таксономик бирликлар доирасида турлича намоён бўлишидир. Аммо бу ҳудудий тафовутларни акс эттирувчи зоналлик, азоналлик ёки бошқа қонуниятлар борасида ягона қараш мавжуд эмас.

Экологик хавфсизликнинг ҳудудий жиҳатлари ландшафтлар доирасида ҳам қараб чиқилиши лозим. Чунки биринчидан, ландшафтлар зонал ёки азонал қонуниятларга ҳар доим ҳам мос келавермайди. Бу борада Ф.Н. Мильков, - “Агар ландшафтлар аниқ зонал ва азонал бўлганида эди, у ҳолда ландшафтларнинг таксономик бирликлари ҳақида гапириш шарт бўлмасди”[1],- дея таъкидлайди. Иккинчидан, ҳар хил ландшафтлар баъзан эса бир турдаги ландшафтлар ҳам (унинг географик жойлашиши, ривожланиш динамикаси, компонентларининг хусусиятлари ва ҳ.к.ларга боғлиқ равишда) инсон таъсирига турлича берилади.

Зонал қонуниятлар асосида иқлимий шароитларнинг ўзгариши ётади ва зоналлик иқлим минтақалари, тупроқ, ўсимлик ва ҳайвонот оламининг кенгликдаги ўзгаришида акс этади. Маълумки, иқлим минтақалари ва табиат зоналари экватордан ҳар иккала қутбга томон ўзгариб боради. Ҳар бир иқлим минтақасида ўзига хос табиий шароит шаклланганлиги сабабли хавфли

[1] Мильков Ф.Н. Основные проблемы физической географии.-М.: Высш.школа, 1987.

вазиятларнинг юзага келиши ҳам турличадир. Зонал қонуниятлар доирасида экологик хавфсизликни таъминлаш масалалари қуйидагича амалга оширилади:

√ ***Глобал даражада*** экологик хавфсизлик Ер юзасида экотизимлар барқарорлигини таъминлашга йўналтирилган жаҳон ҳамжамиятининг фаолияти бўлиб, бутун географик қобиқ ва унинг таркибий сфералари таҳлил қилинади. Хавфсизликни глобал миқёсда бошқаришнинг асл моҳияти – биосферадаги организмлар мувозанатини таъминловчи атроф табиий муҳитнинг қайта тикланиш табиий механизмини сақлаш ҳисобланади.

√ ***Регионал даражада*** экологик хавфсизлик муайян минтақаларда экотизимлар барқарорлигини таъминлашга йўналтирилган тадбирлар тизимини ўз ичига олиб, табиий географик район, провинция, округ, ўлка, табиат зоналари, иқлим минтақалари, қитъа ёки материклар доирасида кўриб чиқилади. Баъзан экологик хавфли вазият муайян табиий географик ўлкада, аммо бир қанча давлатлар ҳудудида юзага келади. Хавф манбаси бир давлат ҳудудида бўлиб, табиий географик қонуниятлар таъсирида иккинчи бир давлатда кучли даражада намоён бўлади. Шу сабабли регионал миқёсда экологик хафсизликни таъминлаш масалалари табиий географик қонуниятларни ҳисобга олган ҳолда, давлатлараро тадбирлар тизимини ишлаб чиқишни талаб қилади.

√ ***Маҳаллий даражада*** экологик хавфсизлик муайян давлатларда экотизимлар барқарорлигини таъминлашга асосланган бўлиб, кичик табиат комплекслари, табиий географик зоналар ва маъмурий бирликлар миқёсида амалга оширилади. Азонал қонуниятлар асосида шаклланган табиат комплекслари (ботқоқлар, тўқайлар) муайян бир мураккаб маҳаллий шароитда юзага келади. Бу ҳолатларда экологик хавфсизликни таъминлаш масалалари азонал табиат комплекслари доирасида амалга оширилади. Масалан, Қуйи Амударё ҳудуди чўл зонасида шаклланган бўлиб, Амударё фаолияти ва суғорма деҳқончилик таъсирида геологик шароити, ер юзасининг ҳолати, грунт сувларининг сатҳи, ўсимлик ва ҳайвонот оламининг нисбатан бойлиги билан атрофдаги чўллардан фарқ қилади. Бундай ҳолатларда экологик хавфсизлик масаласи асосан маҳаллий хусусиятларга эга бўлади. Маҳаллий даражада экологик хавфсизлик кичик табиий географик ўлкалар (воҳа, водий ва ҳ.к.), кичик табиат комплекслари (ўрмон, кўл ва ҳ.к.) миқёсида кўриб чиқилади. Экологик хавфсизликни таъминлаш ва экологик хавфли вазиятлар моҳиятини тўлиқ англаб етиш учун уларни маҳаллий доирадан бошлаб тадқиқ қилиш бирламчи аҳамият касб этади.

Маълумки, географик тадқиқотларнинг муҳим томонларидан бири муаммолар ечимини топишга **даврий жиҳатдан** ёндашиш ҳисобланади.

Экологик муаммолар ечимини топиш ва атроф табиий муҳитдаги жараёнларини тадқиқ қилишда вақтни, даврий ёндашувларни инкор қилиб бўлмайди. Агарда тадқиқотларда даврий ўзгаришлар ҳисобга олинмаса, у кейинчалик ўз аҳамиятини йўқотади. Бундан ташқари, муаммоларнинг даврийлигини тадқиқ қилиш орқали уларни башоратлаш мумкин бўлади. Шунинг учун ҳам экологик хавфсизликни таъминлашда унинг даврий хусусиятларини эътиборга олиш мақсадга мувофиқдир.

Шуларни эътиборга олган ҳолда ҳудудларнинг экологик хавфсизлик ҳолатини аниқлаш, баҳолаш ва уни таъминлаш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш ландшафтлар доирасида амалга оширилиши зарур. Бундай ҳолатда, экологик хавфсизлик ҳолати уни белгиловчи омиллар ва уларнинг асосий кўрсаткичлари бўйича аниқлангани мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мильков Ф.Н. Основные проблемы физической географии.-М.: Высш.школа, 1987.
2. Рафиков А.А. Геоэкологик муаммолар. Т., Ўқитувчи, 1997.
3. Шодиметов Ю. Ижтимоий экологияга кириш. Т., Ўқитувчи, 1994.
4. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.
5. Утепова Г. Б., Махсетбаев Н. Б. НАУЧНОЕ ОПИСАНИЕ ДЛЯ СТРАН С ДОЛГОЖИТЕЛЯМИ //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2025. – Т. 3. – №. 33. – С. 22-25.
6. Eshimbetov U. et al. Territorial composition of agriculture in the Aral Sea Region of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 510. – С. 01040.

EPOTOPONIMLAR VA ULARNING GEOGRAFIYASI HAQIDA

Xakimov K.M.
geografiya fanlari nomzodi, dotsent.
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Seitniyazov Q.M.
geografiya fanlari nomzodi, dotsent.
Nukus davlat pedagogika instituti

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15169242*

Annotatsiya: *Maqolada turdosh otlarga aylangan so‘zlarga asos bo‘lib xizmat qilgan geografik nomlar, ya’ni epotoponimlar aniq misollar yordamida tadqiq qilingan. Geografik nomning turdosh otga aylanish hodisasini geografik nomlarning «ikkinchi hayoti» ekanligi va ular, turdosh otga aylanib, ma’lum ma’noda o‘zining toponimik asosidan uzoqlashishi o‘rganilgan. Epotoponimlar barcha tillarda mavjudligi, shu jumladan o‘zbek tilida ham bu hodisa keng tarqalganligi va ko‘pincha ular bir tildan ikkinchi tilga ko‘chib, internatsionallashib ketganligi tahlil qilingan. Geografik nomlarning bir turdan ikkinchi turga o‘tishi toponimlarni universaligidan va bu hodisa xalqlarning yuksak ma’naviy boyligi ekanligi aniqlangan.*

Tayanch so‘zlar: *geografiya, geografik nom, hududiylik, toponim, epotoponim, turdosh ot, toponimik asos, internatsional so‘z.*

Аннотация*: В статье на конкретных примерах изучено эпотопонимы - географические названия, послужившие основой для образования нарицательных слов. Феномен превращения географического названия в имя нарицательное является «второй жизнью» географических названий, причем, становясь имя нарицательным, они в определенном смысле отдаляются от своей топонимической основы. Кроме того, установлено, что эпотопонимы существуют во многих языках, включая узбекский, они широко распространены, часто переходять из одного языка в другой и становятся интернациональными. Установлено, что переход географических названий из одного типа в другой представляет собой универсальность топонимов и что это явление представляет собой высокое духовное богатство народов.*

Ключевые слова: *география, географическое название, территориальность, топоним, этопоним, имя нарицательное, топонимическая основа, интернациональное слово.*

Abstract: *The article examines the geographical names that served as the basis for words that became homonyms, that is, epotoponyms, using specific examples. It is studied that the phenomenon of a geographical name becoming a homonym is the “second life” of geographical names and that, having become homonyms, they, in a certain sense, move away from their toponymic basis. It is analyzed that epotoponyms exist in all languages, including Uzbek, and that this phenomenon is widespread, and that they often migrate from one language to another and become internationalized. It is established that the transition of geographical names from one type to another is the universality of toponyms, and this phenomenon is a high spiritual wealth of peoples.*

Key words: *geography, geographical name, territoriality, toponym, etoponym, common noun, toponymic basis, international word.*

Ma’lumki, har qanday tilning so‘z zaxirasi bir qancha manbalar hisobiga boyib boradi. Ana shunday manbalar qatoriga geografik obyektlarning nomlarini ham kiritish mumkin. Professor H.Hasanov ta’biri bilan aytganda, agar, «ular bilan til, topib muomala qilinsa», qanchadan-qancha qadimiy so‘zlarni tiklash mumkin. Turdosh

otlarni geografik nomga aylanishi - toponimikaning umumiy qonuniyati sanaladi. Shu bilan birga ba’zan toponimlarini aksincha, turdosh otga aylanish hodisasi ham uchraydi. Taniqli rus toponimisti E.M.Murzaev bu jarayonni geografik nomlarning «ikkinchi hayoti» deb atagan. Shuni ham qayd qilish kerakki, toponimlar turdosh otga aylanib, ma’lum ma’noda o‘zining toponimik asosidan uzoqlashadi.

Toponimlar asosida yaralgan yangi so‘zlar E.M.Murzaev, H.Hasanov, S.Qoraev, T.Nafasov kabi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan qisman tadqiq qilingan. Turdosh otlarga aylangan so‘zlarga asos bo‘lib xizmat qilgan geografik nomlar epotoponimlar (yunoncha, έπώνυμος - «nom beruvchi») deb ataladi. Epotoponimlar barcha tillarda bor, shu jumladan o‘zbek tilida ham bu hodisa keng tarqalgan. Ko‘pincha ular bir tildan ikkinchi tilga ko‘chib, internatsionallashib ketgan. Masalan, professor H.Hasanovning yozishicha, “boloniya, jersi, boston, krepdeshin, paplindan tikilgan kiyimlarni kiygan kishi «geografiya»ni kiyganligini xayoliga ham keltirmaydi. Holbuki, Baloniya va Paplin - Italiyadagi shaharlar, Jersi - Frantsiya shimolidagi orol, Boston - AQSH dagi shahar, krepdeshin - «Xitoy matosi» (krep - «mato», shin - Chin, Xitoy) ni anglatadi”.

Toponimlardan nom olgan ichimlik, buyumlar, o‘simlik, hayvonlar, musiqa, raqs shu qadar ko‘pki, ba’zan hatto ularning etimologiyasi to‘g’risida o‘ylab ham o‘tirmaymiz. Qo‘qon arava, Chust pichog’i, Baxmal olmasi kabi so‘zlarda o‘sha joy nomlari esga keladi. Akademiya - (Afina yaqinidagi changalzor), vulkan - (Tirren dengizidagi Vulkano oroli nomidan), kofe - (Afrikadagi Kaffa o‘lkasi nomidan), olimpiada - (Gretsiyadagi eng baland Olimp tog‘i nomidan), roman - (Rim shahri nomidan), tamaki - (ruscha, tabak Kubadagi Tabaga vodiysi nomidan kelib chiqqan), panama - (bosh kiyim - Panama davlati nomidan), kabi so‘zlarning yaralishida ham aslida toponimlar asos bo‘lgan.

Toponimlarning geografik terminlarga o‘tishi. Geografik nomlarning xalq geografik terminlarga o‘tish jarayoni quyidagi holat bilan belgilanadi: ba’zi geografik obyektlar alohida ko‘zga tashlanadigan belgilarga ega bo‘lganligi bois, ularning atoqli otlari tipologik xususiyat kasb etadi va turdosh ot sifatida qo‘llaniladi. Bunday holatni quyidagi misollar yordamida izohlash maqsadga muvofiq.

Masalan, geografiyada delta - daryoning quyilish joyida suvda oqib kelgan jinslarning cho‘kib to‘planishidan hosil bo‘lgan tekislik. Deltada daryo suvi panjaga o‘xshab yo‘nalgan ko‘pdan-ko‘p tarmoqlarga bo‘linib oqadi. Qadimda Nil daryosi kelib quyiladigan joy ikki tarmoqqa (hozirda Dumyot va Rashid deb ataladi) bo‘linib, uning shakli yunon alfavitidagi delьta - Δ harfiga o‘xshash holatni kasb etganligi bois delьta deb nomlangan. Keyinchalik daryolarning shaklan o‘xshash quyilish joylariga nisbatan ham ushbu geografik termin qo‘llanilgan.

Geograflarga yaxshi ma’lum bo‘lgan karst hodisasi, ya’ni suvda yaxshi eriydigan tog’ jinslari (ohaktosh, bo‘r, dolomit, gips, tuzlar) ni yer osti suvlari eritib olib ketishi natijasida ro‘y beradigan jarayonning nomi, Bolqon yarim orolidagi asosan ohaktoshlardan iborat bo‘lgan Karst platosi nomi bilan bog’liq. Geyzer so‘zining (islandcha geyzir - otilmoq, yer osti bo‘shliq va yoriqlardan vaqt - vaqti bilan issiq suv va bug’ otilib turishi) geografik termin sifatida paydo bo‘lishida Islandiyadagi Geyzer deb ataluvchi issiq buloq nomi sabab bo‘lgan.

Bir-biridan uncha uzoq bo‘lmagan va odatda bir butun deb hisoblanadigan orollar to‘dasiga nisbatan umumgeografik termini bo‘lgan arxipelag (yunoncha, arxi - “dastlabki”, pelago - “ochiq dengiz”) so‘zi qo‘llaniladi. Mutaxassislarning yozishicha, ilk o‘rta asrlarda Egey dengizi Arxipelag deb nomlangan. Ma’lumki, bu dengiz orollar va orollar to‘dasining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Dastlab har qanday orollarga boy dengiz arxipelag deyilgan. Keyinchalik esa bu geografik termin orollar to‘dasiga nisbatan qo‘llanilgan. Bir arxipelagga kiradigan orollar paydo bo‘lishi, geologik tuzilishi, o‘simliklari, hayvonot dunyosi jihatidan o‘xshash bo‘ladi.

Odatda nishabligi kichik bo‘lgan tekisliklarda vujudga kelgan daryolarning egri-bugri, ilonizi shaklidagi o‘zaniga nisbatan meandr termini qo‘llaniladi. Meandr so‘zi - Kichik Osiyo yarim orolida ilonizi o‘zanli Menderes daryosi nomidan olingan. Joy nomlarining geografik terminlarga o‘tishi kam uchraydigan holat bo‘lsa ham ularni toponimikada muayyan o‘rni bor.

Toponimlarni boshqa turdosh otlarga aylanishi. Epotoponimlar - geografik terminlar hosil qilishidan tashqari boshqa funktsiyalarga ham ega. Ular madaniyat, sport, san’at, fan, o‘simlik, hayvonot va boshqa bir qator sohalarning til lug‘aviy boyliklarida ham uchraydi. Masalan, g‘arbiy Yevropadagi Alp tog‘lari nomidan alpinizm, alpinist, alp o‘tloqlari, alp burmalanishi, alpid kabi so‘zlar hosil bo‘lgan. Bir qator mamlakatlarning pul birligida ham epotoponimlarni uchratish mumkin. Chunonchi, Afg‘oniston pul birligi - afg‘oni (Afg‘oniston davlati nomidan), Tojikiston pul birligi - somoniy (Somoniylar davlati nomidan). Eng so‘ngi misol Yevropa Ittifoqi pul birligi - yevro. Xususan, sportda (futbol, xokkey, basketbol) ko‘pchilik jamoalar nomini toponimlar tashkil qiladi. Masalan, «Liverpul», «Milan», «Barselona», «Bavariya», «Andijon», «Nasaf», «Zarafshon», «Sug‘diyona» va boshqalar.

Mendeleev davriy sistemasidagi 20 ortiq kimyoviy elementlar joy nomlari bilan ataladi. Masalan, amertsiy, germaniy, kaliforniy, fransiy, skandiy, yevropiy, galliy (Frantsiya hududining antik nomi), lyutetsiy (Parijning qadimgi nomi) va boshqalar. Ayrim geologik davrlar, burmalanishlar, tabiiy hodisalar nomlari ham joy nomlaridan olingan.

Geologik davrlardan kembriy Angliyadagi Uels viloyatining qadimiy nomi, ordovik va silur Angliya janubida yashaydigan qabilalar nomi, devon Angliyadagi graflik, perm Uraldagi shahar nomi, gertsin Markaziy Yevropadagi tog‘lar nomi va hokazo. Gondvana Hindustondagi gond qabilasi va Vand rayoni nomidan olingan. Lavrosiyo Kanadadagi Lavrentiya va Osiyo nomlaridan kelib chiqqan. Hisor - tojik tilida qal’a, qo‘rg‘on ma’nosini anglatadi. Shundan Hisor shahri, Hisorak qishlog‘i, Hisor vodiysi, Hisor tog‘lari va hisori qo‘y iborasi hosil bo‘lgan.

Ko‘pchilik minerallar topilgan joyi nomi bilan ataladi: azorit, alebastr, amazonit, arogonit, birmit, gavanit, labradorit, tanzanit va boshqalar. Aniqlangan kichik sayyoralar - asteroidlar orasida Ulug‘bek, O‘zbekiston, Samarqand kabi nomlar ham uchraydi. Sharq allomalari o‘zlari tug‘ilgan yoki yashagan joylar nomini taxallus yoki nisba qilib olishgan: Muhammad al Xorazmiy, Ahmad al Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad Yassaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Hofiz Sheroziy, Kamol Xujandiy, Jaloliddin Rumiy, Mahmud Torobiy, Muhammad Narshaxiy va boshqalar.

Professor H.Hasanovning yozishicha, Sadriddin Ayniy Zarafshon vodiysidagi Ro‘dak qishlog‘i nomidan, mashhur shoir Abo‘abdullo Ro‘dakiyning vatanini aniqlagan ekan. Juda ko‘p kemalarga shahar, daryo va boshqa geografik obyektlar nomlari berilgan: “Volga”, “Vladivostok”, “Toshkent”, “Gruziya”, “Neva” va boshqalar. Avtomobillar, muzlatgichlar, kir yuvish mashinalari, radiopriyomnik va boshqalarga ham joy nomlari qo‘yilgan.

O‘zbek tilida joy nomlariga bog‘liq ravishda vujudga kelgan so‘zlar juda ko‘p. Chunonchi, makkajo‘xori, qo‘qon jo‘xori, hisori qo‘y, angori echki, qorako‘l qo‘y, shibirg‘ oni uzumi (Afg‘onistondagi Shibirg‘on viloyati), qurama guruchi, shotut (shom tuti, Suriyaning qadimgi nomi Shom), balx tuti (Afg‘onistondagi Balx shahri nomidan), jilon jiyda (Erondagi G‘ilon viloyati), kishmish (Eronga qarashli Keshm oroli nomidan), chust do‘ppi, banoras to‘ni, doka (Dakka shahri nomidan), tivit, (Tibet so‘zidan), iroqi do‘ppi, iroqi sovun (Iroq nomidan) va hokazo.

Turli guruhlarga mansub nomlarning bir-biriga o‘tishi, ko‘pincha yondosh obyektlarda ro‘y beradi. Yangi geografik obyekt uchun nom uzoqdan qidirilmaydi, yonidagi obyekt nomi nomlanayotgan geografik obyektga nom qilib tanlanadi. Geografik nomlarning bir turdan ikkinchi turga o‘tishi toponimlarni universaligini belgisi hisoblanadi va bu hodisani xalqning yuksak ma’naviy boyligini yaqqol ifodasi deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, epotoponimlar va ular asosida paydo bo‘lgan so‘zlar tilning lug‘aviy boyligiga aylanib, yangicha ko‘rinishda jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmoqda. Shuning uchun, xalqimizning

mahalliy shevalarida joy nomlaridan hosil bo‘lgan juda ko‘p so‘zlar bor, ularni aniqlash, izohlash, ilmiy adabiyotlarga kiritish muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики.-Москва, 1979.
2. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т.; 1988. -б.181
3. Суперанская А.В. Что такое топонимика. -Москва, 1985.
4. Ҳакимов Қ.М. Жиззах вилояти топонимлари. -Жиззах.; 2014. -204 -б.
6. Ҳасанов Ҳ. Танланган асарлар. -Т.; 2019. -335 -б.
7. Hakimov Q.M. Mirakmalov M.T.; Toponimika. -T.; “Tafakkur avlodi”, 2020.-368 -b.
8. Qoraev S. Toponimika. -Тошкент. 2006.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПО МОНИТОРИНГУ ЗАСУХИ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ

Султашова О.Г.,
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

Далжанов К.О.,
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

Бердимуратова А.,
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

Атажанов А.,
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15169251*

Наши исследование посвящается к одним метеорологическим опасным явлениям засухой. Нам известно, что наиболее распространёнными определениями являются: **метеорологическая, гидрологическая и почвенная засуха.**

При дефиците осадков и повышенных температурах воздуха в вегетационный период отмечается метеорологическая засуха, по соотношению испарения или испаряемости и дефициту влажности почвы выделяется почвенная засуха, по уменьшению стока в реках – гидрологическая [4].

Из толкового словаря гидрометеорологических процессов - атмосферная или метеорологическая засуха – длительный и значительный недостаток осадков по сравнению с нормой при повышенных температурах воздуха весной или летом, то есть состояние атмосферы, характеризующееся недостаточным выпадением осадков, высокой температурой и пониженной влажностью, и, как следствие, *почвенная и гидрологическая засухи* [1].

Частота и интенсивность экстремальных погодных явлений в будущем, вероятно, изменится. Как ожидается, с повышением глобальной средней температуры возрастает количество тёплых дней и волн, а также снизится число морозных дней и сократится период холодов. Климатические модели также согласованно по- казывают, что экстремальные погодные явления во многих регионах станут более частыми и опасность засух в континентальных районах в течение летнего периода времени возрастет [2]. Согласно проведенным в стране исследованиям, в последнее десятилетие наблюдается увеличение периодичности засухи в стране, засуха становится более частой в летний и осенний сезоны, особенно в низовьях реки Амударьи и в окрестностях бывшего Аральского моря. К примеру, в 80-х и 90-х годах прошлого столетия засуха наблюдалась в среднем два раза в десять лет. За период 2000-2012 гг.

экстремальная метеорологическая засуха была зафиксирована 4 раза – в 2000, 2001, 2008 и 2011 годах. По данным регионального обзора Всемирного Банка, убытки, вызванные сельскохозяйственной засухой 2000-2001гг. в Узбекистане составили 130 млн. долларов США. По другим источникам, величина ущерба оценивается в размере 38-40 млн. USD. Значительные потери отмечались в животноводческом секторе.

Для условий Республики Узбекистан опасным явлением в теплый период года принято считать температуру воздуха, превышающую 40°С без указания длительности периода.

Температура, равная и выше 35°С, наблюдается в основном с конца мая по октябрь, хотя в отдельные годы, тем более на юге, жара начинается уже в апреле, а иногда даже в марте. Пик числа жарких дней приходится в среднем на июль, хотя в отдельные годы наблюдается и в августе. Сведения о количестве дней с тем- пературой выше 40°С за многолетний период и за 2010 и 2020 год приводятся в табл.1.

Число дней (*N*) с температурой выше 40°С

Республика, вилоят	Станция	Максимальное		$N_{среднее}$	*N* в 2010 г.
		N_{max}	Год		
Республика Каракалпакстан	Чимбай	13	2010	4,9	11
	Нукус	14	2020	7,3	11
	Жаслык	17	2020	5,1	17
	Каракалпакия	13	2010	4,6	8
	Тахиаташ	11	2010	4,8	11
	Муйнак	13	2015	3,9	13

Практически по всей территории Каракалпакстана в 2010-2020 году 17 число дней с температурой 40°С и более отмечалось выше нормы. Систематические наблюдения за характеристиками и различными параметрами климатической системы служат информационной основой для оценки уязвимости, воздействия и разработки мер предотвращения, смягчения и адаптации к рискам засухи и т.д [3].

В Каракалпакстане климатический мониторинг осуществляет Каракалпакгидромет, который имеет сеть метеорологических, гидрологических, агрометеорологических наблюдений, а также наблюдений за состоянием и качеством атмосферного воздуха, поверхностных вод и почвы. Приоритетными направлениями деятельности Каракалпакгидромета в рамках климатического обслуживания являются следующие:

• сбор данных, характеризующих климатическую систему, управление этими данными, мониторинг и оценка изменения климата;

• совершенствование способов предоставления информации и повышение качества климатического обслуживания;

• оценка уязвимости окружающей среды к климатическим изменениям, и разработка различных социально-экономических программ в контексте мер адаптации к изменению климата;

• оценка изменения климата на долгосрочную перспективу в условиях увеличения антропогенных нагрузок.

Агрометеорологические наблюдения проводятся 1 раз в 2 дня по следующим параметрам:

• температура и влажность почвы на сельскохозяйственных полях на глубине кущения и в пахотном слое;

• состояние почвы и снежного покрова в зимний период: глубина промерзания и оттаивания;

• наблюдения за фазами развития сельскохозяйственных культур;

• оценка элементов продуктивности и структура урожая сельхоз культур;

• обследование зимующих сельскохозяйственных культур;

• наблюдения за повреждением посевов, не благоприятными метеорологическими явлениями, сельскохозяйственными вредителями и болезнями;

• наблюдения за проведением полевых работ;

• общая и количественная оценка состояния сельскохозяйственных культур.

По данным Каракалпакгидромета на территориях Каракалпакстана очень сильная засуха происходит каждые 10 лет, дефицит осадков свыше 20% наблюдается каждые пять лет. На многих низменных территориях метеорологическая засуха практически постоянна.

Анализ данных мониторинга атмосферной засухи за период 1961-2020 гг.по 3 метеорологическим станциям, расположенным в различных районах страны, показал, что наибольшее число дней с атмосферной засухой по Каракалпакстану наблюдается в Муйнакской (м/ст. Муйнак – 65 дней), Нукусской (м/ст. Нукус – 56 дней), Тахтакупырской (м/ст. Тахтакупыр – 55 дней) а также наблюдается большое количество дней в году с температурой воздуха выше 40°С.

Литература

1. Абдуллаев А.К., Султашова О.Г. Тепловой режим и многолетние значения температуры почвы на различных глубинах по территории Узбекистана. –Ташкент, НИГМИ, 2008. –164 с.

2. Смирнова Е.Н., Чанышева С.Г. Опасные метеорологические явления в Узбекистане. Ташкент, 2007. -158 с.
3. Толковый словарь по сельскохозяйственной метеорологии. –Санкт-Петербург: Гидрометеоиздат, 2002. –471 с.
4. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на гидрометеорологические процессы, агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. -Ташкент:Ворис нашриёт, 2007.

NAMANGAN SHAHAR ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISHI VA UNI KAMAYTIRISH CHORALARI

E.A.Soliyev,
Namangan davlat universiteti Geografiya kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi
Elektron manzil: elmurodsoliev74@mail.ru

B.B.Mirabdullayev,
Namangan davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktaranti
Elektron manzil: b.mirabdullayev.007@gmail.com

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15169258*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Namangan shahri atmosfera havosi tarkibi o‘zgarishi va uning oqibatlari, kimyoviy “chiqindilar” va aerazollar miqdori ortishi bilan bog‘liq vaziyatlar tahlili o‘rganilgan. Shahar havosini muhofaza qilish va ifloslanish darajasini kamaytirish bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar berilgan.*

Tayanch so‘zlar. *“Effektiv ifloslanish”, aerozollar, PM-2,5, chang, uglerod oksidi, yashil maydonlar.*

Bilamizki, havoning ifloslanishi insonlarda turli kasalliklarni, jumladan, nafas yo‘llari inifeksiyalari, yurak-qon tomir kasalliklari va o‘pka saratonini keltirib chiqarishi va xatto o‘limga ham olib kelishi mumkin. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda havoning ifloslanishidan yuzga keladigan yillik o‘lim darajasi har 100 ming aholi soniga nisbatan 81,1 nafarni tashkil etadi. Solishtiradigan bo‘lsak, ushbu ko‘rsatkich Ruminyada 58,3, Bolgariyada esa 61,8 kishini tashkil qiladi[1].


Respublikamizda aholisi soni jihatdan poytaxtimizdan keyingi o‘rinni egallovchi Namangan shahrining atmosfera havosini doimiy nazorat qilish va kerakli choralarni ko‘rish har doim dolzarb.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida respublika bo‘ylab atmosferaga chiqarilayotgan chiqindilar miqdorini tahlil qilganimizda, eng yuqori qiymatlar Toshkent, Qashqadaryo va Farg‘ona viloyatlarida kuzatildi. Farg‘ona vodiysi viloyatlarning bu boradagi miqdorlari biz o‘rganayotgan davrda (2012-2021) quyidagicha holatni tashkil etgan:

1-grafik

2012 va 2021-yillarda Farg‘ona vodiysi viloyatlaridagi sanoatdan atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori

ming tonna




1-grafik. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/ecology-2

Ya’ni vodiyda 2012-yilda eng ko‘p miqdorda ifloslovchilar chiqargan viloyat Farg‘ona va mos ravishda Andijon hamda Namangan viloyatlarida bo‘lgan bo‘lsa, 10 yil o‘tib 2021-yilda Namangan viloyatida holat anchagina ko‘tarilib 24 ming tonnani tashkil etgan. Farg‘ona va Andijon viloyatlarida esa aksincha kamayish kuzatilgan[2].


Namangan viloyat Gidrometeorologiya markazining Namangan shahar atmosfera havosini kuzatuvchi hamda ifloslanishini aniqlash uchun tashkil etilgan 3 ta post, nazorat punkti ma’lumotlaridan foydalanib, Namangan shahar atmosfera havosi tarkibidagi asosiy ifloslovchi moddalar o‘rganildi. Ushbu nazorat punktlarida asosan chang zarrachalari, oltingugurt dioksidi, karbonat angdrid, azot dioksidi kabi moddalarning miqdori aniqlab boriladi. Mazkur nazorat punktlaridagi yuqorida aytilgan moddalarning 2012-2021-yillardagi ma’lumotlari o‘rganilganda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi.

chang va oltingugurt **karbonat angidrid**



1-rasm. *Namangan shahrida atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdorining ortib borishi*

Diagramma ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, chang zarrachalari, oltingugurt dioksidi, azot dioksidi va karbonat angidrid miqdori mos ravishda 2012-yildan 2021-yilga qadar ortib borgan.



Tugaydigan tabiiy resurslar: tiklanmaydigan va tiklanadigan guruhchalarga boiinadi. Tiklanmaydigan tabiiy resurslarga, qazilma boyliklarining barcha turlari kiradi. Tiklanadiganlariga tuproq, o‘simlik, hayvonot dunyosi hamda dengiz ostidan olinadigan ayrim tuzlar kiritilishi mumkin. Demak, tugaydigan tabiiy resurslar juda tejamkorona foydalanishni taqozo etadi.

Tugamaydigan tabiiy resurslarga: koinot va iqlimning foydali elemetlari, ya’ni quyosh energiyasi dengiz suvlarining qalqishidan hosil boiadigan toiqin energiyasi, yer osti va shamol energiyalari, atmosfera havosi va yog‘inlar, suv

resurslari kiradi. Biroq, bu resurslar miqdor jihatdan ko‘p boigani bilan ularning sifatini o‘zgarishi (ifloslanishi) yerdagi hayot rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Umuman, ishlab chiqarish kuchlarniing rivojlanishi tabiiy resurslardan foydalanish koiamining ortishiga olib keladi. Tabiatda har bir boylik turi inson uchun juda qadrli boiishi bilan birga o‘z qiymatiga ham ega.

Xo‘sh, resurslarni qanday baholash kerak yoki go‘zal tabiat manzaralarini-chi? Beqiyos boylik-zilol suv qanday qiymatga ega? U inson tomonidan ifloslantirilgan va deyarli yaroqsiz holga keltirilgan bo‘lsa-chi? Bunday vaziyatda u qanday baholanadi?

Orol dengizi sathining tushib ketishi natijasida vujudga kelgan ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarning bir illik zarari qancha? Tabiiy muhitni baholashning bu kabi iqtisodiy mezonlarini bilish lozim. Tabiiy resurslarning haqiqiy qiymatini bilish ularningisrof boiishi, sifatining buzilishi, yo‘qolishi kabi nomaqlub hodisalarning oldini olishda o‘ta zarur.

Tabiiy muhitni muhofaza qilish va qulay ekologik vaziyatlarni barqarorlashtirish, resurslaridan oqilona foydalanish tamoyiliga amal qilishda boyliklarni iqtisodiy baholash va tabiat xizmatlarining aniq qiymatga ega boiishi beqiyos darajada katta ahamiyatga ega. Tabiiy muhit jamiyat uchun bir necha vazifalarni ham bajaradi: a) tabiiy resurslar bilan ta’minlash; b) o‘z-o‘zini tozalash va qayta tiklash; d) inson uchun qulay tabiiy xizmatlarni bajarish, chunonchi, rekreatsiya (dam olish, sog‘liqni tiklash va b.), estetik zavq olish, tabiatdan muruwat va saxiylikni o‘rganish va b. Bularning barchasini birgina bosh vazifa, ya’ni insonga hayot bagishlash, deb ta’riflash mumkin.

Afsuski, sotsializm davrida tabiiy boyliklarning haqiqiy bahosi aniqlanmadi. To‘g‘ri, bu borada ma’lum tadqiqot ishlari bajarildi (Mints, 1972). Lekin ular mantiqiy poyoniga yetkazilmaganligi tufayli resurslarni haqiqiy baholash masalasi yechilmay qolaverdi. Bu muammo xorijiy mamlakatlarda ham toliq hal qilinmagan. Sotsializm davrida resurslar haqiqiy baholanmaganligi sababali ulardan foyda-lanishda isrofgarchilikka va sifatining buzilishiga yo‘l qo‘yildi, qashshoqlanish jarayoni rivojlandi. Natijada atrof-muhitning ifloslanishi, resurslar haqiqiy bahosining tushib ketishi, iqtisodiy samaradorlikning nihoyatda pasayib borish jarayonlari kuchayadi.

Tabiiy boyliklarning narxini bilish, awalo loyihalarning muqobil variantlarini tanlash, iqtisodiy samaradorlikka erishish, tabiat muhofazasiga keng yo‘l ochish, aholining ekologik jihatdan yashash sharoitlarini yaxshilash uchun katta imkoniyatlar ochadi. Baholash asosida kapital qurilishlarning variantlariga ta’sir etish mumkin.

Tabiiy resurslar mamlakatning milliy boyligi hisoblanadi. Lekin buning uchun ular to iiq baholangan, ya’ni qiymatga ega boiishi kerak. O’zbekistonda faqat

mineral xomashyo boyliklari hisob-kitob qilingan bo’lib, ularning iqtisodiy salohiyati 3,3 trln AQSH dollaridan ortiqroq baholanmoqda. Shundan 1 trln. AQSH dollari neft va tabiiy gaz zaxiralariga to‘g‘ri keladi.

Holbuki, tabiiy boyliklarni baholash-mamlaktning milliy boyliklarini sarhisob qilish bo’lib, uning tabiiy salohiyatini aks ettiradi. Bu salohiyat ijtimoiy ishlab chiqarish boyliklari bilan birgalikda mamlakatda kelajakda rivojlanish istiqbollarini aniqlab beradi. Lekin tabiiy boyliklarning tarmoqlar bo‘yicha imkoniyatlari qotib qolgan bahoga ega boimay, doimo o'zgarib turadi. Gap shundaki, masalan, geologlar ko'pincha tez-tez yangi mineral xomashyo konlarini topib turadilar va ularning zaxiralarini oldingi xomashyoga qo‘shib boradilar, binobarin, u yoki bu mineral xomashyo zaxirasi doimo ortib borish yo‘na!ishida boiadi. Yoki boshqa tabiiy boyliklar (yaylov, o‘rmon va b.) antropogen degradatsiya natijasida miqdor va sifat jihatidan o‘zgarib boradi, bunday vaziyatda tegishli o‘zgartirishlar kiritishga to‘g‘ri keladi.

Kishilik jamiyati rivoj topgan sari uning tabiatga ta’sir kuchi va ko‘lami orta borishi muqarrar. Ammo, ana shu ta’sirda tabiat sig‘imiga mos me’yor bo‘lishi, tabiatni o‘zini-o‘zi tiklash va tozalash qobilyatidan ustun bolmasligi lozim.

Biroq yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishi, takomillashuvi va keng quloch yoyishi (ov-dehqonchilik madaniyati-sanoat inqilobi) azaldan tabiiy omillar ta’siriga moslashgan Yer sayyorasi ekotizimlari (tabiati)ga o‘ta qudratli va xilma-xil ta’sirlarni sinashiga asos bo’ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhit holati va tabiiy resurslardan oydalanish to’g’risida Milliy ma’ruza. –T.: Chinor ENK, 2002, 2006, 2008, 2012.
2. O‘zbekiston ekologik harakati dasturi. –T., 2009.
3. Xodjimatov A.N., Alimqulov N.R., Xolmurodov Sh.A., Djurayev M.E. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» - 2020.
4. Раджапов М.Я., Ешпанова Г., Матмуратов Е.Р. Локальные геоэкологические проблемы и их последствия. – Международный научно-практический журнал «Экономика и социум». 03(118) 2024.
5. Eshimbetov U. et al. Territorial composition of agriculture in the Aral Sea Region of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 510. – С. 01040.
6. Ешимбетов У., Наурузбаева Г., Дальжанов К. Методические вопросы анализа и прогнозирования индустриального развития региона с учетом рационального использования минеральных ресурсов //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 532-540.
7. Ешимбетов У. Х. Формирование точек производственного роста на базе минерально-сырьевых ресурсов как совершенствование территориальной организации промышленности региона (на примере Республики Каракалпакстан) //Экономика и предпринимательство. – 2017. – №. 11. – С. 232-237.
8. Раджапов М. Я., Умаров Е. К., Искендеров А. Б. Қорақалпоғистон ҳудудининг географик ўрганилиш тарихи //Ўзбекистон география жамияти ахбороти. – Т. 22. – С. 74-76.

9. Radjapov M. et al. Qoraqalpogiston hududining tabiati va tabiiy boyliklarining geografik organilish tarixi //in Library. – 2021. – Т. 21. – №. 4. – С. 56-57.
10. Искендеров А. Б., Абдираманов Б. С. У. ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИДАГИ ТАБИИЙ ГАЗ КОНЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 335-339.
11. Вахобов Х. В. Вахобов Улугбек Хурбоевич, Искендеров Алишер Базарбаевич. Типизация горнодобывающих и горно-перерабатывающих сооружений по степени их влияния на окружающую среду //Табиий географиянинг регионал муаммолари Илмий конференция материалари тўплами. – 2002. – С. 103-105.
12. Умаров, Е. К., Искендеров, А. Б., Раджапов, М. Я., & Айтуганова, А. К. Қорақалпоғистон Республикаси халқ хўжалигини ҳудудий такомиллаштириш муаммолари. *Ўзбекистон География жамияти ахбороти*, *22*, 57-59.

ҚАРАҚАЛПАҚСТАНДАҒЫ ТӘБИЙИЙ РЕКРЕАЦИЯЛЫҚ ТУРИЗМ ЗОНАЛАРЫ
(ҚАРАҚАЛПАҚСТАН КӨЛЛЕРИ МЫСАЛЫНДА)

Отенов Нариман Турдымуратович
Әжинияз атындағы НМПИ Нөкис қаласы

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15169424*

Рекреация ресурслары — бул инсанның руўхый ҳәм физикалық күшлерин, оның мийнет искерлигин қайта тиклеў ҳәм раўажландырыўға үлес қосатуғын тәбийий-техникалық, тәбийий, социал-экономикалық комплекслер ҳәм олардың элементлери топламы. Дем-алыў мүтәжликлери ҳәм техникалық-экономикалық мүмкиншиликлердиң заманагөй ҳәм перспективалы дүзилиси менен олар туўрыдан-туўры ҳәм тиккелей болмаған тутыныў ҳәм курорт ҳәм саяхатшылық хызметлерин көрсетиў ушын қолланылады [1]. Рекреацион ресурслар – бул дем алыў, туризм ҳәм емлениў ушын пайдаланыў мүмкин болған тәбийий ҳәм антропоген объектлер болып есапланады.

Қарақалпақстан Республикасында бир қанша тәбийий рекреацион зоналар бар болып, олардың ең тийкарғылары аймағымыздағы тәбийий көллер мысалындағы туризм объектлерин көрип өтемиз.

Еллиқала районында Ақшакөл рекреациялық орны ҳәзирги ўақытта туристлердиң ең көп баратуғын жери болып саналады. Ақшакөл көли Қарақалпақстанның ең қызықлы ҳәм сырлы объекти болып, оның не ушын Ақшакөл деп аталыўы себебин Шыңғысхан ҳаққындағы аңызға байланыстырады. Шыңғысханның дәўиринде оның әскерлери көп алтын-ғәзийнелерди қолға киргизеди, бирақ олар усыншама көп байлықларды өзлери менен бирге алып кете алмайды, соның ушын қолындағы ғәзийнени усы көлге ығызып батырып жиберген. Соның ушын халық бул көлди ақшалы көл деп атап кеткен дейди. Бул көл бойында ҳәзирги ўақытта «Бостан туризм» комплекси ислеп турыпты. Комплекс жазғы саяхатшылық мәўсими ушын арналған болып, саяхатшылар ушын барлық шараятлар жаратылған. Қарақалпақтың қара үйлери бой тиклеп турыпты.

Усындай көллердиң орнына барып дем-алатуғын жерлер ҳәзир Қарақалпақстанда санаўлы болып қалған. Себеби суўсызлық себебинен көплеген көллер қурып қалмақта.

Және усындай көллердиң бири Тахтакөпир районындағы Қаратерең көли. Қаратерең көли балық аўлаў ҳәм шарўашылық ушын қолайлы, соның менен бирге, дем алыў ушын пайызлы орынлардың бири болып табылады. Қаратерең

– ени 5-6 км, узынлығы 26 км ге шекем созылған көл. Бөршитаўдың төбесинен қарағанда түби қап-қара, терең болып көрингени ушын «Қаратерең» деп аталып кеткен. 2018-жылдан баслап көл бойында қараүйлер тигилип, жергиликли халық ҳәм туристлердиң дем алыўы ушын қолайлы шараятлар жаратылмақта. 2024-жыл 17-октябрьде Қаратерең бойында бойында жаңадан қурылған, ҳеш жерде уқсасы жоқ миллий колориттеги «Қаратерең» этно-туристлик комплекси иске түсти [2].

Мойнақ районында жайласқан Судочье көллери системасы майданы – 333 км² (2006 жыл мағлыўматы бойынша), теңиз қәддинен 53 м бәлентликте жайласқан. Көл бойында бир ўақытлары рус казаклары жасаған Үрге балықшылық посёлкасы болған. Посёлкада балық комбинаты ислеп турған. Жергиликли халық көлди суўы душшы деп айтқанлықтан, буны руслар Судочье деп атап, соннан Судочье көли аталып кеткен. Бул посёлка Қарақалпақстандағы руслардың ең биринши қоныс басқан орны болып есапланады. 1960 жыллары усы қоныс орнында 6000 ға шамалас адам жасаған. Арал теңизиниң қайтыўы менен, көлдиң де суўы кемейип адамлар бул жерлерди таслап көшип кете баслаған. Бул жердиң ең соңғы турғыны 1971 жылы бул жерлерди тәрк еткен. Ҳәзирги ўақытта бул Үрге посёлкасы туристлик зонаға айландырылған. Туристлер ушын еки Қара үй тигилген. Туристлер көбинесе бул жерде суўда жасаўшы қуслардың миграциясы ўақтында келип көриўге қызығады. Бул жерде Өзбекистан Республикасының Қызыл китабына кирген 40 түрдеги қуслардың 30 түри, Тәбиятты қорғаў Халықаралық шөлкеминиң «Жоқ болып кетиў қәўипи астындағы түрлериниң Қызыл дизими»не киритилген 24 түрдеги қуслардың 18 түри жасайды. 2023 жылы Судочье көли халықаралық әҳмийетке ийе болған Рамсар суў-батпақ жерлер дизимине киритилди. Усындай туристлик әҳмийетке ийе жерге келип кетиў, жоллардың насазлығы себепли қыйыншылық туўдырмақта.

Буған және Сарықамыс көлинде мысал етип көрсетсек болады.

Сарықамыс көли Туран ойпатында, Сарықамыс ойпатының орайлық бөлегинде, Қарақум шөлиниң арқасында жайласқан. Көлдиң арқа тәрепиндеги ең терең жерлери (1 000 километр квадрат) Қарақалпақстанда, орайлық ҳәм қубла тәрепи (3 000 километ квадрат) – Туркменистанда жайласқан. 1963 жылы Әмиўдәрьяның бурынғы саласы бойынша коллектор-дренаж суўларының Сарықамыс ойпатлағына ағызылыўы нәтийжесинде пайда болған көл. Көлдиң узындығы 100–120 км, ени 30–40 км, көл қубладан арқа-шығысқа қарай созылған, орташа тереңлиги 8,2 м тең. Көлде балықтың 17 түри аўланады. Сарықамыс көлинде ақ аққуўлар, қызыл және буйра бирқазанлар, үйрек ҳәм ғазлар уя қурып жасайды. Кейинги ўақытлары фламинго қуслары да мәкән

басқан. Бул жерде экологиялық туризмди раўажландырыў ҳаққында көплеген пикирлер айтылған ҳәм де ара-арасында шет еллик туристлерде келип кетпекте. Бирақ бул көл Нөкистен ең узақ аралықта жайласқанлығы ҳәм де оған апаратуғын жоллардың насазлығы себепли туризмди раўажландырыўдағы тийкарғы машқалалардың бирине айланған.

Бозатаў районы аймағында жайласқан Даўыткөл көли тийкарғы рекреациялық зоналардың бири болып, бул жерде фламинго, ақ қуў, үйрек ҳәм ғазлар көп ушырасады. Бирақ кейинги ўақытта көлге суўдың кем түсиўи нәтийжесинде суўсызлық машқаласы келип шықпақта.

Жуўмақлап айтқанда рекреациялық ресурслар, ҳәр қандай басқа түрдеги ресурслар сыяқлы, ақылға сай пайдаланыўды талап етеди. Туризмниң тәбийий орталыққа тәсири улыўма унамлы, себеби ол қымбатлы тәбийий ландшафтларды, тарийхый ҳәм архитектуралық естеликлерди сақлап қалыўға мүмкиншилик береди.

Туризмди раўажландырыў нәтийжесинде алынған қәрежетлер көллерди сақлап қалыўға жумсалып, оларды сақлап қалыўға жәрдем береди.

Пайдаланылған дереклер

1. Туристский терминологический словарь: Справочно-методическое пособие / Авт.-сост. И.В. Зорин, В.А. Квартальнов. М.: Советский спорт, 1999.
2. Eshimbetov U. et al. Territorial composition of agriculture in the Aral Sea Region of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 510. – С. 01040.
3. Раджапов М. Я., Умаров Е. К., Искендеров А. Б. Қорақалпоғистон ҳудудининг географик ўрганилиш тарихи //Ўзбекистон география жамияти ахбороти. – Т. 22. – С. 74-76.
4. Radjapov M. et al. Qoraqalpogiston hududining tabiati va tabiiy boyliklarining geografik organilish tarixi //in Library. – 2021. – Т. 21. – №. 4. – С. 56-57.
5. Умаров, Е. К., Искендеров, А. Б., Раджапов, М. Я., & Айтуганова, А. К. Қорақалпоғистон Республикаси халқ хўжалигини ҳудудий такомиллаштириш муаммолари. *Ўзбекистон География жамияти ахбороти*, *22*, 57-59.
6. Қарақалпақстан хабар агентлиги.
7. Интернет материаллары.

ATMOSFERANI MUHOFAZA QILISH MASALALARI

Nurlanov.A S.,
NDPI Geografiya o’qitish metodikasi kaferdrasi

Seydullaev A.M.
NDPI Geografiya o’qitish metodikasi kaferdrasi

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15169438*

Atmosfera Yer yuzasining himoya qatlami hisoblanib, u barcha tirik organizmlarni zararli kosmik nurlardan, samodan tushadigan meteoridlarning zarrachalaridan himoya qilib turadi. Sayyoramizdagi issiqlikni saqlaydi.Agar havo qobig’i bo’lmaganida, yer yuzasida kunduzi harorat +120 va kechasi esa -180`C harorat kuzatilgan bo’lar edi..Atmosfera gaz tarkibi deyarli doimiy bo’ladi: asosan azot-78,09%, kislorod-20,95%, argon-0,93%, karbonad angidrid-0,03% mavjud.

Atmosferada sodir bo’ladigan fizik, kimyoviy va biologik o’zgarishlar tirik organizmlarga ta’sir ko’rsatadi. So’nggi yillarda inson ta’sirining kuchayishi natijasida gazlar muvozanatining o’zgarishi kuzatilmoqda. Atmosferadagi gazlar doimiy miqdorining o’zgarishi sayyoramiz uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi aniqlangan.

Atmosferaning ifloslanishi deganda havoga zaharli birikmalarning qo’shilishi natijasida uning fizik va kimyoviy xususiyatlarining o’zgarishi tushuniladi. Insoniyatga qolaversa, barcha jonivorlarga hayot baxsh etadigan atmosfera havosini hozir ikki manba: tabiiy omillar va inson faoliyatining mahsuli- antropogen (sun’iy) manba ifloslantiradi.

Atmosferaning sun’iy ifloslanishiga: avtomobil transporti birinchi o’rinni (40%), energetika sanoati ikkinchi o’rinni (20%), korxona va tashkilot ishlab chiqarishi uchinchi o’rinni (14%), qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishi, maishiy kommunal xo’jaligi va boshqalar zimmasiga ifloslanishning (26%) to’g’ri keladi.

Atmosfera havosini asosan, ifloslantiruvchi manbalar bugungi kunda tobora rivojlanib borayotgan insonning sanoat ishlab chiqarishidagi va avtotransportlarning rivojlanishidir. Havoga ko’p miqdorda karbon kislota, uglevodorodlarning oksidlari, sulfid angidrid va boshqa moddalar chiqarilib, ular tabiiy muhitga va odamlarga juda kata zarar yetkazmoqda. Bu holat ayniqsa, yirik shaharlarda ko’zga tashlanadi.

Atmosfera havosini ifloslanishi muammosi barcha insoniyatni tashvishlantirmoqda. Avtotransport havoni ifloslanishida birinchi o’rinni egallaydi. AQSHning atmosfera havosi 60% avtomobillardan chiqadigan gazlar bilan ifloslanadi. Nyu-York, Los-Anjeles, Tokio, Toshkent, Samarqand kabi yirik shaharlarda havoning ifloslanishi darajasi 80-90% ni tashkil etadi. Avtomobildan

chiqadigan gazlar tarkibida zararli moddalar mavjud. Atrof muhitga is gazi oltingugurt va azot birikmalari bilan birga 3,4 benzapiren va qo’rg’oshin kabi kantserogen moddalar ham ajralib chiqadi. Dunyo bo’yicha bugungi kunda 500 mln dan ortiq avtomobillar harakatlanadi.

Radioaktiv ifloslanishning manbalari atom va vodorod bombalarini sinovdan o’tkazish bo’lsa bundan tashqari radioaktiv ifloslanish yadro qurollarini tayyorlashda elektrostansiyalarining atom reaktori va radiaktiv chiqindilardan atmosferaga tarqaladi. Birgina reaktiv samolyot 8 soat ichida Amerikada Yevropaga uchib o’tganda 50-100 tonnagacha kislorod yoqadi, ya’ni buni 100 ming gektar o’rmonzor bir kunda chiqarib beradi, bir kosmik kemaning fazoga chiqishi uchun 16 km radiusida ozon qatlami yemiriladi.

Havoning kuchli ifloslanishi insonlar sog’ligiga, qolaversa barcha jonzotlarga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Bir kishi sutka davomida o’rtacha 25 kg havo bilan nafas oladi.Havo tarkibidagi zararli chang, qurumlar, zararli gazlar inson organizmida to’planaveradi. Oqibatda teri va ko’z kasalliklari, jigar serrozi, qonbosimining ortishi, surunkali bronxit, nafas qisish va o’pka raki kabi kasalliklarning ko’payishiga sabab bo’ladi. Bolalar o’rtasida umumiy kasallanishning ortishi qayd qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ham atmosfera havosiga o’z ta’sirini ko’rsatadigan 4 milliondan ortiq transport vositalari va 12700 dan ortiq yirik qo’zg’almas manbalar mavjud bo’lib, ulardan bir yilda o’rtacha 320 ming tonnadan ortiq zararli moddalar atmosferaga chiqarilmoqda. Shundan 212,4 ming tonna qo’zg’almas manbalarga, 108,2 ming tonna qo’zg’aluvchan manbalarga to’g’ri keladi. Jumladan: Muborak gazni qayta ishlash zavodi (55 ming t), Muborak gaz konlari unitar shu’ba korxonasi (5 ming t), Sho’rtan neft gaz unitar shu’ba korxonasi (70 ming t), Sho’rtan gaz kimyo majmuasi (15 ming t) bu obyektlardan atmosfera havosiga chiqadigan zaharli moddalar Qashqadaryo viloyati bo’yicha 65% ni tashkil etadi.

O‘zbekistonda atmosferaga tashlanadigan zararli moddalar miqdori (kg/km^2 sut.)

T/r	Shahar va viloyatlar	Maydoni km^2	Umumiy	SO_2	Azot oksidlari	Uglerod oksidi	Uglevod orodlar
1.	Toshkent	15,6	165	54	17,2	61,0	10,7
2.	Mirzacho’l	25,6	14,2	2,39	3,75	5,48	1,02
3.	Farg’ona	19,3	72,3	8,04	4,30	31,8	16,2
4.	Samarqand	24,5	10,0	1,07	0,51	6,0	0,95
5.	Qashqadaryo	28,4	29,5	18,7	0,81	6,78	1,39
6.	Buxora Qizilqum	143,2	3,7	0,45	0,47	1,21	0,23
7.	Quyi	170,0	1,2	0,02	0,10	0,56	0,09

	Amudaryo						
8.	Surxandaryo	20,8	2,76	0,01	0,02	0,24	0,08

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, atmosfera havosi inson hayoti, qolaversa tabiatdagi muvozanat uchun kata ahamiyat kasb etadi. Shu bois atmosfera havosini muhofaza qilish chora-tadbirlaridan ustivori bu ekologik ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishdir, chunki atmosfera havosining ifloslanishi natijasida sodir bo’ladigan o’zgarishlarni to’liq anglay olgan inson to’g’ri va atroflicha xulosa chiqara oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.Baratov. Tabiatni muhofaza qilish. Toshkent 1991y.
2. A.To‘xtaev, A.Xamidov. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. T. O‘qituvchi, 1997 y.
3. Раджапов М.Я., Ешпанова Г., Матмуратов Е.Р. Локальные геоэкологические проблемы и их последствия. – Международный научно-практический журнал «Экономика и социум». 03(118) 2024.
4. Утепова Г. Б., Махсетбаев Н. Б. НАУЧНОЕ ОПИСАНИЕ ДЛЯ СТРАН С ДОЛГОЖИТЕЛЯМИ //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2025. – Т. 3. – №. 33. – С. 22-25.
5. Eshimbetov U. et al. Territorial composition of agriculture in the Aral Sea Region of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 510. – С. 01040.
6. Ешимбетов У., Наурузбаева Г., Дальжанов К. Методические вопросы анализа и прогнозирования индустриального развития региона с учетом рационального использования минеральных ресурсов //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 532-540.
7. Ешимбетов У. Х. Формирование точек производственного роста на базе минерально-сырьевых ресурсов как совершенствование территориальной организации промышленности региона (на примере Республики Каракалпакстан) //Экономика и предпринимательство. – 2017. – №. 11. – С. 232-237.
8. Раджапов М. Я., Умаров Е. К., Искендеров А. Б. Қорақалпоғистон ҳудудининг географик ўрганилиш тарихи //Ўзбекистон география жамияти ахбороти. – Т. 22. – С. 74-76.
9. Radjapov M. et al. Qoraqalpogiston hududining tabiati va tabiiy boyliklarining geografik organilish tarixi //in Library. – 2021. – Т. 21. – №. 4. – С. 56-57.
10. Искендеров А. Б., Абдираманов Б. С. У. ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИДАГИ ТАБИИЙ ГАЗ КОНЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 335-339.
11. Умаров, Е. К., Искендеров, А. Б., Раджапов, М. Я., & Айтуганова, А. К. Қорақалпоғистон Республикаси халқ хўжалигини ҳудудий такомиллаштириш муаммолари. *Ўзбекистон География жамияти ахбороти*, *22*, 57-59.

UDK: 911.5(575.144)

FARG‘ONA VODIYSI DARYO HAVZALARIDA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASINI BAHOLASH VA BARQARORLIGINI TA’MINLASH MASALALARI

Xakimov Mirqobil Mirsaydillayevich
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti,
University of Business and Sciense nodavlat oliy ta’lim muassasasi Maktabgacha – boshlang‘ich ta’lim va jismoniy tarbiya kafedrasi o‘qituvhchisi
E.mail: mirqobil.hakimov@gmail.com

DOI: ***https://doi.org/10.5281/zenodo.15169453***

Annotatsiya. *Ushbu tezisda Farg‘ona vodiysi daryo havzalaridagi landshaftlarning transformatsiyasi, uning sabablari va ko‘rinishlari tahlil qilingan. Landshaftlarning barqarorligini ta’minlash uchun yuzaga kelgan o‘zgarishlar va ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tahlillar landshaftlarni ekologik barqarorligini saqlash va ularning mavjud holatini yaxshilash yo‘llari bo‘yicha ilmiy asoslangan yechimlar taqdim etadi.*

Kalit so‘zlar: *landshaft transformatsiyasi, barqarorlik, ekologik muammolar, daryo havzalari, Farg‘ona vodiysi, ekologik tahlil, antropogen ta’sir, tabiiy muvozanat.*

Аннотация*. В данной тезисе проанализированы трансформация ландшафтов в речных бассейнах Ферганской долины, ее причины и проявления. Разработаны предложения и рекомендации, направленные на устранение изменений и экологических проблем, возникших для обеспечения устойчивости ландшафтов. Анализы предоставляют научно обоснованные решения для сохранения экологической устойчивости ландшафтов и улучшения их текущего состояния.*

Ключевые слова: *трансформация ландшафтов, устойчивость, экологические проблемы, речные бассейны, Ферганская долина, экологический анализ, антропогенное воздействие, природный баланс.*

Abstract*. This thesis analyzes the transformation of landscapes in the river basins of the Fergana Valley, its causes, and manifestations. Proposals and recommendations have been developed to address the changes and ecological issues that have arisen to ensure the sustainability of the landscapes. The analyses present scientifically based solutions for maintaining the ecological stability of landscapes and improving their current state.*

Keywords: *landscape transformation, sustainability, ecological issues, river basins, Fergana Valley, ecological analysis, anthropogenic impact, natural balance.*

Kirish. Jahon bo‘yicha antropogen bosim ta’sirida landshaftlarda sifat va miqdor o‘zgarishlari ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Xususan, so‘nggi o‘n yilliklarda Markaziy Osiyo, ayniqsa, Farg‘ona vodiysi hududida ekologik va ijtimoiy-geografik jarayonlarning murakkablashuvi kuzatilmoqda. Bu holat, ayniqsa, daryo havzalarida aniq ko‘zga tashlanmoqda. Daryo havzalarining tabiiy landshaftlari turli omillar ta’sirida keskin o‘zgarib, ularning ekologik funksional imkoniyatlari kamaymoqda hamda bu landshaftlar transformatsiyasi ko‘rinishida namoyon bo‘lmoqda. Zero, landshaft transformatsiyasi — bu tabiiy muhitning strukturaviy, funksional va

dinamik xususiyatlarining inson faoliyati va tabiiy o‘zgarishlar natijasida o‘zgarishidir. Mazkur tezisda ushbu o‘zgarishlarning mohiyati, sabab va oqibatlari tahlil qilingan.

Asosiy qism. Farg‘ona vodiysi Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng zich aholi yashaydigan, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan intensiv rivojlanayotgan hududlardan biri hisoblanadi [7.25]. Ushbu mintaqaning tabiiy resurslariga, ayniqsa suv va yer zaxiralariga bo‘lgan bosim yildan-yilga ortib borayotgani, daryo havzalarida yuz berayotgan landshaft transformatsiyasini chuqur tahlil qilishni, barqarorlik tamoyillarini qayta ko‘rib chiqishni zaruratga aylantirmoqda. Bu jarayonni to‘liq anglash uchun global miqyosda o‘rganilgan landshaft transformatsiyasi nazariyalari, kartografik baholash usullari va xorijiy tajribalarni tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

Daryo havzalari tabiiy muhitning dinamik tuzilmalaridan bo‘lib, ular nafaqat gidrologik tizim sifatida, balki iqlim, geologik tuzilish, tuproq, o‘simlik va hayvonot dunyosi, hamda inson faoliyati o‘zaro uyg‘unlashgan kompleks landshaft birligi sifatida qaralishi lozim. Aynan shu yondashuv AQSh, Kanada, Germaniya, Xitoy va Yaponiya ilmiy maktablarida yetakchi yo‘nalishlardan biri sifatida shakllangan. Masalan, Weng (2007) tomonidan AQShning Ohio shtatidagi Little Miami daryosi havzasida olib borilgan dissertatsion tadqiqotda landshaft strukturasining fragmentatsiyasi va gidrologik rejimdagi o‘zgarishlar zamonaviy kartografik metodlar yordamida tahlil qilingan [5]. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, daryo havzalari atrofida yuz bergan urbanizatsiya, infratuzilmaviy kengayish va qishloq xo‘jaligi intensivligi suv resurslarining sifatini sezilarli darajada yomonlashtiradi, va bu esa landshaft barqarorligini izdan chiqaradi. Farg‘ona vodiysida ham shunga o‘xshash holat mavjud. Daryo havzalarida, xususan, Kosonsoy, Podshootasoy, So‘x va Qoradaryo havzalarida antropogen o‘zgarishlar ayniqsa jadal sodir bo‘lmoqda. Sug‘oriladigan dehqonchilik maydonlarining keskin kengayishi, daryolar oqimini sun’iy boshqarish, gidrotexnik inshootlar qurilishi, va eng muhimi, suv yig‘ish manbalaridagi (tog‘ muzliklari, qor zonalari) iqlim o‘zgarishlari tufayli yuzaga kelgan suv tanqisligi bu hududlarda landshaft tizimining tabiiy muvozanatini buzmoqda.


Xorijiy adabiyotlarda bu kabi transformatsiyalar “landshaftning degradatsion bosqichi” yoki “muvozanatli funksional landshaftlardan antropogen stress ostidagi tizimlarga o‘tish” deb tavsiflanadi. Masalan, L.Turner (2010) o‘z dissertatsiyasida Janubi-sharqiy Osiyodagi daryo havzalarida iqlim o‘zgarishi va suv infratuzilmasining biologik xilma-xillikka ta’sirini tahlil qilib, landshaft ekosistemalari o‘zini tiklash salohiyatiga ega bo‘lmasligini isbotlagan [3.26]. Bu yondashuvni Farg‘ona vodiysi sharoitiga qo‘llaganda, ayniqsa Shohimardonsoy

havzasida so‘nggi o‘n yillikda biologik turlar sonining qisqarishi, tog‘oldi o‘rmonlarining kamayishi, va tuproq sho‘rlanishining ortgani kabi ko‘rsatkichlar bu xulosalarni tasdiqlaydi.

Kartografik tahlil usullariga tayanilgan yondashuv esa landshaft transformatsiyasini fazoviy va zamonaviy tarzda aniqlash imkonini beradi. S.S.Dyshlyuk barqarorlik jihatlarini daryo havzalaridagi transformatsiyalangan hududlar asosida yoritib bergan [6]. Bu yondashuv ekologik barqarorlikka nisbatan indikatorlar tizimini shakllantirish imkonini beradi: suv resurslarining miqdori, eroziya darajasi, biologik xilma-xillik, tuproqning fizik-kimyoviy xossalari va antropogen yuklama darajasi shular jumlasidandir.

Biroq, mavjud monitoring tizimlarining eskirganligi, yer resurslarining integratsiyalashmagan holda boshqarilishi, ilmiy yondashuvlarning amaliyotga yetarlicha tadbiq qilinmasligi landshaftlarning degradatsiyasini tezlashtirmoqda. Shu o‘rinda Kanada olimi G. Brown [1] o‘z tadqiqotida shunday deydi: “Landshaftni barqaror boshqarish faqatgina ekologik omillarni emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlar muvozanatini ham ta’minlay oladigan holatlarda samarali bo‘ladi.” Aynan shu tamoyilni Farg‘ona vodiysi sharoitida ham tatbiq etish mumkin.

Landshaft transformatsiyasi sabablari kotlovinada o‘ziga xos (1-rasm). Farg‘ona vodiysi Bu holat, avvalo, suv resurslaridan haddan tashqari foydalanishga olib kelmoqda. Sug‘oriladigan dehqonchilik yerlarining kengayishi, ko‘plab irrigatsiya va drenaj tarmoqlarining qurilishi natijasida daryo oqimlari sun’iy boshqaruvga o‘tgan. Bu esa daryo ekotizimining tabiiy ritmini izdan chiqarmoqda [8]. Ayni vaqtda, gidrotexnik inshootlarning (suv omborlari, kanallar, to‘g‘onlar) qurilishi daryolarning quyi qismida suv tanqisligiga olib kelmoqda, bu esa suvga bog‘liq bo‘lgan tabiiy landshaftlarning (o‘tloqlar, qamishzorlar, to‘qaylar) qisqarishiga sabab bo‘lmoqda.




1-rasm. Landshaftlar transformatsiyani shakllantiruvchi omillari

Grafikda tasvirlanganidek, landshaft transformatsiyasi faqat antropogen omillar bilan emas, balki tabiiy-geografik sharoitlar, xususan, iqlim o‘zgarishlari bilan ham bevosita bog‘liq. So‘nggi yillarda Farg‘ona vodiysida yog‘ingarchilik miqdorining kamayishi, haroratning ortishi, bu esa qurg‘oqchilik davrining uzayishiga olib kelmoqda. Buning natijasida tog‘ va adir zonalarida joylashgan suv yig‘im maydonlaridagi muzliklar va qor qoplami qisqarmoqda, bu esa daryolarning oziqlanish manbalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Inson faoliyati va iqlim o‘zgarishlarining birgalikdagi ta’siri daryo havzalariga ekologik yuklamaning ortishiga olib keladi. Bu yuklama o‘z-o‘zidan barqarorlik chegarasini bosib o‘tadi. Dehqonchilikda o‘g‘itlar va pestitsidlardan haddan tashqari foydalanish, sanoat va maishiy chiqindilarning daryolarga tushishi — bularning barchasi yer-suv resurslarining kimyoviy ifloslanishiga olib kelmoqda.

Landshaft transformatsiyasi murakkab, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u ko‘p hollarda sekin-asta rivojlanadi. Biroq, uning oqibatlari chuqur va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. Jumladan, tuproq eroziyasi ko‘rinishida. Vegetatsiya qoplamining qisqarishi va noto‘g‘ri yer foydalanish tufayli tuproqning yuvilishi, ya’ni eroziya, kuchaymoqda. Bu esa hosildorlikning kamayishi, sho‘rlanish va qum bosish kabi jarayonlarni tezlashtirmoqda.



2-rasm. Farg‘ona vodiysi daryo havzalarida 1990-2025-yillar bo‘yicha landshaftlar tarkibining o‘zgarishi

Biologik xilma-xillikning kamayishi ham kritik ko‘rinishga ega. Suv miqdori va sifatining yomonlashuvi bilan bir qatorda, gidrologik rejimdagi o‘zgarishlar ham o‘z navbatida gidrofit va mezofit turlarining qisqarishiga olib kelmoqda. Ayrim

o‘simlik va hayvon turlari yashash muhitidan mahrum bo‘lmoqda. Buning yana bir ko‘rinishi suv sathining pasayishi va sho‘rlanishi tarzida amalga oshmoqda. Grunt suvlari sathi bir necha joylarda pasaygan, boshqa hududlarda esa noto‘g‘ri sug‘orish natijasida sho‘rlanish kuchaygan. Bu holat, ayniqsa, Sirdaryo havzasi atrofidagi adir zonalarida kuzatilmoqda.

Umuman olganda, Farg‘ona vodiysida keying 30 yildan ortiq vaqt mobaynida tabiiy landshaftlar maydoni qisqarib, antropogen bosim ortib bormoqda (2-rasm). Ta’kidlash lozimki, ushbu jarayon davom etsa landshaftlar barqarorligi keskin buzilishga uchraydi hamda bardoshlilik koeffitsiyenti salbiy holatga o‘tadi. Bu esa faqat va faqat muammolarni keltirib chiqaradi. Degredatsiyaga uchramagan landshaftlar 1990-yillarda bu landshaftlar umumiy maydonning 80% ga yaqin qismini tashkil etgan. 2025-yilga borib, bu ko‘rsatkich qariyb 2 barobar qisqargan. Ushbu pasayish aholi sonining o‘sishi, sug‘oriladigan yerlarga ehtiyoj ortishi, o‘rmonlar va tabiiy yaylovlarning qishloq xo‘jaligiga aylantirilishi bilan izohlanadi. Bu holat ilmiy adabiyotlarda ham qayd etilgan. Jumladan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekistonning transchegaraviy daryo havzalarida 1990–2020-yillarda landshaft strukturalarining 25–35% ga o‘zgargani aniqlangan [8]. Shu jihatdan, tabiiy muvozanatni saqlab qolish uchun kotlovinada tabiatni muhofaza qilish (qo‘riqxona, milliy bog‘, buyurtmaxona va tabiat yodgorligi kabi) maskanlarini tashkil etish darkor.

Aksincha, agrolandshaftlar maydoni keskin kengayib brogan. 1990-yilda havzaning 15% ga yaqin qismini tashkil etgan agrolandshaftlar, 2025-yilga kelib deyarli 45% ga yetishi kuzatilmoqda. Bu o‘sish irrigatsion tizimlar kengaytirilishi; intensiv dehqonchilikka o‘tish; paxta, bug‘doy va poliz ekinlariga bo‘lgan talab bilan bog‘liq. Bu holatga nisbatan Germaniyada olib borilgan tadqiqotlarda (Schröder & Hagedorn [4], 2018) agrolandshaftlarning haddan ortiq kengayishi gidrologik rejimlar buzilishi, bioxilma-xillikning kamayishi va eroziya xavfini oshirishi ko‘rsatilgan.

Yana bir jihat, aholi punktlari egallagan maydonlar – seliteb landshaftlar hatto agrolandshaftlarni ham “yutib” yubormoqda. Xususan, 1990–2025-yillar davomida bu landshaftlar 5% dan 20% atrofida o‘sdi. Aholining shaharlarga ko‘chishi, yangi uy-joy massivlari qurilishi, yo‘llar va boshqa infratuzilmalar rivojlanishi buni ta’minladi. Xorijiy dissertatsiyalarda (masalan, Liu [3], Xitoy Yangtze havzasi misolida) ko‘rsatilishicha, urbanizatsiya daryo havzalarida ekologik bosimni oshiradi, yerlarning betonlashtirilishi esa suv oqimining tabiiy siklini buzadi.

Xulosa. Tabiiy barqarorlikni ta’minlash uchun landshaft monitoring tizimini yaratish, dehqonchilikda agroekologik yondashuv texnologiyalarini modernizatsiya qilish, ekologik to‘lovlar tizimini joriy etish, shahar qurilishlarini ekologik baholash asosida rejalashtirish lozim bo‘ladi.

Demak, Farg‘ona vodiysi daryo havzalarida landshaft transformatsiyasi — bu faqatgina ekologik muammo emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi kompleks jarayondir. Bu jarayonni to‘xtatish yoki yumshatish uchun kartografik, ilmiy va institutsional yondashuvlar integratsiyasi zarur. Transformatsiyaga uchragan havzalarni tiklash esa mintaqaviy ekologik xavfsizlikni ta’minlashning muhim kafolati bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown G. Landscapes of change and sustainability // Journal of Environmental Management, 2012. – 58 p.
2. Hurni H., Wiesmann U., Giger M. Landdegradation, nachhaltiges Landmanagement und die globale Umwelt. – Bern, 2015. – 84 p.
3. Liu Y., Li J., Yang Y. "Strategic adjustment of land use policy under the background of urbanization. – Beijing, 2019. – 63 p.
4. Schröder J., Hagedorn F. Intensivierung der landwirtschaftlichen Landschaft und ihre Auswirkungen auf Boden- und Wassersysteme. – Berlin, 2018. – 72 p.
5. Weng Q. Landscape Fragmentation and Hydrological Regime Change in the Little Miami River Basin. – Ohio State University, 2007. – 120 p.
6. Дышлюк С.С. Мониторинг и оценка устойчивости ландшафтов: Методологический подход. – Москва, 2013. – 182 с.
7. Мирзамаҳмудов О.Т., Боймирзаев К.М. Наманган вилояти адирларининг ландшафт-экологик шароитини баҳолаш. – Тошкент: "Муҳаррир", 2011. – 122 б.
8. Mirzamahmudov O.T., Hakimov M.M. Farg‘ona vodiysi daryo havzalari va ularni tadqiq etishning ba'zi masalalari // “Geografiya – keleshekke kóz-qaras” atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiy-teoriyalıq konferenciya. – Nukus, 2024. 13-17 b.

“BOBURNOMA” ASARINING YARATILISH TARIXI VA GEOGRAFIYA FANIDAGI AHAMIYATI

Radjapov M.Ya.,
Ajiniyoz nomidagi NDPI Geografiya o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Qallibekova V.A.,
Ajiniyoz nomidagi NDPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi talabalari

Begdullaeva I.M.,
Ajiniyoz nomidagi NDPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi talabalari

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15169926

O‘lkamiz geografiyasiga oid bilimlarning rivojlanishida dunyoga mashhur qomuschi olimlarning yozib qoldirgan ilmiy jihatdan ancha puxta asarlarining ahamiyati juda kattadir. Bular ichida geografiya fanining rivojiga juda katta hissa qo`shgan temuriylar sulolasining yorqin vakili Zahiriddin Muhammad Boburdir. U tarixnafis, geograf, etnograf, mashhur shoir va adolatli shoh bo‘lgan. U o‘zining ko‘rgan, kuzatgan boy ilmiy dalillari asosida chiqargan xulosalarini “Boburnoma” asariga jamlagan. Zahiriddin Muhammad Bobur Farg‘ona, Zarafshon vodiylarini, Toshkent vohasini bir necha bor kezgan, G‘arbiy Tyanshan, Turkiston, Zarafshon, Oloy, Hisor tog‘ tizmalarida bo‘lgan, u yerdagi vodiylar, daralar, muzliklarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, o‘simlik va hayvonot dunyosi hayotini o‘rgangan va “Boburnoma” asarida ular haqida boy ma’lumotlar qoldirgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asari orqali geografiya fanining ko‘p qirralarini yoritishda katta hissa qo‘shgan.

Boburnoma – jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik; o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur. Eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida yozilgan (taxminan 1518/1519-1530). “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy” kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o‘zi esa “Vaqoye” va “Tarix” degan nomlarni ishlatgan. Boburnomada 1494-1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

“Boburnoma” o‘zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko‘ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494-1504), Afg‘oniston (1504-1524) va Hindiston (1524-1530)dagi hukmdorlik davriga bo‘linadi. Birinchi qismda Boburning otasi-temuriylarning Farg‘ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461-1494) xususida

hamda Boburning Farg‘ona taxtiga o‘tirishi (1494-yil iyun), ammo Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o‘z ulusidan mahrum bo‘lishi (15-asr 90-yillari), Samarqand uchun Shayboniyxonga qarshi olib borgan jangu jadallari (1497-1501)ning behuda ketishi va nihoyat, toju taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog‘lari orqali taxminan 250 navkar bilan Afg‘onistonga yuz tutishi (1504) haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan. Ikkinchi qismda Boburning Kobulni zabt etgani, so‘ng u yerda mustaqil davlat tuzgani (1508), Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishg‘ol qilgani (1511), lekin shayboniylar (Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton)dan yengilib (1512), Kobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik ko‘ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan. Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyni mag‘lub etib, Shim.Hindistonni bosib olgani (1526) va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma’lumotlardan iborat.

“Boburnoma”da geografiya, ijtimoiy-tabiiy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din ta’limoti, tilshunoslik, jug‘rofiya, tabiatshunoslik, ma’danshunoslik, dehqonchilik, bog‘dorchilik va boshqalarga oid aniq va hanuzgacha o‘z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan ma’lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Asarda bevosita Movarounnahr, Afg‘oniston, Xuroson va Hindiston o‘tmishi va zamonaviy holati, xalqlari, qabilalari, ularning tili, madaniyati, kasb-hunari, urf-odatlari, rasm-rusumlari, an’anaviy tadbir-marosimlari, shuningdek o‘sha davr jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalarga tegishli ma’lumotlar bayon etiladi. Ayniqsa Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Qobul, Hirot, Agra kabi yirik shahar, viloyatlarning jug‘rofiy-ma’muriy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, qishloq xo‘jaligi, daryo va suv havzalari, cho‘l-adirlari, tog‘, sahrolari, bog‘u -rog‘lari, tabiati, iqlimi, hayvonot va o‘simliklar dunyosi, tabiiy boyliklari haqida mufassal ma’lumotlar beriladi.

“Boburnoma” 15-asr o‘zbek badiiy nasrining yorqin namunasi sifatida sof badiiy lavhalar, jonli tasvirlar, an’anaviy lirik chekinishlarga boy. Nasriy matn ichida keltirilgan xalq maqol, matallari, iboralari, ibratli o‘gitlar, she’riy parchalar uning badiiyligini yanada oshiradi, o‘ziga xos joziba bag‘ishlaydi.

“Boburnoma” 16-asrdan boshlab hozirgacha dunyoning ko‘p tillari-ingliz, golland, fransuz, fors, nemis, italyan, rus, hind, urdu va boshqa tillariga bir necha martalab tarjima qilindi, sharh-izohlar bilan nashr etildi. Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o‘nlab mamlakat olimlarining ilmiy tadqiqotlarida „Boburnoma“ning insoniyat yaratgan o‘lmas obidalar qatorida alohida o‘rinda turishi ta’kidlanadi. „Boburnoma“ning jahonga mashhur bo‘lishida, asosan ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo‘ldi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to‘liq nashrini (ingliz tilida) 1826-yilda J. Leyden va V. Erskin amalga oshirdi. F. Talbot esa mazkur nashr asosida 2-marta

(1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921-yilda ingliz sharqshunosi A. Beverij „Boburnoma“ni mustaqil suratda asl nusxadan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyaning o‘zida „Boburnoma“ tarjimalari to‘qqiz marta nashr etildi.

Keyingi yillarda “Boburnoma”ning professor V.Takston tomonidan AQShda (Kembrij shahri, Garvard universiteti, 1993) hamda ikki jild hajmda, mukammal so‘zlik, ko‘rsatkich va sharhizohlar bilan Yaponiyada (Kioto, 1995-96) ilmiytanqidiy matni nashr etildi.

Ma’lumki, “Boburnoma” qo‘lyozmalari matnida ba’zi yillar (1504-05, 1509-18, 1520-24) tafsiloti uchramaydi, 1508 va 1520-yil voqealari bayoni tugal emas. Mana shu uzilish bo‘lgan o‘rinlarni ingliz sharqshunoslari boshqa tarixiy manbalar asosida ma’lum darajada tiklaganlar. “Boburnoma” forschaga (1586), undan parchalar Vitsen tomonidan golland tiliga (1705), A. Keyzer tomonidan qisqartirilgan holda nemis tiliga (1828), Pave de Kurteyl tomonidan to‘la holda fransuz tiliga (1871) tarjima qilingan. “Boburnoma”ni tarjima qilish va tadqiq etishda, shuningdek Afg‘oniston (Abdulxay habibiy), Pokiston (Rashid Axtar Nadviy, Shoh Olam Mavliyot), Hindiston (Mirzo Nasriddin Haydar, Muhibbul Hasan Rizviy), Turkiya (R.R.Arat va N.I.Bayur) kabi mamlakatlar olimlarining xizmati ham katta. Rus sharqshunoslari (N.I.Pantusov, S.I.Polyakov, V.Vyatkin) ham “Boburnoma”dan parchalarni tarjima qilganlar. N.I.Ilminskiy “Boburnoma”ni Qozonda nashr ettirdi (1857).

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z asarida gidrolog olim sifatida ham qimmatli ma’lumotlar beradi. U Sirdaryo haqida shunday yozadi: “Sayxun daryosikim, Xo‘jand suyig‘a mashhurdir. R.Rahimbekovning yozishicha “Boburnoma” o‘zbek geografik terminologiyasi va toponimikasi jihatidan katta ilmiy hazinadir.

Adabiyotlar

1. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. T. Davlat ilmiy nashriyoti: 25-j. 2003.
2. Karomatov H. S., Husniddinov Z., Mansurov A. Buyuk allomalarimiz—T.: «Toshkent islom universiteti», 2002.
3. G`ulomov G`. Turkistonlik olimlarning geografiya faniga qo`shgan hissasi. - Toshkent: “O`zbekiston”, 2000.
4. Hasanov H. O’rta Osiyolik geograf va sayyohlar. Toshkent. “O’zbekiston” 1964.

MAMLAKATIMIZDAGI MUHOFAZA ETILADIGAN HUDUDLAR (“Sudochye-Akpetki” davlat buyurtma qo‘riqxonasi misolida)

Turdibekova Z.M.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Geografiya o‘qitish metodikasi kafedrasi assistent o‘qituvchisi

Doi: ***https://doi.org/10.5281/zenodo.15169938***

Hozirgi vaqtda tabiatni muhofaza qilishdagi eng muhim vazifa tabiiy resurslardan foydalanishda ularni muhofaza qilishni ta’minlash bilan birga olib borishdan iboratdir. Tabiiy muhitni muhofaza qilish, yaxshilash va undan oqilona foydalanish hozirgi davrning eng muhim ilmiy va amaliy muammolaridan biridir. Jamiyat va tabiiy muhitning o‘zaro munosabatini optimallashtirish mustahkam ilmiy nazariya asosida amalga oshirilishi kerak. Tabiatni muhofaza qilish o‘z mohiyati bilan landshaftlarni muhofaza qilish demakdir. Shu nuqtayi nazardan tabiatni muhofaza qiluvchi chora-tadbirlar ma’lum darajada landshaftlarni muhofaza qilishga xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, tabiatni muhofaza qilish landshaftlarning bir butunligini, uning tabiiy muvozanatini saqlashga qaratilgan.

Tabiatni muhofaza qilish ayrim hududlarda tabiiy kompleksni o‘z holicha maxsus rejim bilan qo‘riqlashni ham talab qiladi. Bunday maxsus rejim bilan muhofaza qilinadigan hududlar xo‘jalikda o‘zlashtirishdan bevosita ajratib olinib qo‘riqlanadigan tabiiy obyektlardir.

Keyingi yillarda qo‘riqlanadigan tabiiy komplekslarning maydoni ham, soni ham oshib bormoqda. BMT ma’lumotiga ko‘ra, XX asrning 70-yillarida dunyodagi qo‘riqxona va milliy bog‘lar 1204 ta bo‘lgan, lekin bularning 1/3 qismi 1960 yildan keyin tashkil qilingan. Hozirgi vaqtda dunyoda alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar soni bir necha yuz mingdan ortib ketdi. Masalan, bitta Rossiyada alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar (2016-yil) soni 103 tani tashkil etgan. Hozir yer yuzida tabiati muhofaza qilinadigan obyektlar soni hammasi bo‘lib 20 mingdan oshib ketdi.

O‘zbekistonda qabul qilingan biologik-xilma xillikni saqlab qolish strategiyasiga binoan, yaqin o‘n yillarda mamlakat hududining 10% ni qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarga aylantirish ko‘zda tutilgan. Ushbu strategiya asosida O‘zbekiston tabiiy qo‘riqxonalarini ko‘paytirish va borlarining hududlarini kengaytirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-fevraldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida “Sudoche-Akpetki” davlat buyurtma qo‘riqxonasini tashkil qilish to‘g‘risida” 58-sonli Qarori qabul qilindi.

1-jadval

“Sudoche-Akpetki” davlat buyurtma qo‘riqxonasiga doimiy foydalanish huquqi asosida beriladigan yer uchastkalarining MAYDONI

Hudud nomi	Oldingi yerdan foydalanganlar	Beriladigan yer uchastkalari maydoni (ga)	Berilayotgan yerlarning toifalari
I. “Sudochye ko‘llar tizimi” uchastkasi			
Mo‘ynoq tumani	Zaxira yerlar	84 702	Qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yerlar
Jami:		**84 702**	
II. “Akpetki” uchastkasi			
Taxtako‘pir tumani	Zaxira yerlar	195 805	Qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yerlar
Jami:		**195 805**	
Umumiy yer maydoni:		**280 507**	

“Sudochye-Akpetki” davlat buyurtma qo‘riqxonasining hududi “Sudochye ko‘llar tizimi” uchastkasi va “Akpetki” uchastkalari kabi tabiiy hududlardan tashkil topgan, umumiy yer maydoni 280 507 ga, shundan: “Sudochye ko‘llar tizimi” uchastkasi 84 702 ga, “Akpetki”uchastkasi 195 805 ga. Buyurtma qo‘riqxonasi qo‘riqlanma zonasining jami yer maydoni 442 223 ga, shundan: “Sudochye ko‘llar tizimi” uchastkasida 52 938 ga, “Akpetki” uchastkasida 389 285 gektardan iborat bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq, Qo‘ng‘irot va Taxtako‘pir tumanlari hududida joylashgan.

2-jadval

“Sudochye-Akpetki” davlat buyurtma qo‘riqxonasining qo‘riqlanma zonalari MAYDONI

Hudud nomi	Beriladigan yer uchastkalari maydoni (ga)
I. “Sudochye ko‘llar tizimi” uchastkasi	
Mo‘ynoq tumani	45 178
Qo‘ng‘irot tumani	7 760
Jami:	**52 938**
II. “Akpetki” uchastkasi	
Mo‘ynoq tumani	335 484
Taxtako‘pir tumani	53 801
Jami:	389 285
Umumiy yer maydoni	442 223

“Sudochye ko‘llar tizimi” uchastkasi. Mazkur obyekt tipik delta ko‘li hisoblanadi. Ko‘l akvatoriyasi va uni g‘arbidagi Ustyurt platosi chinki hududning yuqori biologik xilma-xilligini belgilaydi va betakror go‘zalligini ta’minlaydi. Sudochye ko‘li va unga tutash tekisliklarni saqlash cho‘llanib borayotgan hozirgi Amudaryo deltasi hududida landshaft xilmaxillikni saqlashga yordam beradi.

Hududda tabiiy faunistik komplekslarga xos suv-botqoq hududlar va cho‘l uchastkalardan iborat 2 ta asosiy ekotizim turi mavjud. Mazkur hudud Ustyurt platosiga tutash bo‘lgan katta sayoz chuchuk va sho‘r ko‘llarni, qalin qamishzorlar va butazorlarni, sho‘rlangan yerlarni, botqoq uchastkalar, ekilgan saksovullar, kanallar, chink jarliklaridagi cho‘llar va yarim cho‘llardan iborat bo‘lib o‘ziga xos o‘simlikliklar o‘sadigan va hayvonolar yashaydigan muhit hisoblanadi.

Bu yerda 117 tur qushlar in qo‘yadi. Hudud global xavf ostida bo‘lgan ko‘chib yuruvchi qush turlariga uya qurish va to‘planishi uchun muhim joy bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘lda va Ustyurt platosi chinkida yashaydigan qushlardan O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga va Halqaro Qizil ro‘yxatlarga kiritilganlari ham bir qanchani tashkil etadi. Shulardan oqbosh o‘rdak (savka), dasht miqqiysi (stepnaya pustelga), qizil g‘oz (rozoviy flamingo), jingalak saqoqush (kudryaviy pelikan), itolg‘i (bolabon), yo‘rg‘a tuvaloq (drofa krasotka) va boshqalar, Qizil kitobga kirtilgan va endemik baliqlardan turkiston mo‘ylovli balig‘i, oq ko‘zli baliq, sudralib yuruvchilardan bo‘z echkemar, o‘rtaosiyo cho‘l toshbaqasi va boshqa hayvonot turlarini keltirish mumkin.

“Akpetki” uchastkasi. Hududda ko‘l-to‘qaylar majmuasi va cho‘l ekotizimlari mavjud. Ko‘l-to‘qay fauna kompleksiga xos bo‘lgan sut emizuvchi hayvonlarning 10 turi, qushlarning 19 turi mavjud. Cho‘l ekotizimida (qumlik va sho‘rlangan cho‘l) sut emizuvchilarning 26 turi, qushlarning 21 turi, sudralib yuruvchilarning 22 turi hayot kechiradi. Hududda dastlabki hisob kitoblarga ko‘ra, umurtqali hayvonlarning noyob va global xavf ostida bo‘lgan 18 turi qayd etilgan.

Hududda O‘zbekiston Qizil Kitobiga va Xalqaro qizil ro‘yhatga kiritilgan qushlarning quyidagi turlari uchraydi; jingalak saqoqush (kudryaviy pelikan), qizil saqoqush (rozoviy pelikan), qizil g‘oz (rozoviy flamingo), qoravoy (karavayka), vishildoq oqqush (lebed-shipun) va boshqa qush va sutemizuvchi hayvonlar kuzatish mumkin.

2022-yil qo‘riqxonaning Sudochye uchastkasida turistlar uchun turistik maskan barpo etildi. Sudochye ko‘li bo‘yida mahalliy va xorijiy turistlarni jalb etish uchun tomosha maydonchalari, ayvonchalar, o‘tovlar va boshqalar barpo etilgan. Turistik maskanda turistlar atrof muxitni kuzatish va Urgadagi qadimiy binolarni, ko‘ldagi ajoyib flamingo qushlarini tomosha kilishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Sudochye ko‘lidagi flamingolar

Flamingo qushlari Sudochye ko‘lidan uchib utish, uzoq safar oldidan oziqlanish uchun foydalanadi. Flamingolarning asosiy ozuqasi mayda qizil artemiya va uning tuxumi sanaladi. Bundan tashqari flamingolar mollyuskalar, xasharotlar lichinkalari va qurt-qumursqa bilan ham oziqlanadi. Ular ozuqasini suvning sayez joylaridan qidiradi. Flamingo qushlari bahorning mart oyida uchib kelishadi va kuzning noyabr oyida uchib ketishadi. Shu 9 oy ichida turistlar flamingolarni tomosha kiladi. Qo‘riqxona hududiga tutash joylarda yirik aholi punktlaridan Raushan qishlog‘i 75 km va Qarajar qishlog‘i 70 kmda joylashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Qoraqalpog‘iston Respublikasida “Sudochye-Akpetki” davlat buyurtma qo‘riqxonasini tashkil qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 8-fevral 2021-yildagi 58-sonli Qarori.
2. Alibekov L.A. Inson va tabiat. Darslik. – Samarqand, SamDU nashriyoti. 2020. - 400 b.
3. G‘ulomov P.N. Inson va tabiat. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – 84 b.
4. Eshimbetov U. et al. Territorial composition of agriculture in the Aral Sea Region of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 510. – C. 01040.
5. Radjapov M. et al. Qoraqalpogiston hududining tabiati va tabiiy boyliklarining geografik organilish tarixi //in Library. – 2021. – T. 21. – №. 4. – C. 56-57.
6. https://gov.uz/oz/eco/news/view/22744

QORATEPA SUV OMBORINING PAYDO BO‘LISHI VA UNING XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI

Abdurayimova Oytula Boltatosh qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktaranti
e-mail. oytula.ms@gmail.com

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170001*

Annotatsiya: *Maqolada arid iqlimli O‘rta Osiyoda suv manbaidan oqilona foydalanish borasida olib borilayotgan ishlar, jumladan O‘rta Zarafshon havzasidagi Qoratepa suv omborining paydo bo‘lishi, va uning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *iqlim, Qoratepa suv ombori, suv rejimi, harorati, yog‘in miqdori, to‘yinish manbai, xalq xojaligi*

Arid iqlimli O‘rta Osiyoning O‘zbekiston Respublikasida suv manbaidan oqilona foydalanish bugungi kuning dolzarb masalalaridan bir hisoblanadi. O‘rta Osiyoda ilk suv omborlarining yaratilish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Arxeologiyani tarraqiy etishi bilan mintaqadagi yuksak madaniyatdan dalolat beruvchi suv ombori to‘g‘onlari irrigasion tizimlari topildi. Sug‘oriladigan maydonlarni kengayishi, qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish, yerlarning meleorativ holatini yaxshilash va yangi yerlarni o‘zlashtirish, suvdan energetika va boshqa maqsadlarida foydalanish hamda suv oqimlarini rostlashda suv omborlarini tashkil etish yo‘lga qo‘yila boshlandi Shu bilan birga, global iqlim o‘zgarishi, aholi sonining va iqtisodiyot tarmoqlarining o‘sishi, ularning suvga bo‘lgan talabi yil sayin oshib borishi tufayli suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Qoratepa suv omborini qurish ishlariga tayyorgarlik 1970-yillarning boshlarida boshlangan bo’lib, shu yillari sug’orishda, suv tanqisligi kuzatila boshlagan edi. O’tgan asrning 60-yillarida Zarafshon vodiysida tog’ oldi junslarida ham katta yerlar o’zlashtirildi. Qurg’oqchilik yillarida Zarafshon daryosining suvi sug’orishga yetmay qoldi. Shu sababli tog’larda yirik soylarda suv ombori qurib, ularning suvidan foydalanish masalasi qo’yildi.

Biroq, Qoratepa suv ombori qurishda bir nechta muammolar bor edi. Shulardan biri suv ombori hududi ya’ni suv bosadigan joyda qishloq qabristonining borligi. Xavfsilik nuqtai nazardan qabristonni suv bosadigan bo’lsa, qabristonni boshqa joyga ko’chirilishi va shu joy to’liq tozalanishi kerak, shunday qilinmasa ba’zi kasalliklar mikroblari yuz yillab yotishi va suvga tushsa va suv bilan oqib chiqib ochiq joyga oqizilsa, shu kasalliklar yana qaytadan tarqalishi mumkin edi. Shulardan vabo kasalligi va Sibir yazvasi edi.

Ikkinchi muammo suv omborining sharqiy qismida qirg’oqlarini mustahkamlash masalasi edi. Suv omborining shimoliy sharq tomonida Ming buloq nomi bilan ataladigan, yer tagidan qaynab chiqib turadigan ko’p buloqlar bor edi. Bu buloq suvlari suv tagida qolib ketdi.

Qoratepa suv omboriga bitta Omonqo’tonsoy quyiladi. Bu soy Qoratepa va Chaqilkalon tog’lari orasida joylashgan bo’lib, har ikkala tog’ni bir-biridan ajratib turadi. Omonqo’tonsoyning quyi qismida chap tomondan bir nechta katta soylar kelib qo’shiladi. Bular Tersaksoy, Qo’zichisoy va Sevazsoy. Omonqo’tonsoyning suv o’lchagich pastdan yuqori qismining suv yig’gich maydoni 72,4 km kv. Agar Qoratepa suv omboridan boshlab hisoblasak, Omonqo’tonsoyning suv yig’gich maydoni 150 kv.km. dan oshadi.

Qoratepa suv ombori hammasi bo’lib, 1500 gektar yeni sug’oradi. Suv omborining maydoni 120 ming gektar bo’lib, to’g’onning uzunligi 681 metr va balandligi 36 metr. To’g’onning zilzilaga bardoshliligi 8 ball hamda o’lik suv hajmi 0,033 mln metr kub. Shu nuqtai nazardan tog’lardagi soy suvlarini to’plab, suv omborlar qurib, ulardan sug’orishda foydalanish katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan tog’ soylari suv rejimini, suv sarfini, sel hodisalarini o’rganish ahamiyatli hisoblanadi.

Qoratepa suv ombori Urgut tumani Qoratepa MFY da Qoratepa soy o‘zanida joylashgan. 1975-1981 yillar qurilgan va 1981 yilda foydalanishga topshirilgan. Loyixaviy to‘liq suv olish hajmi: 17.1 mln.m^3 bo‘lib, loyihaviy foydali suv olish hajmi: 15.1 mln. m^3 ni, o‘lik hajmi 0.56 mln. m^3, jaddalshgan suv sathi (FPU) 927.3 metr, normal suv sathi (NPU) : 925 metr, o‘lik xajmining satxi (UMO): 901 metr, to‘g‘on uzunligi 720 metr, to‘g‘onning maksimal balandligi: 36 metr, to‘g‘on usti eni 6 metr, suv omborining normal suv sathda (NPU) holatidagi suv yuzasi: 1.6 km^2 ni tashkil qiladi.

Shuningdek, tog’ soylarida suv omborlari qurilib, ulardan samarali foydalanilsa, tog’ oldi tekisligidan yuz minglab gektar yerlar o’zlashtirilishi mumkin. Bu esa ko’plab kishilarning ish bilan band bo’lishini ta’minlaydi, hamda sug’orishda ilg’or texnologiyalardan foydalanilsa, ya’ni tomchilatib sug’orishdan foydalanilsa, juyak bilan yoqi bostirib sug’orishga nisbatan suv 5-6 marta tejaladi, bu esa sug’oriladigan yer maydonlarini yanada kengaytirish imkoniyatini oshiradi. Hozirgi paytda tomchilatib sug’orish bo’yicha Samarqand viloyatining Qoratepa tog’ oldi tekisligida Ohaklik qishlog’i yaqinida 250 gektar yerga tomchilatib sug’orish bilan bog’zorlar tashkil qilingan. Bunda yer osti suvidan va buloq suvidan foydalanilmoqda.

Qoratepa suv ombori havzasining sharoiti O’rta Osiyo respublikalari uchun xos bo’lgan iqlim belgilari bilan xarakterlanadi. Uning iqlimi O’zbekistonning ko’p qismi

va Zarafshon rayoni uchun xos bo’lgan iqlim hosil qiluvchi omillarni o’zaro ta’siri ostida bo’lgan.

Zarafshon iqlimi rayoni siklon va antisiklonik jarayonlari xarakterli bo’lgan g’arbiy havo massalari ta’sirida bo’ladi. Omonqo’tonsoy havzasining hududi o’zining geografik va termik sharoiti hamda namlanish rejimiga ko’ra tropikdan tashqaridagi cho’l zonasiga kiradi. U quyoshli kunlarni ko’pligi, yozning issiq va qurg’oqchil bo’lishi hamda qishni namgarchilik va yumshoq bo’lishi bilan xarakterlanadi. Shunga mos ravishda Qoratepa suv ombori havzasi hududining iqlim sharoitini belgilari uning kontinentalligi hisoblanadi. Iqlimining kontinentalligi meteorologik elementlarni, kecha-kunduz davomida, yil fasllari davomida va yil davomida keskin o’zgarib turishi namoyon bo’ladi. Iqlimini kontinentalligini asosiy belgisi havo tempereturasining yillik amplitudasi hisoblanadi. Havo temperaturasini yillik amplitudasi, ya’ni eng sovuq oy bilan eng issiq oyning temperaturalarini farqi Omonqo’tonsoy havzasining tekislik qismida Samarqand meteorologik stansiyasining ma’lumoti bo’yicha 25,6 C ni tashkil etadi. Havo temperaturasining yillik yo’nalish to’g’risidagi to’liq ma’lumot 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O‘rtacha oylik va yillik havo haroratining o‘zgarishi

Meteostansiya		I	II	V		I	II	III	X		I	II	Yillik
Samarqand	0,1	,3	,4	3,9	9,5	4	5,1	3,8	8,7	2,3	,7	,4	3,4
Urgut	0,5	,6	,8	2,3	7,5	1,9	4,4	3,0	8,0	1,8	,7	,0	2,2
Omonqo‘ton	0,6	0,9	,3	1,5	6,5	1,3	4,0	2,8	1,9	2,0	,9	,8	1,8

1-jadvaldan ko’rinib turibdiki, absalyut minimal va absalyut maksimal temperaturalarini amplitudasi farqi 68 C ga yetadi. Eng sovuq havo temperaturasi 1889-yilning yanvar oyida -25,7 C ga yetgan. Eng issiq havo temperaturasi 1971-yilning iyul oyida 42,3 C ni tashkil qilgan.

Omonqo’tonsoyning yuqori qismida ko’p miqdorda buloqlar va suvli irmoqlar joylashgan. Omonqo’tonsoyda Shohaksoy qo’shilgandan keyin uning suvi keskin ko’payadi. Omonqo’tonsoyning asosiy to’yinish manbai yomg’ir va erigan qor suvlari, hamda qisman buloq suvlari hisoblanadi. Omonqo’tonsoyni yillik suv oqimini yarmidan ko’p qismi bahor oylarida oqib ketadi. Bahor faslini aprel oyida Omonqo’tonsoyni suv oqimi eng ko’p bo’ladi. Bu oyda uning suv hajmi sekundiga 3 kub metrgacha yetadi.Bahor fasli oxirida sel hodisalari ko’p bo’ladi. Iyul va avgust

oylarida soyning suvi juda kamayib qoladi. Bu vaqtda uning minimal suv xarajati bo’ladi va sekundiga 0,29 kubometni tashkil etadi.

Oylik va yillik yog’in miqdoriga qarab Qoratepa suv omborida suv hajmi doim bir xil miqdorga ega bo’lmaydi. U turli yo’llar bilan kamayib tursa, bu kamayishni suv omboriga qo’shiladigan suv-daryolar keltirib quyadigan suvlar, atmosfera yog’inlari to’ldirib turadi.

Muxtasar qilib aytganda, bugungi kunda butun dunyoda bo’lgani kabi O’zbekistonda ham jumladan, Samarqand viloyatida ham suv tanqisligi kuzatilmoqda. Shundan kelib chiqib Qoratepa suv omborining xalq xo’jaligidagi ahamiyati yuqori hisoblanadi. Suv ombor uzumchilik va polizchilikda asosiy ahamiyat kasb etadi. Hozirgi suv tanqisligi davrida soy suvlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, Urgut tumanida yer resurslari katta va suv chegaralangan. Agarda suv omborida to’plangan suvdan sug’orishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanilsa suv 8-10 marotaba tejaladi. Bu esa yangi yerlarni o’zlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulkosimov A., Jo’raqulov X. Закономерности дифференциации ландшафтов Зарафшанских гор и приглеющих равнин. Самарканд-2022.
2. Журакулов Х. “История развития рельефа и природы Юго-Западного Узбекистана в новейшем этапе. // Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 28-жилд. – Тошкент. 2007.
3. Гаппаров Ф.А, Назаралиев Д.В, Мансуров С.Р. Сув омборларидан фойдаланиш – Тошкент 2019 16-20 б
4. Ikramova.M.R. Suv omborlari gidrologiyasi –Тошкент 2019 50-54 b
5. Suhail M., Nazish Khan M., Ravshanov A., Usmanov M. Suitability assessment of wind energy farming in the desert landscape of Zarafshan valley, Uzbekistan. InterCarto, InterGIS, 2024.
6. Fozilov A., Ganiyev Z., Mamajanov R., Jurakulova D., Abdurayimova O. The effect of the Almalyk-Akhangaran industrial zone on changes in the groundwater level of the Ahangaran river basin. E3S Web of Conferences 494, 2024.
7. Muhammadiyev S.A. va boshqalar. Omonqo’ton ona tabiat mo’jizasi. Samarqand, 2007.

SURXONDARYO BOTIG‘I AGROLANDSHAFTLARIDA ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH MASALALARI

Xasanov Primjon Ashurovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
xasanovprimjon88@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170010

Annotatsiya. *Maqolada Surxondaryo botig’i hududida qishloq xo’jalik landshaftlarining antropogen omil va tabiiy geografik jarayonlar tufayli har xil o’zgarishlarga uchrayotgani haqida so’z boradi. Global ekologik muammolar bo’y cho’zgan bugungi dunyo hamjamiyatida har bir sohaning qamrovi zamonaviy fan va ta’limga asoslanmoqda. Bu borada qishloq xo’jaligi va uning tarmoqlarida ham mavjud yoki bo’lishi mumkin bo’lgan ehtimoliy global ekologik muammolarning ayrimlarining yechimini topish, buning uchun soha rivojiga tizimli kompleks yondashuv kerak bo’ladi.*

Kalit so’zlar. *landshaft, agrolandshaft, qishloq xo’jaligi, iqlim o’zgarishi, ekologik, tuproqlar, atrof muhit muhofazasi, cho’llashish.*

Аннотация. *В статье говорится о различных изменениях агроландшафтов бассейна Сурхандарьи, обусловленных антропогенными факторами и природно-географическими процессами. В сегодняшних глобальных экологических проблемах освещение каждой области основано на современной науке и образовании. В связи с этим поиск решения некоторых возможных глобальных экологических проблем, которые существуют или могут существовать в сельском хозяйстве и его отраслях, для этого необходим системный и комплексный подход к развитию отрасли.*

Ключевые слова. *ландшафт, агроландшафт, сельское хозяйство, изменение климата, экология, почвы, охрана окружающей среды, опустынивание.*

Annotation. *The article discusses the various changes in agricultural landscapes in the Surkhandarya basin due to anthropogenic factors and natural geographical processes. In today's world community, where global environmental problems are widespread, the scope of each sector is based on modern science and education. In this regard, finding solutions to some of the potential global environmental problems that exist or may exist in agriculture and its branches requires a systematic and comprehensive approach to the development of the sector.* ***Keywords****. landscape, agrolandscape, agriculture, climate change, ecological, soils, environmental protection, desertification.*

Kirish. Bugungi kunda insoniyat oldida bir qator global ekologik muammolar paydo bo’lgan bo’lib, iqlim o’zgarishi, oziq-ovqat muammosi, cho’llashish kabi ko’rinishlarga ega. O’rta Osiyo va O’zbekiston hududi materik ichkarisida, ichki berk havzaga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-son Farmonida ham qishloq xo’jaligi sohasida qator islohotga ega qonun va loyihalar belgilangan [1,8;]. Asosan sug’orma dehqonchilikka asoslangan qishloq xo’jaligi oldida bir qator atrof muhit muhofazasiga oid geoekologik muammolar shakllanadi. Binobarin, Surxondaryo botig’ida ham ushbu

vaziyat va hodisalarning rivojlanishi kuzatilmoqda. Surxondaryo botig’ida paydo bo’lgan ushbu geoekologik vaziyatlar tarkibiga – iqlim o’zgarishi, tuproqlar sho’rlanishi, chang to’zonli kunlarning ortishi, yer usti va yer osti suvlarining ifloslanishi, atmosfera havosining har xil kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi va hokazolar tashkil etadi.

Asosiy qism. Tabiiy iqlim sharoiti subtropik, ammo ba’zi yillarda mo’tadil iqlimga xos ko’rinishga o’tadi. Agroiqlimiy ko’rsatkichlari bo’yicha O’zbekistonda o’ziga xos agrolandshaftlarga ega hududdir. Geologik - geomorfologik ma’lumotlar bo’yicha Turon provensiyasi, Janubiy Tojikiston botig’ining davomi hisoblanadi. Bir vaqtning o’zida turli bosqichlarda ko’tarilgan tog’ va tog’ oldi relyef shakllari uchraydi. Sherobod konussimon yoyilmalari va Surxondaryo daryo terrasalari hamda janubiy hududlar relyefi ancha tekis, dehqonchilik uchun qulay yerlardir [3,4,6;].

Iqlimi asosan subtropik, arid iqlim tipining tipik shakllanishi va tabiiy geografik qonuniyat asosida tog’larga ko’tarilgan sari harorat tushib, namlikning ortishi bilan izohlanadi. Viloyatning botiq hududi orqali hududning o’ziga xos mikro iqlimi shakllangan. Biroq yaqin yillardagi iqlim o’zgarishlari hamda ortidan kelib chiqadigan ba’zi vaziyatlar iqlimiy xarakterni biroz o’zgartirib bormoqda. Masalan, qurg’oqchil – garmsel shamolli kunlar soni ortgan, birgina afg’on shamolining o’zidan yiliga qishloq xo’jaligida juda katta zarar ko’riladi. Ushbu muammolarning oldini olishda bir qator vazifalar ishlab chiqilishi, agrolandshaftlar va ularning atroflarida esa tabiiy ixota daraxtzorlarni ekish kabi maqbul variantlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Aslini olganda quyosh radiatsiya balansining yuqoriligi, ekinlar uchun zaruriy ozuqani bera olishi Surxondaryo botig’ining tabiiy - geografik xususiyatlari va agroiqlimiy ko’rsatkichlarini hududdagi amalga oshirilgan qishloq xo’jalik faoliyatiga qulay darajada ta’sir ko’rsatgan. Yillik yog'ingarchilik miqdori ham Termiz shahri hududida 130 mm dan tog’larga tomon ko’payib, 700 mm ga ham yetishi mumkin. Yozgi haroratlar o'rtacha yillik ko’rsatkichlari iqlim o’zgarishlari fonida ko’tarilgan. Natijada agrolandshaftlarda hosildorlikga ta'sir ko'rsatadigan kuchli qurg'oqchilik ta'siri ortgan [2,5;]. Bundan tashqari, qishloq xo’jaligida suvga bo’lgan ehtiyojni Surxondaryo va Sheroboddaryo daryolari hamda Amudaryodan tortilgan bir qancha kanallar orqali qoplanadi. Suv resurslari qishloq xo'jaligi uchun juda muhim bo'lsa-da, rejasiz sug'orish va noto'g'ri taqsimlash suv tanqisligini, ifloslanishni olib kelishi mumkin. Sug’orma dehqonchilikda suv yetishmasligini yengish uchun ba’zi joylarda tuproqlarni sizot suvlar bilan sug’orilishi yoki daryo, kanal suvining minerallashib ketishiga yo’l qo’yilishi hisobiga tuproqlarda sho’rlanish kelib chiqqan. Albatta bu kabi jarayonlarning rivojlanishida tabiiy geografik o’rin, relyef, iqlimiy ko’rsatkichlar, inson omili va vaziyatga tizimli yondashmaslik sabab bo’lmoqda. Tuproqlari turli darajada

sho’rlangan agrolandshaftlar Sherobod, Qiziriq, Bandixon, Jarqo’rg’on, Termiz va Angor tumanlarida joylashgan [5,7;]. Mazkur hududlarda tuproqlarning eroziyaga moyilligi, degradatsion indeksi yuqoriligi tufayli zamonaviy texnologiyalarni qo’llash zaruratini tug’diradi.

Pestetsidlar va sintetik o’g’itlarning meyordan ortiq qo’llanilishi atrof muhitni, suvlarni (*yer usti va yer osti*), tuproqlarni ifloslanishiga olib kelmoqda. Qishloq xo’jaligida ekinlarni suv bilan ta’minlashda – samarali, tejamkor sug'orish tizimlarini joriy etish, gidrografik obyektlarning (*kanal, zovur, drenaj, ariq*) tabiiy resurslarini ifloslanishini oldini olish, behuda isrofgarchilikning oldini olishga yordam beradi. Tomchilatib sug'orish, yomg'ir suvi yig'ish tizimlari yaxshi samara berishi mumkin. Intensiv shakldagi qishloq xo'jaligi, ayniqsa sug'oriladigan yerda yaxshi rivojlanmoqda.

Xulosa. Surxondaryo botig'i agrolandshaftlarida tabiiy-geografik jarayon, voqea – hodisalarni qishloq xo’jaligi infratuzilmalariga bezarar optimal shakllarini ishlab chiqish hamda antropogen yuk ta’sirini agrolandshaftlarda sezilishini kamaytirish mexanizmlarini qo’llash ka’bi chora, tadbirlarga bog’liq hisoblanadi. Barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarining xulosasida aniq bo’ladiki, intensiv qishloq xo’jalik shakllarini jahonda sodir bo’layotgan yoki bo’lishi mumkin bo’lgan ekologik muammolarga raqobatbardosh xarakter hosil qildirish nafaqat agrolandshaftlarning istiqbolida balki atrof muhit muhofazasida ham qo’l keladi. Atrof muhit muhofazasida ekologik hodisa jarayonlarning rolini kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish samarasi qishloq xo'jaligi sohasida ham qo’llanilishi oziq ovqat, cho’llashish, iqlim o’zgarishi muammolariga qarshi turishda foyda berishi mumkin.

Adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-son Farmoni.
2. Yarashev Q.S., Xasanov P.A. Landshaftlarni qishloq xo‘jalik maqsadlarida tadqiq etishning nazariy asoslari// Ilim hám jámiyet. №5/1. -Nukus, 2024. 49-52 b.
3. Xasanov P.A. Surxondaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi landshaftlarining shakllanishi// Экономика и социум. №12(115) -Саратов, 2023. -С. 193-198.
4. Ярашев Қ.С., Эшкувватов Б. Парагенетик ландшафт комплекслари ва уларни ГИС ёрдамида карталаштириш масалалари (Сурхондарё ботиғи мисолида) //Ўзбекистонда географиянинг долзарб муаммолари. -Самарқанд, 2009. –Б. 46-49.
5. Xasanov P.A. Landshaftlarning shakllanishida tuproqlarning o‘rni (Surxondaryo viloyati misolida) // Экономика и социум. №5(120)-2 Саратов, 2024. -С. 817-822.
6. Ярашев Қ.С. Сурхондарё ботиғи геоэкологик ҳолатини оптималлаштиришнинг географик асослари // Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 51- жилд. - Самарқанд. 2017. Б. 63-67.
7. Xasanov P.A. Landshaftlardan foydalanishda turli yondashuvlarning qo’llanilishi va tizimli yondashuv // FarDU ilmiy xabarlari. № 6. -Farg’ona, 2024. 250-256 b.
8. www.agro.uz

ANTROPOGEN LANDSHAFTLARNI TADQIQ ETISHNING ILMIY VA NAZARIY ASOSLARI

Xurramova Nazira Xurram qizi
SamDU tayanch doktoranti
Samarqand.
naziraxurramova4@gmail.com

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170019*

Inson va tabiat tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib ularni birisiz ikkinchisini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki insonning mavjudligi tabiatdagi resurslar bilan bog‘liq bo‘lsa, tabiatning ham qay holatda mavjudligi insonning xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liqdir va inson bu jarayonda faol ishtirok etadi. Inson faoliyatining tabiatga ta‘sirini kuchayishi natijasida landshaftlarning katta maydonlarda o‘zgarishiga olib keladi. Insoniyat haqiqatdan ham Vernandskiy aytganidek qudratli bir geologik kuchga aylanib qolmoqda Yerning landshaft qobig’ida uning komponentlari orasida millionlab yillar mobaynida yuzaga kelgan nomutanosiblik ekologik muvozanatning holati ko‘p jihatdan insonning xo‘jalikdagi faoliyati miqyosiga uning tabiiy resurslardan qanday foydalanishiga bog’liq bo’lib qolmoqda. Tabiiy muhitga inson faoliyatining salbiy ta’siri, uning holatini yaxshilash muammolari yechimini topish zarur. Bunda antropogen landshaftlar haqidagi ta’limot ilmiy nazariy asos bo’lib xizmat qiladi.

Insonning xo‘jalikdagi faoliyati natijasida tabiiy geografik sharoitda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni ilmiy tahlil qilishga birinchi bo‘lib urunib ko‘rganlardan biri amerikalik geograf olim J.P.Marshdir. Taniqli rus olimlaridan V.V.Dokuchaev va A.I.Voeykovlar ham o‘z asarlarida inson faoliyati natijasida tabiiy komponentlarning o‘zgarishini chuqur tahlil qilib ko‘rganlar. Bu masala keyinchalik ham tabiatshunos olimlarning e’tiboridan chetda qolmagan. Ayniqsa L.S.Berg, A.D.Gojev, L.G.Ramenskiy, V.N Gorodkov kabilarning ishlarida ushbu mavzuning faqat nazariy tomonlarigina ta’kidlanib qolmasdan, balki inson bilan tabiat aloqalarining mohiyatini ochib berishga ham urinib ko‘rilgan. XX asrning 40-50-yillarida geografik adabiyotda “madaniy landshaftlar” yoki “o‘zgartirilgan landshaftlar”ga bag‘ishlangan ilmiy maqolalarning birin-ketin paydo bo‘lishi, masalan, Yu.G. Saushkin, V.L. Kotelnikov, B.V. Bogdanov va h.k., antropogen landshaftshunoslik poydevorining shakllanishiga kuchli turtki bo‘ldi. Bu borada, ayniqsa, Yu.G. Saushkinning “Madaniy landshaftlarni o‘rganish uchun geografiyaning alohida tarmog‘i bo‘lishi kerak” degan fikri muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning 1947- yilda nashr qilingan monografiyasida esa qishloq xo‘jalik landshaftlari haqida jiddiy fikrlar keltirilgan.[23; 8-b.].

Antropogen landshaftlarning tabiiy sharoiti o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsada, ular qaysi geografik zona yoki hududda joylashgan bo‘lsa, shu zonaning tabiiy sharoiti bilan bog‘liq holda rivojlanadi va tabiiy qonuniyatlar asosida taraqqiy etadi. Ular o‘zining xo‘jalikda foydalanishiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: madaniy va madaniy bo‘lmagan landshaftlar [20; 3-224 b.].

D.V. Bogdanov [7; 300-321 b.] landshaftlarni madaniy va o‘zgartirilgan, I.M. Zabelin [12; 5-176 b.] tabiiy-antropogen va madaniy, A.G. Isachenko [13; 6-13 b., 69;] buzilgan (kuchli o‘zgartirilgan) va o‘zgartirilgan (madaniy) landshaftlarga ajratishadi.

K.Bauerning fikricha, inson o'zining yashaydigan hududi doirasida yerlarni o’zgartirib madaniy landshaftga aylantiradi. Bu sistemada madaniyat faol agent bo'lib, tabiiy muhit vosita, madaniy muhit esa natija bo'lib xizmat qiladi. [15; 3-264 b]

V.V.Dokuchayev, A.I.Voyeykov, V.V.Alyoxin va boshqalarning olib borgan ishlari natijasida inson xo'jalik faoliyati ta'sirida o'zgargan landshaftlar "madaniy landshaft" deb atala boshlagan. F.Zigrayning fikricha "Madaniy landshaft" so‘zi N.Krebs tomonidan fanga kiritilgan. [5; 9-20 b., 24; 5-208 b.].

Ya.Demek fikriga ko’ra “madaniy landshaft tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geotizmlardan tashkil topgan aralash (gibrid) supertizimdir”. Shuningdek u madaniy landshaftlarni 9 ta turga ajratadi: 1) o’rmon landshafti; 2) qishloq xo’jaligi landshafti; 3) yaylov landshafti; 4) plantatsiyalar va bog’lar landshafti; 5) sanoat landshafti; 6) kon landshafti; 7) urbanizatsiyalashgan hududlar landshafti; 8) rekreatsion landshaft; 9) milliy bog’lar va qo’riqxonalar. [16;3-223 c]

Tabiatda antropogen landshaftlar mavjudligini, ularning turli-tumanligini landshaftshunos olimlar birdaniga emas, balki asta-sekinlik bilan tan ola boshlashgan. “Antropogen landshaft” termini rossiyalik geograflar A.D.Gojev va B.N.Gorodkov tomonidan taklif qilingan. A.D.Gojev 1930-yilda birinchi bo'lib antropogen landshaftlarni tabiiy kompleks sifatida ajratadi [21; 71-74 b.]. Keyinchalik antropogen landshaft konsepsiyasini F.N.Milkov ilmiy jihatdan asoslab berdi [20; 3-224 b.] va bu kontseptsiya u yaratgan ilmiy maktab namoyandalari tomonidan rivojlantirildi [1; 123-128 b., 2; 16-21 b., 19; 5-260, 6;3-136].

Hozirgi kunda antropogen landshaftshunoslik yo'nalishining asoschisi F. N. Milkov ekanligini ko'pchilik geograflar tan olishadi. Shu sohada qator ilmiy asarlar yaratgan bu oliming fikricha, “insonning xo'jaligidagi faoliyati natijasida yangidan barpo bo'lgan landshaftlar ham, inson ta'sirida birorta komponenti tubdan o'zgargan tabiiy majmualar ham antropogen landshaft hisoblanishi kerak”deb yozgan edi.

V. Kalesnik, A.G. Isachenko [13; 3-368 b.] lar landshaftning to'liq o'zgartishi uchun uning geologik asosi, ya'ni fundamenti ham o'zgartirilishi kerak deb ta'kidlaydi. [6;3-136]

Bu fikrlarga qo’shilgan holda V.I.Prokayev “faqat geologik-geomorfologik asosi inson tomonidan o’zgartirilgan geokomplekslarnigina antropogen geokompleks deb atashimiz mumkin” deb yozadi. Bundan tashqari u landshaftning ayrim komponentlari inson tomonidan o’zgartirilgan bo’lsayu, ammo geologik-geomorfologik zamini o’zgarmay qolgan bo’lsa, bunday landshaft inson ta’siri to’xtagan taqdirda o’zining avvalgi holatiga qaytadi. Bularni olim antropogen modifikatsiya deb hisoblaydi. [22; 23;3-68]

L.I.Kurakovaning fikriga ko’ra, landshaftlarning eng umumiy xususiyatlaridan biri shundaki unda bironta komponent o‘zgartirilsa boshqa komponentlar ham landshaft ham butunlay o’zgaradi. Chunki ular bir-biri bilan zanjirsimon bog’langan.

Tabiiy geograflardan A.M.Ryabchikov, E.V.Milanova, N.A.Gvozdeskiylar ham landshaftlarni tubdan o‘zgartirish uchun ularning barcha komponentlarini o‘zgartirib o‘tirish shart emas, ulardan faqat birini o‘zgartirish kifoya , yangi landshaft hosil bo‘ladi, degan xulosaga kelishgan.[23;3-68]

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, antropogen landshaftlar, ularning paydo bo’lishi, rivojlanishi haqida turlicha va bir-biriga qarama-qarshi fikrlar mavjud. Bunga sabab antropogen landshaftshunoslik yo’nalishi nisbatan yangi yo’nalish va uni tadqiq qilgan olimlarning turli ilmiy maktab namayondalari ekanligidadir. Bizning fikrimizcha Antropogen landshaftlar inson faoliyati natijasida shakllangan yoki o’zgarishga uchragan geografik hududlardir va landshaftlar antropogen landshaft bo’lishi uchun ularning fundamenti geologik-geomorfologik asosi o’zgarishi shart emas. Landshaft komponentlaridan biriga tashqi tasir qilishning o’zi kifoya qolgan elementlarda ham o’zgarish sodir bo’ladi. Bu fikrlarni tadqiqotimiz davomida isbotlashga harakat qilamiz.

O‘rta Osiyo, xususan mamlakatimiz hududidagi antropogen landshaftlarni o'rganishni A.A.Abdulqosimov boshlab berdi va o'ziga xos ilmiy maktabga asos soldi. O‘zbekistonning antropogen landshaftlarini o'rganishga A.A.Abdulqosimov, B.V.Vinogradov, A.A.Rafiqov, A.Maqsudov, Sh.S.Zokirov, S.B.Abbasov, Q.S.Yarashev, S.I.Abdullayev, K.M.Boymirzaev, A.Xojimatov, R.Y.Holiqov, I.X.Jankobilov, Sh.Dusanova, M.S.Shamuratov va boshqa tadqiqotchilarning xizmatlari katta bo'ldi. Bundan tashqari O.T.Mirzamaxmudov, Yu.Abdurahmonova, K.Davronov, M.Nazarov, D.X.Jo‘raqulova va boshqalarning respublikamizning turli hududlari misolida olib borgan tadqiqot ishlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. A.A.Abdulqosimov [1; 3-18 b. «antropogen landshaft deb, Yer landshaft sferasining kuchli o'zgargan va o'zgartirilgan qismi bo'lib, insonning xo'jalik faoliyati tufayli

shakllangan» deb ta'kidlaydi. Ayrim manbalarda antropogen landshaft tushunchasining sinonimi sifatida “madaniy landshaft”, “o'zgartirilgan landshaft”, “texnogen landshaft”, “antropogen geosistema”, “bunyodkorlik geosistemalari” kabi terminlar ham qo'llaniladi. [4; 3-18 b.].

A.A.Abdulqosimov O‘rta Osiyo va O‘zbekiston hududlaridagi antropogen voha landshftlarining vujudga kelish va shakllanish tarixini tahlil qilib, 8 ta yirik markazga ajratadi: Bular 1) Janubi-g‘arbiy Turkmaniston, 2) Janubiy Turkmaniston, 3) Janubi-sharqiy Turkmaniston, 4) Janubiy O‘zbekiston, 5) Xorazm, 6) Janubiy Qizilqum, 7) Samarqand; 8) Farg’ona kabi tarixiy geografik markazlari. Maskur markazlarning har biri o‘zining vujudga kelishi va shakllanishiga ko’ra bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari A.Abdulqosimov antropogen landshaftlarni tasniflash masalasi bilan ham shug’ullanib O‘rta Osiyo hududidagi antropogen landshaftlarni 10 ta sinfga ajratgan va kartalashtirish ishlarini amalga oshirgan. Bular: sug’oriladigan qishloq xo’jaligi landshaftlari, voha seliteb landshaftlari, rekreatsion landshaftlar, sanoat landshaftlari va boshqa antropogen landshaft sinflari. [4;102-103-301-3-4-б]. A.N.Xojimatov Vohalar landshaftlari ularni tasniflash masalalari bilan shug’ullabgan. Q.S.Yarashev Surxondatyo botig’i antropogen landshaftlari, O.T.Mirzamaxmudov Farg‘ona vodiysi adir landshaftlarining antrogogen transfor atsiyasi va ularni kartalashtirish, M.G.Nazarov Qashqadaryo havzasi antroppgen landshaftlarini tasniflash, D.X.Jo‘raqulova Surxondaryo havzasi antropogen landshaftlarining shakllanishini tarixiy-genetik davrlashtirish bo’yicha tadqiqot ishlari olib borgan.

Tadqiqot ob’ektimiz hisoblangan O‘rta Zarafshon havzasining landshaft tuzilishi va ularni tasniflash, kartalashtirish bilan ko’plab tadqiqotchilar shug’ullanishgan.

L.A.Alibekov Zarafshon daryo havzasi va G’arbiy Zarafshon (Chaqilkalon, Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin) tog’larining tabiiy geografik sharoiti xususiyatlari hamda landshaft komplekslarini o’rganadi [8; 47-48 b.]. Zarafshon vodiysi misolida tog’-tekislik tizimining aloqadorligi, ularda modda va energiya almashinuvini, tog’ landshaftlarini morfologik birliklarga bo’lishda yonbag’irlar ekspozitsiyasi, balandlik, turli tipdagi tog’ jinslari, relef shakllari asosiy rolni o’ynaydi.

A. Raxmatullayev O‘rta va Quyi Zarafshon landshaftlarini har tamonlama o’rgangan va rayonlarga ajratgan. O‘rta Zarafshon havzasini 17 ta landshaftga bo’ladi. Bunda ushbu landshaftlarni 2 ta okrug ya’ni Samarqand botig’i okrugi va Xatirchi botig’i okrugi tarkibiga kiritgan. Olim tog’oldi tekisliklari va yirik botiqlarni landshaftlarga ajratishda joyning geologik va geomorfologik tuzilishi, genezesi, gipsometrik holati, iqlim xususiyatlarini inobatga olgan. [6;48-b,].

X.Jo‘raqulov Zarafshon tizmasi va unga tutash tekislik landshaftlarini kompleks o’rganadi va landshaftlarning ko’rinishini tektonik-geomorfologik va

iqlimiy omillarga tayangan holda turlarga ajratadi. Olim tadqiqoti natijasida landshaftlarni 42 turini aniqlaydi. X.Jo‘raqulov fikriga ko’ra bu 42 landshaft turi faqat shu yerda emas hatto ularni butun O‘zbekistonning boshqa hududlari va O’rta Osiyoda uchratish mumkin. [9; 69 b.]

Nafaqat O‘zbekiston balki O’rta Osiyo antropogen landshaftshunoslik fani asoschisi A. A. Abdulqosimov havza landshaftlarini 3 ta sinf va 15 ta landshaft komplekslariga bo’lib o’rgangan. Bundan tashqari shogirdlari Y. Abdurahmonova, K. Davranovlar bilan Zarafshon botig‘i voha landshaftlari va geoekologik holatini o’rgangan.

O‘.B.Badalovlar O‘rta Zarafshon havzasida rekreatsiya va turistik resurslarni rivojlantirish imkoniyatlari jihatidan o’rgangan va havza landshaftlarini ushbu imkoniyatlarga qarab sinf, kichik sinf va landshaft guruhlariga ajratgan.

B. Meyliyev O‘rta Zarafshon hududi landshaftlarida sodir bo‘layotgan hodisalarni GIS texnologiyalar yordamida o’rgangan va landshaftlardagi denamik o’zgarishlarni tahlil qilgan.

E. Ulug‘muradov O‘rta Zarafshon havzasidagi agrolandshaftlarning ekologik holati, unga ta’sir etuvchi manbalarni o’rgangan.

B.Eshquvvatov O‘rta Zarafshon landshaft komplekslarini qishloq xo’jalik maqsadlarida mikrozonalashtirish va rayonlashtirish bilan shug’ullangan.

Biz O‘rta Zarafshon havzasi landshaft tuzilishini o’rganib tahlil qilgan holda quyidagi sinflarga ajratdik: a) Agrolandshaftlar sinfi; b) Voxa-seliteb landshaftlar sinfi; d) Antropogen suv landshaftlar sinfi; e)Rekreatsion landshaftlar sinfi; f) chalacho‘l va yaylov landshaftlari sinfi; g) Chiziqli yo‘l landshaftlari sinfi; h) Sanoat-texnogen landshaftlar sinfi; i) Ko‘milib qolgan yoki madfun landshaftlar sinfi; j) Sakral landshaftlar sinfi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдулкасимов А. Антропогенные парагенетические комплексы Средней Азии //Вопроси географии, №106. М., 1977. –С. 123-128.
2. Абдулкасимов А. Историко-географические центры возникновения антропогенных ландшафтов //Известия Узбекистанского Географического общества. т.16. -Ташкент, 1990. -С.16-21.
3. Абдулкасимов А.А., Абдулкасимов А., Абдулкасимов И. Антропогенные ландшафты Средней Азии и вопросы экологии. -Т., 2004. -260 с.
4. А.А.Абдулкосимов, Ю.Х.Абдурахмонова, К.К.Давронов Зарафшон ботиги воха ландшафтлари ва геоекологияси. Монография. Тошкент- 2017.102-103-301-3-4-б
5. Абдуллаев С.И. Особенности формирования современных ландшафтов // Автореф. дис. кан. геогр. наук. -Москва, 1974. -20 с.
6. Абдуллаев С.И., Назаров М.Г Қашқадарё ҳавзасининг антропоген ландшафтлари ва уларнинг геоэкологик ҳолати. Монография. Қарши-2020.11;25-b.
7. Богданов Д.В. Культурныне ландшафты долин Помира и возможности их преобразования // Вопросы географии, вып.24. –М., 1951. –С. 300-321.b.

8. S.B.Abbasov, Q.S.Yarashev, O‘.B.Badalov O’rta Zarafshon havzasini rekreatsiya-turistik resurslari, ulardan foydalanishning geografik asoslari va istiqbollari.Monografiya. Samarqand-2023.48-b.
9. Jo‘rakulov X. Zarafshon tizmasi va unga tutash tekislik landshaftlarining differensiatsiyalanish qonuniyati.Monografiya. Samarqand-2024. 69-b.
10. Ш.Зокиров Антропоген ва Амалий ландшафтшунослик асослари. Тошкент. Университет нашрёти-1998.
11. Мильков Ф.Н. Человек и ландшафты. Очерки антропогенного ландшафтоведения. -М.: Мысль, 1973. -224 с.
12. Забелин И. М. Физическая география и наука будущего. – 2-е изд., доп. – М.: Мысль, 1970. – 176 с.
13. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение физико-географическое районирование. – М.: Высшая школа, 1991. – 368 с.
14. Арманд Д.Л.Наука о ландшафте. -М:. Мысль, 1975. -288 с.
15. Бауэр Л., Вайничке Х. Забота о ландшафте и охрана природы. -М.: Прогресс, 1971. -264 с.
16. Демек Я. Теория систем и изучения ландшафта. Пер. с чешского. М. : Прогресс 1977,223 с.
17. Исаченко А.Г. Теория и методология географической науки. – М.: Академия, 2004. – 400 с.
18. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение физико-географическое районирование. – М.: Высшая школа, 1991. – 368 с.
19. Lioubimtseva, E. and Henebry, G.M. Climate and environmental change in arid Central Asia – Impacts, vulnerability, and adaptations. Journal of Arid Environments, 73. 2009. -p.963-977.
20. Мильков Ф.Н. Человек и ландшафты. Очерки антропогенного ландшафтоведения. -М.: Мысль, 1973. -224 с.
21. Назаров М.Г. Қашқадарё вилоятининг антропоген ландшафтларини таснифлашнинг айрим масалалари // Илм-фан ва инновация. Илмий- амалий конференция материаллари. -Қарши, 2013. –Б.71-74.
22. Прокаев В.И. Физико-географическое районирование. М :, 1983.
23. Зокиров Ш.С. Антропоген ва Амалий ландшафтшунослик. Тошкент Университет-1998. 10;11-b.
24. Зокиров Ш.С. Ландшафтшунослик асослари (ўқув қўлланма). -Т.: Университет, 1994. -89 б.

TABIIY-ANTROPOGEN LANDSHAFTLAR RIVOJLANISHINING MAZMUN VA MOHIYATI HAMDA GEOEKOLOGIK QARASHLARNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI

Qarshiboyeva Shaxnoza G‘ayrat qizi,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Geografiya va tabiiy resurslar tayanch doktoranti
shaxnozaqarshiyeva84@gmail.com

Jomolov Eliyor Abdurasul o‘g‘li,
O‘zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligining Samarqand viloyat boshqarmasi davlat muassasasi
Samarqand Shahar Inson ijtimoiy xizmatlar markazi ijtimoiy xodimi
eliyorjomolov968@gmail.com

DOI: ***https://doi.org/10.5281/zenodo.15170028***

Annotatsiya. *Maqolada tabiiy-antopogen landshaftlarning rivojlanishi, ularga qanday tashqi jarayonlar ta’sir etib, asrlar va yillar davomida o‘zgartirgani haqida nazariy qarashlar haqida fikrlar berilgan. Bunga olimlar qanday fikrlar bildirgan va qanday turlarga va davrlarga bo‘lib o‘rgangani haqida so‘z yuritilgan. Landshaftlarni o‘zgarishida insoniyatning ro‘li, faoliyati qay darajada ta’sir etgan, kelajak uchun landshaftlarni asrab avaylash haqida zarurligini haqidagi nazariyalarni ilgari surdik.*

Kalit so‘zlar: *“Antropogen yuk”, landshaft qobig‘ining geoxrolonogik rivojlanishi, ekin ekish, hayvonlarni boqish, Antik davr, o‘rmonlarni kesish, manzara dizayni, yerlarni ishlash, qishloq xo‘jaligi, shaharsozlik va infratuzilma, iqlim o‘zgarishi.*

KIRISH. Insonlarning faoliyati davomida tabiat bilan o‘zaro ta’siri jamiyat taraqqiyoti mukammallashib, ishlab chiqarish usullari takommillasha borgani sari jadallashadi, tabiatdan, uning tabiiy boyliklaridan, qurilish va ishlab chiqarish, aloqa vositalari, yirik shaharlarni o‘zgartirib, yirik vohalar, madaniy landshaftlar yaratishga, hosildor ekin hamda mevalar, mahsuldor chorva mollari yetishtirishga imkoniyat yaratdi. Lekin ba’zan tabiatni chuqur o‘rganmasdan, undan foydalanish, undan qayta foydalanib bo‘lmaydigan darajada buzilshiga sabab bo’lmoqda. Buni yaqqol misoli sifatida tabiiy landshaftlarning kamayib qorayotganida ko‘rishimiz mumkin. Uning o‘rniga tabiiy-antropogen landshaftlar maydoni kengayib bormoqda. XIX asrgacha tabiatdan foydalanish ko‘lami uncha katta bo‘lmagani uchun inson faoliyatining tabiatga ta’siri ham kamroq bo‘lgan. XX asrning ikkinchi yarmida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi, qishloq xo‘jaligida turli kimyoviy moddalarning ko‘p qo‘llanilishi, katta maydonlarda muttasil bir xil ekinlarning yetishtirilishi, transport vositalari sonining me’yoridan oshishi, shaharlarning yiriklashuvi, tabiat muhofazasiga yetarlicha e’tibor berilmaganligi tabiiy muhitning buzilishiga, ayrim landshaftlarning tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun tabiatdan shaharlar qurishda, yo‘l o‘tkazishda, qishloq xo‘jaligida foydalanishda eng

avvalo landshaftlarning rivojlanish mazmun mohiyati bilib olishimiz zarur deb hisoblayman.

ASOSIY QISM. Tabiiy landshaftlar bu geologik, iqlimiy va biologik omillar ta’sirida shakllanadigan, o‘zaro bog‘langan yer yuzasining qismlaridir.tabiiy landshaftlarning rivojlanishining mazmuni va mohiyati bir necha omillarga bog‘liq.

Yuqorida aytganimizdek inson faoliyati davomida tabiatga ta’siri ortib borishi, tabiatni muayyan yo‘nalishda o‘zgarishiga sababchi bo‘ladi. Buning oqibatida turli xil landshaftlar shakllana boshlaydi. So‘nggi vaqtlarda antropogen ta’sirni ba’zi manbalarda “antropogen yuk” ham deb atalmoqda. Landshaftlarning o‘zgarish darajasining miqdori antropogen ta’sirning katta yoki kichikligi, ularning tabiiy xususiyatlari, morfologik shakllari kabilar bilan bog‘liqdir. Hozirgi sharoitda antropogen omil tabiiy landshaftlarning shakllanishi hamda o‘zgarishida asosiy omil hisoblanadi. Aholi sonining doimiy ravishda o‘sib borishi, urbanizatsiya darajasi rivojlana borgani sari, ishlab chiqarishda texnika va texnologiya takomillashgani sababli uning ro‘li ortib bormoqda.

Dastlab rus olimlaridan biri V.V.Dokuchayev, A.I.Voyeykovlar ilmiy ishlarida inson faoliyati ta’sirida tabiiy muhitning o‘zgarib borishi haqidagi qarashlarni ilgari surgan. Yu.G.Saushkin, V.L.Kotelnikov, B.V.Bogdanov antropogen landshaftshunoshlikning shakllanishiga turtki berdi. Ayniqsa Yu.G.Saushkinning (1946 yil) “Madaniy landshaftlarini o‘rganish uchun geografiyaning alohida tarmog‘I bo‘lishi kerak” degan fikri asos bo‘ldi. Bir yildan keyin (1947 yil) o‘zining monografiyasida qishloq xo‘jalik landshaftlari haqida aniq fikrlarini bayon qilgan. Antropogen landshaftlar haqidagi dastlabki tushunchalar XX asrda V.P.Semyonov-Tyanshanskiy tomonidan asoslangan bo‘lsa, antropogen landshaftlarni S.V.Kolesnik, N.A.Solnsev, A.G.Isachenko, F.N.Milkov, M.G.Sergeev, A.I.Perelman, V.B.Sochava va boshqa bir qancha olimlar o‘rgangan.

F.N.Milkov dastlab landshaft qobig‘ining geoxronologik rivojlanishini uch bosqichga bo‘lgan(1986 yil) va uchinchi bosqichni antropogen bosqich deb atagan edi. F.N.Milkov 1990 yilda qator izlanishlardan so‘ng antropogen bosqichni ham to‘rt davrga ajratib, tabiat bilan jamiyatning munosabatlarini uzoq tarixini asoslab bergan.

- Birinchi davr – Eng qadimgi – Yuqori paleolit 30 ming yil davom etgan;
- Ikkinchi davr – asosan mezolit (O‘rta va Yangi tosh asri, bronza asri);
- Uchinchi davr – Yangi davr (Temir asri);
- To‘rtinchi davr- eng yangi davr – XX asr o‘rtalaridan buyon.

Insonlar landshaftlarga ta’sir etishni eng qadimiy davrlardan boshlab amalaga oshirila boshlagan. Arxeologik va tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, odamlar tabiatga ta’sir ko‘rsatishni asosan neolit davrida boshlagan. Taxminan miloddan avvalgi 10,000-

12,000 yil oldin. Bu davrda odamlar qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullana boshladilar, yerni ishlov berishva ekinlar ekish uchun landshaftlarni o‘zgartirdilar. Bundan tashqari, antik davrda, eng ko‘p Misr, Mesopotamiya va Rimda landshaftlarga ta’sir ko‘rsatish an’anaviy faoliyatga aylangan. Suvni boshqarish, kanallar qurish va daraxtlarni kesish kabi ishlar ham shu davrda keng tarqalgan edi. Demak, insonlar tabiatga ta’sir ko‘rsatishni boshlagan davr- bu qishloq xo‘jaligining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, u neolit davrida amalga oshgan. Insonlarning tabiatga ta’sirini, landshaftlarni o‘zgartirish darajasini bir necha bosqichga bo‘lish mumkin:

1. Yuqorida aytganimizdek **Neolit davri** (taxminan 10,000-12,000 yil). Neolit davri insoniyat tarixidagi juda muhim davr bo‘lib, unda odamlar ovchilik va termachilikdan qishloq xo‘jaligiga o‘tishdi. Bu davrda odamlar o‘zlarining yashash joylarida ekinlar ekishni va hayvonlarni boqishni boshladi. Bu o‘zgarishlar landshaftlarda sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi:

- **Ekin ekish:** odamlar ekinlarni ekish uchun o‘zgarishlar uchun o‘zgarishlar kiritdi: yerlarni yerlarni kultivatsiya qilish va sug‘orish tizimlarini yaratdi.
- **Hayvonlarni boqish**: odamlar hayvonlarni boqib, landshaftlarni o‘zgartirish uchun yangi usullarni ishlab chiqdilar.

2. **Antik davr** (Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Rim imperiyasi) ham bir necha hududlarda turlicha:

- Misr va Mesopotamiya: Suvni boshqarish va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun insonlar muhim landshaftlarni o‘zgartirdilar. Masalan, Nil daryosining suvlari va Mesopotamiya daryolari atrofida suv omborlari, kanallar va suv ta’minoti tizimlari qurildi.
- Rim imperiyasi: Rimda ommaviy infrastrukturaviy loyiha sifatida landshaftlarni boshqarishning turli usullari joriy etildi. Masalan, agrosanoat tizimlarini rivojlantirildi, o‘rmonlarni kesildi va o‘ziga xos landshaftlarda qishloq xo‘jaligi kengaytirildi.

3. O‘rmonlarni kesish tabiiy resurslarni ishlatish:

- **O‘rmonlarni kesish:** O‘rmonlarni kesish va yerlarni dehqonchilikka yaroqli holga keltirish jarayoni odamalr tomonidan uzoq vaqtdan beri amalga oshirilmoqda. O‘rmonlarning kesilishi va tabiiy resurslarning ortiqcha ishlatilishi ekologik muammolarni keltirib chiqardi.
- **Qishloq xo‘jaligini kengaytirish:** Aholining ko‘payishi bilan birga, odamlar yangi yerlarni ishga solib, intensive qishloq xo‘jaligi bialn shug‘ullana boshladilar, bu esa landshaftlarning o‘zgarishiga sabab bo‘ldi.

4. O‘rta asrlar va feodalizm:

- **Yerlarni ishlash:** O‘rta asrlarda, ayniqsa Yevropada qishloq xo‘jaligi va dehqonchilik rivojlanishining ortiqcha ta’siri natijasida landshaftlar o‘zgardi. Feodalizm tizimi yerlarning boshqarilishini kuchaytirdi. Yirik fermerlar va yerlardan foydalanish uchun odamlar ko‘proq yerlarni o‘zlashtirdi.
- **Manzara dizayni:** O‘rta asrlarda cherkovlar, zamonaviy bog‘lar, qasrlar va manzara dizayniga qiziqish ortdi. Bu esa o‘sha davrda landshaft du=izayni bilan bog‘liq rivojlanishni keltirib chiqardi.

5. Industrlashgan va zamonaviy davr. XIX-XX asrlar:

- **Industrlashgan davr:** XIX-asrda sanoat inqilobi natijasida, katta sanoat inshootlari qurildi. Shuningdek, temir yo‘llar va shaharsozlik jarayonlari o‘zgarishlariga olib keldi. Bu davrda landshaftlar tezda o‘zgarib, tabiatga ko‘plab insonlar ta’siri boshlandi.
- **Shaharsozlik:** Shaharlar kengayib, yangi infratuzilma obyektlari qurilishi tufayli tabiiy landshaftlar o‘zgardi. Bu esa o‘z navbatida ekologik muammolarni keltirib chiqardi.

6. **Hozirgi zamon va ekologik ta’sir:** Hozirgi kunda insonlarning landshaftlarga ta’siri yanada kuchaygan. Ko‘plab o‘rmonlar kesilgan, hududlar sanoat va qishloq xo‘jaligi uchun ishlatilgan. Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va boshqa ekologik muammolarning sababi sifatida inson ta’siri ko‘rinadi.

- **Qishloq xo‘jaligi:** Hozigi vaqtda intensiv qishloq xo‘jaligi va agrar sanoat landshaftlarga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Kimyoviy o‘g‘itlar, pestitsitlar va bohqa texnologiyalar tabiiy muvozanatni buzadi.
- **Shaharlar va infratuzilma:** Yangi shaharlar qurilishi va infatuzilma obyektlarining kengayishi tabiiy landshaftlarni Keskin o‘zgartiradi.
- **Iqlim o‘zgarishi:** iqlim o‘zgarishi insonlarning tabiatiga ta’siri natijasida yuzaga kelayotgan global muammo bo‘lib, bu landshaftlar va tabiiy resurslarga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.

XULOSA. Tabiiy-antropogen landshaftlar rivojlanishining mazmuni va mohiyati, inson faoliyatining tabiiy muhitga ta'sirini o'rganishning ilmiy asoslarini yaratadi. Ushbu landshaftlar tabiiy jarayonlar va inson faoliyatining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Landshaftlarning rivojlanishidagi antropogen omillar, ekologik muvozanatning buzilishi va geoekologik o'zgarishlar ahamiyatli o'rin tutadi. Geoekologik qarashlar esa landshaftlar tizimidagi ekologik holatni tahlil qilish, tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvni ifodalaydi. Bugungi kunda tabiiy va antropogen omillarni hisobga olgan holda landshaftlarni saqlash va tiklash borasida yangi yondashuvlar, ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy-antropogen landshaftlarni

o'rganish nafaqat ekologik muammolarni hal qilish, balki barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirishda ham katta ahamiyatga ega. Insonlar o‘z faoliyatlarini boshqarish va hayotini yaxshilash uchun doimiy ravishda landshaftlarga ta’sir ko‘rsatgan. Bu jarayonlarning ba’zilari ijobiy natijalar bergan bo‘lsada, ba’zi hollarda ular ekologik muammolarga sabab bo‘ldi. Shunday qilib, tabiiy-antropogen landshaftlarni chuqur ilmiy tahlil qilish va geoekologik qarashlarni rivojlantirish, yerning ekologik holatini saqlash va yaxshilashda zarur bo'lgan ilmiy asoslarni yaratadi. Bugungi kunda landshaftlarning barqarorligini saqlash uchun yanada ongli yondashuvlar zarur bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.R.Alimkulov., “Antropogen lanshaftlarni tadqiq etish asosida landshaft-ekologik sharoit tushunchasining shakllanishi” SamDU ilmiy axborotnomasi, 2023 yil 3-son 2-seriya.
2. Abulqosimov A.A., Nazarov M.G., “Antropogen landshaftlarni tadqiq etishning nazariy asoslari”. O‘zGJA, 40-jid. Toshkent 2012 yil.
3. Zokirov Sh.S., “Amaliy va antropogen landshaftshunoslik”. Toshkent. “Universitet”. 1997 yil.
4. Исаченко А.Г., Ландшофтоведение и физико-географическое районирование. – М: Высшая школаб 1991.
5. Милков Ф.Н., Вопросы теоррии антропогенного ландшафтоваведения.- Землеведение., Из-во МГУ. Т (50). М.: 1974.
6. Милков Ф.Н. Принсипы выделенеия антропогенных ландшафтов. В кн: Каменная степь. Воронеж.:1971.С-207.
7. Rahmatullayev A., Tabiiy landshaftlarning o‘zgarishlari va ekologik xavflar. Toshkent. “Fan va texnologiya” 2015 yil.
8. Frolov V. Antropogen ta’sirlar va yer yuzasining o‘zgarishlari. Moskva. Akademiya. 2018 yil.
9. Google ma’lumotlari.

AGROLANDSHAFTLARDAN OQILONA FOYDALANISH MASALALARI

Xasanov Primjon Ashurovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
xasanovprimjon88@gmail.com

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170141*

Annotatsiya: *Maqolada qishloq xo’jalik landshaftlarining tabiiy geografik jarayonlar va inson omili tufayli har xil miqyosdagi ekologik vaziyatlarga duch kelayotgani, ba’zi jabhalar uchun yangicha yondashuv zarurati haqida so’z boradi. Agrolandshaftlarda iqlimiy omillarning hissasi va geoekologik muammolarning yechimi izlanib, buning uchun sohada tizimli yondashuv qo’llanilishi kerak.*

Kalit so‘zlar: *landshaft, agrolandshaft, qishloq xo’jaligi, foydalanish, yondashuv, atrof muhit, ekologik*

Аннотация. *В статье говорится о том, что агроландшафты сталкиваются с экологическими ситуациями различного масштаба, обусловленными природно-географическими процессами и человеческим фактором, и необходимость нового подхода к некоторым аспектам. В агроландшафтах следует искать вклад климатических факторов и решения экологических проблем, и для этого следует использовать системный подход в полевых условиях.*

Ключевые слова: *ландшафт, агроландшафт, сельское хозяйство, использование, подход, окружающая среда, экологический.*

Annotation. *The article discusses the fact that agricultural landscapes are facing environmental situations of various scales due to natural geographical processes and the human factor, and the need for a new approach to some aspects. The contribution of climatic factors and solutions to environmental problems in agrolandscapes is sought, and for this a systematic approach should be applied in the field.*

Keywords: *landscape, agrolandscape, agriculture, use, approach, environment, ecological.*

Kirish. Hozirgi kunda yurtimizda sug’orma dehqonchilikka asoslangan yerlar 4.2 mln g ani tashkil etgani holda, agrolandshaftlarda insonning tabiiy muhitga ta’sir faoliyati eng sodda, ammo bir vaqtning o’zida “murakkablashayotgan” geotizimdir [2,3;]. Qishloq xo’jaligi sohasida insonlar qadimdan yer va undagi tabiiy resurslardan foydalanishni o’rgandi. Ushbu foydalanish yaqin uch asrda tezlashib hozirda o’zining eng cho’qqisiga chiqdi. Tabiiy resurslar moddiyatga bog’langan tartibsiz tizim orqali rivojlantirilsa butun hudud uchun jiddiy xavf keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari tabiiy geografik jarayonlar ham antropogen ta’sirdan ko’ra tez va kuchliroq sezilmoqda. Birgina iqlim o’zgarishi hisobiga: O’zbekiston hududida noodatiy iqlim anomaliyalari shakllanib bormoqda. Bug’lanish yanada kuchaygan holda namlik kerakli davrda emas boshqa davrlarda yog’ishi, ekinlarga bo’lgan salbiy ta’sir ortishi, tuproqlardagi namlikning kapilyar tomirlar orqali bug’lanib sho’rlanishni tezlatishi, eng past harorat va eng maksimum haroratlar orasidagi farqning kattalashib borishi

kabi ko’rinishlarga ega. Bularning barchasi insoniyatning asosiy “dastruxoni” qishloq xo’jaligiga katta ta’sir etadi.

Asosiy qism. Agrolandshaftlardan foydalanishda tizimli kompleks yondashuv orqali - ham antropogen, ham tabiiy geografik jarayon, hodisa va vaziyatlarni izga solish mumkin. Masalan iqlim o’zgarishini yumshatishda bir xil ekinlar ekiladigan qishloq xo’jaligi landshaftlarida dala ariqlari cheti, har bitta agromaydonning to’rt tomonini mahalliy sharoitga yaxshi moslashadigan daraxtlarni ekish ayni shu yerning kichik mikroiqlim sharoitini keltirib chiqarib, juda ko’plab ekologik muammolarni oldini oladi. Vaholanki ayrim joylarda mavjud ekilgan daraxtlar soni kam hisoblanib, daraxtlar oxirigacha parvarishlansa, doimiy yashillik hisobiga agrolandshaftlarda bir qator funksional ijobiy o’zgarishlar sodir bo’ladi. Misol uchun tut daraxti tez o’sishi, pillaga ozuqaligi, sho’r tuproqlarga moslashganligi bilan birga mahalliy arid iqlim agrolandshaftlarida uzoq yillar yashaydi. Ayniqsa tuproqlarda sho’rlanishning yengil darajalarini oldini olishda optimal variant hisoblanadi. Yana shuningdek, Respublikamizda tabiiy o’rmonzorlar maydoni 5.3 mln ga yoki (11,8 foiz), o‘rmon bilan qoplangan yerlar maydoni esa 3,5 mln. ga ni, (7,7 foizi) tashkil etgani holda doimiy yashillikni asosiy manbai sifatida ko’zga tashlanadi [1,3;]. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, dala chetlarida ekilishi mumkin bo’lgan daraxtlar miqdor balansi o’rmonzor hududlar bo’yicha mavjud ekotizim bilan tenglasha oladi. Agrolandshaftlarda ekilgan madaniy o’simliklarni yetishtirish va hosildorlikni oshirishda tarkiban me’yor darajasida kimyoviy elemelementlardan ham foydalaniladi. Masalan, (*30 sentnerdan har gektariga paxta hosili olinsa, o’rtacha 180- 210 kg azot, 40-50 kg fosfor, 150 kg dan ortiq kaliy, 30-40 kg oltingugugurt, magniy, natriy va boshqa meniral*) ozuqalarni talab qilsada ba’zi holatlarda bu miqdorning oshganini kuzatamiz. Qishloq xo’jalik mahsulotlarini ko‘paytirishda sifatini yaxshilash va dehqonchilikda ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish agrokimyoviy uslub nihoyatda muhimdir. Sababi dehqonchilikda mineral o’g’itlardan noto’g’ri foydalanish atrof muhitda ekologik muvozanatni buzib, barcha landshaft komponentlarida seziladi. Tuproqlar sho’rlashib agrokimyoviy holati yomonlashadi va hosildorlikning pasayishi yuz beradi. Agrolandshaftlarda suv eroziyasi, shamol eroziyasi, bundan tashqari ekinlarning hosili bilan biogen elementlar (*1 t mahsulot birligida 16-17 kg azot, 1-27 kg fosfor*) tuproqdan chiqib ketadi [2,4,5;]. Mazkur vaziyatda eng maqbul chora sifatida organik o’g’itlashning samarasi yuqori hisoblanadi. Tuproq tarkibining boyligi, hosildorlikga bevosita aloqador bo’lib, gumus miqdorining holatini tiklash kerak bo’ladi.

Hozirgi davrga kelib dehqonlar ekologik jarayonlardan tashqari suv tanqisligi kabi vaziyatlarga ham ro’baru bo’lmoqda. O’zbekiston hududida umumiy qishloq xo’jaligi iste’moliga har yili ajratiladigan limit suv miqdori yildan yilga kamayish

tendensiyasiga ega bo’lib bormoqda. Qishloq xo’jaligini yuritishda tabiiy sharoitning eng birinchi zarur kategoriyasi suv hisoblanadi. Demak suvdan foydalanishda tejamkor, samarali va oqilona yo’llar bilan masalani yechish mumkin. Tuproqlarda elementlardan natriy, xlor, sulfat birikmalarining ko‘pligi, geoekologik muammolarga sabab bo’ladi. Yuqoridagi barcha muammolarni atroflicha o’rganib baholash, tahlil qilish hamda eng oqilona samaradorlikni ko’zlash lozim.

Xulosa. Agrolandshaftlarda har yili tashkil etiladigan dehqonchilik yerlari ko’plab biogen elementlarning kichik aylanma harakatiga sabab bo’ladi. Yurtimiz bo’yicha barcha tabiiy geografik rayonlarida qishloq xo’jaligi landshaftlarini rivojlantirishning - landshaft omili asosida hududlarning talab, takliflarini optimal o’rganish orqali tashkil etish zarur. Mazkur vaziyatda quyidagi taklif va tavsiyalar landshaftlardagi jabhalarda qo’llanilishi maqsadga muvofiq:

- agrolandshaftlarni to’liq zamonaviy asosda tadrijiy va tahliliy baholash;
- agrolandshaft komponentlarida bo’ladigan har bir o’zgarishni boshqarishda GAT dan foydalanish;
- ekologik vaziyat va jarayonlarda inson omilining o’rnini aniqlashtirish;
- barqaror qishloq xo’jaligi landshaftlaridan foydalanishni tizimli yo’lga qo’yish asosida juda ko’plab muammolarni (*cho’llashish, iqlim o’zgarishi, suv tanqisligi, tuproq sho’rlanishi va b.*) bartaraf etish;
- agrolandshaftlarning turli xil texnogen ifloslanishning oqibatlari (*og’ir metallar va toksikant elementlar*) ta‘sirini kamaytirish;
- biologik xilma xillik indeksini oshirish va atrof muhit muhofazasi dasturiga oid yangicha tizimli yondashuv va b.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Yarashev Q.S., Xasanov P.A. Landshaftlarni qishloq xo‘jalik maqsadlarida tadqiq etishning nazariy asoslari// Ilim hám jámiyet. №5/1. -Nukus, 2024. 49-52 b.
2. Xasanov P.A. Landshaftlardan foydalanishda turli yondashuvlarning qo’llanilishi va tizimli yondashuv // FarDU ilmiy xabarlari. № 6. -Farg’ona, 2024. 250-256 b.
3. Xasanov P.A. Landshaftlarning shakllanishida tuproqlarning o‘rni (Surxondaryo viloyati misolida) // Экономика и социум. №5(120)-2 Саратов, 2024. -С. 817-822.
4. Xasanov P.A. Tabiiy landshaftlarning antropogen modifikasiyalanishi va agrolandshaftlar o‘rganilish tarixi // Экономика и социум. №12(115) -Саратов, 2023. -С. 380-390.
5. Xasanov P.A. Landshaftlarni qishloq xo‘jalik maqsadlarida baholashning ustuvor yo‘nalishlari// Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. -Nukus, 2024. 98-101 b.

MOLGUZAR TOG‘I REKREATSION OB’EKTLARIGA TAVSIF (Azim Zomin shifo va Uob bolalar oromgohi misolida)

Janizoqova Gulshoda Murodovna
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: janizoqovag@gmail.com

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170156*

Annotatsiya: *O‘zbekiston hududi aholisining dam olishi, davolanishi, sog`lomlashtirish maskanlari xizmatiga talabi juda katta bo‘lishiga qaramasdan, rekreatsiya maqsadlarida kam o‘rganilgan. Ushbu maqolada rekreatsion ob’ektlarning dam olishdagi ahamiyati haqida qisqacha fikr yuritilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *rekreatsiya, dam olish, sanatoriya, dam olish uylari, sayyohlik, sog`lomlashtirish, davolanish, kurortlar, sog'lomlashtirish sanatoriylari, shifobaxsh balchiq.*

Turkiston tizmasining eng shimoliy-g`arbiy tarmog`ida Molguzar tog’i tizmalari joylashgan bo`lib, g`arbdan sharqga 70 km masofaga cho`zilgan. Molguzar tizmasi shimoliy yonbag`ri tog’ va tog’oldi tekisligi 39^0 va 40^0 shimoliy kengliklar oralig`ini, $68^0$ sharqiy uzunlik atrofini o`z ichiga oladi. Molguzar tizmasi Sangzor daryosi havzasining shimoliy suvayirg`ichi hisoblanadi. Sharqda G’uralash dovonidan shimoli-g’arbda Amir Temur darvozasigacha (Ilono’tdi darasi) davom etadi. Molguzar tizmasi g’arbdan (900 m) sharqqa tomon ko’tarilib boradi. Eng baland nuqtasi Sho’rbel dovoni (2621 m) ni tashkil etib, deyarli tog` tizmasining markaziga to’g’ri keladi.

Molguzar tog`i o‘zining tabiiy, madaniy-tarixiy majmualarning turli-tumanligi bilan dam oluvchilarni doimo o‘ziga jalb etadi va ular uchun ko‘rsatilayotgan servis xizmatni takomillashtirishga juda katta ehtiyoj sezadi. Ekskursiyalar, dorivor o`t-o`simliklar yig`ish, tog‘ sport o‘yinlari o‘ynash, cho‘milish mashg‘ulotlari, iqlimiy, balchiq yordamida davolash, tabiat qo‘ynida sayr qilish kabi omillar organizmning faoliyatini qayta tiklashga ko‘mak beradi. Rekreatsiya maqsadlari uchun ayniqsa, Molguzaring sharqiy hamda shimoliy-g`arbiy hududlarida dam olishni samarali tashkil etishda foydalaniladigan hududlarni kartalashtirib, tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo‘llarini belgilab olib, rekreatsiya resurslaridan foydalanish usullarini ko‘rsatib berish muhimdir.

Sog‘lomlashtirish muassasalari, rekreatsiya resurslarini aholi Molguzar tog`i landshaftiga ilmiy asosda munosabatda bo‘lish, ya’ni tabiiy landshaft yoki tabiat yodgorliklari; jumladan, tabiatning nodir joylari va o‘rmonlari, Yettikechuv havzasi hamda Uob qishlog`i atrofidagi kichik-kichik va minerallashgan buloq suvlari o‘z holicha saqlanishi kerak. Bu o‘rinda hududda ma’lum darajada ijobiy ishlar qilinmoqda. Chunonchi, «Sh.Rashidov», «Bobur», «Navro`z» kabi yozgi dam olish oromgohlari asosan viloyat aholisi uchun xizmat qilib kelmoqda. Bundan tashqari,

hududdan qo‘shni viloyatlarni bog‘lab turuvchi avtomagistral yo‘l o‘tganligi, bu joylarda mavsumiy Uobsoy, Yettikechuv, Zominsuv soylari tabiati qo‘ynida, mineral va buloq suvlaridan sog‘liqni mustahkamlash maqsadida foydalanish imkoniyatlari ko‘p. Oromgohlarda bolalarni vatanparvarlik, umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya ishlarini hamda madaniy-ma’rifiy tadbirlarni ta’lim, fan, madaniyat, adabiyot va san’at sohalarining vakillari ishtirokida tashkil etiladi, bundan tashqari sog`lom turmush tarzini mustahkamlashga qaratilgan turli xil tadbirlar tashkil etiladi.

Mavjud resurslarga alohida e’tibor qaratgan holda iqtisodni ko‘tarish manbai bo‘lgan rekreatsiya resurslarning barcha tiplarini rivojlantirish zamon talabi bo‘lib kelmoqda. O‘zbekistonda sog‘lomlashtirish va butun organizm faoliyatini yaxshilash uchun tabiiy dori vositalari bilan mashhur bo‘lgan ko‘plab oromgohlar mavjud.Qoida bo‘yicha, odamlar bunday joylarga uchta sababga ko‘ra boradilar: 1) sog‘lomlashtirish muolajalari uchun, 2) mineral suv uchun, 3) shifobaxsh balchiq uchun. Shifobaxsh va issiq suvli oromgohlar odatda, buloq qaynab chiqqan joyda joylashgan bo‘ladi. Ming yillar davomida shakllangan va o‘z bosimining kuchi ostida, chuqur tuproq va jinslardan o‘tib, suv foydali tabiiy gazlar va minerallar bilan to‘yinadi. Davolovchi balchiq, turli suv havzalarining cho‘kindilari sifatida muhim shifo manbai hisoblanadi.

O`zbekiston tabiatining rekreatsiya qiymati uning hudud landshaftlarining xilma xilligi bilan belgilanadi. O`zbekiston tabiiy hamda antropogen rekreatsiya resurslariga boydir. Xuddi shu kabi Molguzar tog` hududi ham tabiiy hamda antropogen rekreatsiya resurslariga boy hududlaridan biri hisoblanadi[1].

Sog'lomlashtirish sanatoriylari - bu ixtisoslashtirilgan muassasalar bo'lib, ularning asosiy vazifasi turli xil sog'lomlashtirish protseduralari va faol dam olishni tashkil etish orqali kasalliklarning oldini olish va salomatlikni mustahkamlashdir. Bunday sanatoriylarda malakali tibbiy mutaxassislar ishlaydi, ular har bir bemor uchun uning tibbiy ko'rsatkichlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda individual dasturlarni ishlab chiqadi[2]. O‘zbekiston Respublikasining Yer Kodeksning 71-moddasida: Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan yerlardan iboratdir deyiladi[3]. Molguzar tog’i hududida Qo’riq massivida joylashgan Azim Zomin shifo dam olish va sog’lomlashtirish maskani ham huddi shunday muhofaza etiladigan hududda joylashgan hisoblanadi. “Azim Zomin Shifo” — Jizzax viloyatining Zomin tumanida joylashgan iqlimiy kurort, dam olish maskani bo’lib,

[1] Rekreatsiya resurslaridan unumli foydalanish va ularni muhofaza qilish, Arxiv.uz
[2] https://www.goldenpages.uz/uz/blog/article/ozdorovitelniy-sanatoriy/
[3] https://lex.uz/docs/5735396

o’zining salqin va o’zgacha betakror tabiati bilan dam oluvchilarni o’ziga chorlab kelmoqda. Zamonaviy me’morchilik an’analarini o’zida mujassamlashtirgan dam olish va sog’lomlashtirish maskani, musoffo havo, quyosh nurlarining mo’lligi, ultrabinafsha radiatsiyasining yuqorililigi iqlimiy profilaktikalar o’tkazishga qulay sharoitlar yaratadi. Sog’lomlashtirish va dam olish maskanida barcha qulayliklar mavjud bo’lib, ikki o’rinli xonalar, oilaviy dam olish uchun kottejlar dam oluvchilarimiz uchun maxsus tayyorlangan. Bundan tashqari, davolash diagnostika bo’limi zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan bo’lib, malakali mutaxasislar tomonidan tibbiy xizmatlarimiz ko’rsatiladi. Ushbu maskanda ultratovush tekshiruvlari, EKG, EXO doplerografiya, keng tarmoqli biokimyoviy IFA tekshiruvlari, davolash tasxishlash xizmatlari yo’lga qo’yilgan. Yuqori malakali kardiolog, nevropatolog, urolog, ginekolog, stomatologiya shifokorlari tamonidan ambulator va statsionar sharoitda davolash ishlari olib boriladi. Yana shuni aytish mumkin-ki, yuqori va past chastotali toklar bilan davolash, umurtqa pog’onasini kompyuterli tortish, suv muolajalari, Kedr bochkasi, balchiq va parafin ozokerit bilan davolash, terrenkur davolash, jismoniy tarbiya, basseyn, giyohli fitodamlamalar va parxez ovqatlanishlar yo’lga qo’yilgan.

Ushbu sog`lomlashtirish maskani hovlisida so’lim bog’ mavjud bo’lib, yo’laklarda o’rnatilgan o`rindiqlarda siz tabiatdan bahra olib oqib turgan Zominsuv daryochasi esa dam oluvchilarning asab faoliyatingizni tinchlantirish uchun xizmat qiladi. Dam olish maskanining xonalariga keladigan bo`lsak dam oluvchilarning xohish va istaklariga binoan turli xildagi xonalar mavjud. Birinchi turdagi bu Lyuks turdagi xonalar keng va shinam qilib qurilgan bo‘lib, unda yotoqxona va keng mehmonxona zalidan iborat. Bu turdagi xonalar 2 xonali hisoblanadi. Konditsioner, IPTV(raqamli televediniya), muzlatkich bilan jihozlangan. Ushbu xonalarda balkon ham mavjud bo‘lib, dam oluvchilar ochiq havodan bahra olishlari mumkin. Ikkinchi turdagi xonalar yarim lyuks turdagi xonalar shinam qilib qurilgan bo‘lib, unda yotoqxona va balkondan iborat. Bu turdagi xonalar 1 xonali hisoblanadi. Konditsioner, IPTV(raqamli televediniya), muzlatkich bilan jihozlangan, bepul WI-FI ham tarqatilib internet bilan ham bog‘lanish imkoniyati mavjuddir. Bundan tashqari maskanda 3 va 5 kishilikka mo‘ljallangan kotejlar mavjud bo‘lib, barcha kotejlar zamonaviy usulda tamirlangan. Shuningdek maskanimizda “issiq pol” isitish tizimlari o‘rnatilgan bo‘lib, qishda ham maroqli dam olish uchun shart sharoitlar yaratilgan[4]. Mamalakatimizda keksalar, urush qatnashchilari va nogironligi bo`lgan shaxslar uchun davolanish maskanlarida ham davolanishi va hordiq chiqarishlari uchun

[4] https://uzbekistan.travel/uz/o/ozbekistonning-shifo-maskanlari/

maxsus yo`llanmalar berish tartiblari joriy qilingan, imtiyozlar joriy etilgan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda tabiiy sukunat, kislorod bilan to'yingan toza havo va shahar shovqinining yo'qligi dam olish va tiklanish uchun ideal sharoitlarni yaratadi. Bunday muhitda qolish asab tizimiga foydali ta'sir ko'rsatadi, stress darajasini pasaytiradi va tananing umumiy salomatligini mustahkamlaydi.

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ NEFT-GAZLI INVESTICIYALÍQ BLOKLARÍNA SÍPATLAMA

Seydullayev A.M.
Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya hám EBT tálim baǵdarı 2-kurs studenti

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170169*

Ózbekstan Respublikası xalqınıń tez pátler menen kóbeyiwi nátiyjesinde neft hám tábiyiy gaz resurslarına, awıl xojalıǵı, sanaat hám fizikalıq tutınıwshılardıń elektr energiyasına bolǵan talabınıń jıldan-jılǵa kóbeyiwi nátiyjesinde Ózbekstan Respublikası tábiyiy gazdi eksport etiwshi mámleketler qatarınan onı import etiwshi mámleketler qatarına qosıldı.

Ózbekstan Respublikasında 2024-jıldıń 12 ayı juwmaqları boyınsha 44,6 mlrd m^3 tábiyiy haz qazıp alınǵan bolıp, bul kórsetkish jıldan-jılǵa kemeyip barmaqta (1-keste).

1-keste

Ózbekstan Respublikasında tábiyiy gaz qazıp alıw kórsetkishleri (2010-2024-jıllar aralıǵı)

Jıl	Qazıp alınǵan kólem (mlrd m^3)	Jıl	Qazıp alınǵan kólem (mlrd m^3)	Jıl	Qazıp alınǵan kólem (mlrd m^3)
2010	65958,5	2015	54600,5	2020	49768,2
2011	63040,9	2016	56132,1	2021	53802
2012	61531	2017	56642,2	2022	51678,4
2013	58305,4	2018	61585,5	2023	46710,4
2014	54161,2	2019	60711,9	2024	44 600

Ózbekstan Respublikası Statistika komiteti maǵlıwmatları boyınsha

Neft qazıp alıw boyınshada kórsetkishler jıldan-jılǵa tómenlep (2-keste), 2024-jıldıń 12 ayı dawamında 713,4 mıń tonna neft qazıp alınǵan. Respublika neft hám neft ónimlerine bolǵan talabın import esabınan qanaatlandıradı.

2-keste

Ózbekstan Respublikasında neft qazıp alıw kórsetkishleri (2010-2024-jıllar aralıǵı)

Jıl	Qazıp alınǵan kólem (mln t)	Jıl	Qazıp alınǵan kólem (mln t)	Jıl	Qazıp alınǵan kólem (mln t)
2010	2017,9	2015	1000,1	2020	739,4
2011	1901,6	2016	867,9	2021	774,1
2012	1571,7	2017	813,6	2022	787,9
2013	1279,8	2018	745,7	2023	778,3
2014	1031,3	2019	698,7	2024	713,4

Ózbekstan Respublikası Statistika komiteti maǵlıwmatları boyınsha

Neft hám tábiyiy gazdi qazıp alıw azayıwı, onı import etiw kórsetkishleriniń kóbeyiwi Ózbekstandağı neft-gaz resurslarına eń perspektivalı aymaqlardan biri bolǵan Qaraqalpaqstan Respublikasınıń Ústirt platosı hám Aral akvatoriyasındağı neft-gazli investiciyalıq bloklarda izlew-barlaw hám burǵılaw jumısların jedellestiriwdi talap etpekte.

1960-jılı Ústirtte birinshi márte izlew-barlaw jumıslarında parametrikalıq burǵılanıwı baslandı. Birinshi náwbette barlaw burǵısınıń tiykarǵı baǵdarı Aqtumsıq iri kóteriliw zonasına qaratıldı, sonıń nátiyjesinde bul zonalardıń kelesheginiń joqlıǵı belgili boldı. Aldağı waqıtları izlew-barlaw jumısları keleshegi bar terrtoriyalarǵa qaratıldı. Izlew-barlaw jumısları Barsakelmestiń shıǵıs hám arqa bólimlerinde (Alanbek, Aqqulaq, Áseke-awdan, Quwanısh, Qaraoy) hám jańa Áseke awdan bortınıń shetlerinde, Shaqpaqtıda alıp barıla baslandı.

Qaraqalpaqstan Respublikası neft-gaz resurslarınıń geografiyalıq jaylasıwına qaray tómendegi neft-gazli investiciyalıq bloklarǵa ajıratıwımız múmkin:

1) Aqtumsıq
2) Quwanısh
3) Aqiyin
4) Nasambek
5) Qubla Úrge
6) Aqsholaq
7) Shaqpaqtı
8) Sudoche
9) Aral akvatoriyası

Sonnan Aqtumsıq, Quwanısh, Aqiyin, nasambek, Batıs Úrge, Aqsholaq hám Shaqpaqtı blokların “Uzbekneftegaz” MXK menen birgelikte Rossiyanıń “Gazprom” kompaniyası birge úyrenbekte.

Al Sudoche blogında “Uzbekneftegaz” MXKnıń ózi geologiyalıq barlaw, burǵılaw, razvedka jumısların alıp barmaqta. Bul aymaqta eń úlken tábiyiy gaz kánleri ashılǵan. Olar Súrgil, Berdaq, Shıǵıs Berdaq, Arqa Berdaq kánleri esaplanadı.

Investiciyalıq bloklar maydanı

№	Investiciyalıq blok atı	Maydanı (km^2)
1	Aqtumsıq	7 438
2	Quwanısh	5 210
3	Aqiyin	12 510
4	Nasambek	5 415
5	Batıs Úrge	1 645
6	Aqsholaq	2 104
7	Shaqpaqtı	3 715

Aqtumsıq blogınıń gaz resurslarınıń ulıwma zapası 100 mlrd. metr kubtan artıq bolıp, bul blokta Qaraqalpaqstan, Kóklem, Tereńqudıq, Qubla Tereńqudıq, Arqa Jalǵızsuw, Jalǵızsuw, Razlomin, Oraylıq Xaroy, Shıǵıs Xaroy, Batıs Xaroy, Bayterek, Jaylaw gaz kánleri jaylasqan.

Quwanısh blogınıń gaz resurslarınıń ulıwma zapası 50 mlrd. metr kubtan artıq bolıp, bul blokta Quwanısh, Batıs Quwanısh, Kassarma, Sarıtegis gaz kánleri jaylasqan.

Aqiyin blogınıń gaz resurslarınıń ulıwma zapası 100 mlrd. metr kubtan artıq bolıp, bul blokta Tájenqazǵan, Batıs Tájenqazǵan, Arqa Tájenqazǵan, Tilewqudıq, Arqa Tilewqudıq, Shomanay, Kólbay, Umaybay, Batıs Umaybay, Aqiyin, Shıǵıs Aytuz, Bakush, Arqa Tuley, Jiyes, Kurluk, Ayjankós, Qubla Ayjankós, İtgibay gaz kánleri jaylasqan.

Nasambek blogınıń gaz resurslarınıń ulıwma zapası 50 mlrd. metr kubtan artıq bolıp, bul blokta Qayqurǵan, Qırgiay, Nasambek, Atorbay, Shıǵıs Atorbay gaz kánleri jaylasqan.

Keyingi 10 jıllıq geologiyalıq izertlew dawamında kólemi 250 mlrd. kubmetrdi quraytuǵın 9 gaz káni ashıldı.

Qubla Úrge blogınıń gaz resurslarınıń ulıwma zapası 100 mlrd. metr kubtan artıq bolıp, bul blokta Úrge, Dali, Ájibay, Qaraqudıq gaz kánleri jaylasqan.

Aqsholaq blogınıń gaz resurslarınıń ulıwma zapası 100 mlrd. metr kubtan artıq bolıp, bul blokta Qosqayır, Oraylıq Qosqayır, Alambek, Arqa Alambek, Batıs Alambek, Qubla chink, Batıs Barsakelmes, Aqsholaq, Kóksholaq, Qarasholaq gaz kánleri jaylasqan.

Shaqpaqtı blogınıń gaz resurslarınıń ulıwma zapası 50 mlrd. metr kubtan artıq bolıp, bul blokta Shaqpaqtı, Kókbaqtı, Otınshı, Tasoyıq, Qubla Tasoyıq, Erǵazı, Jel, Shaxtı, Chuymaq, Assekeawdan, Shıǵıs Assekeawdan, Qubla Assekeawdan, Qumoy, Qumoy-2, Jantır, Nikolaevsk, Qaraawdan, Tamarlı, Qubla Tamarlı gaz kánleri jaylasqan.

Ózbekstandaǵı eń investiciyalı blok esaplanatuǵın Sudoche blogınıń gaz resurslarınıń ulıwma zapası 250 mlrd. kub metrdden joqarı bolıp, bul aymaqta eń úlken gaz kánleri jaylasqan. Olar Shege, Shaǵırlıq, Berdaq, Arqa Berdaq, Shıǵıs Berdaq, Súrgil, Úshsay bolıp, Bul gaz kánleri bazasında Ózbekstandaǵı eń úlken kárxanalardan biri Ústirt gaz-ximiya kompleksi óz jumısın basladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Turdimambetov, I., Joldasov, A., Iskenderov, A., & Uzaqbaev, Q. (2022). Qaraqalpaqstannm ekonomikaliq ham socialliq geografiyasi.

2. Uzakbaev K. K., Qurbaniyazov Q. A., Xidirbaeva N. A. GEOGRAPHICAL LOCATION OF OIL-GAS RESOURCES THE REPUBLIC KARAKALPAKSTAN AND THEIR USE IN INDUSTRY //Экономика и социум. – 2023. – №. 3-2 (106). – С. 325-328.
3. Uzakbaev K. K., Uzbekistan K., Nukus Baltabaev O. O. GEOGRAPHICAL BACKGROUND OF ARAL GEO-ECOLOGICAL DISASTER //Доктор экономических наук, профессор ЮВ Федорова Доктор философии педагогических наук (PhD), доцент, Мухаммадиев КБ Доктор социологических наук, доцент ТВ Смирнова. – 2023. – С. 3.
4. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИ ГЕОГРАФИЯСИДА ЯРАТИЛГАН НАЗАРИЯЛАР ТАҲЛИЛИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 919-929.
5. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛЛАШТИРИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 233-240.
6. Узакбаев К. К. ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 845-857.
7. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.
8. Раджапов М.Я., Ешпанова Г., Матмуратов Е.Р. Локальные геоэкологические проблемы и их последствия. – Международный научно-практический журнал «Экономика и социум». 03(118) 2024.
9. Eshimbetov U. et al. Territorial composition of agriculture in the Aral Sea Region of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 510. – С. 01040.
10. Ешимбетов У., Наурузбаева Г., Дальжанов К. Методические вопросы анализа и прогнозирования индустриального развития региона с учетом рационального использования минеральных ресурсов //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 532-540.
11. Ешимбетов У. Х. Формирование точек производственного роста на базе минерально-сырьевых ресурсов как совершенствование территориальной организации промышленности региона (на примере Республики Каракалпакстан) //Экономика и предпринимательство. – 2017. – №. 11. – С. 232-237.
12. Раджапов М. Я., Умаров Е. К., Искендеров А. Б. Қорақалпоғистон ҳудудининг географик ўрганилиш тарихи //Ўзбекистон география жамияти ахбороти. – Т. 22. – С. 74-76.
13. Radjapov M. et al. Qoraqalpogiston hududining tabiati va tabiiy boyliklarining geografik organilish tarixi //in Library. – 2021. – Т. 21. – №. 4. – С. 56-57.
14. Искендеров А. Б., Абдираманов Б. С. У. ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИДАГИ ТАБИИЙ ГАЗ КОНЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 335-339.
15. Вахобов Х. В. Вахобов Улугбек Хурбоевич, Искендеров Алишер Базарбаевич. Типизация горнодобывающих и горно-перерабатывающих сооружений по степени их влияния на окружающую среду //Табиий географиянинг регионал муаммолари Илмий конференция материалари тўплами. – 2002. – С. 103-105.
16. Умаров, Е. К., Искендеров, А. Б., Раджапов, М. Я., & Айтуганова, А. К. Қорақалпоғистон Республикаси халқ хўжалигини ҳудудий такомиллаштириш муаммолари. *Ўзбекистон География жамияти ахбороти*, *22*, 57-59.
17. Искендеров А. Б., Абдираманов Б. С. У. ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИДАГИ ТАБИИЙ ГАЗ КОНЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 335-339.

18. Iskenderov A. B. GEOGRAPHICAL LOCATION OF CONSTRUCTION RAW MATERIAL RESOURCES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-2. – С. 150-153.
19. Iskenderov A. B. THE CURRENT STATE OF USE OF NATURAL GAS FIELDS IN THE ISLET REGION OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-2. – С. 139-142.
20. Искендеров А. Б., Раджапов М. Я., Жолдасов А. К. КоракалпоҒистон Республикасини географик районлаштиришда табиий ресурсларнинг ахамияти //Табиий ва иктисодий географик районлаштиришнинг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари.-Т.: УзМУ. – 2004. – С. 85-87.
21. Вахобов Х., Искендеров А. Б., Саидкаримова З. С. Научно-методические основы изучения основных тенденций изменения литогенной основы ландшафтов в горнопромышленных районах //Ўзбекистон География жамияти ахбороти. – Т. 23. – С. 14-15.

AMUDARYO VA SIRDARYO HAVZALARIGA UMUMIY TA’RIF

Qosimova Sevara Madiyor qizi
Ajiniyaz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika instituti Tarix fakulteti Geografiya yo’nalishi 1 “b” guruh talabasi

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170383*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amudaryo va Sirdaryo havzalarining geografik joylashuvi, tarixi, ifloslanish sabablari, daryo suvlarining kamayishi, ekologik muammolari va ularni hal qilish choralari to‘g‘risida so‘z boradi.*


Tayanch atamalar: *Amudaryo va Sirdaryo, transchegaraviy, Orol dengizi, Amudaryo kurakaburuni, qishloq xo‘jaligi, sanoat korxonalari, Sirdaryo kurakburuni.*

Amudaryo va Sirdaryo O’zbekistonning eng yirik daryolari bo‘lib, Markaziy Osiyo suv resurslarining asosiy qismini tashkil etadi. Hamda O’zbekiston, Qozog’iston, Qirgiziston va Turkmaniston hududlaridan oqib o’tib, transchegaraviy suv havzalari hisoblanadi.Amudaryo uzunligi 2540 km, Panj va Vaxsh daryolarining qo’shilishidan hosil bo’lgan va Pomir va Hindikush tog’laridan boshlanib Orol dengiziga quyiladi. Daryoni qadimgi yunon va rimliklar oks, arablar Jayxun, mahalliy xalqlar Omul deb ataganlar. Amudaryo loyqa daryolar qatoriga kirib, muzlik va qor suvlaridan to’yinadi.

Sirdaryo esa Tyanshan tizmasidan boshlanib, u ham Orol dengiziga quyiladi. Sirdaryoni qadimgi yunonlar "yaksart", arablar Sayxun" deb ataganlar. Sirdaryo Norin va Qoradaryoning qo’shilishidan vujudga kelib u qor va muzliklarning erishidan to’yinadigan daryolar sarasiga kiradi. Ushbu daryolar mintaqaning suv ta'minoti, qishloq xojaligi, Sanoat va energetika sohalari uchun xizmat qilmoqda. Ammo 1961-yillarda Amudaryo va Sirdaryo suvining sug’orish ishlari uchun juda ko’p sarf bo’lishi natijasida Orolga quyiladigan suv miqdori kamayib ketdi natijada Orol ekologik muammosi yuzaga keldi.

Shuningdek suğoriladigan yer maydonlari ko’payishi, suvdan notog’ri foydalanish natijasida 1950-yillarda Amudaryo havzasida yiliga 43 milliard kubmetr suv ishlatilgan bo’lsa 1980-yillarga kelib bu ko’rsatgich 60-70 milliard kub metrga yetgan. Amudaryo va Sirdaryo suvi kamayishi va ifloslanishi natija Sirdaryodagi eng qadimiy jonzotlardan biri - Amudaryo kurakburuni butunlay qirilib ketish arafasida. Ushbu baliq turi xalqaro "Qizil kitob” ga “Butunlay yo’q bo’lib ketish arafasidagi tur" maqomi bilan kiritilgan. O’zbekiston va Turkmanistonda Amudaryoning o’rta va quyi oqimida uchraydi. Biroq hozirda uni saqlab qolish uchun deyarli choralar ko’rilmayabdi. Aksincha, ushbu baliq turi mahalliy xalq tomonidan muntazam ovlanib kelinadi. Va kurakburunlar urug’iga mansub boshqa baliqlar kabi qirilib ketish arafasida ushbu baliq turi butun dunyo bo’yicha faqatgina Amudaryo

havzasida uchraydi. Sirdaryo kurakburuni faqatgina Sirdaryo suv havzasiga xos bo’lgan baliq turi bo’lib ilk marotaba 1871-yilda Chinoz hududi atrofida qayd etilgan va 1872-yilda Kessler tomonidan Sirdaryoning o’rta oqimidan tutulib, ta’riflanib fanga kiritilgan. Hamda so’nggi o’tkazilgan tadqiqotlarda ushba baliqning Sirdaryo havzasida uchramanligi qayd etilgan, mutaxasislar yuqori ehtimollik bilan uning qirilib ketganligini aytishadi.



1-rasm. Sirdaryo kurakburuni

Suv ifloslanishining asosiy manbalari - Sanoat korxonalari, qishloq xojaligi chiqindilari, maishiy oqava suvlaridir. Daryolarga oqizilayotgan kimyoviy moddalar jumladan pestitsidlarva og’ir metallar suv sifatiga salbiy ta’sir qilib,ichak kasalliklari, buyrak va jigar, ankologik, qon aylanish tizimi va boshqa kasalliklari yuzaga kelmoqda. Jumladan suvni tejash maqsadida tomchilatib sug’orish tizimlari joriy qilindi sug’orish kanallari betonlashtiriladi va suniy suv omborlari qurildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun O’zbekiston qo’shni davlatlar o’rtasida suv taqsimoti kelishuvlarini imzolabgina qolmay baliq turlarini tiklash maqsadida sun'iy baliq ko’paytirish fermalarini tashkil etdi. Bu chora-tadbirlar o’z natijasini ko’rsatib kelmoqda desak mubolag’a bo’lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Amudaryo va Sirdaryo havzalarini samarali boshqarish uchun ilmiy va innovatsion yondashuv zarur. Suv tejash texnalogiyalarini keng joriy, ekologik monitoringni kuchaytirish, Xalqaro hamkrolikni rivojlantirish va aholi orasida ekologik madaniyatni oshirish va daryolar ifloslanishini kamaytirish lozim.

Foydalanilgan manbalar

1. P.Baratov “O‘zbekistonning tabiiy geografiyasi”. Toshkent – 2002.
2. P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Rafikov. “O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi” Toshkent – 2002.
3. “Qizil kitob” 2009-yil. “O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan baliqlar”
4. “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya Qo‘mitasi. (2022). Amudaryo va Sirdaryo suv resurslari bo‘yicha davlat dasturi. Toshkent. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi
5. O‘.E.Xo‘janazarov, Sh.Yakubjanova “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish” Toshkent – 2018.

6. Раджапов М.Я., Ешпанова Г., Матмуратов Е.Р. Локальные геоэкологические проблемы и их последствия. – Международный научно-практический журнал «Экономика и социум». 03(118) 2024.
7. Eshimbetov U. et al. Territorial composition of agriculture in the Aral Sea Region of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 510. – С. 01040.
8. Раджапов М. Я., Умаров Е. К., Искендеров А. Б. Қорақалпоғистон ҳудудининг географик ўрганилиш тарихи //Ўзбекистон география жамияти ахбороти. – Т. 22. – С. 74-76.
9. Radjapov M. et al. Qoraqalpogiston hududining tabiati va tabiiy boyliklarining geografik organilish tarixi //in Library. – 2021. – Т. 21. – №. 4. – С. 56-57.
10. Умаров, Е. К., Искендеров, А. Б., Раджапов, М. Я., & Айтуганова, А. К. Қорақалпоғистон Республикаси халқ хўжалигини ҳудудий такомиллаштириш муаммолари. *Ўзбекистон География жамияти ахбороти*, *22*, 57-59.
11. Iskenderov A. B. GEOGRAPHICAL LOCATION OF CONSTRUCTION RAW MATERIAL RESOURCES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-2. – С. 150-153.
12. Iskenderov A. B. THE CURRENT STATE OF USE OF NATURAL GAS FIELDS IN THE ISLET REGION OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-2. – С. 139-142.
13. Вахобов Х., Искендеров А. Б., Саидкаримова З. С. Научно-методические основы изучения основных тенденций изменения литогенной основы ландшафтов в горнопромышленных районах //Ўзбекистон География жамияти ахбороти. – Т. 23. – С. 14-15.

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍNÍŃ RUDALÍ MINERAL BAYLÍQLARÍ

Seydullayev A.M.
Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya hám EBT tálim baǵdarı 2-kurs studenti

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170391

Qaraqalpaqstan Respublikasında fundament jer betinen tereń jalǵaǵanlıǵınan ıdıraǵan qatlamda alyuminiy, temir hám taǵı da basqa rudalı qazılma baylıqlardıń bolıwı múmkinligi boljanǵan. Bunday dep aytıwımızdıń sebebi, Qarqalpaqstan aymaǵında kóp waqıtlarǵa deyin qurǵaqlıqtıń húkim súriwi bolıp tabıladı. Bul jerler úzliksiz suw, hawa hám quyashtıń tásirinde ıdırawǵa hám juwılıwǵa májbúr bolǵan. Nátiyjede áste eriwshi Al, Fe, Mg sıyaqlı minerallardıń toplanıwına imkaniyat jaratılǵan hám olardıń qoyıwlasıwına, yaǵnıy koncentraciyasına alıp kelgen. Sonıń ushın da házir bul másele geologlardıń dıqqat orayında turıptı.

Geologlardıń aldında ele de kóp wazıypalar turıptı. Joqarıda aytılǵan paydalı qazılmalar endi ǵana bizge belgili bolıp atır. Al, olardı qazıp alıw ushın kóplegen jumıslar ámelge asırılıwı kerek. Bunıń ushın respublikamızda geologlardıń otryadı kóbeyiwi kerek.

Rudalı mineral resurslardıń biri bolǵan temir Xojakólde por dáwiriniń senomon-turon jatqızıqlarınıń ishinde bir neshe qatlamlar payda etken. Bul jerde temir totıǵınıń (okisi) ulıwma maydanı 3 km^2 jerdi iyelep jatır. Sonıń menen bir qatarda temirdiń qum jınısları menen aralasıp ushırasatuǵın jerleri de bar. Olarda temir muǵdarı 30-40% ti quraydı. Dáslepki esap boyınsha olardıń zapası 754 mıń tonna muǵdarında shamalanǵan. Biraq, temir kániniń bunday qorları eler sanaatlıq áhmiyetke iye emes. Sonıń ushın da bul jerlerde izlew jumısların elede dawam ettiriw maqsetke muwapıq.

Sonday-aq, temir hám titan totıqları Sultan Wáyis tawındaǵı Tebinbulaqtada ushırasadı. Geologiyalıq izertlewler hám analizler nátiyjesinde alınǵan maǵlıwmatlarǵa kóre Sultan Wáyis taw dizbeginiń aymaǵı qara metallurgiya islep shıǵarıwdı jolǵa qoyıw ushın úlken imkaniyatlarǵa iye. Ilimpazlardıń pikirlerine kóre, Tebinbulaq titan-magnetit rudaları káninde temir rudası hám metall bolmaǵan qurılıs materillarınıń keń túrlerin alıw múmkin. Búgingi kúnde Qaraqalpaqstan Respublikasında Tebinbulaq titan-magnetit rudaları kánin ózlestiriw tiykarında metallurgiya bazasın jaratıwdıń aktual ekonomikalıq mashqalası júzege keldi.

Kán Nókis – Tórtkúl transport joınan 5-7 km aralıqta jaylasqan bolıp, 1937-jılda anıqlanǵan. Urısay aymaǵında tómengi devon dáwirine tán kremniykarbonatliterrigen hám vulkanogenterrigen jınıslar arasında jaylasqan tómengi tasmómirdiń piroksenitgabbroli intruziv kompleksi menen baylanıslı.

Tebinbulaq titan-magnetitli káni Ózbekstan Respublikasında ruda jaǵınan iri bolǵan magmatikalıq kán esaplanadı. Ol Sultan Wáyis tawınıń arqa bóliminde usı atama menen atalıwshı intruziv maydanda jaylasqan. Kánnıń maydanı shama menen 8 km^2 maydandı iyeleydi. Tebinbulaq káni gabbro-piroksenit jaylasqan aymaq ishinde sinklinal burma arasında kremniyli (taslı) slanec hám qatlam-qatlam hák taslardan quralǵan. Onıń quramında ultratiykarlı taw jınıslarına - piroksenit, tebinit, gornbledit hám perioditit̀ler quralǵan.

Házirgi kúndea Ózbekstanda qara metall islep shıǵaratuǵın Bekabad metallurgiya zavodı xızmet kórsetpekte. Metall islep shıǵarıw ushın shiyki zat - bul metallolom. Bul túrdegi shiyki zat mámleketimizde sheklengen. Sonıń ushın kárxana jumıs ónimdarlıǵın arttırıw ushın basqa shiyki zat dereklerinen de paydalanıwı zárúr.

Bunday derekler Qaraqalpaqstan Respublikasında Tebinbulaq, Jizzax wálayatındaǵı Temirkán hám Tashkent wálayatındaǵı Súrenata kánlerinen alınıwı maqsetke muwapıq. Tebinbulaq káninen shiyki zattı qazıp alıw sharayatları onı eń únemli – ashıq usılda qazıp alıwdı talap etedi. Ilimpazlar Tebinbulaqta rudalardı qazıp alıw Temirkán hám Súrenata kánlerine salıstırǵanda ekonomikalıq jaqtan paydalıraq ekenligin dálilledp berdi. Keyingi eki kánde rudadaǵı metall muǵdarı birqansha joqarı (33-34%). Tebinbulaq káninde metall muǵdarı 14-16% aralıǵında. Biraq, olardıń qorları Tebinbulaq penen salıstırǵanda ádewir tómen. Bunnan tısqarı, eger Tebinbulaqta rudanı ashıq usılda qazıp alıw imkaniyatı bar bolsa, qalǵan ekewinde bul usıldan paydalanıw birqansha qıyınshılıqlardı júzege keltiredi. Bul qazıp alıw usılları bayıtıw ushın mineral jetkerip beriwdi sezilerli dárejede páseytedi.

Tebinbulaq káni petrologiyalıq, petroximiyalıq hám mineral-geoximiyalıq jaqtan ózine tán qásiyeti menen Kashkanar hám Gusevogor (Rossiya) kánlerine júdá jaqın. Bunnan tısqarı dunit-piroksenit-gabbro massaları menen ulıwmalıq tárepleri bar. Bul tiptegi rudalar házirgi waqıtta awır sanaatta keń qollanıladı.

Tebinbulaq ruda káni quramında 17-19% temir, 2% titan, 0,5% vanadiy elementleri anıqlanǵan hám qorı 3,5 mlrd. tonna esaplanadı.

Házirgi waqıtta metall ónimleri mámleketimizde tiykarınan metall sınıqların qayta eritiw jolı menen alınbaqta. Sonıń ushın mámleketimiz basshısı tárepinen Sultan Wáyis tawındaǵı perspektivalı hám júdá úlken áhmiyetli temir rudasına bay Tebinbulaq kánine keyingi waqıtta dıqqat itibar artpaqta. Áhmiyetli másele boyınsha Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tárepinen 2018-jıldıń 12-yanvar kúni PQ-3473-sanlı “Tebinbulaq káni negizinde kán-metallurgiya kompleksi qurılısı” investiciya joybarın ámelge asırıw boyınsha islerdi shólkemlestiriw haqqındaǵı qararı qabıl etildi. Qarardıń mazmunında Tebinbulaq titan-magnetitli ruda káni negizinde jergilikli shiyki zattan paydalanǵan halda zamanagóy hám dáwir talabına juwap beretuǵın polat quyıw kárxanasın shólkemlestiriw esabınan ózinıń metallurgiya

kompleksin qurıw, sonday-aq, eksport kólemin asırıw hám importtı qısqarttırıw názerde tutılǵan. Kándi ózlestiriw jumısları eki basqıshta ámelge asırılıwı jobalastırılǵan edi. 2021-jıldan baslap jılına 1 mln t polat islep shıǵarılıwı hám kompleks 2024-jılda tolıq iske túsiriliwi jobalastırılǵan. Biraq sırt elli investorlar menen sóylesiwlerdiń sozılıwı nátiyjesinde kándi paydalanıw hám kompleksti iske qosıw múddetleri arqaǵa sozılmaqta. Sonday-aq, joybarda shoyın hám polat alıwda domen bolmaǵan texnologiyanı qollaw úlken potencialǵa iye.

Geologiyalıq izertlew jumısları dawamında Tebinbulaq kániniń shiyki zat rezervi kólemi 1,1 milliard tonna ekenligi anıqlanǵan. Dáslepki esap-kitaplarǵa muwapıq, jılına 33 million tonna ruda qazıp alınıp, onnan 1,5 million tonna temir alıw gózlengen.

Kán-metallurgiya kompleksi jılına 900 mıń tonna armatura, 225 mıń tonna polat sımlar, 100 mıń tonna ugolok, shveller hám basqa metallardı islep shıǵarıw quwatına iye boladı. Ónimniń 35 payızın eksport etiw kózde tutılǵan.

Rossiyanıń TOMS – Mineral shiyki zattı bayıtıw texnologiyaları institutı 2020-jıldıń yanvarınan sentyabr ayına shekem kándegi ruda úlgilerin bayıtıw boyınsha 3 basqıshlı texnologiyalıq izertlewler ótkerip, ruda quramında temir muǵdarı 67% ten joqarı bolǵan koncentrat alıwǵa eristi. Bul tastıyıqlanǵan izertlew jumısları tiykarında, temir kánin bayıtıw múmkinshiligi taǵı bir márte tastıyıqlandı.

Ulıwma bahası 1,5 mlrd. dollarǵa jaqın bolǵan Qaraqalpaqstan Respublikası Qaraózek rayonında jaylasqan Tebinbulaq káni tiykarında qurılatuǵın kompleks jaqın jıllar ishinde óz jumısın joybarlastırılmaqta.

Joybardı tayarlaw hám ámelge asırıw boyınsha Germaniyanıń “DMT-Group Consulting” hám Avstriyanıń “Horst Wiesinger Consulting” kárxanaları is alıp barmaqta.

Kompleks qurılısına ilimiy tárepten puqta jantasıw, temirden ónim islep shıǵarıw salasında da ayrıqsha mektep jaratıw kerekligi, joybardıń texnikalıq-ekonomikalıq tiykarların jetilisken túrde islep shıǵıw, onı ámelge asırıwǵa kóbirek jaslardı tartıw boyınsha Prezidentimiz tárepinen kórsetpeler berilgen.

Komplekste 3 mıńnan aslam adamdı jumıs penen támiyinlew joybarlastırılǵanlıǵı hámde joqarıda keltirilgen maǵlıwmatlardıń barlıǵın analiz etken halda bul joybar tek ǵana Qaraqalpaqstan Respublikası ushın emes, pútkil Ózbekstan ushın eń zárúrli hám áhmiyetli perspektivalıq proektlerden biri esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Turdimambetov, I., Joldasov, A., Iskenderov, A., & Uzaqbaev, Q. (2022). Qaraqalpaqstannm ekonomikaliq ham socialliq geografiyasi.

2. Uzakbaev K. K., Qurbaniyazov Q. A., Xidirbaeva N. A. GEOGRAPHICAL LOCATION OF OIL-GAS RESOURCES THE REPUBLIC KARAKALPAKSTAN AND THEIR USE IN INDUSTRY //Экономика и социум. – 2023. – №. 3-2 (106). – С. 325-328.
3. Uzakbaev K. K., Uzbekistan K., Nukus Baltabaev O. O. GEOGRAPHICAL BACKGROUND OF ARAL GEO-ECOLOGICAL DISASTER //Доктор экономических наук, профессор ЮВ Федорова Доктор философии педагогических наук (PhD), доцент, Мухаммадиев КБ Доктор социологических наук, доцент ТВ Смирнова. – 2023. – С. 3.
4. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИ ГЕОГРАФИЯСИДА ЯРАТИЛГАН НАЗАРИЯЛАР ТАҲЛИЛИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 919-929.
5. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛЛАШТИРИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 233-240.
6. Узакбаев К. К. ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 845-857.
7. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.
8. Раджапов М.Я., Ешпанова Г., Матмуратов Е.Р. Локальные геоэкологические проблемы и их последствия. – Международный научно-практический журнал «Экономика и социум». 03(118) 2024.
9. Eshimbetov U. et al. Territorial composition of agriculture in the Aral Sea Region of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 510. – С. 01040.
10. Ешимбетов У., Наурузбаева Г., Дальжанов К. Методические вопросы анализа и прогнозирования индустриального развития региона с учетом рационального использования минеральных ресурсов //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 532-540.
11. Ешимбетов У. Х. Формирование точек производственного роста на базе минерально-сырьевых ресурсов как совершенствование территориальной организации промышленности региона (на примере Республики Каракалпакстан) //Экономика и предпринимательство. – 2017. – №. 11. – С. 232-237.
12. Раджапов М. Я., Умаров Е. К., Искендеров А. Б. Қорақалпоғистон ҳудудининг географик ўрганилиш тарихи //Ўзбекистон география жамияти ахбороти. – Т. 22. – С. 74-76.
13. Radjapov M. et al. Qoraqalpogiston hududining tabiati va tabiiy boyliklarining geografik organilish tarixi //in Library. – 2021. – Т. 21. – №. 4. – С. 56-57.
14. Искендеров А. Б., Абдираманов Б. С. У. ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИДАГИ ТАБИИЙ ГАЗ КОНЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 335-339.
15. Вахобов Х. В. Вахобов Улугбек Хурбоевич, Искендеров Алишер Базарбаевич. Типизация горнодобывающих и горно-перерабатывающих сооружений по степени их влияния на окружающую среду //Табиий географиянинг регионал муаммолари Илмий конференция материалари тўплами. – 2002. – С. 103-105.
16. Умаров, Е. К., Искендеров, А. Б., Раджапов, М. Я., & Айтуганова, А. К. Қорақалпоғистон Республикаси халқ хўжалигини ҳудудий такомиллаштириш муаммолари. *Ўзбекистон География жамияти ахбороти*, *22*, 57-59.
17. Искендеров А. Б., Абдираманов Б. С. У. ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИДАГИ ТАБИИЙ ГАЗ КОНЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 335-339.

18. Iskenderov A. B. GEOGRAPHICAL LOCATION OF CONSTRUCTION RAW MATERIAL RESOURCES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-2. – С. 150-153.
19. Iskenderov A. B. THE CURRENT STATE OF USE OF NATURAL GAS FIELDS IN THE ISLET REGION OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-2. – С. 139-142.
20. Искендеров А. Б., Раджапов М. Я., Жолдасов А. К. КоракалпоҒистон Республикасини географик районлаштиришда табиий ресурсларнинг ахамияти //Табиий ва иктисодий географик районлаштиришнинг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари.-Т.: УзМУ. – 2004. – С. 85-87.
21. Вахобов Х., Искендеров А. Б., Саидкаримова З. С. Научно-методические основы изучения основных тенденций изменения литогенной основы ландшафтов в горнопромышленных районах //Ўзбекистон География жамияти ахбороти. – Т. 23. – С. 14-15.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA AHOLIGA XIZMAT KO‘RSATISH MARKAZLARI

Turdimambetov I.R.,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti professori, geografiya fanlari doktori,

Uzakbaev K.K.,
Ajiniyoz nomidagi NDPI Geografiya o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170411

Kirish. Muayyan bir hudud doirasida xizmat ko‘rsatish sohalari muassasalarining yig‘indisi muassasalar to‘rini hosil qiladi. U o‘z navbatida *tarmoqlar to‘ri* va *kompleks xizmat ko‘rsatish sohalari to‘ri*dan iborat bo‘ladiki, bunda birinchisining elementi muassasalar bo‘lsa, ikkinchisi esa barcha xizmat ko‘rsatish muassasalari to‘plangan xizmat ko‘rsatish markazlari (XKM) dan iboratdir. XKMlari jumlasiga kamida bittadan statsionar xizmat ko‘rsatish muassasasiga ega bo‘lgan aholi punktlari kiritiladi. XKMlari xizmat ko‘rsatish darajasiga ko‘ra turli kattalikda bo‘lishi mumkin. Ularning darajalarini ortib borishi bilan ulardagi xizmat ko‘rsatish turlari ko‘payib, mukammallashib boradi.

Xizmatlarning ko‘pchiligi aniq ko‘rinishdagi markazlashish xususiyatiga – ya’ni, xizmat ko‘rsatish ishlari olib boriladigan aholi punktidan tashqarida yashovchi aholini tortish qobiliyatiga ega. Bunga aholi yashash joyida ko‘rsatiladigan xizmat turlari (turar joy xizmati, bola bog‘chalari va xokazo) kirmaydi.

Asosiy qism. Xizmat ko‘rsatish markazlari tipologiyasiga ikkita munosabat mavjud. Birinchi – XKMni xizmat turlari bo‘yicha guruhlashga, ikkinchi – markazlarning bo‘ysinish tahliliga asoslangan. Bu ikki guruh bir-biriga to‘g‘ri keladi, sababi tashkilotlar kompleksi markaz statusi bilan bir xil. Ayrim holatlarda xizmat ko‘rsatishning hududiy tizimida markazning o‘rnini uning xizmat turlari belgilaydi. Masalan, ayrim sabablarga ko‘ra viloyat markazidagi ko‘rsatiladigan xizmat turlari oddiy shaharlardagidan farq qiladi, bu markazning ta’siri boshqa viloyatlarga ham tarqaladi (masalan, Samarqand, Nukus, Qo‘qon va xokazo).

Ammo, ayrim holatlarda xizmat ko‘rsatishning hududiy tizimida xizmat ko‘rsatish markazi tashkilotlari va o‘rni o‘zaro kelishilmay qoladi. Shu sababli tashkilotlarning keskin farq qiluvchi turlariga ega yoki xizmat ko‘rsatishning hududiy tizimlarida turlicha o‘rinlarga ega XKMlar yuzaga keladi. Masalan, Farg‘ona viloyatidagi Qo‘qon va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Xo‘jayli shaharlari aholining joylashuvi va xizmat ko‘rsatish tizimi bir-biriga o‘xshash – tumanlararo markazlar hisoblanadi. Ammo, aholiga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari bo‘yicha

keskin farq qiladi. 310 mingga yaqinroq aholiga ega bo‘la turib, Qo‘qon xizmat ko‘rsatish komplekslari bo‘yicha ko‘pchilik viloyat markazlaridan farq qilmaydi (u yerda jumladan 4 ta oliy ta’lim muassasasi, 4 ta axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari, 1 teatr va 1 tarixiy-san’at muzeyi mavjud). 75,5 ming aholiga ega Xo‘jayli bor-yo‘g‘i rivojlangan tuman markazi hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda xizmat ko‘rsatish markazlarining bir necha pog‘onalari ajratilgan – oddiy xizmat ko‘rsatadigan bir yoki bir nechta muassasalarga ega bo‘lgan kichik qishloq aholi punktlaridan tortib, to yirik markazlargacha. Har bir bosqichda muayyan darajada diversifikatsiyalangan doiradagi xizmatlar ko‘rsatiladi.

Turli ishlarda AXKS markazlarining darajalari soni turlicha ajratiladi. Masalan, S.A.Kovalev, A.I.Alekseev va A.A.Tkachenkolar Sobiq Ittifoq hududi uchun xizmat ko‘rsatish sohasi markazlarining to‘qqiz darajali iyerarxiyasini ishlab chiqdi: 9-daraja – mahalliy qishloq aholi punktlari, 8 – brigada (uchastkalar) ichidagi kolxoz va sovxoz markazlari; 7 – ichki xo‘jaliklar (kolxoz va sovxozlararo chegaradagi markazlar); 6 – xo‘jaliklararo markazlar; 5 – tuman markazlari; 4 – tumanlararo markazlar; 3 – viloyat markazlari; 2 – regional (ittifoqdosh respublikalar yoki viloyatlar guruhi, yaqin iqtisodiy rayonlar; 1 – butunittifoq.

N.I.Blajko va K.S.Rozina ishida xizmat ko‘rsatish markazlarining 6 ta darajasi ajratilgan: 1) aholi punktining funksional tuzilishi jihatidan eng sodda, aholisi 0,5 ming kishigacha; ularning xizmat ko‘rsatish funksiyalari har bir aholi punkti aholisining kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan; 2) kichik mahalliy xizmat ko‘rsatuvchi quyi tizimlar markazlari – kolxozlarning markaziy xo‘jaliklari (usadbalari), o‘rta va yirik qishloqlar – qishloqlar kengashlarining markazlari, 15 ming kishigacha aholisi bo‘lgan shahar tipidagi aholi punktlari, o‘z aholisidan tashqari 30 daqiqagacha bo‘lgan vaqt radiusi oralig‘ida yetib borsa bo‘ladigan aholi punktlari; 3) tumanlar ichidagi yirik mahalliy quyi tizimlar markazlari – kichik shaharlar, shahar tipidagi aholi punktlari, katta qishloqlar – yetib borish radiusi 40-50 daqiqa bo‘lgan QFY markazlari; 4) yetib borish radiusi 1 soatgacha bo‘lgan tuman markazlari; 5) yirik shaharlar – tumanlararo xizmat ko‘rsatish markazlari; 6) viloyat markazlari.

Biz tomonimizdan savdo va umumiy ovqatlanish, tibbiyot (sog‘liqni saqlash), ta’lim singari tarmoqlar kesimida bajarilgan hududiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholiga xizmat ko‘rsatish markazlarining iyerarxik tizimi shakllangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi aholiga xizmat ko‘rsatish markazlari iyerarxik tizimining eng yuqori pog‘onasida, tegishli hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimining eng yuqori pag‘onasi sifatida Respublika poytaxti Nukus shahri turadi.

Mazkur shahar aholiga xizmat ko‘rsatish sohasining barcha tarmoqlari rivojlanishi bilan Qoraqalpog‘istonda alohida ravishda ajralib turadi. Xususan, respublika poytaxtida ko‘p tarmoqli chakana va, ayniqsa, ulgurji savdoning mintaqa bo‘yicha eng yirik korxonalari, birinchi navbatda, bozor majmualari va savdo markazlari, 10 ta oliy ta’lim tashkiloti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpog‘iston filiali, ilmiy tadqiqot institutlar, akademik litseylar, Prezident maktabi, mintaqaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ixtisoslashgan tibbiy muassasalar, jumladan ilmiy-amaliy tibbiy markazlar faoliyat ko‘rsatadi. Shu bois, Nukus shahrini Qoraqalpog‘iston Respublikasi miqyosidagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan aholiga xizmat ko‘rsatish markazi sifatida alohida ajratib olish lozim. Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi hech qaysi boshqa shaharni aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanish darajasi va hududiy ta’sir doirasi jihatidan Nukus shahri bilan bir pog‘onaga qo‘yib bo‘lmaydi.

Ikkinchi pog‘onadagi aholiga xizmat ko‘rsatish sohasining hududiy markazlari bo‘lib, tumanlararo xizmat ko‘rsatish markazlari sifatida e’tirof etilishi mumkin bo‘lgan shaharlar hisoblanadi. Aholiga xizmat ko‘rsatish sohasining tumanlararo markazlarini 2 toifaga, ya’ni ko‘p tarmoqli (majmuali) va ixtisoslashgan markazlarga ajratish mumkin. Ko‘p tarmoqli tumanlararo markazlar qatoriga Qoraqalpog‘iston Respublikasida Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot (Oltinko‘l shaharchasi bilan birga), Chimboy, Beruniy va To‘rtko‘l shaharlarini kiritish mumkin. Bu shaharlardagi ulgurji va chakana savdo, professional ta’lim tashkilotlari, tibbiy massasalar nafaqat o‘z tumanlari aholisiga, balki qo‘shni tumanlar aholisiga ham muayyan darajada xizmat ko‘rsatadi. Chimboy va To‘rtko‘l shaharlarida, xattoki, oliy ta’lim tashkilotlari ham faoliyat ko‘rsatadi. Ixtisoslashgan tumanlararo markazlari sifatida Ellikqal’a tumanining ma’muriy markazi Bo‘ston shahri, Amudaryo tumanining ma’muriy markazi Mang‘it shahri va Kegeyli tumanidagi Xalqobod shahrini e’tirof etish lozim. Bo‘ston shahri Qoraqalpog‘istonning janubiy tumanlari uchun, asosan, professional va oliy ta’lim hamda, ma’lum darajada, tibbiyot sohalarida xizmat ko‘rsatish markazi sifatida rivojlanmoqda, biroq savdo sohasida uning ahamiyati ancha pastroq. Mang‘it shahri Qoraqalpog‘iston Respublikasi janubiy va markaziy tumanlari, xattoki qo‘shni Xorazm viloyati aholisi uchun xizmat ko‘rsatadigan savdo markazi bo‘lib rivojlanmoqda, lekin ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida boshqa tuman markazlaridan farq qilmaydi. Xalqobod shahrida Qoraqalpoq davlat universitetining sirtqi bo‘limi faoliyat ko‘rsatayotganligi bois uning aholiga xizmat ko‘rsatish sohasidagi ahamiyatini tumanlararo darajaga ko‘tarib bergan.

Demak, umumiy hisobda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholiga xizmat ko‘rsatish sohasi hududiy markazlarining iyerarxik tizimidagi ikkinchi pog‘onada

tumanlararo xizmat ko‘rsatish markazlari sifatida 8 ta shahar ajralib turadi: Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot (Oltinko‘l shaharchasi bilan), Chimboy, To‘rtko‘l, Beruniy, Bo‘ston, Mang‘it va Xalqobod. Shunda, dastlab sanab o‘tilgan 5 ta shahar ko‘p tarmoqli xizmat ko‘rsatish markazlari, qolgan 3 ta shahar esa ixtisoslashgan xizmat ko‘rsatish markazlari sifatida rivojlanib bormoqda.

Aholiga xizmat ko‘rsatish markazlarining mintaqaviy pog‘onasimon tarmog‘ida uchinchi iyerarxik darajani tuman markazlari egallaydi. Tabiiyki, bu toifaga yuqorida tilga olingan tumanlararo ahamiyatidagi xizmat ko‘rsatish hududiy markazlari bo‘lgan tuman ma’muriy markazlari (Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot, Chimboy, Beruniy, To‘rtko‘l, Mang‘it, Bo‘ston) kirmaydi. Shunday ekan, Qoraqalpog‘istondagi jami 16 ta qishloq ma’muriy tumanlarining markazlaridan 9 tasi (Shumanay, Taxiatosh, Mo‘ynoq shaharlari, Kegeyli, Qorao‘zak, Taxtako‘pir, Qonliko‘l, Oqmang‘it va Bo‘zatov shaharchalari) shu pog‘onadagi aholiga xizmat ko‘rsatishning hududiy markazlari sifatida ajratib olinishi mumkin. Bu toifadagi xizmat ko‘rsatish hududiy markazlarining o‘ziga xos ahamiyatini bozorlar (ko‘pincha, haftaning muayyan kunlarida ishlaydi), ixtisoslashgan va kasb-hunar maktablar, tuman markaziy poliklinika va shifoxonalarning faoliyat ko‘rsatishi belgilab beradi.

Qishloqlararo xizmat ko‘rsatuvchi markazlar mintaqa doirasida shakllangan aholiga xizmat ko‘rsatish hududiy markazlarining to‘rtinchi iyerarxik pog‘onasini hosil qiladi. Bu aholi punktlar, odatda, shaharcha yoki katta qishloq bo‘lib turib, atrofidagi bir nechta kichikroq qishloq aholi punktlariga xizmat ko‘rsatadi. Tegishli toifadagi aholi manzilgohlari tarkibiga, birinchi navbatda, qishloq (ovul) fuqarolar yig‘inlari (OFY) ning ma’muriy markazlari mansub. OFY markazlarida oilaviy shifokor punktlari, bir nechta umumta’lim va maktabgacha ta’lim tashkilotlari, ixtisoslashgan va majmuali do‘konlar faoliyat ko‘rsatib, mahalliy (lokal) ahamiyatidagi servis muhitini shakllantiradi. Shu bilan birga, OFY markazlarida, aksariyat hollarda maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchalari (sartaroshxona, to‘yxona, go‘zallik salonlari va boshqalar) va mahalliy ahamiyatidagi avtotransport shox bekatlari (yo‘nalishli taksilarning boshlang‘ich nuqtalari) tashkil etilgan. Bu holat ham qishloqlararo xizmat ko‘rsatish markazlarining mintaqaviy aholiga xizmat ko‘rsatishning hududiy tizimidagi o‘rnini belgilab beradi.

Shuningdek, mazkur toifadagi xizmat ko‘rsatish markazlari qatoriga OFY maqomiga ega bo‘lmasa ham, atrofidagi mayda ovullarga kundalik tartibda faoliyat ko‘rsatadigan xizmat ko‘rsatish shahobchalari va ijtimoiy infratuzilma obyektlari joylashgan qishloq aholi punktlarini ham kiritish mumkin. Bunday aholi punktlarini, ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasining shimoliy tumanlarida uchratish mumkin. Bu tumanlar aholi sonining kamligi, aholi zichligining pastligi, mayda qishloqlarning

keng tarqalganligi, ular orasidagi masofalarning nisbatan kattaligi bilan tavsiflanadi. Natijada, ko‘p hollarda 2-3 ta mayda qishloq (ovul) aholisi uchun 1 ta umumta’lim maktab, 1 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu birlamchi ahamiyatidagi ta’lim tashkilotlari joylashgan qishloq (ovul) lar qishloqlararo darajada xizmat ko‘rsatish markazlariga aylanadi. Ushbu aholi manzilgohlarida chakana savdo shahobchalari ham, asosan, ta’lim muassasalari o‘quvchilari hisobiga biroz yaxshiroq rivojlangan bo‘ladi.

Masalan, Kegeyli tumanidagi Aqtuba OFY ga qarashli O‘ten ovulida joylashgan maktab tegishli OFY tarkibiga kiruvchi Elibay, Qarabas, Shinibay kabi ovullarning aholisiga xizmat ko‘rsatadi. Sanab o‘tilgan ovullarda maktablar mavjud emas. Shu OFY ning ma’muriy markazi Qarasiyraq ovulida esa OFY da yagona maktabgacha ta’lim tashkilot faoliyat ko‘rsatadi. Shu orqali O‘ten va Aqtuba ovullari qishloqlararo xizmat ko‘rsatish markazlari sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Nihoyat, mintaqa doirasida shakllangan aholiga xizmat ko‘rsatish markazlarining pog‘onasimon tizimning eng pastki, beshinchi, iyerarxik darajani xizmat ko‘rsatish korxona, tashkilot va shahobchalari, ijtimoiy infratuzilma obyektlari umuman yoki deyarli shakllanmagan ovullar tashkil etadi. Bunday aholi punktlarida bir nechta o‘nlab xonadonlar (oilalar, uy xo‘jaliklari) istiqomat qilib, aholi soni 500 kishidan kam bo‘ladi (ayrim hollarda 100 kishiga ham yetmaydi). Bunday aholi manzilgohlarida hattoki umumta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud emas, shuning uchun bu yerdagi oilalarning farzandlari qo‘shni ovullardagi o‘quv muassasalariga tahsil olish uchun qatnaydilar. Chakana savdo sohasi ham bunday aholi manzilgohlarida deyarli yo‘q darajada bo‘ladi.

Istisno tariqasida ayrim xonadonlar o‘z uylarida tashkil qilgan kichik savdo shahobchalari faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Shunda ham bunday savdo shahobchalarida sotiladigan mahsulotlar assortimenti kundalik talab darajasidagi tovarlar bilan cheklanadi. Shu bois, bunday mayda qishloq aholi punktlarida ko‘chma savdoni aholining ehtiyoj va istaklarini inobatga olgan holda tizimli ravishda tashkil etish katta ijtimoiy samara beradi.

Xulosa. Umuman olganda, Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholiga xizmat ko‘rsatish sohasining hududiy markazlari besh pog‘onalik iyerarxik tizimni hosil etadi (1-jadval): 1-pog‘onadagi mintaqaviy (ayrim yo‘nalishlarda – Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni doirasida) ahamiyatga ega bo‘lgan Nukus shahri; 2-pog‘onadagi tumanlararo xizmat ko‘rsatish markazlari (Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot, Chimboy, To‘rtko‘l, Beruniy, Mang‘it, Bo‘ston kabi tuman markazlari va Kegeyli tumanidagi Xalqobod shahri); 3-pog‘onadagi xizmat ko‘rsatish markazlari hisoblanadigan tumanlarning ma’muriy markazlari (yuqorida sanab o‘tilgan 6 ta tuman markazlaridan tashqari

qolgan 9 ta tumanlarning ma’muriy markazlari); 4-pog‘onadagi qishloqlararo xizmat ko‘rsatish markazlari (OFY markazlari va boshqa shaharcha hamda nisbatan kattaroq qishloq aholi punktlari); 5-pog‘onadagi xizmat ko‘rsatish shahobchalari umuman yoki deyarli mavjud bo‘lmagan eng mayda ovullar.

1-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida shakllangan aholiga xizmat ko‘rsatish hududiy markazlarining iyerarxik pog‘onalari haqida umumiy ma’lumot

Pog‘ona tartib raqami	Pog‘onaning nomi	Mansub aholi punktlari	O‘ziga xos xususiyatlari
1	Mintaqa va mintaqalararo xizmat ko‘rsatish markazi	Nukus shahri	Oliy ta’lim tashkilotlari, ilmiy tadqiqot muassasalari, akademik litseylar, Prezident maktabi, yirik ko‘p tarmoqli ulgurji va chakana savdo tashkilotlari, ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiy muassasalar, temir yo‘l vokzali va xalqaro aeroport faoliyat ko‘rsatadi
2	Tumanlararo markazlari	Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot (Oltinko‘l shaharchasi bilan), Chimboy, Beruniy, To‘rtko‘l, Bo‘ston, Xalqobod, Mang‘it shaharlari	Texnikum, kasb-hunar kollejlari, oliy ta’lim tashkilotlari filiallari va fakultetlari, ixtisoslashgan shifoxonalar, doimiy ishlaydigan bozorlar faoliyat ko‘rsatadi
3	Tuman markazlari	Taxiatosh, Shumanay, Mo‘ynoq shaharlari, Oqmang‘it, Kegeyli, Qorao‘zak, Taxtako‘pir, Qonliko‘l, Bo‘zatov shaharchalari	Ixtisoslashgan va kasb-hunar maktablari, turli ta’lim tillarida faoliyat olib boradigan umumta’lim muassasalari, tuman poliklinika va shifoxonalari, tuman ahamiyatidagi bozorlar, katta do‘konlar, tuman avto shox bekatlari faoliyat ko‘rsatadi
4	Qishloqlararo markazlar	OFY markazlari, nisbatan katta qishloqlar	Oilaviy shifokor punktlari, umumta’lim va maktabgacha ta’lim tashkilotlari, do‘konlar, to‘yxonalar, mahalliy ahamiyatidagi maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchalari faoliyat ko‘rsatadi
5	Xizmat ko‘rsatish markazlari hisoblanmaydigan manzilgohlar	Mayda ovullar	Xizmat ko‘rsatish shahobchalari, ijtimoiy infratuzilma obyektlari umuman yoki deyarli mavjud emas

Jadval muallif tomonidan bajarilgan tadqiqotlar natijalari asosida shakllantirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iskenderov A. B., Uzaqbaev Q. K., Sharibaev Am D. I. B. Turizm hám rekreaciyalıq geografiya” páninen oqıw-metodikalıq qollanba //Nókis-2019. – 2019. – T. 128.
2. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Niyazimbetova G. CURRENT STATUS OF MEDICAL SERVICES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Science and education in Karakalpakstan.–2020. – 2020. – T. 2. – C. 104-108.

3. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Oteuliev M. O. Territorial formation of the education system in improving the quality of life of the population of the Republic of Karakalpakstan //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 276-279.
4. Turdimambetov, I., Joldasov, A., Iskenderov, A., & Uzaqbaev, Q. (2022). Qaraqalpaqstannm ekonomikaliq ham socialliq geografiyasi.
5. Tursinbaevna, Gaypova Roza, and Uzaqbaev Qoblan Keunimjay Uli. "Territorial Location Of Medical Services To The Population In The Republic Of Karakalpakstan." *The American Journal of Applied sciences* 2.11 (2020): 28-33.
6. 6. Бекбулатова Г.А., Нурбаева А Основные факторы развития и размещения торгового обслуживания, "Экономика и социум" ISSN 2225-1545. №12(103) 2022.
7. Бекбулатова Г.А., Авезова Н. Региональные аспекты организации развития и размещения сфер торгового обслуживания. "Экономика и социум" ISSN 2225-1545. №12(103) 2022.
8. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИ ГЕОГРАФИЯСИДА ЯРАТИЛГАН НАЗАРИЯЛАР ТАҲЛИЛИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 919-929.
9. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛЛАШТИРИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 233-240.
10. Узакбаев К.К. ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 845-857.
11. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.

NÓKIS QALASÍ XALQÍNÍŃ TÁBIYIY ÓSIMINDEGI ÓZGESHELIKLER

Xodjaeva G.A.,
Berdaq atındaǵı QMU Ekonomikalıq hám sociallıq geografiya kafedrası professorı

Qalmuratov R.F.,
Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti 2-kurs studenti

Kasimova A.,
Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti 1-kurs studenti

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170418*

Hár qanday mámlekettiń sociallıq-ekonomikalıq rawajlanıwı málim dárejede onıń demografiyalıq jaǵdayına da baylanıslı boladı. Bizge belgili, demografiyalıq processler, sonday-aq, xalıqtıń tábiyiy hám migraciya háreketi qalalıq orınlarda ayrıqsha hám salıstırmalı ózgeriwsheń boladı. Solay bolsa da, qalalardaǵı demografiyalıq jaǵday keleshekte awıllıq orınlarda da júz beriwi múmkin.

Xalıqtıń qayta tolısıwında demografiyalıq processler – tuwılıwshılıq, ólimshilik hám tábiyiy ósim kórsetkishleri áhmiyetli orındı iyeleydi. Sebebi, usı processler xalıqtıń udayı ósiwin támiyinlep turıwshı derek bolıp esaplanadı.

Xalıqtıń turmıs táriziniń jaqsılanıwı, ólimshilik dárejesiniń kemeyiwi, xalıqtıń den–sawlıǵın saqlawdı jaqsı jolǵa qoyıw, analıq hám balalıqtı qorǵaw boyınsha kóriletuǵın ilajlar xalıqtıń qayta tolısıwınıń rawajlanıwın támiyinleydi.

Xalıqtıń udayı kóbeyiwi, yaǵnıy tuwılıwshılıq, ólimshilik hám tábiyiy ósim kórsetkishleri tiykarında áwladlardıń almasıwı, aymaqlardıń demografiyalıq jaǵdayınıń tiykarın quraydı. Xalıqtıń udayı kóbeyiwi nátiyjesinde xalıqtıń sanı, jas-jınıs hám shańaraq quramı úziliksiz ózgerip baradı. Bul jaǵday hár bir aymaqta, mámlekette belgili bir social-ekonomikalıq hám demografiyalıq mashqalalardıń kelip shıǵıwına sebep boladı. Xalıqtıń udayı kóbeyiw protsessi bolsa óz náwbetinde, bir qansha sociallıq, tábiyiy, demografiyalıq hám ekonomikalıq faktorlar menen baylanıslı ámelge asadı. Sol sebebli, xalıqtıń udayı kóbeyiw protsessi jámiyiet rawajlanıwınıń hár bir basqıshında, belgili nızamlılıqlarǵa iye [1].

Xalıqtıń turmıs táriziniń jaqsılanıwı, ólimshilik dárejesiniń kemeyiwi, xalıqtıń den-sawlıǵın saqlawdı jaqsı jolǵa qoyıw, analıq hám balalıqtı qorǵaw boyınsha kóriletuǵın ilajlar xalıqtıń tábiyiy ósiwiniń rawajlanıwın támiyinleydi.

Nókis qalası ózine tán demografiyalıq jaǵdayǵa iye qala. Onıń demografiyalıq jaǵdayı xalıqtıń ósip barıwı, tuwılıw, ólim, neke hám ajıralısıw sıyaqlı demografiyalıq protsesslerde kórinedi

Xalıqtıń tábiyiy ósimi tuwılıwshılıq hám ólimshilik ayırmasınan kelip shıǵadı. Tuwılıwshılıq hám ólimshilik - bul biologiyalıq qubılıslar. Tuwılıwshılıq

kórsetkishleri bul bir qansha faktorlarǵa baylanıslı boladı. Bul faktorlarǵa ólimshilik dárejesi, xalıqtıń turmıs dárejesi, milliy dástúrler h.t.b. mısal bola aladı.

Nókis qalası xalqı tuwılıwshılıǵınıń eń joqarı dárejesi 1990 jıllarǵa tuwrı kelip, usı jıllarǵa hár 1000 adamǵa tuwılıwshılıq 40 adam hám onnan joqarı boldı. Ulıwma Ózbekstannıń usı jıllardaǵı tuwılıshılıq koeffitsentinen bir qansha joqarı boldı. 1990 jıldan keyingi jıllarda tuwılıwshılıq kórsetkishi tómenley basladı. Analizlengen jıllarda eń tómen kórsetkish 2000 jılǵa (17,5 promille, al 2003-jılı 15,8 promillege shekem tómenlegen) tuwra kelip, 1990 jılǵa salıstırǵanda hár 1000 adamǵa 22,5 adam ǵa kem tuwılǵan. Tuwılıwshılıqtıń bunday tómenlewi ekinshi duńya júzlik urıstan keyin baqlanbaǵan edi. 2004-jıldan baslap qala xalqınıń tuwılıwshılıǵı jáne áste aqırınlıq penen artıp barıp 2023-jılı 20,7 promillege jetti, yaǵnıy 2007-jıldaǵı kórsetkish dárejesine erisildi [3]. Bul 1980-1990 jıllardaǵı júz bergen kóp tuwılıwshılıq penen baylanıslı tolqın sıyaqlı ózgeris bolıp esaplanadı (1-keste).

1-keste

Nókis qalası xalqınıń tábiyiy ósim koeffitsienti

Jıllar	Tuwılıw-shılıq	Ólimshilik		Tábiyiy ósim
		ulıwma ólimshilik	1 jasqa shekemgi ólimshilik	
1990	40,0	6,8	263	33,2
2000	17,5	5,4	235	12,1
2005	18,3	5,8	125	12,5
2010	22,8	5,1	105	17,7
2015	21,3	4,6	125	16,7
2016	21,7	4,5	141	17,2
2017	17,8	4,7	168	13,1
2018	18,1	4,4	118	13,7
2019	18,3	4,4	85	13,9
2020	18,5	5,1	141	17,2
2021	19,1	4,3	124	14,8
2022	20,7	5,1	133	15,6
2023	20,7	4,9	168	15,8

Keste Nókis qalasınıń social-ekonomikalıq pasportı maǵlıwmatları tiykarında dúzilgen.



1-súwret. Nókis qalası xalqınıń tábiyiy háreketi

Tuwılıwshılıqtıń qısqarıp barıwı tiykarınan hayallardıń bilim dárejesi hám sociallıq islep shıǵarıwda bántlik dárejesiniń artıp barıwı, shańaraqlardıń kóp balalı bolıwǵa talabınıń kemeyiwi, júkliliktiń aldın alıwshı meditsinalıq qurallar hám olar haqqında xalıqtıń bilim sheńberiniń keńeyip barıwı menen baylanıslı.

Hár bir mámleket xalqınıń tábiyiy kóbeyiwi, social-demografiyalıq toparlardıń júzege keliwi xalıqtıń ólimshiligi menen tıǵız baylanıslı.

Bizge málim bolǵanınday ólimshilik júdá kóp biologiyalıq hám sociallıq faktorlardıń nátiyjesinde júz beredi. Olardı eki toparǵa ajıratsa boladı: 1) endogen faktorlarǵa, adamnıń ishki organizminiń rawajlanıwı menen baylanıslı bolǵan faktorlar kiredi; 2) ekzogen faktorlardı sırtqı ortalıq penen baylanıslı bolǵan faktorlar quraydı.

Endogen faktorlar tásirinde ólimshilik jaǵdayları insan organizmi rawajlanıwdan toqtaǵan dáwirlerde, tiykarınan xalıqtıń kekselik toparında kóbirek ushırasadı. Xalıqtıń jas toparı, jas áwladları arasında kóbinese sırtqı ortalıq tásirinde, yaǵnıy xalıqtıń arasında hár qıylı keselliklerdiń tarqalıwı, asharshılıq, urıs uqsaǵan hádiyseler menen baylanıslı júz beredi [2].

Ólimshilikke tiykarınan xalıqtıń jas quramı, den-sawlıqtı saqlaw hám sanitariya-epidemiologiyalıq xızmettiń jaǵdayı, xalıqtıń turmıs hám mádeniy dárejesi, adamlardıń jasaw hám miynet islew sharayatı, meditsina jetiskenlikleri hám onıń hámmege teńligi, awırıwlardıń profilaktikası hám taǵı basqa demografiyalıq faktorlar tásir etedi.

Demografiyalıq dereklerden hám statistikalıq maǵlıwmatlarǵa qaray ótmishte Qaraqalpaqstan xalqınıń salamatlıǵı júdá jaman awhalda bolǵan. Xalıq arasında ólimshilik jaǵdayları júdá kóp ushırasqan, ásirese balalar hám analardıń ólimshiligi

joqarı bolǵan. Ólimshilik balalar arasında qansha joqarı bolsa, tuwılıwshılıq ta soǵan baylanıslı joqarı bolatuǵınlıǵı nızamlı qubılıs.

Ólimshiliktiń balalar arasında keskin az bolıwı tuwılıwshılıqtıń az bolıwına alıp keledi. Biraq, bul jerde hár bir xalıqtıń dástúriy hám diniy turmıs saltı da aytarlıqtay rol` oynaydı. Sonday-aq, xalıqtıń mádeniy, ekonomikalıq hám bilim dárejesiniń ósiwi, qalalardıń ósiwi sıyaqlı faktorlardıń da tásiri úlken bolıp esaplanadı [3].

Qala xalqınıń ólimshiligine keletuǵın bolsaq 1990-jılları hár 1000 adamǵa 6,8 adamnan tuwra kelip, bul biz analizlegen jıllardaǵı eń joqarı kórsetkish bolıp, ol 1998-jılı, 5,8 adam, 2000-jılı 5,4 adam, 2023-jılı 4,9 adamǵa shekem kemeygen. Ólimshilik koeffitsienti tuwılıwshılıqqa salıstırǵanda derlik bir tempte páseyip kelgen. Ótmishte Qaraqalpaqstan xalqınıń ólimshiliginiń joqarı dárejede bolıwı kóbinese ekzogen faktorlar menen sıpatlanadı.

Keyingi jıllarda ólimshiliktiń kemeyiwiniń baslı sebepleri, tuwılıwshılıqtıń azayıwı, xalıqtıń turmıs tárizíniń ózgergenligi hám den-sawlıqtı saqlawda meditsinalıq járdemlerdiń tuwrı jolǵa qoyılıwı menen baylanıslı.

Keyingi jıllarda, ásirese 2005 jıllardan baslap 1 jasqa shekemgi balalardıń ólimshilik kórsetkishleri páseyip barǵan, 1990-jılı 263 bala ólgen bolsa, 2023-jılı bul kórsetkish 168 balanı quradı. Koeffitsient kórinisinde 2009-jılı hár 1000 tuwılǵan gódekten 20,1 gódek nabıt bolǵan 2023-jılǵa kelip bul kórsetkish jáne páseydi. Bul ekologiyalıq jaǵdaylarǵa baylanıslı analar hám balalar arasında awırıwshılıq túrleriniń kóbeygenligi, genofondtıń ózgergenligi menen xarakterlenedi.

Qalamızdaǵı ólimshiliktiń baslı sebebi Aral teńizi hám onıń átirapındaǵı ekologiyalıq mashqalaǵa hám ishimlik suwdıń pataslanıwı, xalıqtıń den-sawlıǵı, ótiw dáwirindegi ekonomikalıq qıyınshılıqlarǵa baylanıslı bolıp otır. Balalar arasındaǵı ólimshiliktiń ósiw pátin páseytiw ushın analıqtı hám balalıqtı qorǵaw jumısların jánede rawajlandırıw lazım dep oylayman.

Tuwılıwshılıq hám ólimshiliktiń ayırması tábiyiy ósimdi payda etedi. Eger tuwılıwshılıq ólimshilikke qaraǵanda joqarı bolsa, xalıq sanı úzliksiz ósip baradı, al eger kerisinshe bolsa xalıq sanı jıldan jılǵa kemeyip baradı. Biraq soǵan qaramastan, biziń regionımızda tábiyiy ósimniń joqarı bolıwı menen xarakterli bolıp esaplanadı.

Nókis qalasında tábiyiy ósimniń joqarı dárejede bolıwı tuwılıwshılıq koeffitsienti menen baylanıslı. Házirgi kúnde Nókis qalasınıń xalqı tez pát penen óspekte. Xalıqtıń ósiw páti bul qalamız xalqınıń materiallıq hám mádeniy dárejesiniń jıldan-jılǵa jaqsılanıwın kórsetedi. Usıǵan sáykes óndiris kúshleri de tez pát penen óspekte.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. K.Allanazarov, G.Khodjaeva, K.Shields. IMPLICATIONS OF THE LINKS BETWEEN DEMOGRAPHY AND ECOLOGY FOR THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN. - Karakalpak Scientific Journal, 2021. p.30-40.
2. Г.А.Ходжаева, Е.К.Умаров, К.Ж.Алланазаров. Демографические факторы территориальной организации производства в районах Южного Приаралья. Актуальные проблемы современной …, 2003. 151-153 стр.
3. Ходжаева Г., Нуранов М. Город в пустыне. Республика илмий амалий анжумани материаллари, Бухара 1-май 2010. 91-94 б.

DEMOGRAFIYA ILIMINDE XALÍQTÍ ÚYRENIWDIŃ TARIYXÍY-ILIMIY BAǴDARLARÍ

G.B.Utepova,
Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı docenti g.i.k.

N.Maxsetbaev,
Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı 4-kurs studenti

Q.Óteev,
Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı 4-kurs studenti

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170427*

Xalıqtı úyreniwshi ilimpazlar arasında planetamızda insaniyattıń payda bolıw dáwiri haqqında hár qıylı kóz-qaraslar orın alǵan. Kópshilik antropolog ilimpazlar pikirine qaraǵanda planetamızda bunnan 5-7 mln jıl aldın insaniyattıń eń dáslepki ata-babaları (avstrolopetikler) Afrika hám Aziyanıń tropik hám ekvatorial zonalarında jasaǵanlıǵı, 2-3 mln jıl ilgeri bolsa avstralopetiklerden keyingi áyyemgi insanlar arxantroplar qáliplesken hám olar shıǵıs Afrikada jasaǵan. Al 600-700 mıń jıl aldın bolsa arxantroplar paleontroplarǵa olar óz náwbetinde pitekantroplarǵa hám neandertallarǵa aylanǵan hám olar Qubla- Shıǵıs hám Qubla-Batıs Aziyaǵa tarqalǵan. Nátiyjede, bunnan shama menen 40-50 mıń jıl ilgeri insanlardıń sanalı (Homo Sapiens) ata - babası qáliplesken.

Sanalı insannıń payda bolıwı mezolit dáwirine tuwra keledi. Xalıq sanı haqqındaǵı dáslepki maǵlıwmatlar eramızdan aldıńǵı dáwirge tiyisli bolıp, bul dáwirde jer sharında bar-joǵı bir neshe júz mıń adam jasaǵan. Anıq maǵlıwmatlar boyınsha qaraytuǵın bolsaq eramızdan 7 mıń jıl aldın jer sharında 10 mlnǵa shamalas adam jasaǵan. Olar hár mıń jılda shama menen 10-20% ten ǵana kóbeyip barǵan. Xalıqtıń bunday ásten kóbeyiwi xalıq arasında óliwshilik jaǵdaylarınıń joqarılıǵı menen bahalanadı. Bul dáwirde óliwshiliktiń ulıwma koefficienti 50 promille hám onnan joqarı bolǵan. Ólim jaǵdayları balalar arasında kóbirek ushırasqan. Xalıq kóbirek tábiiy apatlardan, ashlıqtan, jırtqısh haywanlardıń húJiminen, hár qıylı epidemiyalardan hám qáwimler arasındaǵı tez-tez bolıp turatuǵın urıslardan nabıt bolǵan. Xalıqtıń ortasha ómir kóriw dáwiri 20-25 jıldan aspaǵan. Jámiyet rawajlanıwınıń dáslepki basqıshlarında jer júzi boyınsha xalıqtıń tábiyiy ósimi júdá tómen bolǵan.

Áyyemgi adamzattıń jasawı ushın ózlerine qolaylı, turaqlı hám waqıtsha jasaw orınları (Jer Orta teńizi jaǵalawları, Evropanıń qubla bólimleri, Afrika materiginiń arqa hám oraylıq bólimleri, Nil’ dár’yasınıń alapları, Mesopotamiya oypatlıǵı, Hindstan, Qıtay sıyaqlı mámleketlerdiń territoriyaları) eń birinshi **oykumenalar**

esaplanadı.

Xalıq sanınıń ósimine qáwimler jaylasqan mákanlardıń tábiyiy geografiyalıq ornı, suw resursları, qolaylı klimat sharayatları h.t.b óz tásirin tiygizgen. Hár qıylı tábiyiy apatshılıqlardan ayırım qáwimler tolıq qırılıp ketken. Ásirese suwıq klimatlı, qısı uzaq dawam etiwshi territoriyalarda xalıq suwıqtan, ashlıqtan kóplep nabıt bolǵan. Sol sebepli Evraziyanıń arqa bóleginde xalıq júdá siyrek jasaǵan. Amerika hám Avstraliya materiginde paleolit dáwiriniń aqırlarına shekem adamlar júdá az muǵdarda jasaǵan. Tábiyiy sharayatı insan jasaw ushın qolaylı, suw resursları mol territoriyalarda, yaǵnıy Jer Orta teńizi átiraplarında Arqa Amerikanıń qubla bólimlerinde hám Evraziya materiginiń qubla bólimlerinde bolsa xalıq aytarlıqtay tıǵız jasaǵan.

Insaniyat tariyxında suwǵarmalı diyxanshılıqtıń rawajlanıwı azıq-awqattıń kóbeyiwi, xalıqtıń materiallıq turmıs sharayatınıń biraz jaqsılanıwına alıp keldi. Jeke múlktiń payda bolıwı klasslıq jámiyetke tiykar saldı. Áyyemgi ulıwmalıq jámiyet dáwirinen keyin feodalistlik óndiris qatnasıqları qáliplese basladı. Jer júzinde mádeniyat orayları payda boldı, xalıqqa medicinalıq xızmet kórsetiw áste aqırın rawajlanıw jolına tústi. Júz bergen social-ekonomikalıq ózgerisler xalıq arasında ólim jaǵdaylarınıń kemeyiwine, ortasha ómir kóriw múddetiniń biraz uzayıwına sebepshi boldı. Nátiyjede jer júzi xalqınıń sanı kóbeye basladı. «Áyyemgi Mısırda fraunlar dáwirinde 7 mln, Vaviloniyada bolsa 4-5 mln xalıq jasaǵanlıǵı bizge tariyxtan málim. Eramızdıń basında jer júzi xalqı 200-300 mlndı quraǵan hám olardıń 50 mlnı Rim imperiyasında jasaǵan. Xalıqtıń jáne 40-50 mlnı bolsa Qıtay hám Hindistan territoriyalarında jasaǵan. Arqa-Batıs Evropada bolsa xalıq júdá az -1 mln átirapında bolǵanlıǵı aytıladı»[1].

Birlesken Milletler Shólkemi (BMSh) quramındaǵı “Xalıqtanıw shólkemi” tárepinen tómendegishe maǵlıwmatlar berilgen:

- 1 mlrd - 1804 -jıl
- 2 mlrd - 1927 -jıl
- 3 mlrd - 1960 -jıl
- 4 mlrd - 1974 -jıl
- 5 mlrd - 1987 -jıl
- 6 mlrd - 1999 -jıl
- 7 mlrd - 2011 -jıl
- 8 mlrd - 2022 -jıl

Jańa eranıń baslanıw dáwirinde jer sharı xalqı 200-300 mln adam bolǵan bolsa 1650 jılǵa kelip 0,5 mlrd adamǵa jetti. XIX ásirdiń basında jer sharı xalqı 1 mlrd adamnan astı. Jer sharı xalqınıń 1 mlrd adamǵa jetiwi ushın júdá uzaq waqıt kerek bolǵan bolsa, eki mlrd adamǵa jetiw ushın 123 jıl, úsh mlrd adamǵa jetiw ushın 33 jıl hám tórtinshi mlrd adamǵa jetiw ushın bolsa tek ǵana 14 jıl kerek boldı. Besinshi,

[1] Народонаселение мира. М.: 1994. С.7

altınshı, jetinshi hám segizinshi milliard adamǵa jetiw ushın 11-13 jıl waqıt kerek boldı. Házirgi waqıtta jer júzi xalqınıń sanı 8,4 mlrd adamǵa jetedi.

BMShniń 2023-jıldaǵı maǵlıwmatlarına qaraǵanda xalıqtıń 59,5%i -Aziyada, 9,6%i -Evropada, 17,2%i -Afrikada, 4,8%i -ǴMA mámleketlerine, 13,1%i -Amerika hám 0,5%i -Avstraliya hám Okeaniya dún’ya bóleklerine tuwra keledi.

Jer júzinde adamnıń payda bolıwı hám tarqalıwı tuwralı ilimiy tartıslar elege shekem dawam etip kelmekte. Bul máselege eki túrli kóz-qaras bolıp, **birinshisi;** adamlardıń bir aymaqta yaǵnıy “homo sapiens” tiń bunnan 50 mıń jıllar aldın áyyemgi gominidlerden (Jer Orta teńiziniń shıǵıs bólimi, Qubla Evropa, Arqa hám Shıǵıs Afrika hám Batıs Aziyanı óz ishine alǵan úlken territoriyada) payda bolıp keyin ala jer júziniń hár qıylı kontinentlerine tarqalıp ketken **(monocentrizm**) degen pikirdi aytsa, **ekinshisi** adamlar jer júziniń bir neshe territoriyalarında (Afrika, Evropa, Aziyanıń bir neshe aymaqlarında) payda bolǵan **(policentrizm)** dep esaplaydı. Hárbir eki pikir ushında ózine tán dáliyller bar. Áyyemgi adamlardıń jasaw ornları (**oykumenalar**) barlıq kontinentlerden tabılǵan.

Jer júzine insaniyattıń tarqalıwı uzaq jıllar dawam etkenligi hám bul tarqalıwdıń quramalı geografiyalıq baǵdarlarǵa iye bolǵanlıǵın esapqa alatuǵın bolsaq, bul jóneliste dawamlı izertlewler alıp barıwdı dawam ettiriw máselesi turadı. Jer júzi xalqınıń áyyemgi jasaw ornlarınan tabılǵan buyımlarǵa qarap juwmaq shıǵaratuǵın bolsaq, adamlar jer júzine úzliksiz tarqalǵanlıǵına guwa bolamız.

Monocentrik teoriya boyınsha áyyemgi adamlar paleolit dáwiriniń aqırında Afrikadan Evropa hám Aziyaǵa onnan Bering buǵazı arqalı Amerikaǵa, Qubla - Shıǵıs Aziya arqalı Avstraliya hám Okeaniyaǵa tarqalǵan. Xalıqtıń tarqalıwı hám úzliksiz kóship júriwine tiykarınan qolay tábiyiy sharayat hám azıq - awqat táshwishi májbúr etken. Jer júzinde adamlardıń kóbeyiwi, azıq - awqat tabıwdıń jańa usılları adamlardıń ózlerine maqul kelgen aymaqlarda turaqlı jaylasıwına sebep bolǵan. Eger áyyemgi dáwirlerdegi adamlardıń kóship júriwine joqarıdaǵı kórsetilgen faktorlar sebep bolǵan bolsa, adamshılıq jámiyeti rawajlanıwınıń keyingi basqıshlarında jańasha kóz-qaraslar payda boldı.

Insaniyat tariyxınıń úlken dáwiri yaǵnıy neolit dáwirinen baslap xalıq sanı hám quramı dástúriy dep atalıwshı tip tásirinde qayta tolısqan. Xalıqtıń qayta tolısıwınıń bul tipi ekonomika hám oǵan tán sociallıq qatnasıqlar menen tikkeley baylanıslı edi. Bunda kóp balalı shańaraqlardıń sanın kóbeytiwge háreket etiw, ásirese xojalıq jumıslarında ákege járdem beriwshi ul perzentler hám olardıń sanınıń kóp bolıwına júdá itibar qaratılǵan. Ata-ana shańaraqta 3-4 perzentke iye bolmaqshı bolsa, onda hayal usı muǵdardan 2-3 ese kóp balanı dún’yaǵa keltiriw kerek bolǵan. Sebebi, náreste hám balalar ólimininiń júdá joqarılıǵı tuwılǵan balalardıń yarımınan artıǵın

joǵaltıwǵa alıp kelgen. Bir neshe mıń jıllar dawamında, ólim dárejesiniń júdá joqarılıǵı hám xalıqtıń ósiminiń tómen bolıwı ob’ektiv sebeplerden biri edi.

Jámiyette materiallıq hám sanitar-gigienik sharayatlardıń qanaatlandırarsız awhalda ekenligi, ásirese tez-tezden takrarlanıp turatuǵın ashlıq, tábiyiy apatlar hám hár qıylı epidemiyalar nátiyjesinde júz mıńlaǵan adamlardıń qırılıp ketiwi sıyaqlı faktorlar óziniń keri tásirin kórsetken. Jer sharında bunday apatlar 200-400, 1300-1400 jıllar dawamında qara oba epidemiyasınıń tásirinde planeta óz xalqınıń 1/4 bóleginen ajraldı hám xalıq sanı keskin kemeydi. XI-XV ácirlerde jerjúzi xalqınıń belgili bir bólegi monǵol-tatar, túrk urısları sebepli qırılıp ketken. Ásirese, bul urıslardan Shıǵıs hám Qubla-Shıǵıs Evropa mámleketleri xalqı úlken jábir kórdi. Urıslar xalıqtıń tikkeley qırılıp ketiwine ǵana emes, ondaǵı óndiristiń toqtap qalıwı nátiyjesinde payda bolǵan asharshılıq sebepli kóplegen insanlar nabıt boldı. 1600-1650 jıllar aralıǵında xalıq sanı ulıwma óspedi. Xalıqtıń kórsetkishlerine uzaq dawam etken urıslar da júdá jaman tásir etti. XVIII ásirdegi urıslar 5,2 mln adamnıń ómirin alıp ketti. Eger dáslepki 500 jılda (1000-1500 jıllar) Jer júzi xalqı 135 millionga kóbeygen bolsa, 1500-1750 jıllarda, yaǵnıy 250 jılda bul kórsetkish 288 milliondı quradı, yaǵnıy xalıqtıń ósimi 2 esege kóbeydi. XVIII ásirdiń ekinshi yarımınan baslap xalıqtıń ósimi jáne de tezlesti.

XIX ásirge shekem bolǵan dáwirde demografiyalıq processlerde sapalı ózgerisler júz bermegen. Bunnan keyingi dáwirde xalıqtıń tábiyiy háreket kórsetkishlerinde ***“demografiyalıq ótiw”*** processi baslandı. Onda shańaraqtaǵı wazıypalardıń hám turmıs tárizıniń unamlı tárepke ózgeriwi, xalıqtıń jas quramındaǵı alǵa ilgerlewler hám basqa da faktorlar menen baylanıslı boldı.

Ilimpazlar demografiyalıq ótiw processiniń izbe-izligin tórt basqıshta úyrenip ilimiy jaqtan dáliyllep bergen.

- tuwılıwdıń joqarı dárejede saqlanıwı hám ólimniń keskin qısqarıwı nátiyjesinde júzege keliwshi júdá joqarı dárejedegi tábiyiy ósim;
- kóp balalı shańaraqtan az balalı shańaraqqa ótiw, ólimniń qısqarıwı, tuwılıwdıń bolsa kemeyiwi nátiyjesinde tábiyiy ósimniń páseyiwi;
- xalıqtıń quramında qariyalar sanınıń artıwı hámde tuwılıwdıń páseyiwi nátiyjesinde ólim kórsetkishleri birqansha joqarılawı. Bul basqıshta xalıq sanı júdá az muǵdarda ósiwi;
- tuwılıw hám ólim kórsetkishleri teńlesedi yaǵnıy xalıqtıń ósiwi toqtaydı.

Demografiyalıq ótiw dáwiri dáslep Evropada XVIII ásirde baslanadı. Bunda tabiyiy ósim 20-30%ke teń boldı, bunı haqıyqattan da demografiyalıq revolyuciya dep ataw mumkin. Sebebi, 10-20 jıl aldın tekǵana 5-10% ke teń bolǵan tábiyiy ósim qısqa waqıt ishinde 2-3 esge arttı. Bul jaǵday Evropa regionında 100-150 jıl dawam

etti. Onnan keyingi dáwirde Evropa mámleketleri demografiyalıq ótiwdiń ekinshi basqıshına ótti. Házir bul mámleketlerdiń kópshiligi demografiyalıq ótiwdiń úshinshi basqıshında, yaǵnıy, Germaniya, Avstriya, Belgiya, Italiya, Daniya, Vengriya, Niderlandiya xalıqtıń ápiwayı qayta tolısıwın támiyinley almay atırǵanlıǵı ashınarlı jaǵday, yamasa ólgenlerdiń sanı tuwılǵan balalar sanınan kóp bolmaqta. Rawajlanıp atırǵan mámleketlerdiń kópshiligi demografiyalıq ótiw processiniń 1-basqıshınan orın alǵan.

AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliya mámleketleri 2-basqıshtı basınan keshirmekte. Qıtay hám basqa da bir qatar mámleketler usı 2-basqısh qarsańında tur. Ózbekstan hám basqa da Oraylıq Aziya mámleketleri 2-basqısh talaplarına juwap bermekte.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Абдураҳмонов Қ.Х. ва бошқалар Демография. Дарслик - Т.: «Иқтисодиёт», 2014.
2. Боярский А.Я., Валентей Д.И., Кваша А.Я. Основы демографии. – М.: Статистика, 1980.
3. Бўриева М.Р, Эгамова Д.Н. Дунё аҳолиси: Ривожланиш жараёнлари (ўқув қўлланма). Т.: Фан, 2008.
4. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.
5. Утепова Г. Б., Махсетбаев Н. Б. НАУЧНОЕ ОПИСАНИЕ ДЛЯ СТРАН С ДОЛГОЖИТЕЛЯМИ //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2025. – Т. 3. – №. 33. – С. 22-25.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MUHOFAZA QILINADIGAN TABIIY HUDUDLARNING ROLI

Bekbulatova G.A.,
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, g.f.n.

Tajibaeva L.R.,
Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktaranti

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170434*

Annotatsiya: *Bugungi kunda turizmning alohida yo’nalishlaridan biri bo’lgan ekoturizm sohasi keng ko’lamda rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga hozirda ekoturizm tushinchasi, uning shakllanish tarixi va uni rivojlantirish bilan bog’liq masalalar bo’yicha turli soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Hususan, ekoturizmning mohiyati va rivojlanish tendensiyalari, ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, ekoturistik resurslardan foydalanish, ekoturizmning ichki imkoniyatlari va barqaror rivojlanishi, ekoturizmning ison ruhiyatiga ijobiy ta’siri, ekoturizmni boshqarishning metodalogik asoslariga oid olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.*

Kalit so‘zlar: *ekoturizm, ekoturistik zona, qo’riqxona va buyurtmaxona, endemik o’simliklar, ekoturistik destinatsiya, biosfera rezervati, cho’liston, Borsakelmas, yoriqlar va chinklar.*

Hozirgi kunda butun dunyoda bo’layotganidek mamlakatimizda shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasida ham turizmga bo’lgan e’tiborning ortib borayotgani barchaga sir emas. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida eski shaharlar va tarixiy yodgorliklar juda ko’p bo’lib, hozirgi davr va qadim o'tmishni bog'lovchi rishta hisoblanib kelgan. Bunga yaqqol misol sifatida arxeologik izlanishlar natijasida topilgan 131 ob’ektlar, 25 arxitektura namunalari, 89 monumental san’at yodgorliklari va 40 ga yaqin diqqatga sazovor joylarni keltirish mumkin.

Qadimda Buyuk Ipak Yo’li ustida joylashgan qadimiy shaharlar va karvon saroylar o'rnini egallab kelayotgan yangi va zamonaviy mehmonxonalarga ham hozirda talab yuqori. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida 30 ga yaqin mehmonxona va mehmon uylar kelgan mahalliy va xorijiy turistlarga zamonaviy xizmatlar ko'rsatib kelmoqda. Birgina 2018 yilning I-choragiga ko'ra mehmonxonalarimizda 7541 ta turistlarga xizmat ko'rsatilgan bo'lib, shulardan 942 tasi chet ellik turistlarni tashkil qiladi. Shuning o'ziyoq turizm salohiyatining naqadar yuqoriligidan dalolat beradi.

Qoraqalpog'istonning ajoyib arxeologik yodgorliklari, o'tmishdagi folklor badiiy san'ati, ijro badiiy san'ati, hunarmandchiligi, tabiatni muhofaza qilish hududlari, o'simlik va hayvonot dunyosi, I. Savitsky nomidagi Qoraqalpog'iston davlat badiiy san'ati muzeyi kabi ajoyib muzeylar nafaqat olimlar, balki O'zbekistonda va xorijda keng jamoatchilik qiziqishini uyg'otmoqda. Qadimgi

Xorazm tsivilizatsiyasining asosiy markazlarini qamrab olgan "Qadimgi Xorazm Oltin xalqasi" turistik yo’nalishiga keng etibor ortib bormoqda. Tuproq qala (eramizning I-VI) - Qadimgi Xorazm hukumdorlarining rezidentsiyasi bo’lib xizmat qilmoqda. Xorazmning daslabki o’rta asr paytaxti - Kat qala (Beruniy), Xorazmning orta asr poytaxtı - Gurganj (Ko’hna Urganch, Turkmaniston) va so’nggi asrlardagi Xiva (Xorazm viloyati) shular jumlasidandir. Qoraqalpog’istonning merosi dunyo madaniyatida betakror va o’ziga hos bo’lib, bugungi kunda bu tadqiqotchilar hamda turistlar orasida ko’proq ahamiyatga ega bo’lib kelmoqda.

Orol dengizi O’rta Osiyo cho’llarining markazida, okean sathidan 53 m. balandlikda joylashgan. U 1960-yillargacha bo’lgan davrda maydoni bo’yicha (64, 5 ming km²) dunyoda to’rtinchi o’rinni egalab kelgan va o’rtacha chuqurligi - 16 m, eng chuqur yeri - 68 metrdan iborat bo'lgan.

Orol dengiziga Markaziy Osiyodagi eng yirik daryolar – Amudaryo va Sirdaryodan suv quyilib turgan. Bu daryolarning suvlaridan nooqilona foydalanish oqibatida, shuningdek XX asrning 70-yillari Amudaryoning Orol dengiziga quyilishida to’siqlarning paydo bo’lishi natijasida dengizning qurib qolishiga sabab bo’ldi.

Keyingi 30-40 yilda dengizning maydoni sezilarli darajada qisqarib ketti. XX asrning 50-60-yillari boshida dengiz sathi 53,5 m (Boltiq dengizi sathidan) edi. Suv sathining o’zgarishi 1970-yillari u 2, 4-metrga tushib qolgan vaqtda yaqqol sezila boshladi. 2009-yilning malumotlari bo’yicha, Orol dengizining markaziy qismining butunlay qurishi kuzatildi. Bu paytda uning maydoni 11,8 ming km², suvining umumiy xajmi 1960-yildagi suv xajmining 10% tashkil etdi. Orol dengizi suvining chorlik darajasining ortib borishi dengiz hayvonat dunyosining qisqarib ketishiga shuningdek daryo suv xajmining qisqarishi bo’lsa bu hududning sahro (cho’liston)ga aylanishiga va buning oqibatida iqlimning o’zgarishiga olib keldi.

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati Amudaryo qirg’oqlari bo’ylab Beruniy va Amudaryo tumanlari hududida joylashgan. Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati Qoraqalpog’istan Respublikasining Nukus shaxridan 90 km, Beruniy tumani markazidan 44 km uzoqlikda joylashgan.

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatining umumiy maydoni 68717,8 gektarni tashkil qiladi. Hudud 3 zonaga bo’lingan, qo’riqxona 11568,3 gektar, bufer 6731,4 gektar va o’tish 50418,1 gektardan iborat.

Bu hududning iqlimi keskin kontinental. Qishlari o’rtasha sovuq va qorli. Absolyut minimum – 26 ^{0}C ga teng bo’lganda, yanvarning o’rtacha temperaturasi noldan 4-5 ^{0}C gacha pasayadi. Yozi issiq xaroratning absolyut maksimumi +42,6 ^{0}C. Bu hududlar asosan bahor va kuzda o’rtacha 80 mm yog’in yog’adigan O’rta

Osiyoning eng quruq hududlarining biri hisoblanadi. Hududda o’simliklarning 419 ga yaqin turlari mutaxasislar tamonidan kuzatilgan.

Yavvoyi hayvonlar: Hududda 348 turdagi umirtqali hayvonlar, shuning ichinda, 41 turdagi baliqlar, 2 amfibiyalar, 24 sudralib yuruvchilar, 243 qush (migratorlarbilan) hamda 38 sut emizuvchilar tizimga olingan. Shundan, baliqlarding 10 turi, sudralib yuruvchilar 2 turi, qushlarning 14 turi va sut emizuvchilarning 4 turi O’zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kirtilgan, 18 turi bo’lsa Tabiyatni qoriqlash xalqaro tashkilotining Qizil tizimiga kiritilgan.

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatida ekoturizmni rivojlantirish bo’yincha bir qator ishlar amalga oshirish maqsadida 3 ta ekoturizm marshruti tashkil etilgan.

"Borsakelmas" davlat buyurtma qo’riqxonasi bo’yicha O’zbekiston va Fanlar akademiyasi takliflari asosida Ustyurt platosi hududida uning tabiiy obektlari va komplekslarini himoya qilish maqsadida 2022-yili tashkil etilgan. Qoraqalpog’istan Respublikasi Qo’ng’irot tumani Ustyurt tekisligida 280 000 gektar yer maydonidan iborat bo’lib, shundan 44 000 gektar yeri qo’riqlash zonasi hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasidagi yirik batqoqliklardan biri hisoblangan Borsakelmas past tekisligi hududida joylashgan. Hudud relyefi tekislikdan iborat bo’lib, karst relyef formalari, yani voronkalar, cho’kmalar va boshqalar ko’p uchraydi.

Barsakelmas botiģi denudatsion-deflyaciyaviy tipga ega bo’lgan erozion-sho’rli yopiq botiq hisoblanadi. Pasttekistlikning tubi tuz qatlamlari va rapa, yani yuqori kontsentratsiyali tuzli birikmalar bilan qoplangan. Pasttekistlikning eni 60-80 km ni tashkil etadi. Hududning iqlimi quruq va keskin kontinental tipga ega bo’lib, yanvar oyida o’rtacha temperatura -6 -8^{0}C daraja, iyul oyida +28+30^{0}C darajani quraydi. Absolyut daraja yanvar oyida -39^{0}C darajagacha, yozda +46 ^{0}C darajagacha bo’lgan. Yillik yog’in miqdori 100-120 mm bo’lib, asosan qish-bahor fasliga to’g’ri keladi. Borsakelmas cho’kmasi va uning atrofidagi hududlarda tabiiy obektlardan karst voronkalari va cho’kmalar, tabiiy tuz zaxiralaridan Borsakelmas tuz koni va boshqalar alohida ajiralib turadi.

Tarixiy obektlardan taxminan XIV-XV asrlarga tegishli eski toshqo’rg’on qoldiqlari (Alang qala) ochiq sardoba va boshqa obektlar mavjud bo’lib, kelajakda ekoturizm marshutlarining tashkil etilishida asosiy tamosha va ziyorat qilish obektlari sifatidagi ahamiyatga ega hisoblanadi.

"Sudoche-Akpetki" davlat buyırtma qorıqxonası. "Sudoche-Akpetki" davlat buyurtma qo’riqxonasining hududi "Sudoche ko’llar tizimi" uchastkasi va "Akpetki" uchastkalari kabi tabiiy hududlardan tashkil topgan, umumiy yer maydoni 280507 gektar, shundan: "Sudoche ko’llar tizimi" uchastkasi 84702 gektar, "Akpetki"

uchastkasi 195805 gektarni tashkil etadi. Qoraqalpog’iston Respublikasining Mo’ynaq, Qo’ngirot va Taxtako’pir tumanlar hududida joylashgan. "Sudoche ko’llar tizimi" uchastkasi tipik delta ko’l hisoblanadi. Ko’l akvatoriyasi va uning g’arbiy qismidagi Ustirt platosi mintaqaning biologik xilma-xilligini ta’minlaydi.

Sudoche ko'li hozirgi Amydaryo deltasida landshaftning xilma-xilligini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega. Mintaqada 2 xil ekotizim mavjud bo’lib, ular tabiiy faunistik majmualar, suvli-botqoq hududlar va cho’l uchastkalaridan iborat.

Ekoturistik maskanlar: Qo'riqxona hududida XIII-XIV asrlarda O'rta Osyoni Volga bo'yi, Evropa va janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari bilan bog'lovchi Buyuk Ipak Yo'li ahamiyatiga ega maskanlarning biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ushbu yodgorlik atrofida 5 gektar yer ajratilib, ekologik sayyohlik manzili barpo etilmoqda. Bu ham ko’l tabiyatini sevuchilar uchun va bu yerning endemik o’simlik va hayvonat olamini tomasha qiluvchilar uchun ajoiyb maskanlarning biriga aylanadi deb oylayman.

"Janubiy Ustyurt" milliy tabiat bog’i. Ustyurt platosi G'arbda Mang’ustov-Qora-Bo’g’oz ko'rfazida, Orol dengizidan sharqda Amudaryo deltasining o'rtasida joylashgan. Janubiy Ustyurt Milliy bog‘ining umumiy maydoni 1 447 143 gektar, qo‘riqxona zonasi 934 584 gektar, rekreatsiya zonasi 69 515 gektar, xo‘jalik maqsadidagi zona 443 044 gektarni tashkil etadi. Bu yerda yer yoriqlar va chinklar bor. Chinklarning balandligi 250-300 metrgacha Ustyurt platosida sozli tekisliklari, keng qirg'oq vodiylar, qadimgi va hozirgi vaqtdagi suv oqimlarining kanallari keng tarqalgan. Ustyurt mintaqasi keskin kontinental iqlim o'zgarishiga moyil bo'lib, qishda sovuq, yozda issiq va quruq bo'ladi. "Janubiy Ustyurt" milliy bog'i Sariqamish ko'li hududini o'z ichiga oladi. Bu hududlarda ham ko’ngil ochar oyinlar, suniy akvaparklar tashkil qilish, hududning maydonining kattaligi va asosan tekislikdan iboratligini inobatga olgan holda ekstremal sportni yaxshi ko’ruvchilar uchun o’ziga xos turistik maskanga aylantirish maqsadga muvafiq bo’ladi.

X**ulosa:** Ekoturizmning davlatning strategik tarmog’iga aylantirilishida turizm infratuzilmasini takomillashtirish va sayyohlarni ko’proq tabiiy obektlar, yani tog’lar, o’rmonlar, daryolar, ko’llar, g’orlar, cho’l va adirlarda yuzaga kelgan noyob landshaftlar jalb qilishini hisobga olib, ushbu yo’nalishlar bo’yicha ekoturizmning yangi imkoniyatlarini o’rganib chiqishni va yanada kengaytirishni taqoza etadi. Tumanlar bo’yicha turistik salohiyatini baholash turistik destenatsiya obektlari bilan bog’lovchi yangi turistik marshutlar ishlab chiqish juda muhim hisoblanadi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi turizmini kompleks rivojlantirishda turistik resurslardan oqilona foydalanish, sayyohlar tashiriflari bilan bog’liq hizmatlar sohasini rivojlantirish, muammo va istiqbollarini o’rganish bo’yicha ilmiy-amaliy taklif va tafsiyalar ishlab chiqish o’lkamiz turizmini rivojlantirishga asos bo’la oladi.

Hududning ekoturistik obektlari va ularni bir-biri bilan bog’lovchi marshutlar va geografik platformalarini yaratish nafaqat xalqaro turistlar uchun balki mahalliy turistlar uchun ham ancha yengiliklar bo’lar edi. Qoraqalpog’iston Respublikasi hududidagi ekoturistik obektlarni oraliq masofasining olisligi mahalliy turistlar uchun ham ancha qiyinchiliklar tug’diradi. Shu sababli hududning ichki infrastrukturasini yaxshi yo’lga qoyib olsak, ichki marshutlar va mahalliy mexmon uylarini tashkil etish turizm rivoji va uning istiqboli uchun ham maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Adabiyotlar:

1. Bekbulatova G.A., Xodjaeva G.A., Turizm hám rekreatsiya geografiyası, Nukus. «Bilim»,2024. 244 б.
2. Бекбулатова Г.А., Жолымбетов Б. Пути и возможности развития туризма в Каракалпакстане, «Экономика и социум" ISSN 2225-1545. №12(115) 2023.
3. Bekbulatova G.A., Tojibaeva L.R., Issues of ecotourism organization and development in the territory of the republic of Karakalpakstan, Science and Education in Karakalpakstan, ISSN 2181-9203 №4/1 (44) 2024.
4. O’zbekiston Respublikasining “Turizm to’g’risida”gi Qonun T.: 1999.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezdentining “O’zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo’mitasi”ni tashkil etilishi to’g’risidagi 2016-yil 2-dekabrdagi PQ-2666-sonli qarori.
6. Gulmetov F.E., Allabergenov A.A. Turizm geografiyasi: Kasb-hunar kollejlari uchun o’quv qo’llanma. – T.: “Talqin”, 2004.
7. П.Р.Реймов, Я.Г.Худайбергенов Исследование трансформации геосистем опустынивающихся территорий Южного Приаралъя. Нукус. 2024.
8. www.tour.uz
9. www.karakalpakstan.travel

KEGEYLI RAYONÍ ULÍWMA BILIM BERIW MEKTEPLERINIŃ BILIMLENDIRIW TARAWÍ INFRASTRUKTURASÍ

Gaypova Roza Tursinbaevna,
Ájiniyaz atındağı NMPI Geografiya oqıtıw metodikası kafedrası docenti, p.i.k.

Bozorboyeva Zulayha Umidjon qizi,
Ájiniyaz atındağı NMPI Anıq hám tábiyiy pánlerdi oqıtıw metodikası (geografiya) magistratura tálim baǵdarı 1-kurs magistri

Jaksimuratov Azamat Bekmurat uli
Ájiniyaz atındağı NMPI Geografiya hám ekonomikalıq bilim tiykarları bakalavr tálim baǵdarı 3-kurs studenti, Kegeyli rayonı 10-sanlı ulıwma orta bilim beriw mektebiniń geografiya hám ekonomikalıq bilim tiykarları páni oqıtıwshısı

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170453

Nókis qalası júdá qolaylı geografiyalıq ornında, Ózbekstan Respublikasınıń arqa-batısında, Qaraqalpaqstan Respublikasınıń oraylıq bóliminde jaylasqan. Qala arqalı Doslıq magistral kanalı, qubla-batısında Ámiwdárya dáryası ağıp ótedi.

Qala Tashkent qalasınan arqada 1240 km, Moynaq qalasınan 220 km, Tórtkúl qalasınan 180 km qashıqlıqta bolıp, teńiz qáddinen 74 metr bálentlikte jaylasqan. Qala aymaǵı Nókis rayonınıń Órnek, Nókis xojalıqları, Ámiwdárya rayonınıń Berdaq xojalıqlarınıń jerleri menen shegaralasadı, eni 7 km ge jaqın tar polosada jaylasqan. Maydanı 220 km^2 di quraydı. Shegaralarınıń ulıwma uzınlıǵı 140,9 km bolıp, sonnan Nókis rayonı menen 121,3 km, Ámiwdárya rayonı menen 13,8 km, Qaraózek rayonı menen 5,8 km di quraydı.

Xalqınıń sanı 339,2 mıń (01.01.2024) adam. Xalıqtıń tıǵızlıǵı 1 km^2 jerge 1542 adamdı quraydı.

Tiykarǵı bólim. Energetika sisteması Ózbekstan ekonomikasınıń eń áhmiyetli tarawlarınan biri esaplanadı. Sebebi bul sistema jetkerip berip atırǵan energiya kóp tárepten awıl xojalıǵı, sanaat hám xızmet kórsetiw tarawlarınıń búgini hám keleshegin belgilep beriwshi qural esaplanadı. Sonıń ushın respublikamız ǵárezsizlikti qolǵa kirgizgen dáslepki jıllardan-aq bul tarawdı rawajlandırıwǵa hám jańalawǵa kiristi.

Nókis qalasın elektr energiyası menen támiyinlew maqsetinde 667 transformator podstanciyaları qurılǵan. Sonnan joqarı kúshleniwli podstanciyalar sanı 10, tómen kúshleniwli podstanciyalar sanı 657. Qala aymaǵında 674 transormatorlar qurılǵan bolıp, olardıń joqarı kúshleniwli transformatorlardıń sanı 19, tómen kúshleniwli trasformatorlar sanı 657 ni quraydı.

Nókis qalası aymaǵı boylap elektr tarmaqlarınıń ulıwma uzınlıǵı 1455,6 km bolıp, sonnan kabel tarmaǵınıń uzınlıǵı 306,8 km di quraydı (1-keste).

1-keste

Nókis qalasın elektr energiyası menen támiyinlew kórsetkishleri

Transformator podstanciyaları sanı	**-**	**667**
sonnan,		
- joqarı kúshleniwli podstanciyalar	**-**	**10**
- tómen kúshleniwli podstanciyalar	**-**	**657**
Transformatorlar sanı	**-**	**674**
sonnan,	-	-
- joqarı kúshleniwli transformatorlar	**-**	**19**
- tómen kúshleniwli transformatorlar	**-**	**657**
atap aytqanda, 2022-jılda ornatılǵan jańa transformatorlar	-	14
Qala boyınsha elektr tarmaqları uzınlıǵı, *km*	**-**	**1455,6**
sonnan,		
Kabel tarmaǵınıń uzınlıǵı, *km*	**-**	**306,8**
- 6-10 Kv kabel tarmaǵı	-	249,2
- 0,4 Kv kabel tarmaǵı	-	57,6
Hawa tarmaǵınıń uzınlıǵı, *km*	**-**	**1148,7**
- 110 Kv hawa tarmaǵı	-	169,3
- 35 Kv hawa tarmaǵı	-	12,8
- 6-10 Kv hawa tarmaǵı	-	383,2
- 0,4 Kv hawa tarmaǵı	-	580,4
Ornatılǵan elektr esaplaǵıshlar sanı	**-**	**76824**
sonnan,		
- elektron elektr esaplaǵıshlar	-	5424
- plastik kartalı elektr esaplaǵıshlar	-	-
- avtomatlastırılǵan elektr esaplaǵıshlar	-	71400
- basqalar	-	-
atap aytqanda, 2022-jılda ornatılǵan elektr esaplaǵıshlar sanı	**-**	**71400**
- shańaraqlarǵa	-	68622
- yuridikalıq shaxslarǵa	-	2778
Elektr energiyası tutınıwın aralıqtan turıp úzliksiz qadaǵalaw sistemasına jalǵanǵan yuridikalıq hám fizikalıq shaxslar sanı	**-**	**44949**
sonnan,		
- fizikalıq shaxslar	-	44443
- yuridikalıq shaxslar	-	506

Qala boyınsha ornatılǵan elektr esaplaǵıshlardıń sanı 76824 bolıp, sonnan elektron esaplaǵıshlardıń sanı 5424, avtomatlastırılǵan esaplaǵıshlardıń sanı bolsa

71400 di quraydı. Elektr esaplaǵıshlarınıń 68622 si shańaraqlarǵa, 2778 i yuridikakalıq shaxslarǵa tiyisli.

Elektr liniyasın jetkerip beriwshi kabel tarmaǵınıń uzınlıǵı 306,8 km bolıp, sonnan 249,2 km 6-10 Kv kabel tarmaǵı, 57,6 km i 0,4 Kv kabel tarmaǵı esaplanadı. Hawa tarmaqlarınıń ulıwma uzınlıǵı 1148,7 km bolıp, sonnan 110 Kv hawa tarmaǵı 169,3 km, 35 Kv hawa tarmaǵı 12,8 km, 6-10 Kv hawa tarmaǵı 383,2 km di quraydı.

Búgingi kúnde Ózbekstanda tábiyiy gaz jetkerip beriw liniyalarınıń uzınlıǵı 13,7 mıń km magistral gaz qubırları, 25 kompressor stanciyaları, 341 gaz bólistiriw stanciyaları (GBS), 2 gazdı jer astında saqlaw qoymaxanası arqalı ámelge asırılmaqta.

2-keste

Nókis qalasın tábiyiy gaz benen támiyinlew kórsetkishleri

Tábiyiy gaz benen támiyinlewshi kárxanalar	-	**1**
- olardaǵı jumısshılardıń sanı	-	**85**
Gaz bólistiriw punktleri	-	**1103**
Tábiyiy gaz tarmaqlarınıń uzınlıǵı, *km*	-	**815,1**
sonnan, jer astı tarmaq uzınlıǵı	-	256,3
Gaz tutınıwshılarınıń jámi sanı	-	**69304**
- yuridikalıq shaxslar	-	1705
- fizikalıq shaxslar (xalıq)	-	67599
Xalıqtıń gazge bolǵan jıllıq talabı, *mln.m*^{3}	-	**843,2**
Qalanıń 2019-jıldaǵı gaz tutınıwı, *mln.m*^{3}	-	**766,5**
Suyıltırılǵan gaz ballonları sanı	-	**805**
sonnan, 2019-jılda xalıqqa jetkerip berilgen jańa gaz ballonları sanı	-	-
2019-jılda xalıqtıń suyıltırıǵna gaz benen támiyinleniwi, *mıń m*^{3}	-	**60,4**
Jan basına kúndelikli gaz támiynatı, *m*^{3}	-	**3,4/3,2**
sonnan, tábiyiy gaz	-	6,0
suyıltırılǵan gaz	-	0,1
Gaz benen támiyinlengen xalıq sanı, *mıń adam*	-	**319,8**
Gaz benen támiyinleniw dárejesi, %	-	100,0
- tarmaq arqalı támiyinlengen xalıq sanı	-	**318180**
sonnan, gaz esaplaw úskeneleri ornatılǵanlar sanı	-	65898
tarmaq arqalı támiyinleniw dárejesi, %	-	99,4
- suyıltırılǵan gaz benen támiyinlengen xalıq	-	**1620**
Gaz benen támiyinlenbegen xalıq	-	-

Tarawda, jańa kánlerdi ózlestiriw hámde zamanagóy óndiris zavodların iske túsiriwge óz aldına itibar qaratılmaqta. Atap aytqanda, jer astı baylıqların

mámleketimiz mápi jolında isletiw barısında iri joybarlar ámelge asırılıp atır. Qaraqalpaqstannıń Qońırat rayonı aymaǵındaǵı Surgil káni negizinde iske túsirilgen Ústirt gaz-ximiya kompleksi de usılar qatarında.

Nókis qalası xalqın tábiyiy gaz benen támiyinlew respublikanıń aldında turǵan aktual másele bolıp esaplanadı. Usı máseleni sheshiw maqsetinde tábiyiy gaz benen támiyinlewshi kárxana xızmet kórsetpekte. Kárxanadaǵı jumısshılardıń sanı 85 adamdı quraydı. Qala aymaǵında 1103 gaz bólistiriw punktleri jaylasqan bolıp, tábiyiy gaz tarmaqlarınıń uzınlıǵı 815,1 km di duraydı. Qala boyınsha gaz tutınıwshılarınıń ulıwma sanı 69304 bolıp, olardıń 1705 si yuridikalıq shaxslar, 67599 i fizikalıq shaxslar bolıp esaplanadı (2-keste).

Tutınıwshılar ushın jánede qolaylıqlar jaratıw maqsetinde paydalanılǵan tábiyiy gaz ushın esap-kitap qılıwdıń jańa avtomatlastırılǵan billing sisteması engizilgen hám UzPaynet hámde SMS-tólem sıyaqlı elektron tólemlerdiń mobil sistemaları menen almastırılǵan. Sonday-aq, suyıltırılǵan gaz jetkerip beriw boyınsha da salmaqlı isler ámelge asırılmaqta.

Ózbekstanda oraylasqan tarmaqlar arqalı taza ishimlik suwı menen támiyinlew dárejesi 68 %. Bul kórsetkish, Qaraqalpaqstan Respublikasında 52%, Buxarada 53%, Qashqadárya hám Surxandárya 54%, Xorezmde 56% ti quraydı.

Nókis qalasında ishimlik suwı menen támiyinlewshi 1 kárxana bolıp, olardaǵı jumısshılardıń sanı 203 adamdı quraydı. Qala xalqına 1 suw tazalawshı qurılma xızmet kórsetedi. Bul qurılmanıń ámeldegi suw tazalaw quwatı 65000 mıń kub metr sutkanı quraydı. Suwdı xlorlawshı úskenelerdiń sanı 2 ew bolıp, sonnan birewi ońlawdı talap etedi.

Oraylıq Aziyada qáwipsizlik hám turaqlılıqtı támiyinlew menen baylanıslı mashqalalar haqqında sóz barǵanda regionnıń ulıwma suw qorlarınan aqılǵa muwapıq paydalanıw máselesin shetlep ótip bolmaydı. Dúnya júzi densawlıqtı saqlaw shólkemi maǵlıwmatlarına qaraǵanda, dúnyadaǵı keselliktiń 50%i ishimlik suwınıń sapasına baylanıslı. Ózbekstanda xalıq sanınıń kóbeyiwi sebepli suw támiynatı keskin mashqala bolıp qalmaqta. Aral teńizi qurıp barıwı Oraylıq Aziya regionınıń ekologiyasına unamsız tásir kórsetip atır. Aral teńizi basseyninde jasawshı 60 millionnan zıyat xalıq onıń tásiri astında qalǵan. Aral teńizi regionınıń klimatlıq regulyatorı bolıp xızmet etken teńizdiń qurıǵan túbinde 5,7 million gektardan artıq maydanǵa iye Aralqum shóli payda boldı. Aral daǵdarısı ishimlik suwı hám suwǵarıw ushın qollanılatuǵın dárya suwınıń keskin jetispewshiligi hám oǵada pataslanıwı, xalıq salamatlıǵınıń jamanlasıwı, náresteler óliminiń artıwına hám basqalarǵa sebep bolıp atır.

3-keste

Nókis qalasın ishimlik suwı menen támiyinlew kórsetkishleri

Ishimlik suwı támiynatı kárxanaları	**-**	**1**
- olardağı jumısshılar sanı	**-**	**203**
Ishimlik suwı alıw qurılmaları sanı	**-**	**1**
sonnan, suw tazalaw qurılmaları	-	1
Skvajinalar	-	-
Qurılmalardıń joybardağı quwatı, *mıń kub metr sutka*	**-**	**65000**
- ámelde, *mıń kub metr sutka*	**-**	**65000**
Kúnlik suw satıw, *mıń kub metr sutka*	**-**	**-**
- sonnan xalıq, *mıń kub metr sutka*	**-**	**-**
1 metr kub suw islep shıǵarıw ushın sarıplanǵan elektr energiyası, *kVt*	**-**	**-**
Jan basına kúnlik tutınıw, litr	**-**	**-**
Xlorlaw úskeneleri sanı	**-**	**2**
sonnan, ońlaw talap etiledi		1
Suw qubırları hám tarmaqları uzınlıǵı, *km*	**-**	**503,5**
- qubırlar	**-**	**86,2**
sonnan, ońlaw talap etiledi	-	**27**
- tarmaqlar	**-**	**414,4**
sonnan, ońlaw talap etiledi	-	**106,1**
Ishimlik suwı menen támiyinlengen xalıq sanı, mıń adam	**-**	**333,4**
Ishimlik suwı menen támiyinleniw dárejesi, %	-	**98,3**
- oraylasqan ishimlik suwı menen támiyinlengen xalıq sanı	**-**	**333,4**
oraylasqan ishimlik suwı menen támiyinleniw dárejesi, %	-	**98,3**
Atap aytqanda, tarmaqqa jalǵanlar	-	-
Kóshe kolonkaları arqalı	-	-
- basqa dereklerden támiyinlengen xalıq	**-**	**-**
Atap aytqanda, bulaqlardan	-	-
Qudıq kachalkalardan (skvajinadan tısqarı)	-	-
dárya, say, kanal, háwiz	-	-
- tasıp keltiriw arqalı támiyinlengen xalıq sanı	**-**	**5 766**

Nókis qalasında oraylasqan ishimlik suwı menen támiyinlengen xalıq sanı 333,4 mıń adamdı quraydı. Qala xalqınıń ishimlik suwı menen támiyinlengenlik dárejesi 98,3% ti quraydı. Tasıp keltiriw arqalı suw menen támiyinlengen xalıq sanı 5 766 adamdı quraydı (3-keste).

Juwmaqlaw. Nókis qalası xalqına kommunallıq xızmetlerdi kórsetiwdi bunnan bılayda jaqsılaw húkimetimiz aldındağı aktual máselelerden birine aylanǵan. Qalanıń

bas jobası ótken ásirdiń 40-jıllarına tiyisli bolıp, ótken waqıt dawamında maydanı úlkeygen, xalqınıń sanı artqan Nókis qalasında jańalanıwlar ámelge asırılmaqta. Ásirese xalıqqa qolaylı turmıs jaǵdayın jaratıw maqsetinde sociallıq tarawlarǵa, sonıń ishinde komunallıq xızmet kórsetiw tarawlarına ayrıqsha itibar qaratılmaqta.

Nókis qalasında xalıqtıń tez pátler menen kóbeyiwi nátiyjesinde elektr energiya, tábiyiy gaz hám ishimlik suwı tarmaqlarına júklemeler kóbeymekte.

Búgingi kúnde qalanı elektr energiyası, tábiyiy gaz, oraylasqan ishimlik suwı menen támiyinlewde júzege kelgen mashqala bul jetkerip beriw tarmaqlarınıń ońlawǵa mútáj jaǵdayǵa kelip qalǵanlıǵı bolıp esaplanadı. Sonday-aq, jıldıń suwıq máwsimlerinde elektr energiya hám tábiyiy gazge, ıssı máwsimlerinde bolsa ishimlik suwına bolǵan talaptıń joqarı bolıwı baqlanadı. Sol sebepli qıs aylarında elektr energiya hám tábiyiy gaz jetkerip beriwde úzilisler júz berse, jaz aylarında ishimlik suwın jetkerip beriwde úzilisler júz berip, jiberilip atırǵan suwdıń sapası ádewir tómenlep ketedi. Mine usı mashqalalardı sheshiw ushın qalanıń elektr energiya, tábiyiy gaz hám oraylasqan ishimlik suwı tarmaǵın kapital ońlaw talap etiledi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Iskenderov A. B., Uzaqbaev Q. K., Sharibaev Am D. I. B. Turizm hám rekreaciyalıq geografiya” páninen oqıw-metodikalıq qollanba //Nókis-2019. – 2019. – T. 128.
2. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Niyazimbetova G. CURRENT STATUS OF MEDICAL SERVICES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Science and education in Karakalpakstan.–2020. – 2020. – T. 2. – C. 104-108.
3. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Oteuliev M. O. Territorial formation of the education system in improving the quality of life of the population of the Republic of Karakalpakstan //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 276-279.
4. Turdimambetov, I., Joldasov, A., Iskenderov, A., & Uzaqbaev, Q. (2022). Qaraqalpaqstannm ekonomikaliq ham socialliq geografiyasi.
5. Tursinbaevna, Gaypova Roza, and Uzaqbaev Qoblan Keunimjay Uli. "Territorial Location Of Medical Services To The Population In The Republic Of Karakalpakstan." *The American Journal of Applied sciences* 2.11 (2020): 28-33.
6. Бекбулатова Г.А., Нурбаева А Основные факторы развития и размещения торгового обслуживания, "Экономика и социум" ISSN 2225-1545. №12(103) 2022.
7. Бекбулатова Г.А., Авезова Н. Региональные аспекты организации развития и размещения сфер торгового обслуживания. "Экономика и социум" ISSN 2225-1545. №12(103) 2022.
8. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИ ГЕОГРАФИЯСИДА ЯРАТИЛГАН НАЗАРИЯЛАР ТАҲЛИЛИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 919-929.
9. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛЛАШТИРИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 233-240.
10. Узакбаев К.К. ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 845-857.

11. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.
12. Умаров, Е. К., Искендеров, А. Б., Раджапов, М. Я., & Айтуганова, А. К. Қорақалпоғистон Республикаси халқ хўжалигини ҳудудий такомиллаштириш муаммолари. *Ўзбекистон География жамияти ахбороти*, *22*, 57-59.

TÓRTKÚL RAYONÍ HÁM RAYON OYKONIMLERI HAQQÍNDA QÍSQASHA MAǴLÍWMAT

Baltabayev O.O.,
Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti (DSc) doktorantı, geografiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD)

Abdinasırov Q.A.,
Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti magistrantı

Kidirbaeva J.J.,
Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti studenti

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170514*

Tórtkúl rayonı Qaraqalpaqstan Respublikasınıń qubla bóliminde jaylasqan bolıp ulıwma shegaralarınıń uzınlıǵı 511,4 km bolıp, qublada Túrkmenstan Respublikası (1,8 km) hám Xorezm wálayatı menen (147,9 km), qubla- shıǵısta Buxara wálayatı menen (66 km), shıǵısta Nawayı wálayatı menen (126 km), arqa hám arqa batısta Ellikqala rayon menen (169,7 km) shegaralas.

Rayon 1927-jıldıń 13-iyul sánesinde dúzilgen bolıp, rayonnıń ulıwma jer maydanı 7,48 mıń km^2 tı quraydı. Rayonnıń jer maydanı Qaraqalpaqstan Respublikası jer maydanınıń 4,5% in quraydı. Rayonnıń administrativlik orayı – Tórtkúl qalası. Xalqı 228,8 adam (01.01.2024). Sonnan 85600 adam qalada hám 143200 adam bolsa awıllıq orınlarda jasaydı. Rayon xalqınıń tıǵızlıǵı hár km^2 maydanǵa 30,5 adamnan tuwrı keledi. Tórtkúl rayonı xalqı tábiyiy ósiw kórsetkishleri boyınsha respublikada joqarı orında turadı sonday-aq, rayon xalqı tez pát penen joqarılap atırǵan rayon esaplanadı (1-keste). Rayon házirgi kúnde respublikamızda Nókis qalasınan keyin ekinshi orında turadı.

Kestede kórsetilgendey rayon xalqı 2014-2024-jıllar aralıǵında yaǵnıy sońǵı 10 jıl dawamında ulıwma 36,2 mıń adamǵa yamasa 118,9% ke kóbeygen. Eger 2014-jılı rayon xalqı 192,6 mıń adamdı quraǵan bolsa, 2024-jılı bul kórsetkish 228,8 mıń adamdı quradı. Rayon xalqınıń jıllıq ósimi ortasha jılına 1,1-1,3% ti quramaqta, yaǵnıy bul 3000-4000 adam degen sóz.

Házirgi kúnde Tórtkúl rayonında 1 qala, 5 qalasha hám 86 elatlı punkt bar yaǵnıy, jámi 92 oykonim bar. Olar bir-birinen payda bolıw ózgeshelikleri, payda bolıw dáwirleri, payda bolıwında aktiv qatnasqan jergilikli geografiyalıq terminlerdiń hár túrliligi, oykonimlerdiń leksika-semantikalıq túrleri menen ózgeshelenedi.


1-keste

Tórtkúl rayonı xalqınıń ósiw dinamikası

Jıllar	Rayonnıń barlıq xalqı mıń adam	Usınnan				Xalıqtıń tıǵızlıǵı
		Qala xalqı	% esabında	Awıl xalqı	% esabında	
2014	192,6	75,1	39	117,5	61	25,7
2015	196,1	76	38,7	120,1	61,3	26,2
2016	199,7	77	38,5	122,7	61,5	26,7
2017	203,1	78,2	38,5	124,9	61,5	27,1
2018	206,4	79,3	38,4	127,1	61,6	27,6
2019	210,3	80,5	38,3	129,8	61,7	28,1
2020	214,3	81,8	38,2	132,5	61,8	28,6
2021	217,7	82,8	38	134,9	62	29,1
2022	221	83,9	37,9	137,1	62,1	92,5
2023	224,7	84,7	37,7	140	62,3	30
2024	228,8	85,5	37,4	143,2	62,6	30,5

Keste Qaraqalpaqstan Respublikası Statistika basqarması maǵlıwatları tiykarında dúzildi

Biz izertlew jumısımızda O.O.Baltabayev tárepinen islep shıǵılǵan Qaraqalpaqstan Respublikası oykonimleriniń leksika-semantikalıq túrleri tiykarında tómendegi toparlarǵa bóliwdi lazım taptıq (1-súwret): geografiyalıq orın ózgeshelikleri menen baylanıslı oykonimler (Ayrıtam, Sohil, Jambas); relyef ózgeshelikleri menen baylanıslı oykonimler (Dengli); oronimlerden payda bolǵan oykonimler (Kókshe, Depelikak); topıraq ózgeshelikleri menen baylanıslı oykonimler (Bóz, Qumbasqan, Qumlı); gidronimlerden payda bolǵan oykonimler (Tórtkúl, Ámirabad, Túrkmenkóli, Durvadik, Koshayap); fitooykonimler (Aqbaslı, Aqqamıs, Tutzar); zoooykonimler (Túyemoyın); etnooykonimler (Atuba); antropooykonimler (Furqat, Oxun, Shoraxan); kásip-óner, xojalıq iskerligi menen baylanıslı oykonimler (Atshabar, Chorvador); úy hám xojalıq qurılısları menen baylanıslı oykonimler (Aqtam, Tasqala); tariyxıy atamalardan payda bolǵan oykonimler (Bolıs); kóshirilgen oykonimler (migrant atamalar) (Kelteminar, Kulataw); zamanagóy (standart) atamalar (Báhár, Nurlıjol, Diyqanabad, Diyqanbirlik).



1-súwret. Tórtkúl rayonı oykonimleriniń leksika-semantikalıq toparları boyınsha úlesi

Ulıwma Tórtkúl rayonı oykonimlerinde zamanagóy (standart) atamalar kóbirek tarqalǵan bolıp 42 (45,6%), bunıń tiykarǵı sebebi xalıqtıń úlken bólimi jańa ózlestirilgen jerlerdegi xalıq jasaw ornlarında jasaydı. Sonday-aq, rayon aymaǵında suw obyektleri atamaları menen atalǵan oykonimler 11 (11,95%)de basqa toparlarǵa salıstırǵanda kóbirek ekenligin kórsek boladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Балтабаев О. О. Қорақалпоғистон Республикаси ойконимларининг ижтимоий-географик таҳлили. География фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати //Самарқанд, 2022.–45 б. – 2022.
2. Камалов С.К., Қошанов А.Қ., Ҳажиев Ғ.Н. Төрткүл-Қарақалпақстанның биринши пайтахты: Тарийхый изертлеўлер. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1993. – 64 б.
3. Раҳмонов Ҳ., Нуржонов К. Тўрткўл. – Урганч: 1993. – 62 б.
4. Тўрткўл тумани паспорти. – Тўрткўл, 2020.
5. Baltabaev O.O., Turdimambetov I.R. TERRITORIAL DIFFERENCES IN THE LEXICAL-SEMANTIC STRUCTURE OF OIKONYMS OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Центральноазиатский журнал географических исследований. – 2024. – Т. 3. – С. 46-57.
6. Turdimambetov I.R. Baltabayev O.O. Qoraqalpog‘iston Respublikasi oykonimiyasining hududiy tarkibi va tarixiy-madaniy ahamiyati (Monografiya). – T.: “ZEBO PRINT”, 2024. – 240 b.

7. Turdimambetov I.R., Baltabayev O.O. Oykonimlarning leksik-semantik tasnifi // «Сборник материалов IV международной научно-теоретической конференции «Актуальные вопросы естественных наук». – Нукус, 2023. – С. 145-148.
8. https://qrstat.uz/uz/

TURIZM QISHLOQLARINING HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Jumayev X.X.,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, G.f.f.d. (PhD), xjumayev@gmail.com

Rustamov R.B.,
Qarshi davlat universiteti geografiya kafedrasi doktoranti rajabbaxtiyorovich@gmail.com

DOI: ***https://doi.org/10.5281/zenodo.15170527***

Buxoro viloyatida tadbirkorlik subyektlari uchun infratuzilmani yaxshilash, turizm xizmatlarini yanada kengaytirish, aholi daromadlarini oshirish va bandligini ta’minlash uchun tadbirkorlik faoliyatiga keng yo‘l ochib berish, kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, xizmat ko‘rsatish va turizm sohasini rivojlantirish, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmani yaxshilash, elektr energiya, ichimlik suvi, oqova suv tarmoqlari va boshqa infratuzilmalarni yaxshilash, etnoturizmni rivojlantirish, oilaviy mehmon uylari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, xalqaro avtomagistral yo‘llari bo‘yida infratuzilma obyektlarini barpo etish, istirohat bog‘larini rekonstruksiya qilish yoki yangidan barpo etish, aholi gavjum tunu kun ishlaydigan maxsus savdo va ko‘ngilochar ko‘chalar infratuzilmasini yaxshilash, gastronomik ko‘chalarni tashkil etish, akvapark va ko‘ngilochar majmualarini o‘zida mujassam etgan jozibador va zamonaviy mavze barpo etish, renovatsiya dasturini amalga oshirish borasida viloyatimizda muhim vazifalar belgilab olingan va salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-dekabrdagi “Buxoro viloyatida sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-423-sonli qarorida Kogon tumanining “Choloki” MFY hududida joylashgan Qasri Orifon hamda "Suxor" MFYdagi Said Amir Kulol qishlog‘i turizm qishlog‘iga [1] aylantirish vazifasi belgilangan. Keling, Kogon tumani haqida qisqacha ma’lumotlar bilan tanishaylik.

KOGON TUMANI — Buxoro viloyatidagi tuman. 1926 yil, 29 sentyabrda tashkil etilgan. Kogon tumani viloyatning Buxoro tumani, shimolida qisqa masofada Vobkent tumani hamda shimoliy-sharqda Amu-Buxoro mashina kanalining o‘zani orqali Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani bilan chegaradosh. Maydoni 0,50 ming km^2. Aholisi 86,3 ming kishi (2025 y). Bugungi kunda tumanda 23 ta mahalliy o‘z-o‘zini boshqaruv organlari mavjud. Markazi – Kogon shahri. Tabiati: tuman relefi tekislikdan iborat. Yer yuzasining o‘rtacha balalandligi 222 m. Quyimozor platosining eng baland joyi 252 m (Olchin tepaligi), Kogon shahridan janubidagi

pastqam joylarning balandligi 215 m gacha (Kunjakko‘l pastqamligi) [4].

1-jadval

Buxoro viloyatining ma’muriy-hududiy bo‘linishi [2]

Hududlar nomi	Hududi (ming km2)	Tumanlar	Jami shaharlar	shu jumladan, respublika va viloyat bo‘ysunuvidagi	Shaharchalar	Qishloq aholi punktlari
	(2025- yil 1- yanvar holatiga)					
Buxoro viloyati	40,22	11	11	2	68	1473
Buxoro sh.	0,07		1	1		14
Kogon sh.	0,02		1	1		
tumanlar:						
Olot	3,23	1	1		8	62
Buxoro	1,32	1	1		6	162
Vobkent	0,29	1	1		3	186
G‘ijduvon	3,84	1	1		13	252
Kogon	0,50	1			2	134
Qorako‘l	8,69	1	1		12	91
Qorovulbozor	2,20	1	1			6
Peshku	8,72	1			4	131
Romitan	2,45	1	2		3	153
Jondor	5,17	1			9	138
Shofirkon	3,72	1	1		8	144

Iqlimi kontinental. Yillik o‘rtacha harorat 15,1, yanvarniki 0°, iyulniki 29°. Minimal harorat -25° (yanvarda), maksimal harorat 46° (iyulda). Vegetatsiya davri 214 kun. Yiliga o‘rtacha 125-140 mm. yog‘in tushadi. Yog‘inning ko‘p qismi qish va bahorda yog‘adi. Tuman Amu-Buxoro mashina kanali orqali suv bilan ta’minlanadi. Kanalning 10 km qismi tuman hududining shimoliy-sharqiy chegarasidan o‘tadi. Quyimozor suv omboridan boshlangan kanalning bir qismi tuman hududini janubdan kesib o‘tadi. Cho‘l zonasida qorako‘lchilik bilan bog‘liq chorva mollarining suv ta’minoti sizot va artezian quduqlar yordamida amalga oshiriladi. Tumanning sug‘oriladigan yerlari Buxoro vohasiga tegishli bo‘lib, u joylarda ko‘p tarmoqli zovurlar tizimi barpo qilingan. Ortiqcha suvlar zovurlar

orqali janubga — Dengizko‘lga yo‘naltirilgan. Quyimozor platosi (qirlari) va pastqam sho‘rxok, gips-qum-shag‘alli joylardan yaylov sifatida foydalaniladi [4].

2-jadval

Hududlar bo‘yicha shahar va qishloq aholisi soni [2]

(yil boshiga; ming kishi)

	Jami aholi	shu jumladan:	
		shahar aholisi	qishloq aholisi
2025- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra			
Buxoro viloyati	2077,0	765,8	1311,2
Buxoro sh.	300,2	274,8	25,4
Kogon sh.	65,5	65,5	
tumanlar:			
Olot	105,8	39,8	66,0
Buxoro	181,7	41,4	140,3
Vobkent	151,2	29,2	122,0
G‘ijduvon	327,5	95,2	232,3
Kogon	86,3	6,5	79,8
Qorako‘l	174,3	67,0	107,3
Qorovulbozor	20,3	11,6	8,7
Peshku	133,5	16,9	116,6
Romitan	153,5	38,3	115,2
Jondor	188,8	36,3	152,5
Shofirkon	188,4	43,3	145,1

“Suxor” mahalla fuqarolar yig‘ini

Mahalla 2001 yilda tashkil topgan. Aholi soni 2650 nafar, oilalar soni 752 ta, xonadonlar esa 650 ta. Mahallada 1 ta maktab, 1 ta MTT, 20 dan ortiq savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari, 1 ta masjid va ziyoratgoh, 2 ta qabriston va boshqa ijtimoiy obyektlar bor.

Sayyid Amir Kulol me’moriy majmuasi Suxor qishlog‘ida barpo etilgan (XV asr). Bu yerda Sayyid Amir Kulol dafn etilgan. Keyinchalik qishloqning kunchiqar tomonida 41 pog‘ona zina bilan chiqiladigan Amir Kulol jome’ masjidi barpo etiladi. Ammo 1937 yilda sobiq sovet hukumati topshirig‘i bilan ushbu masjid buzib tashlangan [4].

2019-yildan boshlab ziyoratgohning ikki tomonida savdo, umumiy ovqatlanish,

mehmonxona va boshqa zarur binolar majmui Sharq me’morchiligi an’analari uslubida barpo etildi va ular ziyoratchilarga xizmat ko‘rsatmoqda. Ziyoratgoh oldidagi xiyobon qayta rekonrstruksiya qilindi va hozirda yangi dizayn asosida ko‘rkam manzara kasb etayotir.

“Sayyid Amir Kulol” ziyoratgohi kiraverishida avtoturargoh zamonaviy hamda barcha qulayliklari bilan ziyoratchilar va yurtimiz mehmonlari uchun xizmat qilayotir. Ziyoratgoh qoshida joylashgan zamonaviy mehmonxona mehmonlar uchun xizmat qilmoqda.

“Choloki” mahalla fuqarolar yig‘ini

Choloki – chelaki so‘zining o‘zgarishga uchragan ko‘rinishi, deb faraz qilish mumkin. Chelak tayyorlash kasbi ommalashgan qishloq. 2007-yil tashkil topgan. Aholisi 2560 nafar, xonadonlar 499 ta, oilalar soni 665 ta. Yig‘in hududida 1 ta maktab, 32 ta savdo do‘koni, 5 ta umumiy ovqatlanish shoxobchasi, 1ta oilaviy poliklinika, 1 ta qishloq oilaviy vrachlik punkti, 1ta masjid, 5 ta fermer xo‘jaligi, 1ta ziyoratgoh, 4 ta qabriston mavjud. Choloki, Qasri Orifon, Qalliqon aholi punktlaridan iborat [3].

Qasri Orifon qishlog‘idagi yirik tarixiy-me’moriy majmua - **Bahouddin Naqshband me’moriy majmuasi** ipga tizilgan marjon donalari misol islom dini ma’rifatidan so‘zlaydi. Yirik arxitekturaviy ansambl tarkibida shunday maskan borki, unda shonli o‘tmish, tengsiz madaniyat, ilm-u irfon va buyuk kelajak mujassam. Unda bo‘lgan har bir ziyoratchi iymon sofligi, qalb pokligi, eng asosiysi, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma’rifat, ma’rifatsiz haqiqatga yetish mumkin emasligini teran anglaydi. Ana shunday javohir manzillardan biri Naqshbandiya tariqati tarixi muzeyidir [5].

Buxoroi sharif hududida ilm-ma’rifatning rivojlanishi uchun ulkan hissa qo‘shgan buyuk zotlar, avliyolar, allomalar qabrlari joylashgan ziyoratgohlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shunday tabarruk manzillardan biri Kogon tumani markazidan 14 km uzoqlikda joylashgan “Xo‘ja Kabul Axbor Vali” ziyoratgohi hisoblanadi. Ziyoratgoh “Siyozpoyon” qishloq fuqarolar yig‘ini “Navro‘z” MFY Xo‘chkob qishlog‘ida joylashgan. Manbalarda qayd etilishicha Xo‘ja Axbor Valiy VI asrning oxiri VII asr boshlarida yashab o‘tgan. Rivoyatlarda keltirilishicha bu buyuk zot sahoba bo‘lganliklari, boshqa bir rivoyatda esa tobein bo‘lganliklari keltiriladi.



Ziyoratgohda hazrat va shogirdlarining qabrlari joylashgan maqbara, masjid, qadimiy quduq va qabriston mavjud.

Xulosa. Bugungi kunda Buxoro viloyatiga tashrif buyuruvchi mahalliy va xorijiy sayyohlarga Xo‘ja Axbor Valiy ziyoratgohini tanishtirish va keng targ‘ib qilish, qolaversa, ziyoratgohni turizm marshrutiga kiritish maqsadga muvofiq sanaladi. Shuningdek, ziyoratgoh joylashgan hududning infratuzilmasini yaxshilash, keladigan mehmonlarga qulay shart-sharoitlar yaratib berish lozim. Xo‘chkob qishlog‘ida yashovchi aholini turizm sohasiga jalb qilish orqali ularning daromadlarni sezilarli darajada oshirish, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, hududning iqtisodiy va ijtimoiy o‘sishiga dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. t.me/bukhtourism
2. www.buxstat.uz
3. Аҳмадалиев Ю.И. Топонимика ва географик терминшунослик (ўқув қўлланма). Фарғона -2018.
4. БАҲРОМ СОЛИЕВ, СУЛАЙМОН ШОДИЕВ, ЧОРШАМЪ РЎЗИЕВ. КОГОН: ЗАМОН - МАКОН – ДАВР СИЛСИЛАСИДА. “БУХОРО НАШР” 2023 йил 7-8 Б.
5. С. С. Бухорий. Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд. Тошкент-2007.

JIZZAX VILOYATI CHO‘L MINTAQASI TUMANLARIDA SANOAT KORXONALARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI

Toshboyev Zafarjon Maxramkulovich,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi katta o‘qituvchisi, g.f.f.d. (PhD)
zafartoshboyev76@gmail.com

Jumanazarova Sevinch Xayrulla qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabasi

Ummatova Bahora Shuhrat qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabasi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170536

Annotatsiya: *Jizzax viloyati hududi mamlakatimizda tabiiy resurslardan foydalanishda birmuncha qulayligi bilan o‘ziga xos bo‘lib, qo‘shni mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada viloyatning Qozog‘istonga chegaradosh tumanlarida ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish istiqbollari qarab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *marmar, bazalt toshi koni, balneologik davolash maskani, ekoturizm, agroturizm, tibbiy turizm, turizm infrastrukturasi, kempinglar.*

Jizzax viloyati respublikamizda o‘zining geografik o‘rni, hudud salohiyati, mavjud tabiiy resurslari hamda boy mehnat resurslariga ega ekanligi bilan o‘ziga xos o‘ringa ega. Respublikamizdagi ko‘pgina tumanlar singari viloyatimizning ham Forish, Arnasoy, Do‘stlik, Zafarobod, Paxtakor va Mirzacho‘l tumanlari hududlari bevosita cho‘l mintaqasida joylashgan bo‘lib, Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi tufayli obod vohalarga aylantirilgan. Bu mintaqada qadimdan transport-kommunikatsiya va savdo-iqtisodiy aloqalari olib borish yoki yo‘lga qo‘yish imkoniyatlari mavjud. Ushbu imkoniyatlardan yetarlicha va samarali foydalanish bugungi kunda oldimizda turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Viloyatimiz tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarini o‘zlashtirish nuqtai-nazaridan qaraganda chegara hududi tekislik-cho‘l orqali o‘tganligi resurslarni o‘zlashtirishda transport uchun qulaylik yartadi. Viloyat hududidagi tabiiy mineral resurslardan Forish tumani hududidagi marmar koni, Osmonsoydagi bazalt toshi konini o‘zlashtirish mumkin.

Iqlim omilini hisobga olgangan kontinental, qish sovuq, yoz issiq va quruq bo‘ladi. Shimoli-g‘arbiy qismi ochiq bo‘lganidan Arktika havo massasi bemalol kirib kelib, qish oylari harorati psayib ketadi, qor qoplami birmuncha yupqa bo‘ladi. Yoz ko‘pincha bulutsiz, ochiq bo‘lib, 1 sm^2 yerga quyoshdan 135 kkal issiqlik oladi. Vegetatsiya davridagi haroratlar yig‘indisi 4300-5000 °S ga yetadi. Iyul oyi 27-29 °S, yanvarda -28-35 °S ga yetadi. Yilning 261-272 kuni harorat 5 °S dan yuqori bo‘ladi.

Sovuq bo‘lmaydigan davr 203-230 kunni tashkil etib, effektiv haroratlar yig‘indisi 2200-2700 °S ni tashkil etadi. Quyoshli kunlarning ko‘p bo‘lishi va havoning ochiq bo‘lishi bu yerda hamkorlikda quyosh energiyasidan elektr olish qurilmalarini barpo etish ikoniyati juda katta. Hududda shamollar yil bo‘yi asosan shimoli-sharqiy va shimoli-g‘arbiy tomondan esib, tezligi sekundiga 1,5-4,2 m ga yetadigan darajada esishini hisobga oladigan bo‘lsak, bugungi kunda ekologik toza va tejamkor, noan’anaviy energiya manbai sifatida shamol kuchidan foydalanib elektr energiyasini olish imkoniyati katta**.** Bu orqali mahalliy aholi honadonlari va ishlab chiqarish korxonalarini arzon elektr energiyasi bilan ta’minlash imkoniyatlari mavjud [3, 69 b].

Suv resurslari bu hududda Sirdaryo daryosidan kanallar orqali olinadigan oqar suvlarga bog‘liq. Arnasoy, Do‘stlik, Zafarobod, Paxtakor va Mirzacho‘l tumanlarining o‘zlashtirilgan hududlarida yashovchi aholi ichimlik suvi sifatida kanal suvidan foydalanishadi. Ba’zida esa tuman markazidan transportda tashib keltirishadi. Grunt suvlari yer betiga yaqin 2-10 m da joylashgan bo‘lib, iste’mol uchun yaroqsiz. Biroq Mirzacho‘lda 200-300 m chuqurlikda iste’mol uchun yaroqli bo‘lgan suvli qatlam mavjud bo‘lib, Chirchiq-Ohangaron havzasidan shimilgan va allyuvial-shag‘al jinslari orasida uchraydigan grunt suvining davomi hisoblanadi. Forish tumanining cho‘l hududlarida joylashgan chorvachilikka ixtisoslashgan siyrak qishloqlar quduqlar atrofida orolchalar tarzidagi ovullardan tarkib topgan. Bu yerda oqar suvlarning yo‘qligi sababli aholi quduqlardan foydalanishadi. Uzunquduq, Suyunquduq, Otquduq, Muxambetquduq, Mixliquduq kabi ko‘plab qishloqlar yer osti suvlaridan foydalanib kelishadi. Paleozoy yotqiziqlari orasida 1500-3000 m chuqurlikda juda katta mineral termik suv qavati borligi aniqlangan bo‘lib, bunga misol Gagarin shahrida ushbu ma’danli suvdan sanatoriyada davolash maqsadida foydalanilmoqda. Yer usti suvlaridan muhimlari Aydar-Arnasoy-Tuzkon ko‘llar tizimi bo‘lib, bu yerdagi sho‘r ko‘llardan davolanish maqsadlarida ham foydalanish mumkin. Qadimda Tuzkon ko‘li o‘rnida tuz koni mavjud bo‘lib, mahalliy aholi bu yerdan tuz qazib olishgan [1, 201 b].

Viloyatning tekislik-cho‘l hududlarida turizmni rivojlantirish imkoniyatlari. Ekoturistik ob’ektlardan biri Jizzax va Paxtakor tumani markazi oralig‘ida joylashgan qadimgi quduq “sardoba”ni (fors tilida “sard” sovuq, “oba” suv) ko‘rsatib o‘tish mumkin. Jizzax viloyati hududidan o‘tgan Buyuk Ipak yo‘lida qadimda savdogarlar karvon tuyalarini sug‘orish uchun sardoba suvidan foydalanishgan. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimiga yiliga 21 mln m^3 hajmda suv tashlanadi. Hozirgi kunda ushbu ko‘llar tizimida ko‘plab baliq ovlanadi. Ko‘l atrofida suvda suzuvchi ko‘plab qushlar qo‘nim topgan va shu yerda ko‘paymoqda. Ko‘l suvida cho‘milib hamda baliq ovlab, aholi yoz oylarida dam olishadi. Tuzkon ko‘li atroflarida plyajli zonalar tashkil qilish

mumkin (Koreyalik hamkorlar bilan); Aydarko‘l qirg‘oqlari atrofida qushlar mavsumiy qishlab o‘tish joylarida qushlarni tomosha qilish joylari va ovchilik turizmini (zooturizm) tashkil qilish mumkin; Aydarko‘l atrofida Arnasoy hududi atroflaridan kichik kemada sayr qilish turizmini, sohil bo‘ylarida kempinglar tashkil qilish mumkin; Nurota-Qizilqum cho‘li mintaqasida milliy o‘tovlar tashkil qilinib, tuyalarda cho‘lda sayr qilishni tashkil qilish; Pistali tog‘lar oldidan sohilni, ko‘lni tomosha qilish uchun mehmonxona tashkil qilish mumkin.

Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimi va uning atrofidan ekoturistik maqsadlarda foydalanish imkoniyatlari. Jizzax shahridan yo‘lga chiqqan sayyohlar ushbu yo‘nalishda K.A.Timiryazev nomidagi xo‘jalik hududida ohaktosh qazib olinishini, Qli soyligidagi tik jarliklar, Pistalitog‘ landshaftlari, Tuzkon, Aydar va Arnasoy ko‘llari va shifobaxsh balchiqlarini, to‘qay va cho‘l landshaftlari, Mirzacho‘l mineral suvlari va davolanish maskanlariga borishi mumkin bo‘ladi. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi va uning atrofidagi ekoturistik hudud marshrutida harakat qilgan sayyohlar qiziqishlariga ko‘ra ilmiy-tadqiqot ishlari, fenologik kuzatishlar, davolanish, suv sporti o‘yinlarini tashkil etish va dam olishi mumkin. Sayohat bir necha kun davom etadigan bo‘lsa, Do‘stlik shahridagi mehmonxonada, Mirzacho‘l (Gagarin) sanatoriyasida va ko‘l atrofidagi kempinglarda hamda yoz faslida chodirlarda dam olish imkoniyatlari mavjud [2, 261 b].

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi va uning atrofidagi ekoturistik hududining tabiatini tomosha qilish va belgilangan hududda ov qilish maqsadida arab sayyohlari yilda 2 marta (bahor va kuz faslida) doimiy ravishda kelishmoqda. Arab sayyohlarining bu hududga qiziqishlariga, ko‘l va cho‘l landshaftlarining o‘zaro uyg‘unligi hamda qushlar olamiga boyligi, qolaversa, bahor va kuz faslida issiq mintaqalarga uchib o‘tuvchi qushlar Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimi orqali harakatlanishini kuzatish mumkin. Hudud tabiatining o‘ziga xos va maftunkorligi kabi xususiyatlari, kelgusida chet ellik turistlar oqimini yanada kengaytirish imkoniyatini beradi. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi va uning atrofidagi ekoturistik hududning xususiyatlaridan kelib chiqib turizmning ekoturizm yo‘nalishini rivojlantirish, tabiati xorijlik turistlarni qiziqtirayotgan ushbu hududda xizmat ko‘rsatish sohasini xalqaro talablar darajasiga ko‘tarish lozimdir. Aydar-Arnasoy-Tuzkon ko‘llari tizimi negizida baliqchilikni sanoat usulida ko‘paytirib, baliqchilikni rivojlantirish hamda baliqni qayta ishlashni tashkil qilish, baliqchilik maxsus ko‘paytiriladigan, urchitiladigan, boqiladigan zonalarini tashkil etish mumkin. Buning uchun baliq tutilishini mavsumga qarab qat’iy tartibga olish lozim. Ma’lumotlarga ko‘ra, Qizilqumdagi quruq cho‘kmalar qoldiq ko‘llardan sho‘r loyqadan revmatizm, psorioz, turli allergik kasalliklarni davolashda foydalanish uchun maxsus davolanish maskanlari qurish mumkin. Sho‘r

ko‘llar atrofidagi qumlardan ham qumli terapiya sifatida, surunkali shamollashlar, bel og‘rig‘i, oyoq og‘riqlarini davolashda foydalanish mumkin. Tuzkon koni negizida tuzni qayta ishlash va qadoqlash korxonasi barpo etish mumkin [5, 215 b].

Viloyatning Forish tumani shimoliy hududi Qizilqum cho‘li yaylovlaridan iborat bo‘lib, mavsum davomida juda ko‘plab qo‘ychilik otarlari uchun yaylov sifatida foydalaniladi. Bu yerda boqiladigan qo‘ylarning juni va terisini mavsum davomida yig‘ib olishni samarali tashkil etish kerak. Bu esa o‘z navbatida viloyatimizda yengil sanoatini rivojlantirish uchun xom ashyo manbai hisoblanadi. Yig‘ib olingan junni qayta ishlashni tashkil etish, undan sanoat usulida kigiz yoki gilamlar tayyorlash mumkin. Buning uchun jun yetishtirish va tayyorlash sifatini oshirishga ahamiyat berish lozim. Shuningdek, qo‘ychilik negizida tivit olinadigan echkichilikni ham rivojlantirish mumkin. Bu ham o‘z navbatida mahalliy yengil sanoat salmog‘ini oshiradi. Echki sutidan pishloq tayyorlashni ham yo‘lga qo‘yish mumkin.

Viloyatning mazkur hududida qoramolchilik sohasida mahalliy iqlim sharoitiga moslashgan naslli zotlarni ko‘paytirish naslchilik xo‘jaliklarini tashkil etishning moddiy yem-xashak bazasiga ham ega. Buning uchun Qog‘oziston bu sohada ham hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, go‘sht, go‘sht-sut, sut, sut-go‘sht yo‘nalishlarida qoramolchilikni rivojlantirish mumkin. Qo‘y-echki va qoramolchilikni rivojlantirilishi natijasida birinchi navbatda aholining sut-go‘shtga bo‘lgan talabi bajarilishi mumkin, yengil sanoatda teriga ishlov berish, ko‘n-poyabzal ishlab chiqarish uchun xom ashyo bazasi yaratiladi hamda bu sohani rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Buning uchun albatta, teri xom ashyosini yetishtirish, uni sanoatda qayta ishlash, undan olinadigan mahsulot turlarini ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarga joriy etishga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Yilqichilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklarini tashkil etishda birinchi navbatda mahalliy ot zotlarini yetishtirish, bunda O‘rta Osiyo xalqlarida qadimdan urf bo‘lgan ko‘pkariga chopiladigan yoki poyga uchun chopiladigan ot zotlarini yetishtirishni yo‘lga qo‘yish, seleksiya ishlarini olib borish hamda ot sportini rivojlantirish, qolaversa, Qozog‘iston bilan hamkorlikda go‘sht sanoatida ot go‘shtidan qazi tayyorlash va sutidan qimiz tayyorlashni yo‘lga qo‘yish mumkin. Qadimdan cho‘l mintaqasi iqlim sharoiti suvsizlikka chidamli hayvonlardan foydalanishni taqozo etib kelgan. Shunday bo‘lsada, viloyatimizning cho‘l mintaqasiga to‘g‘ri keluvchi hududlarida bugungi kungacha “cho‘l kemasi” deb ta’rif beriladigan tuyalarni boqish, ularni ko‘paytirish, uning suti va junidan mahsulot olishni yo‘lga qo‘yish ommalashganicha yo‘q. Hozirgi kungacha Forish tumanida 1 nafar va Mirzacho‘l tumanida 1 nafar tuyachilik bilan shug‘ullanayotgan oilalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Tuya suti (qumron) ko‘pincha ba’zi kasalliklarga shifo maqsadida iste’mol

qilinsa, junidan to‘qilgan kiyim sog‘liq uchun foydali ekanligi ko‘pchilikka ma’lum. Bundan tashqari, yuqorida qayd qilganimizdek, cho‘l hududlarida tuyalarda sayr qilish turizmini rivojlantirish mumkin.

Qishloq xo‘jaligining dehqonchilik tarmog‘ida g‘allachilikda donni qayta ishlash kombinati, uning negizida parrandachilik va baliqchilikni rivojlantirish mumkin. Shuningdek, Qozog‘iston bilan hamkorlikda g‘allachilik sohasida seleksiya ishlarini yo‘lga qo‘yish lozim. Bizga ma’lumki, Qozog‘iston jahonda g‘alla eksport qiladigan va bunga ixtisoslashgan mamlakatlardan biri sanaladi. G‘alla yetishtirishda hosildorlikni oshirish, donni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish mumkin.

Viloyatimizning Arnasoy, Do‘stlik va Mirzacho‘l hududlarida yetishtiriladigan poliz ekinlari qovun va tarvuzlari bilan mashhur. Bugungi kunda qovun, tarvuz, oshqovoq va boshqa poliz ekinlardan ham sanoat usulida mahsulot olishni yo‘lga qo‘yish mumkin. Turli xil sharbatlar, salqin ichimliklar, bundan tashqari, qovun-tarvuz, bug‘doy va arpadan spirt olishni yo‘lga qo‘yish mumkin. Makkajo‘xoridan qandolatchilikda ishlatiladigan uni olish mumkin. Paxtani qayta ishlash korxonalari negizida g‘o‘zapoyani qayta ishlash texnologiyasini olib kelib, mebel sanoati uchun xom ashyo yetkazib berish mumkin. Forish tumanida yetishtiriladigan uzumni qayta ishlash sanoatini tashkil etish va uni xorijga eksport qilish mumkin. Asalarichilikni sanoat usulida rivojlantirish mumkin. Bularning barchasini amalga oshirish uchun bir necha yo‘nalish va mavzularda ilmiy tadqiqot ishlari olib borishda ko‘plab mutaxassislar uchun tadqiqot manbai ham vujudga kelgan bo‘lar edi. Qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishda nav va zotlarni yaxshilash chora-tadbirlarini samarali yo‘llarini joriy qilish, aholi tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni qabul qilib olib, uni qayta ishlaydigan xorijiy mamlakatlardan zamonaviy texnologiyalarni olib kelish lozim.

Viloyat hududida yoqilg‘i-energetika, tog‘-sanoatini rivojlantirish uchun asos bo‘ladigan yirik konlar bo‘lmaganligi uchun sanoatni rivojlantirishda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan sohalar bo‘yicha yondashilsa bizning fikrimizcha maqsadga muvofiq bo‘ldi. Viloyat hududida transport insfratuzilmasini rivojlantirish uchun Nurota tog‘ tizmasining shimoliy etaklari bo‘ylab Navoiy viloyatidan boshlanib Jizzax viloyati hududi orqali o‘tadigan avtomobil yo‘lini ham zamonaviy talablar asosida ta’mirlash lozim. Shuningdek, ushbu yo‘ldan tashiladigan yuklar va yo‘lovchi transport salmog‘i ortadigan bo‘lsa kelajakda yo‘l bo‘ylarida ularga xizmat ko‘rsatish shaxobchalari, kempinglar, mehmonxonalar, yonilg‘i quyish shaxobchalari soni ham ortadi va qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi. Bunda albatta xizmat ko‘rsatish sohalarida xizmat ko‘rsatish madaniyatini ham muntazam oshirib borish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonov K., Toshboyev Z.M. Tabiiy resurslardan foydalanishning hududiy imkoniyatlari. //Tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning geografik asoslari. Namangan. 2010. 200-202 b.
2. Toshboyev Z.M., Sariboev O., Namozova S. Qadimgi suv inshootlaridan foydalanish. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy geografiya: yutuqlar, muammolar va istiqbolar. Toshkent, 2013. 260-262 b.
3. Toshboyev Z.M., Mirzacho‘l landshaftlari tarkib topishida iqlimning roli. O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilishning dolzarb masalalari. Samarqand, 2013. 69 b.
4. Toshboyev Z.M., Nishonov S., Eshmirzaev J. Jizzax viloyati suv resurslari va ularning xo‘jalik ahamiyati. O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilishning dolzarb masalalari. Samarqand, 2013. 158-159 b.
5. Toshboyev Z.M., Hakimov B.B. Mirzacho‘l vohasining turistik imkoniyatlari. O‘zbekistonda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Chirchiq. 2019. 214-217 b.

QASHQADARYO VILOYATI AHOLISINING SHAKLLANISHI VA TARKIBI

Qo‘ldosheva Gulhayo Muxtor qizi,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)
e-mail: gulhayo1994@mail.ru

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170556*

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, mustaqil taraqqiyot yo‘lini tutgan har bir davlat oldida turgan asosiy vazifani - o‘z xo‘jaligini yangidan barpo etish va rivojlantirish hamda aholining moddiy ehtiyojlarini qondirish muammolarini hal eta boshladi. Bu vazifalarni bajarish uchun dastavval mamlakatning demografik vaziyatidagi mavjud ahvolni chuqur o‘rganish va uning istiqbolida kutilayotgan o‘zgarishlarni muntazam aniqlab berish lozim. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekistonning yangi iqtisodiy sharoitga o‘tishdagi 5 tamoyilining to‘rtinchisida demografiya sohasidagi haqqoniy ahvolni hisobga olish muhimligi qayd etiladi.

Qashqadaryo viloyati 1920-yilning sentabr oyiga qadar Buxoro amirligi tarkibida bo‘lgan. 1920-yilda Buxoro Respublikasi tashkil topgach, Qashqadaryo tarkibida Qarshi, G‘uzor va Shahrisabz uezdlari bo‘lgan alohida viloyat sifatida uning tarkibiga kiritiladi. 1924-yil 1-noyabrda markazi Qarshi shahri bo‘lgan alohida viloyati maqomiga ega bo‘ldi. 1927-yil 17-fevraldan 1938-yil 15-yanvarigacha okrug maqomiga ega bo‘lgan va 1938-yilda Buxoro viloyati tashkil etilgach Qashqadaryo okrug sifatida yana shu viloyat tarkibiga kiritildi. Buxoro 1943-yilda Qashqadaryo alohida viloyat sifatida tiklandi. 1943-yil 20-yanvarda qayta tashkil etildi, keyinroq qisqa muddat (25.XII.1960-25.0I.1964) Surxondaryo viloyatiga qo‘shib yuborildi. 1964-yil 7-fevraldan Qashqadaryo viloyati qayta tashkil etildi.

Qashqadaryo viloyati shimoli-g‘arbdan Buxoro, janubi-sharqdan Surxondaryo, janubi – g‘arb va g‘arbdan Turkmaniston Respublikasining Lebab viloyati, sharqdan Tojikiston Respublikasining Panjakent tumani va Samarqand viloyati bilan chegaradosh. Qashqadaryo viloyatining maydoni 28,6 ming km^2 bo‘lib, mamlakatimiz hududining 6,45% ini tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyati tarkibida 13 ta qishloq (Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Yakkabog‘, Qamashi, Qarshi, G‘uzor, Shahrisabz va Chiroqchi) tumani, 12 ta shahar, 123 ta shaharcha, 148 qishloq fuqarolari yig‘ini va 1046 ta qishloq mavjud (2011-yil 1- yanvarga qadar).

Hozirgi paytda mamlakatimizning barcha viloyatlaridagi kabi Qashqadaryo viloyatida ham bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o‘tish ishlari amalga oshirilmoqda, sanoat korxonalari xususiylashtirilmoqda, qishloq xo‘jaligi yerlari dehqonlarga bo‘lib berilib, fermer xo‘jaliklari tashkil topmoqda. Viloyat

infratuzilmasida – transport, savdo, sog‘liqni saqlash, maorif, fan va madaniy sohalarda ham jiddiy ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Keyingi yillarda Qashqadaryo viloyatida demografik vaziyat, ya’ni aholi sonining o‘sishi, zichligi aholi manzilgohlari, ularning tiplari, mehnat resurslari va ulardan foydalanishda ham jiddiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu o‘zgarishlarni o‘rganish viloyatda demografik vaziyatning hozirgi holati va kelajakda rivojlanish xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish va shunga mutanosib tadbirlarni belgilash imkoniyatlarini beradi. Demografik tahlilning ishonchliligi va to‘liqligiga sotsial va iqitisodiy talablar, demografik jarayonlarga turli komponentlar ta’sirini ochib berish zaruriyati ularni o‘zgarishning teran majmuasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Viloyat nisbatan yuqori demografik sig‘imga ega. 2009-yil oxirida bu yerda 2589,6 ming kishi yoki mamlakatimiz aholisining 9,5%i istiqomat qilgan. Aholi soniga ko‘ra Qashqadaryo viloyati mamlakatimizda Samarqand, Farg‘ona va Toshkent viloyatlaridan keyin to‘rtinchi o‘rinda turadi. 2010-yil 1-yanvar ma’lumotiga ko‘ra Qashqadaryo viloyatining aholisi 2671,0 ming kishi bo‘lib, O‘zbekiston viloyatlari orasida aholi soni jihatidan 4 o‘rinda turadi. Ma’lumki, O‘zbekistonda 1926, 1939, 1959, 1970, 1989-yillarda aholi ro‘yxati o‘tkazilgan. Qashqadaryo viloyati aholisiga doir shu aholi ro‘yxatlarining statistik ma’lumotlari va keyingi yillardagi ayrim demografik ma’lumotlar 1–jadvalda keltirilgan. 1926-yilgacha o‘tkazilgan aholi ro‘yxatida Qashqadaryo viloyati aholisi to‘g‘risida ma’lumot yo‘q. Chunki, Buxoro amirligi tarkibidagi viloyatlarda, shu jumladan Qashqadaryo viloyatida ham aholi ro‘yxati o‘tkazilmagan. Amirlik tasarrufidagi Qashqadaryo vohasida XIX asr o‘rtalarida Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog‘, Chiroqchi, G‘uzor bekliklarida jami 500 ming kishi yashagan. XX asr boshlarida bekliklar viloyatlar deb atalgan. 1920-yilda ma’muriy jihatdan viloyat, tuman va kentlardan iborat edi. M.Qoraxonovning (1965) retrospektiv tahlilga asoslangan tadqiqotlariga ko‘ra, XX asr boshlarida hozirgi Qashqadaryo viloyati hududida taqriban 540 ming kishi yashagan bo‘lib, ulardan 30 ming kishini shahar aholisi tashkil etgan.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, Qashqadaryo viloyatida aholi nufusi muntazam ravishda o‘sib kelmoqda. Viloyat hududida aholining zichligini o‘rganish muayyan hududni sotsial - iqtisodiy rivojlantirishni oqilona rejalashtirish va bashoratlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Zero, aholi zichligi bilan inson hayotining ko‘pgina moddiy va ma’naviy sharoitlari chambarchars bog‘liqdir. Aholining hududiy taqsimlanishi muammosi aholining tabiiy o‘sishi va tug‘ilish muammolariga nisbatan ham muhimroqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qurbonov P.R. Kichik hududlarda urbanizatsiyaning rivojlanishi (Janubiy O‘zbekiston qishloq tumanlari misolida). O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 37-jild. T., 2011.
2. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi // O‘quv q llanma. Toshkent: 2018. 3-41 b.
3. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2019.368 bet.
4. Ковалев С.А. Сельское расселение. – М.: МГУ, 1963. – 370 с.

ҚАРАҚАЛПАҚСТАНДА ДИНИЙ-ЗЫЯРАТ ТУРИЗМ ПОТЕНЦИАЛЫ (САЙИДИН УӘЙИС ИБН АМИР АЛ-ҚАРАНИЙ. СУЛТАН ЎӘЙИС БАБА МАВЗОЛЕЙИ МЫСАЛЫНДА)

Отенов Нариман Турдымуратович,
Әжинияз атындағы НМПИ Нөкис қаласы

- **Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va targ‘ib qilish** – VR/AR texnologiyalari orqali tarixiy yodgorliklarni saqlash va ommalashtirish.
- **Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi** – raqamli tahlillar va shaxsiylashtirilgan xizmatlar orqali turizm sektorini rivojlantirish.

Xulosa. Rekreatsiya va turizm geografiyasidagi tadqiqotlarning nazariy masalalari hamda ularni tadqiq etishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada rekreatsiya va turizm geografiyasining asosiy nazariy tamoyillari, ularning rivojlanish omillari va zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari tahlil qilinadi.

Tadqiqot davomida turizm va rekreatsiya jarayonlarini o‘rganishda innovatsion yondashuvlarning o‘rni va samaradorligi yoritiladi. Xususan, raqamli texnologiyalar, geografik axborot tizimlari (GAT), sun’iy intellekt va katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanishning afzalliklari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek,

turizm geografiyasida barqaror rivojlanish tamoyillarini tadqiq etish va ulardan amaliyotda foydalanish masalalariga ham e’tibor qaratiladi.Maqolada ilgari surilgan ilmiy xulosalar turizm va rekreatsiya geografiyasini chuqurroq o‘rganishga, yangi ilmiy g‘oyalarni ilgari surishga hamda ushbu sohada amaliy natijalarga erishishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish turizmni boshqarish, mintaqaviy rivojlanish va ekologik muvozanatni saqlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi ta’kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajakni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. Xalq so‘zi, №24. 2018 yil 6 fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari” PQ. Xalq so‘zi gazetasi, №25. 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Resublikasini qonun xujjatlari to‘plami, 2017. 6-son. 70-modda.
6. Abdulqosimov A.A., Abdurahmonova Y.X., Davronov K.Q. Zarashon botig‘i voha landshaftlari va geoekologiyasi. Monografiya. T.: Iqtisod-Moliya, 2017. 304 b.
7. Abdulkasimov A. Voprosi klassifikatsii antropogennix landshaftov Sredney Azii. //Nauch. zap. Voronejsk. otd. Geog. ob-va SSSR. Voronej, 1966. S.26-30.
8. Abdulkasimov A. Problemi izucheniya mejgorno-kotlovinnix landshaftov Srdney Azii. T.: Fan, 1983. 126 s.
9. Abdumalikov R. Turizm. T.: O‘qituvchi, 1978. -90 s.
10. Alibekov L.A., Alibekova S.L., Ismoilov Sh.O. O‘zbekistonning rekreatsion imkoniyati, tog‘ va tog‘oldi mintaqalarida xalqaro turizmning rivojlantirish istiqbollari. //O‘zbekiston Geografiya jamiyati axborotnomasi. 51-jild. T.: 2017, 18-23 b.
11. Alibekov L.A. Xalqaro tog‘ turizmi. O‘zbekiston ovozi gazeatasi. 2018 yil, 6- noyabr.

SURXONDARYO VILOYATIDA ETNOTURIZMINI AHAMIYATI VA VILOYATDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISTIQBOLLI LOYIHALAR

Xolbekova O‘g‘iloy Turayevna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti.
Javohirrustamov520@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170614

Annotatsiya: *Mamlakatimizning jabubiy nuqtasida joylashgan Surxon xalqining sport turizmni rivojlantirishdagi imkoniyatlari qolaversa nihoyatda ulkan tarix va boy qadriyatlarga, yuksak ma’naviyatga beshik bo‘lgan mintaqa ekanligini ochib berish. Viloyatda amalga oshirilgan ishlar va kelgusi yillardagi rejalar haqida qisqacha tuxtalib o‘tganmiz.*

Kalit so‘zlari*: Milliy qadriyatlar, etno turizm, sport turizm, chanqavuz, kurash musobaqalari, istiqbolli loyihalar, “Anor” sayli va “Hunarmandlar markazi”*

Mustaqillikdan so‘ng yurtimizda turizmni hamma sohalarida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shuning uchun turizmni rivojlantirish O‘zbekistonning dolzarb masalalaridandir. Mustaqilligimiz tufayli o‘tmishimiz, tariximiz xolisona o‘rganish, manaviyatimiz sharchashmalalarini dunyo aholisi orasida keng targ‘ib qilish, azaliy qadriyatlarimizni tiklash kabi imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, Surxondaryo viloyatining tarixiy obidalaridan tortib milliy qadriyat va uruf odatlar uruf odatlar qayta tiklandi. Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga ustuvor tarmoq sifatida e’tibor qaratilayotganligi va bu yo‘nalishda so‘nggi yillarda jadal sur`atlarda o‘sish kuzatilayotganligi Surxondaryo viloyatida mavjud salohiyatdan samarali foydalanishni dolzarb vazifaga aylantirdi.Viloyatning o‘ziga xos me’morchilik ob’ektlari, diniy ziyoratgohlari, jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan milliy urf-odatlari, oshxonasi hamda tog‘oldi hududlaridagi ko‘plab dam olish maskanlari, bolalar oromgohlari, davolash-sog‘lomlashtirish maskanlarining mavjudligi va turistik-rekreatsion faoliyatni rivojlantirishdagi ulkan salohiyatdan unumli foydalanishda tashkiliy iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish, asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ijtimoiy va transport infratuzilmalarini barpo etish, axborot tarmoqlarini tashkil etish va rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, bozor infratuzilmasini jumladan, marketing xizmati, tijorat axborot tizimlarini tashkil etishga asosiy e’tibor qaratilgan. [1-ilova1-8b].

Vohaning turizm salohiyati juda yuqori hududlardan biridir. Bu yerda azaldan xalqining mardligi va jasurligi hamda etnografik jihatdan musiqiy asboblari va san`at dunyosi o`ziga xosdir. Xususan viloyatda etnoturizm sohalarini rivojlantrish imkoniyatlari yetarli.. So`ngi yillarda Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning viloyatga alohida qaratgan e’tiborlaridan so‘ng juda ko`plab salmoqli ishlar qilindi.

Surxondaryo vohasining turizm sohasida aynan Etnoturizmini yada rivojlantirish ko`plab yirik festivallar va kurash musobaqalari manashu yerda tashkil etilsa, viloyatning turistik salohiyati yanada oshardi. Vohada etnoturizmi tashkil etish masalalari va imkoniyatlari to‘g‘risida qisqacha ma’lumot va fikrlar bayon etilgan.

Surxon vohasi aholisi turmush-tarzini o‘rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar vohaning alohida etnografik makon ekanligidan dalolat beradi.

Surxon vohasi hududi ilk davlatchilik an’analariga ham poydevor bo‘lgan makon sanaladi. Surxon vohasi aholisining musiqa san’ati va musiqa cholg‘ulari ko‘p ming yillik tarixga ega. Musiqa asboblari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularni puflama, torli, urma-zarbli cholg‘u turlariga bo‘linishi mumkin. Musiqiy asboblar, bir tomondan, moddiy ashyo bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ma’naviy boylik sanaladi. Estetik ehtiyoj yuzasidan tayyorlangan cholg‘u asboblari (do‘mbira, surnay,nay, dutor,chanqovuz, doira va boshqalar) xalq qo‘shiqlari, kuylari va dostonlari ijrosida keng qo‘llangan.

Vohada keng taralgan cholg‘u asboblaridan biri chanqovuz. Chanqovuz-torli - urma yoki tilsimon chertim asbobi. Ayollar tomonidan ko‘proq chalingan. Ba’zan erkaklar ham chalgan. O‘tgan asrning ikkinchi yarmigacha chanqovuzni temirli va suyakli turlari bo‘lgan. Suyakli chanqovuz tuya qovurg‘asidan yasaladi, uning o‘rtasidan tilcha kesiladi va ip bog‘lanadi. Chalish jarayonida ipni tortish orqali tilcha to‘lqinlantirilib tovush hosil qilinadi. Yog‘ochli chanqovuz yong‘oq, tut va archa daraxtidan yasaladi. Bu musiqiy asbob o‘zidan juda yoqimli ovoz taratib hammani hayratda qoldirib kelmoqda [2.196-200 b]. Voha asrlar o‘sha milliy kiyim, musiqiy asboblar va og‘zaki ijodidan tashqari xalqning qadimiy o‘yinlari ham o‘zgacha ahamiyat kasb etadi. Biz bilamizki, xalq o‘yinlari madaniy hayotning ajralmas qismi ekanligi ma’lum. O‘zbek xalqining an’anaviy o‘yinlari uzoq tarixga ega, ular ibtidoiy jamoa davridan shakllangan. Ayniqsa, Surxon vohasining o‘yinlari yosh avlodning yetuk, polvon, mard va jasur bo‘lib ulg‘ayishda alohida o‘rin tutadi. Bu o‘yinlar asrlar osha avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Har bir xalq o‘yinidan ko‘zlangan maqsad o‘sib kelayotgan yosh avlodni guruh bilan ishlash salohiyatini oshirishga qaratilgan [3. 173-186 b]. Surxon zaminida azaldan chapani va mard, samimiy insonlar, yelkasi yer ko‘rmagan polvonlar yurti bo‘lib kelgan. O‘zbek kurashining vatani, makoni ham aslida Surxon vohasidir. Hammamiz yaxshi bilamizki, mana shu kurash musobaqalarida “halol” degan so‘z eng oliy baho sifatida yangraydi. Shaxsan menga bu ibora bamisoli butun xalqimiz, jumladan Surxon eliga mansub eng ulug‘ fazilatlarni ifoda etayotgandek bo‘lib tuyuladi. Darhaqiqat, halolligi, poklikni yuksak qadriyat sifatida yuragida saqlaydigan Surxonliklar sport sohasida ham doimo birinchi safda bo‘lib kelmoqda. Surxon vohasining bu kabi

sifatlari faqat o‘g‘il bolalarga hos bo‘lib qolmasdan o‘lkaning har bir ayol, qizida ham shu hislatlar mavjud.

Milliy kurash Surxonliklarning qon-qoniga singib ketgan qadryat sifatida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelmoqda. Chunki unda xalqimizning halolligi, mardligi, o‘ziga xos oriyati, kerak bo‘lsa vatanparvarligi o‘z aksini topadi. Har ikki yilda bir marta Surxondaryoda Al-Hakim at-Termiziyning xotirasiga o‘tkazilib, kelinayotgan xalqaro turnirning nufuzida jahon miqyosida yildan-yilga ortib ishtirokchilari safi kengayib borayotgani quvonarlidir. Chunki bu orqali ko‘plab yosh polvonlar kashf etilib, milliy sportimiz dovrug‘i jahon uzra keng yoyilmoqda. Mustaqillik tufayli milliy kurashning qayta tiklanishida Surxon vohasining alohida o‘rni bor. Al-Hakim at-Termiziy kabi allomalr ruhi madadkor bo‘lgan Surxon vohasining mashhur polvonlari qadim-qadimdan o‘z xalqi, yurti, ovuli uchun kurash maydonlariga chiqib, halollik, mardlik, jasurlik, va’fodorlik, sevgi-muhabbat uchun o‘z kuchlarini namoyon qilganlar [4. 81-84 b].

Ko‘rib turganimizdek birgina sport musobaqalarida vohaga bo‘lgan e’tiborni naqadar yuksak ekanligi ma’lum. Bu esa sport turizmni keng rivojlantirsh istiqbolari mavjudligini bildiradi. yildan-yilga viloyatga tashrif buyuradigan turistlarning soni oshmoqda, ayniqsa qo‘shni respublikalarning salmog‘i ancha yuqori.

Viloyatda 2021 va 2022 yilda Turizmni xizmatlarini yaxshilash uchun amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar va kelgusi yillardagi o`zgarishlar to`g`risida qisqacha malumot berib o`tamiz. Ular quydagicha; Mehmonxonalar soni 49 ta, uy mehmonxonalar soni 2021 – yilda 100 tadan 2022- yilga kelib 141 ta ga yetdi. Yil davomida uy mehmonxonalar 41 taga ko‘paydi.

Bundan tashqari, xostellar soni 5 taga ko‘payib, jami 9 taga yetdi. Sanatoriya va davolash muassalarining soni 50 ta 2055 ta o‘ringa mo‘ljallangan. Joriy yilning yanvar-dekabr oylari holatiga ko‘ra turizm maskanlari va mehmonxonalarida 200 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

2022-yilda dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi natijasida Surxondaryoga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar soni 100 ming nafar, turizm xizmatlari eksport hajmi 3,0 mln. AQSh dollari, mahalliy sayyohlarning tashrif soni 1 mln. nafarga yetkazish ishlari olib borilmoqda. Viloyatda arxeologik, eko, agro, ziyorat, tibbiyot, gastronomik, ekstremal turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Shu bois, turistlarni keng jalb qilish uchun sharoitlar yaratish maqsadida 2022-2026 yillarda viloyatning Sariosiyo tumanida “Sangardak”, Sherobod tumanida “Chorbog‘”, Oltinsoy tumanida “Xo‘jaipok”, va Boysun tumanida “Omonxona” hamda “Sayrob” turizm qishlog‘i tashkil etiladi.

2022 yil may oyida yapon olimi Kato kyudzoning 100 yillik yubileyini keng nishonlash va xalqaro konferinsiya o‘tkazishilgan undan tashqari “Boysun bahori” an’anaviy halqaro folklor festivaliga, hamda “Anor sayli” va “Uzum sayli” festivallariga 20 ming nafardan ortiq turistlar, shundan, 1 ming nafardan ziyod xorijiy turistlar kelishi va shu bilan birga festivallari o‘tkazish davomida mahalliy brend mahsulot va suvenirlari savdosi kengayishi kutilmoqda.

Jarqo‘rg‘on tumanida tashkil etilgan “Hunarmandlar markazi” da 2022 yilda “Surxoncha milliy liboslari galereyasi” tashkil etiladi [5. 1-2 b].Bundan keyingi davrlarda xorijiy mamlakatlarda xalqaro turizm ko‘rgazma va yarmarkalarda milliy stend bilan munosib ishtirok etish choralari ko‘riladi va viloyatimizga xorjiy sayyohlar oqimi oshiriladi. O`ylaymizki shu va shunga o`xshash istiqbolli ishlar kelajakda o`z samarasini ko`rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Фармонлари, Қарорлари ва нутқлари va Ўзбекистон республикаси вазирлар маҳкамасининг 2020йил 27 майдаги “Сурхондарё вилоятида туризм салоҳиятидан янада самарали фойдаланиш ва уни ривожлантириш бўйича қўшимча чора тадбирлар тўғрисида”ги 332- сон қарори.
2. Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г. Туризм асослари. Дарслик. – Тошкент. 2014. 330-б.
3. Тухлиев И. С. Туризим асослари. Услубий қоъланма- Самарқанд СамИСИ, 2008
4. Ҳ. Абдуназаров, М. Ҳ. Умарова, “Сурхондарё географияси” Оъқув-услубий мажуа Термиз, 2016 йил
5. С.Н. Турсунов, Т.Р. Пардаев, Н. С. Махмадиёрова Сурхондарё етнографик макон Тошкент «Академнашр» 2012 йил
6. С.Н. Турсунов, Т.Р. Пардаев, А. Қоърбонов, Н. Турсунов Сурхондарё етнографияси «Оъзбекистон миллий кутубхонаси» нашриёти Тошкент 2006 йил.
7. М. Жаборов Оъзбек халқи етнографияси Тошкент «Оъқитувчи» 1994 й.
8. Файзуллаева М-Х- Узбек таомлари билан боглик анъаналар (Сурхон вохаси мисолида). - Тошкент, 2010. - 158 б.
9. Узбек халк огизаки ижодиёти. - Тошкент, 1990.
10. Узбекистан Миллий энциклопедияси. - Тошкент: Комуслар Бош тахририяти, 2001 - 2006.
11. С.Турсунов, Т. Пардаев, О.Ьогимкулов “Узбек миллий кураши тарихи на аньаналари” Термиз: “SURXON NASHR ” нашриёти, 2015. 204 б.
12. Surxondaryo viloyat turizm va sport bosh boshqarmasidan olingan malumotlar 2020-2022 yil.

QASHQADARYO VILOYATIDA AHOLINING UMUMIY O‘LIM KO‘RSATKICHLARI VA UNING HUDUDIY TAFOVUTLARI

Do‘sbekov Sirojiddin Komiljon o‘g‘li,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktaranti
Samarqand shahri
sirojyuja1995@gmail.com

Maxmudova Gulmira Xamidovna,
Samarqand shahar Prezident maktabi geografiya fani o‘qituvchisi
otayorovagulmera@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170616

Annotatsiya. *Binobarin,aholi salomatligi va aholi o‘lim ko‘rsatkichlari chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Aholi o‘lim ko‘rsatkichlarining viloyat tumanlari doirasida tafovutlari hududlarning tabiiy geografik hamda iqtisodiy-ijtimoiy omillarga bog‘liq ekanligi o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi. Aholi o‘lim sabablarini batafsil o‘rganish, ma’muriy-hududiy birliklar kesimida o‘lim jarayoniga olib keluvchi kasalliklarga ixtisoslashgan shifoxonalar quvvatini oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqishda ahamiyatli hisoblanadi. Viloyat aholisining 2010-2023-yillar intervalidagi aholi o‘lim ko‘rsatkichlari tahlil qilingan va o‘lim sabablari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Aholi o‘limi, aholi o‘limi sabablari, inson salomatligi, yurak qon tomir a’zolari kasalliklari.*

Аннотация. *Таким образом, здоровье населения и показатели смертности находятся в тесной взаимосвязи. Различия в показателях смертности населения на уровне районов области обусловлены природно-географическими и социально-экономическими факторами, что делает данный вопрос особенно актуальным. Детальное изучение причин смертности населения имеет важное значение для разработки мер по увеличению мощности специализированных больниц, ориентированных на лечение заболеваний, приводящих к летальному исходу в разрезе административно-территориальных единиц. В данной работе проанализированы показатели смертности населения Кашкадарьинской области за период 2010-2023 годов и изучены причины смертности.*

Ключевые слова: *смертность населения, причины смертности, здоровье человека, заболевания сердечно-сосудистой системы.*

Annotation. *Thus, public health and mortality rates are closely interconnected. The differences in mortality rates across the districts of the region are influenced by natural-geographical and socio-economic factors, making this issue particularly relevant. A detailed study of the causes of mortality is essential for developing measures to increase the capacity of specialized hospitals focused on treating diseases leading to fatal outcomes within administrative-territorial units. This study analyzes the mortality rates of the population in the Kashkadarya region for the period 2010–2023 and examines the causes of death.*

Keywords: *population mortality, causes of mortality, human health, cardiovascular diseases.*

Demografik holatning asosiy bir muhim ko‘rsatkichi aholi o‘lim holati hisoblanib, viloyatda umumiy kasallanish ko‘rsatkichlari va o‘limning bo‘g‘liqligini tahlil qilish orqali tabiiy o‘lim, kasallanish orqali yuzaga kelgan o‘lim holatlarini

aniqlash imkonini beradi. O‘lim jarayonlarini o‘rganish va tahlil qilishni tanatologiya fani o‘rganadi, ushbu so‘z yunon tilidan olingan bo‘lib, “tanatos” o‘lim, logiya esa fan degan ma’noni anglatadi[1].

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra XVIII asrning ikkinchi yarmiga qadar yer sharining insonlar istiqomat qiladigan barcha hududlarida o‘lim holati juda yuqori ko‘rsatkichda saqlanib kelgan. Soha mutaxassislari tomonidan aholining o‘lim sabablarini ikki asosiy guruhga bo‘lingan, ular quyidagilar:

1. Endogen sabablari.
2. Ekzogen sabablar.

Har bir insonning o‘z fiziologiyasidan kelib chiqqan holda, yani irsiyat orqali avloddan-avlodga o‘tadigan kasalliklar orqali vujudga keladigan o‘lim holati endogen sabablar hisoblanadi. Ekzogen sabablar esa insonlar o‘limiga tashqi, ya’ni atrof-muhit holati,texnogen muhit holati,sotsial muhit kabilarni ta’siri hisobga vujudga kelgan o‘lim holatlari nazarda tutuladi[2].

Qashqadaryo viloyatida aholi o‘limining geografik tarkibi

Hududlar	Har ming kishi hisobida (promille)				O‘zgarishlar indeksi
	2010	2015	2020	2023	
Qashqadaryo viloyati	3,8	4,0	4,2	4,6	+1,21
Qarshi sh.	4,0	4,2	4,9	4,7	+1,17
Shahrisabz sh.			3,9	5,0	+1,28
tumanlar:					
G'uzor	4,2	4,6	4,6	5,0	+1,19
Dehqonobod	3,9	4,1	4,0	6,7	+1,71
Qamashi	4,2	4,1	4,0	4,2	+1,0
Qarshi	3,9	4,3	5,1	5,0	+1,28
Koson	3,4	3,9	3,8	4,8	+1,41
Kitob	3,8	3,9	4,0	3,9	+1,02
Mirishkor	3,5	3,4	4,1	5,4	+1,54
Muborak	3,9	3,8	4,3	5,0	+1,28
Nishon	3,3	3,6	4,1	4,3	+1,30
Kasbi	4,0	3,7	4,4	5,5	+1,37
Ko'kdala				3,7	
Chiroqchi	3,6	3,6	3,6	3,8	+1,05
Shahrisabz	4,0	4,2	3,8	4,4	+1,1
Yakkabog'	4,0	4,2	4,4	4,4	+1,1

Jadval O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mamlakatimizda aholi o‘limi koeffitsienti 2023-yil holatiga ko‘ra 4,7‰ ni tashkil etayotgan bo‘lsa, viloyatda umumiy o‘lim koeffitsienti 4,6 ‰ ni tashkil etmoqda,shu bilan birga eng yuqori ko‘rsatkich Dehqonobod tumanida 6,7‰ , Mirishkor 5,4‰ bo‘lsa , eng past koeffitsient Ko'kdala tumani 3,7‰ , Chiroqchi tumanida 3,8‰ tashkil etmoqda.O‘zgarish indeksi eng yuqori holati ham mos ravishta Dehqonobod +1,71 va Mirishkor +1,54 tumanlarida kuzatilgan bo‘lsa, Qamashi tumanida +1,0, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlarida +1,1 holatdagi ko‘rsatkichlarni qayd etganligini ko‘rishimiz mumkin[6].

H.E.Egamqulovning Sirdaryo viloyatida olib borgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, viloyatining ayniqsa, sanoat markazlarida onalar va go‘daklar o‘limi, ba’zi kasallik guruhlari (xavfli o‘sma, yurak, qon-tomir, asab, ruhiy buzilishlar, nafas olish a’zolari tizimi kasalliklari) bilan kasallanish ko‘rsatkichlari respublika darajasidan bir necha barobar yuqori. Bu esa, o‘lim holatini oshishiga olib keladi degan xulosa bergan[3].

Respublikamizda jadal va tadrijiy olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar aholi o‘lim ko‘rsatkichlarining pasayishiga, aholining gigiyenik ko‘nikmalarining shakllanishi va ayollarning ish bilan bandlik darajasi oshishi ham jarayonda ijobiy holat kuzatilishiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi.

Yuqori o‘lim holati qayd etilgan Dehqonobod tumanining maydoni viloyat tumanlari ichida eng salmoqli o‘rindaligi, shunga bog‘liq holatda malakali tibbiy hizmat bilan aholini qamrab olish imkoniyatidagi muammolar, yana har jami tuman aholi hisobiga to‘g‘ri keluvchi shifokorlar soni bir yarim ming kishini tashkil etmoqda.Yana bir omil sifatida tuman xo‘jalik faoliyatida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida aholining katta qismining bandligini keltirish mumkin.

Qashqadaryo viloyati aholisining o‘lim holatini baholash (2023-yil)

Guruh (o‘zgarish indeksi bo‘yicha)	Ma'muriy hududiy birlik nomi	O‘rtacha o‘zgarish indeks	Ma'muriy tumanlar soni
Past +1,15 gacha	Qamashi +1,0, Chiroqchi +1,05, Shahrisabz +1,1, Yakkabog' +1,1, Kitob +1,02,	+1,05	5
O‘rta +1,15dan +1,30 gacha	Muborak +1,28, G'uzor +1,19, Qarshi sh +1,17, Shahrisabz sh +1,28, Qarshi +1,28,	+1,24	5
Yuqori +1,30 dan baland	Dehqonobod +1,71, Koson +1,41, Mirishkor +1,54, Nishon +1,30, Kasbi +1,37	+1,46	5
	Qashqadaryo viloyati	+1,21	16

Jadval Qashqadaryo viloyati sitatistika boshqarmasi ma’lumoti asosida muallif tomidan tuzuldi.(eslatma,ma’muriy birliklarning tahlil etilgan yillar oralig‘da mavjud bo‘lmaganligi sababli Ko‘kdala tumani haqida ma’lumotlar keltirilmadi)

Hozirgi vaqtda respublikamizning barcha hududlarida, jumladan eng markazlardan olis qishloq va ovullarda ham tibbiyot sohasiga doir zamonaviy tibbiyot muassasalari o‘z ish faoliyatini olib borilmoqda. Davlat budjeti hisobidan sohani modernizatsiya qilish, malakali kadrlar tayyorlash ,eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan tibbiyot muassasalarini taminlash ishlari jadal davom ettirilmoqda.

Binobarin, aholi o‘limi holati - har qaysi davlatning iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan qay darajada ekanligi, aholining yashash shart-sharoitlari, tibbiy xizmat ko‘rsatishning qanday darajada ekanligi,aholining mehnat sharoitlari bilan bog‘liq hisoblanadi. O‘lim holati va uning yillar davomida dinamikasidagi o‘zgarishlar ayrim demografik holatlar, tug‘ilishning umumiy ko‘rsatkichi, aholi yosh-jins tarkibi,nikoh va ajrimlar soni, shu bilan birgalikda aholi kasallanish darajasi, hududning ekologik holati kabi bir qancha omillar bilan chambarchas bog‘liq holatda o‘zgarib boradi. Ma’lumki, yuqorida sanab o‘tilgan omillardan tashqari aholining shahar yoki qishloqlarda istiqomat qilishi va milliy mentalitetga ham mutanosib ravishda o‘lim ko‘rsatkichlarini o‘zgarib borishiga sabab bo‘ladi.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimidagi ijobiy o‘zgarishlar va tibbiyot sohasi kadrlarining malakasi ortishi hisobiga erishilayotgan eng katta yutuqlardan biri bu o‘lim salmog‘ining kamayib boryotganligidir. Shu bilan birga aholining umr davomiyligi ham o‘sib bormoqda.


Afsuski, tadqiqot obektimiz bo‘lgan Qashqadaryo viloyati va tumanlarida aholi o‘lim holati yuqoriligi saqlanib qolmoqda. Bunday holatga asosiy omil sifatida viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, demografik holati va ekologik jihatlariga bog‘liq holda ma’lum darajada tafovutlar kuzatilmoqda.

O‘lim holati ko‘rsatkichlarini tahlil qilar ekanmiz, uning sabablarini o‘rganish zarur ekanligini chetda qoldirib bo‘lmasligini angladik. Shuni alohida takidlash lozimki, N.Komilovaning tadqiqot ishlarida sabablarga ko‘ra o‘lim holatiga alohida ahamiyat berilgan. U asosan xavfli o‘sma kasalliklarining avj olishi oqibat va sabablari, uning hududlardagi farqi, bunga asosan o‘sha hududda joylashgan infratuzilmaning ham ta’sirini atroflicha yoritgan. Bundan tashqari yurak, qon-tomir kasalliklari va endokrin tizim kasalliklarining ham avj olishi o‘limga olib kelishini tahlil qilib bergan. Shu bilan birga “Insonlarning o‘rtacha umr ko‘rishi ularning salomatliklariga, yashash va mehnat sharoitlariga bog‘liq: kishilarning yashash joyi qanchalik tinch, tabiat bilan hamnafas bo‘lsa, ularning salomatliklari uchun ham

foydalidir”.[4] Viloyatda 2023-yil hisobi bo‘yicha jami o‘lim holatining sabablari quyidagicha ko‘rinishdagi diagramma orqali aniqroq tavsiflab chiqamiz.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



Yuqoridagi diagrammadan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, aholi o‘limining asosiy sabablari ichida yuqori ko‘rsatkich qon aylanish tizimi kasalliklari 59,9 foiz, keyingi o‘rinda 16,0 foiz bilan boshqa sabablar va o‘sma kasalliklari 7,7 foizni tashkil etmoqda.O‘lim sabablari ichida qon aylanish tizimi kasalliklarining yuqori darajasiga sabab sifatida butun dunyodagi tadqiqot ishlarida, atmosfera havosida PM 2.5 dispers darrachalar konsentratsiyasining yuqori darajasi, hududlardagi yoz oylaridagi mumkin bo‘lgan havo haroratining juda yuqoriligi, insonlarning turmush tarzi(noto‘g‘ri ovqatlanish,kam jismoniy faollik), kasallikning nasldan naslga o‘tishi, spirtli ichimliklar, tamaki istemoli ham juda ta’siri yuqori omillar sanaladi[7].

Viloyatda aholi o‘lim darajasi va kasallanish darajasi yuqori ko‘rsatkichlari ma’lum yillar davomida saqlanib qolayotganligi sababli Prezidentimizning PQ-67 sonli qarori tasdiqlangan. Ushbu qarorda Qashqadaryo viloyatida aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish, tibbiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish va ularning sifatini oshirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida 14 ta banddan iborat aniq yo‘l xarita belgilangan.[5]

Xulosa o‘rnida aholi o‘lim ko‘rsatkichlari tahlili natijasida yuqori ko‘rsatkich bilan baholangan tumanlar aniqlandi.Ushbu tumanlar alohida chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqazo etishi va o‘lim sabablariga oydinlik kiritildi.Viloyat aholi o‘limining

asosiy sabablari ichida yuqori ko‘rsatkich qon aylanish tizimi kasalliklari 59,9 foiz bilan yetakchiligi, kasallikkeltirib chiqaruvchi omillar qisman tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komilova N.K., Egamqulov H.E. Iqlim o‘zgarishlari sharoitida aholi o‘limining hududiy tahlili (Sirdaryo viloyati misolida). Экономика и социум. 2023,(5-1(108)),B.150-158.
2. A.S.Soliyev,N.K.Komilova,S.L.Yanchuk,Sh.Z.Jumaxanov,F.T.Rajabov. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya. Noshir nashriyoti ,Toshkent-2019.234-bet
3. H.E.Egamqulov “Sirdaryo viloyatining nozoekologik vaziyati va aholi salomatligini hududiy xususiyatlari (Boyovut tumani misolida)”nomli dissertatsiyasi 68-sahifa.
4. Komilova N.Q., Muxammedova N.J. Tanatogeografiyaning nazariy va amaliy masalalari (aholi o‘limining hududiy xususiyatlari). Monografiya. Navoiy-2023\
5. Qashqadaryo viloyatida aholi salomatligini muhofaza qilish hamda sog‘liqni saqlash tizimini yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-67 sonli Qarori 2024-yil 9-fevral.
6. qarshi.stat.uz ma’lumotlari
7. Qashqadaryo viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi ma’lumotlari

QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA TURIZMNING TUTGAN O‘RNI

Nargiza Suyarova Ashur qizi,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
nargizasuyarova09@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170620

Annotatsiya: *Ushbu maqola Qashqadaryo viloyatining geografik joylashuvi, xo‘jaligi, iqtisodiy tarmoqlari va ijtimoiy rivojlanish holati, transport va savdo yo‘nalishlari, turistik resurslari, turizmning tumanlar miqyosidagi ahamiyatini o‘rganadi.*
Kalit so‘zlar: *Qashqadaryo, janubiy, shahar aholisi, qishloq aholisi, turistik ko‘rsatkichlari, “Nasaf”, Qarshi xalqaro aeroporti*

Annotation: *This article examines the geographical location of the Kashkadarya region, its economy, economic sectors and social development, transport and trade routes, tourist resources, and the importance of tourism at the district level.*
Keywords: *Kashkadarya, southern, urban population, rural population, tourist indicators, "Nasaf", Karshi International Airport*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются географическое положение, экономика, отрасли экономики и социальное развитие Кашкадарьинской области, транспортные и торговые пути, туристические ресурсы, значение туризма на районном уровне.*
Ключевые слова: *Кашкадарья, юг, городское население, сельское население, туристические показатели, «Насаф», международный аэропорт Карши.*

Kirish. Qashqadaryo viloyati, O‘zbekistonning janubiy qismlarida joylashgan, o‘zining boy tarixiy merosi, tabiat go‘zalliklari va madaniy yodgorliklari bilan tanilgan hududdir. Viloyatning turizm sohasidagi salohiyati har yili o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, uning iqtisodiyotidagi o‘rni hali to‘liq ochilmagan. Qashqadaryoda tarixiy yodgorliklar, qadimiy shaharlarga oid muhim joylar, tog‘ va dasht manzaralari, shuningdek, madaniy tadbirlar va an’anaviy san’atlar turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bu hududning turizm sohasidagi rivojlanishi, nafaqat mahalliy aholi uchun ish o‘rinlari yaratish, balki viloyatning iqtisodiy rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan to‘liq foydalanish, nafaqat uning iqtisodiy o‘sishiga yordam beradi, balki mintaqaviy rivojlanishga ham katta turtki bo‘lishi mumkin.

Asosiy qism. Qashqadaryo viloyati – eng janubiy viloyatlarimizdan biri bo‘lib, maydoni 28,57 ming ga.ni tashkil etadi. Mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etib, Respublika YaIMida ham yetakchilardan birini tashkil etadi (2024, 106,5 %). Markazi – Qarshi shahri. 14 ta tuman, 12 ta shahar, Respublika va viloyat

bo‘ysunuvidagi 2 shahar, 118 ta shaharcha, 18 ta qishloq fuqarolar yig‘ini, 1041 ta qishloq aholi punktlaridan iborat.

Aholisi – 3,6 mln kishi (2025-yil holatiga ko‘ra). So‘nggi yillarda tug‘ilish bir yilda 100 ming kishidan oshdi. Aholisining ishsizlik darajasi 7,3 % ni tashkil etmoqda. Iqtisodiy faol aholi jami bo‘lib 1316,6 ming kishi bo‘lsa, shundan ishsizlar 96,5 ming kishini tashkil etgan. Urbanizatsiya ko‘rsatkichlariga ko‘ra, viloyatda Shahar aholisi 42 %, qishloq aholisi 58 %ni tashkil etadi. Urbanizatsiya darajasi tumanlar bo‘yicha ijobiy ko‘rsatkichlar – Muborak, Nishon, Koson tumanlaridagina kuzatilmoqda. Qarshi va Shahrisabz shaharlarida esa ko‘rsatkich 100 % natijani beradi. Eng past ko‘rsatkichlar – Ko‘kdala, Dehqonobod, G‘uzor, Qamashi, Shahrisabz hamda Chiroqchi tumanlarida kuzatilmoqda (1-jadval).

1-jadval

Qashqadaryo viloyati tumanlari urbanizatsiya ko‘rsatkichlari

T/r	Tuman nomi	Jami aholisi	Shahar aholisi, % da	Qishloq aholisi, % da
1	G‘uzor	227,0	24 %	76 %
2	Dehqonobod	162,7	19 %	81 %
3	Qamashi	299,8	24 %	76 %
4	Qarshi	279,5	36,2 %	63,8 %
5	Koson	319,4	52,4 %	47,6 %
6	Kitob	287,7	37 %	63 %
7	Mirishkor	132,3	38 %	62 %
8	Muborak	95,2	80 %	20 %
9	Nishon	170,6	60%	40 %
10	Kasbi	217,8	39 %	61 %
11	Ko‘kdala	194,4	16 %	84 %
12	Chiroqchi	274,5	29 %	71 %
13	Shahrisabz	239,2	24 %	76 %
14	Yakkabog‘	288,3	33 %	77 %
15	Qarshi shahri	300,8	100 %	0
16	Shahrisabz shahri	150,1	100 %	0
	Jami, viloyat bo‘yicha	3639,3	42 %	58 %

Manba: Statistika materiallariga asoslanib muallif tomonidan tayyorlandi

Qashqadaryo viloyati o'zining boy tarixi, madaniyatiga ega. Viloyatda qadimiy shaharlarga, masalan, Shahrisabzga, tarixiy obidalarga va madaniy yodgorliklarga ega. Shahrisabz, Qarshi va Kasbi tumanlari tarixiy yodgorliklar bo‘yicha viloyatda yetakchidir. Qashqadaryo viloyatini X.H.Jumayev tasnifiga ko‘ra, turistik jihatdan 3ga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Shimoli-sharqiy rayon eng yaxshi rivojlangan bo‘lib, bu qismda turizmning barcha turlari yaxshi rivojlantirilmoqda. Amir Temur bobomiz qurdirgan yodgorliklar

noyobligi bilan UNESCO ro‘yxatiga kiritilgan. Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurgan turistlarning deyarli yarmi aynan shu qismga tashrif buyurishadi.

Qashqadaryo viloyati turizmiga to‘xtalganda, quvonarli ma‘lumot shundaki, 2018-yilda tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning asosiy qismini yevropaliklar tashkil etmoqda, ya‘ni 46,4 % ko‘rsatkich bilan. Ushbu davlatlarga Italiya, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Buyuk Britaniya kiradi. Keyingi o‘rinlarda qo‘shni Respublikalar, ya‘ni Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston kiradi va bu ko‘rsatkich 27,4 % ni tashkil etgan. 3-o‘rinni Janubi – Sharqiy Osiyo mamlakatlari 12,6 % ko‘rsatkich bilan yakunlagan.

Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyati yuksalib bormoqda. 2025 yil yakuniga ko'ra, xorijiy sayyohlar oqimi 500 ming nafarga, mahalliy turistlar soni 4 millionga yetishi, shuningdek, turizm xizmatlari eksporti 100 million dollarga yetishi kutilmoqda.

Viloyatning transport infrastrukturasi ham tobora rivojlanib bormoqda. Ma‘muriy markaz - Qarshi shahri O'zbekistonning boshqa hududlari bilan yaxshi yo'l tarmoqlari orqali bog'langan. Shuningdek, temiryo‘l transportida “Afrosiyob” tezyurar poyezdi, “Nasaf” va boshqa mahalliy qatnovlarni alohida aytib o‘tish o‘rinlidir. Qarshi Xalqaro aeroporti ham mavjud bo‘lib, bu havo transporti mavjudligining dalilidir.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, viloyat ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan ancha boy va qudratlidir. Respublika viloyatlarining ichida tuzilishi, relyefi, iqtisodiyoti, qishloq xo‘jaligi, jumladan, dehqonchilik, polizchilik; chorvachilikda qorako‘l qo‘ylari, tuyachilik bilan o‘ziga xos o‘rniga ega. Viloyatning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va iqtisodiy salohiyati uning mamlakatdagi strategik ahamiyatini belgilaydi. Ijtimoiy holatiga ko‘ra, viloyatda doimiy aholi soni oshib bormoqda, urbanizatsiya darajasiga ko‘ra aholisining asosiy qismi qishloqlarda yashaganligi sabab mehnat bozorining asosini qishloq xo‘jaligi tashkil etmoqda.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyati iqtisodiy jihatdan qishloq xo'jaligi va sanoatning integratsiyasi bilan rivojlanayotgan, ijtimoiy jihatdan esa o'sib borayotgan aholi va modernizatsiya talab qilayotgan infratuzilma bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turizm atamalarining izohli lug‘ati/I.S.Tuxliyev, M.E.Po‘latov, A.Sh.Berdimurodov. – Samarqand, “Navro‘z”. –2021. –248 bet.
2. Abdullayev S.I., Usmonova M.I. Qashqadaryo havzasida ma’daniy landshaftlarning shakllanish xususiyatlari //Geografiya va barqaror rivojlanish» (konferensiya materiallari).- Samarqand, 2004

3. Toshev N.J. Qashqadaryo viloyati turizm aglomeratsiyalarini optimal joylashtirish uchun algoritmik yondashuv. -Qarshi, 2024
4. X.H.Jumayev. Qashqadaryo viloyati turizm geografiyasi. – Qarshi, “Fan va ta‘lim”. – 2022.
5. qashstat.uz
6. Qashqadaryo viloyati Turizm qo‘mitasi materiallari

JANUBIY O‘ZBEKISTONDA TIBBIYOT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rustamov Ulugbek,
Sharof Rashidov nimidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
ulugbekluckyularustamov1993@gmail.com

Yusupov Sirojiddin Komolovich,
Sharof Rashidov nimidagi Samarqand davlat universiteti 4-kurs talabasi
samarqandlikisco@gmail.com

Amirov Ortiqjon Hasan o‘g‘li
Samarqand viloyat gidrometeorologiya markazi
amirovortiq295@gmail.com

DOI: ***https://doi.org/10.5281/zenodo.15170622***

Annotatsiya: *Mazkur maqolada turizmning rivojlanayotgan tarmoq`laridan biri tibbiyot turizmining hududiy jihatlari yoritilgan bo`lib, unda tibbiyot turizmining rivojlanish tarixi, shuningdek Janubiy O‘zbekistonda tibbiyot turizmi asosiy obektlari, ularning o`ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish imkoniyatlari kabilar yoritilgan.*
Kalit so‘zlar: *Tibbiy turizm, turizm, dam olish maskani, tuz g‘ori, buloq suvi, suv ombori, shifobaxsh suvlar, sog‘lomlashtirish, maskanlari, tabiiy davolash resurslari.*

Аннотация: *В данной статье описаны региональные аспекты медицинского туризма, одной из развивающихся отраслей туризма, и история развития медицинского туризма, а также основные объекты медицинского туризма на Южном Узбекистане, их характеристики и возможности развития.*
Ключевые слова: *Медицинский туризм, туризм, база отдыха, соляная пещера, родниковая вода, водохранилище, лечебные воды, лечение, курорты, природные лечебные ресурсы.*

Abstract. *This article describes the regional aspects of medical tourism, one of the developing branches of tourism, and the history of the development of medical tourism, as well as the main objects of medical tourism in Southern Uzbekistan, their characteristics and development opportunities.*
Key words: *Medical tourism, tourism, recreation center, salt cave, spring water, reservoir, healing waters, treatment, resorts, natural healing resources.*

Xalqaro turizm xalqaro iqtisodiy a’loqalarning asosiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, jahon YMMning deyarli 10 % ini, xizmatlar eksportining esa 1/3 qismini beradi. Bugungi glaballashuv davrda dunyoning ko‘plab davlatlari xalqaro iqtisodiy a’loqalarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan xalqaro turizmni o‘z milliy iqtisodiyotlarining ixtisoslashgan tarmog‘iga aylantirgan. Masalan turizm YaIM dagi ulishi Gretsiyada 19,1 %, Ispaniya 12,3 %, Turkiyada 11 %, tashkil etadi. Shu

jihatdan O‘zbekistonda mazkur tarmoqqa e’tiborni kuchaytirish muhim masalalardan biridir.

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan globalizatsiya jarayonlarining tezlashib borishi davlatlardan turizm tarmog‘ini rivojlantirish orqali muhum masalalarni echish imkoniyatini yaratishni taqozo etmoqda. Shu jumladan, respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning muhum yo‘nalishlaridan biri turizm sohasini rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Dunyo turizmida O‘zbekistonning o‘rni ham salmoqlidir, sayyohlarning mamlakatimizga tashrifi ortib borishida xalqimizning mehmondo‘stligi, san’atsevarligi, o‘ziga xos hunarmandchiligi, mehnatsevarligi kabi xislatlari ham ta‘sir etadi. Biroq imkoniyatlardan oqilona foydalanilmayotganligi sohaning xizmat ko‘rsatish va eksportdagi hisassi aholini ish bilan taminlashdagi o‘rni jahon o‘rtacha ko‘satkichlaridan sezilarli darajada pastdir.

Mazkur masalani bartaraf etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning 35-maqsadida O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilish dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyiradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga etkazish vazifasi qo‘yilgan. Bunda mamlakatimizda turizmning barcha turlarini bir tekis rivojlantirish masalalari turizmning hududiy va mintaqaviy rivojlantirish uchun asosiy dastur bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan hozirgi kunda jahonda keng rivojlanayotgan turizim sohalaridan biri tibbiyot turizimini O‘zbekistonda jadal rivojlantirish masalalari va yechimlarini ishlab chiqishga e’tibor qaratilmoqda. O‘bekistonda tibbiyot turizmining rivojlanishi aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash, aholi sog‘ligini tiklash, yangi ish joylari bilan taminlash kabilar iqtisodiyotining o‘sishiga o‘z ijobiy tasirini ko‘rsatadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezdentining 2024-yil 23-sentiyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish” bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-335-son qarorida Mamlaktimizda tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi imkoniyatlaridan to‘liq hamda samarali foydalanish, tibbiy turizm klasterlari va mehmonxona tipidagi zamonaviy sanatoriyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ushbu faoliyat turlari bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo‘shimcha qo‘llab-quvatlash tizimini yaratish maqsad qilib qo’yildi.

Tibbiy turizim – bu sayyohlik sohasidagi davolanish chet elda dam olish bilan birlashtiruvchi imkoniyatini beruvchi yo‘nalish. Bemorlarga eng zamonaviy, dunyoga mashhur tibbiyot markazlarida professional tibbiy yordam ko‘rsatiladi[2].

Amerikalik olimlar M. Booklman va K. Bookmanlarning tibbiy turizmga bergan tariflariga asosan – o‘z sog‘ligini yaxshilsh maqsadida sayohatlar, shuningdek, xizmatlar savdosini birlashtirgan iqtisodiy faoliyat bo‘lgan ikki sektor: tibbiyot va turizm [3].

Ayni paytda millionlab odamlar tibbiy muolajalar va dam olishni birlashtirish uchun mamlakatlar va mintaqalar bo‘ylab harakatlanishadi. Bunday muhim migratsiya tashkilotchi mamlakat yoki mintaqa iqtisodiyoti uchun katta iqtisodiy ahmiyatga ega [4].


Tibbiy turizm bozori o‘z-o‘zidan shakllanmagan zamonaviy ixtiro emas. Tibbiy turizm tarixi juda chuqur ildizlarga ega. Hatto qadimgi sivilizatsiyalar termal buloqlarning davolash ta’sirini va mineral suvlarning shifobaxsh kuchini bilishgan. Qadimgi yunonlar Asklepius (shifo xudosi) ibodatxonasini qurdilar, bu dunyodagi birinchi “tibbiy markaz” bo‘lib, u yerda dunyoning turli burchaklaridan odamlar shifo topishga ishonishgan. Mashhur “tibbiy markazlardan” biri Epidavr bo‘lib, u yerda termal buloqlar, ilon fermasi, sport uchun joylar va hatto orzular ibodatxonasi mavjud edi. Muqobil tibbiyotning rivojlanishi Hindiston bilan bog‘liq ayurveda va yoga [5].

O‘rta asrlarda tibbiyot turizmida Osiyo mashhurlikka erishdi. Bu yerda sayohatchilarga tibbiy xizmat ko‘rsatadigan birinchi kasalxonalar paydo bo‘ldi. Yaponiyada, o‘rta asrlarda, onsen issiq mineral buloqlari yaralarni davolash uchun ishlatilgan. Qohirada 1248 yilda Mansuri kasalxonasi qurilgan, u 8000 kishiga mo‘ljallangan bo‘lib, uning asosiy bemorlari chet elliklar bo‘lgan.

Uyg‘onish davrida birinchi marta “SPA” atamasi ishlatilgan lotincha “salude per aqua” atamasining qisqartmasi - “suv bilan birga keladigan yaxshilik”. Bu qishloqda sodir bo‘lgan Ville d’eaux – 1326 yilda Evropada issiq buloqlar topilgan “suv shahri”. Bu joylar boylar va mashhurlar uchun sevimli bo‘lib qoldi, ular dunyoning turli burchaklaridan sog‘lomlashtirish uchun kelishdi. [6]

Hozirda o‘z infratuzilmasi (tibbiy boshqaruv, akkreditatsiya organlari, tibbiy turizm agentliklari va turoperatorlar, tibbiy sayohat bo‘yicha mutaxassislar) bilan tibbiy xizmatlarning jahon bozori allaqachon shakllangan. Moliyaviy inqiroz sharoitida ham tibbiy turizm rivojlanmoqda va milliy sog‘liqni saqlash tizimlariga va sug‘urta kompaniyalari faoliyatiga tobora kuchayib borayotgan ta’sir ko‘rsatmoqda, ular mijozlarni xorijiy klinikalarda davolash uchun to‘lashni afzal ko‘rishadi. Jahon iqtisodiy raqobati sharoitida tibbiy turizm fenomeni tibbiyotni zamonaviy texnologiyalar va bemorlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash orqali jadal rivojlanishga majbur qilmoqda. Global Wellness Tourism Congress (GWTC) da e’lon qilingan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu sanoat jadal o‘sishni ko‘rsatmoqda. 2004-yildan

buyon daromadlar 40 milliard dollardan 0,5 trillion dollargacha ko‘tarildi, bu umumiy turizm daromadining 3,2 trillion dollarining 14 foizini tashkil etadi. [7]



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi “O‘zbekistonda turizm” elektron jurnali Toshkent-2024

So‘ngi yillarda mamlakatimizda ko‘plab sohalar singari aholiga tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sohasiga ham katta e’tibor berilmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi 100 ta maqsadining 55-maqsadidan to 65-maqsadigacha bo‘lgan 10 ta maqsadda aynan O‘zbekistonda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirish ko‘zda tutilgan [1]. Shuning uchun ko‘plab O‘zbekistonliklar va xorijliklar uchun tibbiy muolajalar va dam olishni birlashtirish uchun imkoniyatlar yetarli. Jumladan Janubiy O‘zbekiston bu jihat amaliy xususiyatga ega. Hususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezdentining 2024-yil 23-sentiyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish” bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-335-son qarorida [2] Mamlaktimizda tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi imkoniyatlaridan to‘liq hamda samarali foydalanish, tibbiy turizm klasterlari va mehmonxona tipidagi zamonaviy sanatoriyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ushbu faoliyat turlari bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo‘shimcha qo‘llab-quvatlash tizimini yaratishda alohida ajratib ko‘rsatilgan Andijon, Namangan, Farg‘ona, Jizzax va Toshkent viloyatlari bilan bir qatorda Janubiy O‘zbekiston iqtisodiy rayonining har ikki viloyati Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlari ham bor.

Odatda sayyohlar dam olish joyini turli mezonlarga ko‘ra tanlaydilar: qulay geografik o‘rni, ma’lum bir xizmat turining mavjudligi, transportning mavjudligi, turar joy sharoitlari, qulay narx va sifat o‘rtasidagi nisbat, xizmat ko‘rsatish darajasi, toza havo, iqlimning qulayligi, tabiiy landshaftning go‘zaligi va boshqalar.

Tibbiyot turizmi dorivor xususiyatlarga ega va inson tanasiga foydali ta’sir ko‘rsatadigan tabiiy va iqlim resurslarining mavjudligiga asoslanadi. Janubiy O‘zbekistonning sanatoriylari tibbiyot turizmida katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, o‘zining betakror tabiati va iqlimi tufayli mintaqa azaldan respublikaning asosiy dam olish maskanlaridan biri sanaladi.

Janubiy O‘zbekiston tabiiy va iqlimiy resurlarga boy bo‘lib, undan tibbiyot turizmini rivojlantiruvchi omillardan tuzlar, issiq buloqlar, shifobaxsh balchiqlar, toza havo, har xil dorivor o‘simliklar kabilar mujassamlashgan. Tabiiy resurslari bilan bir qatorda tibbiyot turizmining boshqa muhim tarkibiy qismlari ham ajratiladi. Bularga rivojlangan infratuzilma, zamonaviy sog‘liqni saqlash dasturlari va davolash usullari hamda malakali xodimlar orqali turizmning ushbu turini rivojlantirish mumkin.

Janubiy O‘zbekiston sayyohlarga tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini sifatli tashkillashtirish va sayyohatchilarning qulay dam olishi uchun o’zining sog‘lomlashtirish omillarga ega bo‘lgan tabiiy va rekreatsion resurslarga ega. Jumladan Surxandaryo viloyatining Sherobod tumanida joylashgan tuz g‘ori bo‘lib, unda bir-biridan harorat, namlik, bosim va mikro iqlim bo‘yicha farq qiluvchi 5 ta davolashxona kameralari mavjud. G‘or devorlari o‘ziga xos tarzda 1 sm dan 3 sm gacha bo‘lgan tuz qatlami bilan qoplangan, o‘tish joyida tuz eritmali shifobaxsh buloq bor. Bu yerda bronxial astma, yurak qon tomir va asab tizimi kasalligi bilan og‘rigan bemorlar sog‘liqlarini tiklashi mumkin. Ushbu tuz g‘orida bir kunda 100 tagacha kishi davolanish imkoniyatiga ega.

Toza havo bilan davolanadigan joylardan yana biri Qashqadaryo viloyatining Xisor tog‘ etaklaridagi dengiz sathidan 1000 metr balandlikda Oqsuv va Qoradaryolari hamda Xisorak suv ombori yaqinida joylashgan “Miroqi” dam olish maskani mavjud.

Bu yerdagi toza havo hamda quyosh nurlari radiatsiyasi inson organizmini davolashda muhim ro‘l o‘ynaydi. Tog‘ yonbag‘rilari yoz oylarida rang barang o‘simliklar bilan qoplanadi. Bu o‘simliklardan asalarilar yordamida to‘plangan asal inson organizimidagi 1000 xil kasalliklarga davo hisoblanadi. [8]

Surxondaryo viloyatida teri kasalliklarini davolaydigan shifobaxsh suvlari ham mavjud bo‘lib, bunga viloyatning Oltinsoy tumanida joylashgan “Xo‘jaipok” davolanish maskani misol bo‘ladi. Mutaxassislarning fikricha tarkibida oltingugurt bo‘lgan suv teri kasalliklarini davolash hususiyatiga ega.

Viloyatdagi yana bir davolash maskani Boysun tumanida joylashgan “Omonxona” davolash maskani hisoblanadi. “Omonxona” buloq suvi tarkibi va kishi organizimiga ta’sir etish jihatidan Markaziy Osiyoda yagonadir. Omonxona balneologik davolash maskani davolashning asosiy negizi ham ana shu sulfidli madanli suvni ichish va unda vanna qabul qilish hisoblanadi. Mutaxassilarning fikricha, tog‘ bag‘ridan sizib chiqayotgan buloq suvi tarkibida kremniy kislotasi, temir, alyuminiy kabi organizim uchun ko‘plab foydali elementlar mavjud. Ushbu foydali elementlar yordamida inson organizimi siydik yo‘llaridagi va buyrakda hosil bo‘lgan toshlar erib tushib ketadi. Bu yerda hozirgi vaqtda aholining davolashi uchun sanatoriya qurilgan.

Respublikamizni janubiy mintaqasidagi ayrim hududlar va xushmanzara tabiati bilan aholi sog‘ligini tiklash uchun xizmat qiladi. Ana shunday maskanlardan biri Surxondaryo viloyatining Saraosiyo tumanidagi Navruz dara hududida joylashgan “Sangardak” dam olish maskani hisoblanadi. O‘ziga hos tog‘ sharoitida qurilayotgan sog‘lomlashtirish maskani Hisor tog‘ tizmalarining osmono‘par ko‘rinishi, Sangardak daryosi mavjlari, kislorodga boy betakror tabiatdan baxramand bo‘lish, sayyohlarga sog‘ligini tiklash uchun maqbul joy hisoblanadi.

Demak Janubiy O‘zbekistonda tibbiy turizimni rivojlantirishning imkoniyatlari O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi manbalariga ko‘ra, faqat undan samarali foydalanishda turistlarni joylashtirish va ovqatlantirish, transport xizmatini ko‘rsatish, umuman olganda xizmat ko‘rstish sohalarini shakllantirish asosiy omil hisoblanadi. Bu sohalarning rivojlanishi natijasida quyidagi ishlarni amalga oshirish zarurdir:

- Janubiy O‘zbekistonda yetakchi tibbiyot muassasalari tibbiy turizm salohiyatini qo‘shni davlatlarda ham keng targ‘ib qiluvchi tadbirlar uyushtirish hamda turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- mintaqada mavjud yirik davlat va xususiy tibbiyot muassasalari bilan birgalikda konferensiya, ilmiy tadbir va o‘quv seminarlarini o‘tkazish;

- mintaqaning yirik tibbiyot muassasalari faoliyati hamda ularda ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar orqali qo‘shni davlatlardagi turoperatorlar va OAV larni yaqindan tanishtirish maqsadida infoturlar va uchrashuvlar tashkil etish orqali ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar bilan yaqindan tanishtirish

- O‘zbekiston tibbiyot turizm xalqaro forumi, ko‘rgazma va xalqaro tadbirlar tashkil etilishi nazarda tutish va Janubiy mintaqalar salohiyatini namoyish qilish;

Shuningdek, tibbiyot turizmi yo‘nalishidagi xorijiy sayyohlarni (davolanuvchi va hamrohi) keng jalb qilish maqsadida “hospitality xizmatlari"ni yo‘lga qo‘yish

hamda “Medical visa” qo‘shimcha (elektron bo‘lmagan) kirish vizasini joriy etish choralarini ko‘rish kabi zaruriy vazifalar belgilangan. Buning natijasida bevosita:

- Aholi salomatligi yaxshilanadi;
- Yangi ish o‘rinlari ochilsa hududdagi aholi ish bilan ta’minlanadi;
- Turizm infratuzilmasi shakllanadi va h k.

Hozirgi vaqtda jamiyat dam olish joyini tanlashda cheklanmagan, butun dunyoda juda ko‘p turli xil variantlar mavjud. Odamlar o‘zlarining afzalliklari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, mamlakatni, shaharni, turar joyni va qo‘shimcha xizmatlar to‘plamini mustaqil ravishda tanlashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022-2026 йилларга мўлжалланган “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси президентининг фармони ПФ-60 сонли. 2022-йил. 28-январ.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezdentining “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish” bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-335-sonli qarori. 2024-yil 23-sentiyabr
3. Bookman M. & Bookman K. medical tourism in Developing Countries. New York: Palgrave MacMillan, 2007.
4. Samandarov O.A. “Turizm bozorida tibbiy turizmning tutgan o‘rni va O‘zbekistonda sohani rivojlantirish uchun xorij tajribalarini qo‘llash”, 2022.
5. История медицинского туризма. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://ru.health-tourism.com/medical-tourism/history/ (дата обращения 20.09.2016 г.).
6. История медицинского туризма. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://ru.health-tourism.com/medical-tourism/history/ (дата обращения 20.09.2016 г.).
7. New Study Reveals Wellness Tourism“. SRI International (2013-yil 31-oktyabr). 2014-yil 16-dekabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2014-yil 16-dekabr.
8. T.J.Jumabayev, U.A.Rustamov. Janubiy O‘zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari // Zamonaviy geografik tadqiqotlar: nazariya, amaliyot, innovatsiya. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari I-QISM Samarqand, 2023 yil 12-13 may, 255-259 betlar.

SHAHARLARNING IQTISODIY-IJTIMOIY RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Joniqulov Behzodbek Ravshan o‘g‘li,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
joniqulovbegzod30071998@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170635

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shaharlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Shaharlarni o‘rganishda geografik yondashuv va uning uslubiy masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shaharlarning mamlakat va mintaqalar iqtisodiyotidagi o‘rni hamda roli tizimli ravishda tahlil etiladi. Urbanizatsiya jarayonining asosiy omillari va rivojlanish yo‘nalishlari ilmiy asoslangan holda yoritiladi. Tadqiqot natijalari shaharlar rivojlanishining samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *Shahar rivojlanishi, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot, geografik tahlil, urbanizatsiya, mintaqaviy iqtisodiyot, boshqaruv mexanizmlari.*

Shaharlar jamiyatning hududiy tashkil etilishining ijtimoiy-iqtisodiy hamda tarixiy-madaniy shakli sifatida uzoq yillardan beri tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ularning paydo bo‘lishi, faoliyat yuritishi va rivojlanishi turli fanlar – ijtimoiy fanlar bilan bir qatorda iqtisodiyot, geografiya, demografiya, tarix, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa ko‘plab sohalar tomonidan o‘rganiladi. Shaharlar nihoyatda murakkab va ko‘p qirrali tizim bo‘lib, ularni jamiyatning milliy miqyosdagi tuzilmalari bilan qiyoslash mumkin. Shaharlarning mazmunini, ularning qanday ishlashini va rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tushunish nafaqat mavjud shahar muammolarini hal qilishga, balki kelajakda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan ko‘ra bilishga ham katta imkoniyat yaratadi[1].

Geografik nuqtai nazardan **“shahar”** — bu ma’lum bir hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarga ega bo‘lgan aholi yashash joyi bo‘lib, unda aholi zichligi yuqori, infratuzilma rivojlangan va turli xizmat ko‘rsatish sohalari jamlangan bo‘ladi. Shaharlar tashqi ko‘rinishi, hajmi, murakkablik darajasi va aholi punktlarining rivojlanish xususiyatlari jihatidan juda xilma – xil bo‘lgan umumiy nomdir. Ammo ularning umumiy xususiyati shundaki, shaharlar hunarmandchilik mehnatini qishloq xo‘jaligidan ajratish natijasida paydo bo‘lgan[2]. Shahar faoliyatning ixtisoslashuvini chuqurlashtirishga imkon berdi va keyinchalik uning turli turlarini birlashtirishga yordam berdi. Eng umumiy yondashuvga ko‘ra, shahar aholisi asosan qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan mehnat bilan shug’ullanadigan aholi punktidir. Rossiya Granat bibliografiya instituti tomonidan nashr etilgan XX asr boshidagi entsiklopedik lug'atida shahar “turli ijtimoiy munosabatlar evolyutsiyasi asta-sekin qishloq aholi

punktlari toifasidan ajratib turadigan maxsus turar-joy turi” deb ta’riflanadi. “Buyuk rus entsiklopediyasi” da taqdim etilgan “shahar” tushunchasini shakllantirish yondashuvini hisobga olgan holda : “shahar-bu qishloq xo‘jaligidan hunarmandchilikni ajratish, sinflar va davlatning paydo bo‘lishi natijasida ibtidoiy kommunal tuzumdan qullarga egalik qilish tizimiga o‘tish davrida tarixiy ravishda shakllangan aholi punkti”[3].

Shuningdek, shaharlarning paydo bo‘lishi, “tabiiy materiallardan (tosh, yog‘och, suyak) sun’iy – modifikatsiyalangan materiallarga (pishiq g‘isht, metall) o‘tish jarayoni” bilan ham bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, shaharlarning shakllanishi va tarqalishini tub jihatdan yangi turdagi aholi punktlari sifatida jamiyatning yangi ehtiyojlariga javob sifatida ko‘rib chiqish mumkin. O. Shpengler shaharlar haqida mulohaza yuritar ekan, “sivilizatsiya” atamasini madaniyat jamiyatidan ajralib chiqadigan rivojlanish darajasini ifodalash uchun qo‘llaydi. O. Shpenglerning fikricha, shahar sivilizatsiyaning mohiyatini aks ettiradi. Bu, avvalo, shaharga madaniyatning “o‘lik” shakllarining timsoli sifatida qarash bilan bog‘liqdir. Ulkan shaharlar sivilizatsiyaning rivojlanishining oxirgi bosqichi bo‘lib, shu bilan birga o‘z me’moriy konturlarida sivilizatsiyaning madaniy noyobligini aks ettiradi[4]. G. Gegel va O. Girke shaharlarni avvalo siyosiy-huquqiy tuzilmalar sifatida ko‘rib chiqqanlar. Bu nuqtai nazar o‘rta asr davridagi G‘arbiy Yevropaning ko‘plab shaharlarining holatini aks ettiradi, ular zamonaviy ma’noda xususiy mulk bo‘lmasa ham, yirik feodallarning merosiy mulklari bo‘lgan[5]. K. Byuxer va G. Maurer shaharlarning asosiy funksiyasi “mudofaa” ekanligini ta’kidlaganlar. Ularning fikriga ko‘ra, shaharlar tashqi tajovuzlardan himoya qiluvchi ijtimoiy tashkilot sifatida paydo bo‘ladi, o‘sadi va rivojlanadi. Buni ko‘plab arxeologik ma’lumotlar, shahar rejalari va o‘rta asr shaharlarining qoldiqlari tasdiqlaydi, ularning asosiy elementlari qal’a devorlari, xandaqlar va vallardan iborat. M.Veber shaharni yirik, nisbatan izolyatsiyalangan va alohida joylashgan aholi punkti sifatida ko‘rib chiqgan. U yerda turli xil binolar va uylar bir-biriga juda yaqin joylashgan bo‘lib, qo‘shnilar jamiyatiga xos bo‘lgan shaxsiy tanishuv mavjud emas edi. Qo‘shimcha xususiyatlar sifatida, shaharning boshqa turdagi aholi punktlaridan farqini ko‘rsatib, M.Veber shahar aholisi faoliyatining katta xilma-xilligini (asosan qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalarda) va muntazam ravishda tovar ayirboshlash amalga oshiriladigan bozorni – daromad manbai hamda aholining ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida belgilaydi[6]. Sotsiolog L.B.Kogan shaharlarning rivojlanishiga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni aniqlab, “shahar” fenomenining shakllanishi va rivojlanishi asosida yotuvchi ijtimoiy jarayonlarning intensivligi va samaradorligi sharti sifatida turli soha va faoliyat turlarining integratsiyasi hamda kontsentratsiyasi zarurligini asoslagan[7].

Yu.A.Levada shaharni jamiyatni ijtimoiy tashkil etish va hayotiy faoliyatini hamda madaniyati nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadi. Birinchi holatda shahar ijtimoiy tuzilmalar, guruhlar va rolli funksiyalarning kontsentratsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi holatda esa shahar madaniy qadriyatlar, namunalari va insoniy faoliyatning muayyan me’yorlari markazi bo‘lib, ularning amalga oshirilishi “vaqtlarning aloqasi”ni ta’minlaydi hamda jamiyatning uzluksiz takror ishlab chiqarilishi va rivojlanishiga xizmat qiladi[8].

Jamiyat taraqqiyotining XIX asrida aholining qishloqlardan shaharlarga ko‘plab ko‘chib borishi, yirik shaharlar sonining ko‘payishi, shahar aholisi salmog‘ining ortib borishi va qishloq joylarga shahar turmush tarzi hamda madaniyatining kirib borishi bilan bog‘liq bo‘lgan shaharlashuv jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlana bordi. 1800-yilda yer shari aholisining 3 %, 1900-yilda 13,6 foizi shaharlarda yashagan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich deyarli 55 % tashkil etdi, 2050-yilga kelib bu ko‘rsatkich Birlashkan Millatlar Tashkiloti bo‘yicha 68% bo‘lishi prognoz qilinmoqda, XIX asr boshida jahon urbanizatsiyasining asosiy manzarasini ko‘rsatuvchi aholi soni 100 mingdan ziyod shaharlar 65 ta bo‘lgan bo‘lsa, keyingi asrda ular 360 ta va XXI asr bo‘sag‘asida 2000 dan ortdi. Millioner shaharlar esa hozirgi kunda 468 ta, 5 milliondan ortganlar- 65 ta, 10 mln. dan ortgan shaharlar -22 ta bo‘ldi. Xususan, dunyoning qator rivojlangan davlatlarida urbanizatsiya jarayoni tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Masalan, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Belgiya kabi rivojlangan davlatlarda urbanizatsiya darajasi 80-90 foizga etdi.

1920-yillarda shaharlarning dinamik rivojlanish modellari ishlab chiqila boshlandi. Misol tariqasida grek arxitektori K. Doksiadis tomonidan yaratilgan dinapolis modelini, N. Ladovskiyning Moskva shahrini Leningrad yo‘nalishida rivojlantirish loyihasini yoki Parij shahrini parallel ketgan o‘qlar bo‘ylab yo‘naltirish hamda kontrmagnit markazlar paydo qilish sxemalarini aytish mumkin. 1940-yillarda shaharshunos olim Le-Korbyuze o‘z ishlarida asosiy “yadro”ga xizmat qiluvchi barcha narsalarni, shu hududdagi yerni ham kiritadi. P.Kortsuelli va B.Malishning ishlarida faqat aholi yashaydigan va ishlaydigan joylarning yig‘indisi sifatida qaraladi. J.Forrester yirik shaharlarning dinamik rivojlanishini tizimli tahlil va EHM asosida modellashtirib, uzoq muddatga prognozlashtirgan[9].

Ayni vaqtda shaharlar yagona iqtisodiy geografik o‘rin, iqtisodiy makon, bozor muhitini ham bildiradi. Ularda yagona investitsiya muhiti, ekologik, nozogeografik va kriminogen vaziyat ham vujudga keladi. Xususan, shahar yagona sotsial muhit ekanligini ta’kidlash lozim. Chunki shaharda o‘ziga xos yashash sharoiti, kishilarning haftalik mehnat –hayot faoliyati sodir bo‘ladi.

Xulosa. Shaharlar jamiyatning hududiy tashkil etilishining asosiy shakllaridan biri bo‘lib, ularning rivojlanishi iqtisodiyot, geografiya, tarix va sotsiologiya kabi turli fanlar doirasida keng tadqiq etiladi. Urbanizatsiya jarayoni sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarining o‘sishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, aholi zichligi va infratuzilma rivojlanishining ortishiga olib keladi. Shaharlarning shakllanishi hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligi mehnatining ajralishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, hozirda ular global iqtisodiyotning muhim markazlariga aylangan. Tadqiqotchilar tomonidan shaharlarning mudofaa, siyosiy-huquqiy va iqtisodiy markaz sifatida tutgan o‘rni haqida turli nazariyalar ilgari surilgan. Zamonaviy urbanizatsiya jarayoni jadal rivojlanib, XXI asrga kelib jahon aholisi orasida shahar aholisining ulushi sezilarli darajada oshgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chengri Ding, Shih-Kung Lai, Ming-Shen Wang. Global Urbanization and Urban Management // Journal of Urban Management. 2012. Volume 1. Issue 1. Pages 1-2.
2. Сологуб В.А., Хашева И.А. Муниципальное управление и местное самоуправление в крупных городах: абстракции и реальность // Государственное и муниципальное управление: ученые записки СКАГС. 2007. №2. С. 64-72.
3. Большая советская энциклопедия. (в 30 томах). 3-е издание, т.7. - М.: «Советская энциклопедия», 1972. С. 321.
4. Шпенглер О. Закат Европы: Очерки морфологии мировой истории. - Т. 2: всемирно - исторические перспективы / [Пер. с нем. и примеч. И. И. Маханькова]. - М.: Мысль, 1998.
5. Нещадин А., Горин Н. Феномен города: социально-экономический анализ. - М.: Изограф, 2001. 239 с.
6. Вебер М. Избранное. Образ общества. – М.: Юрист, 1994.
7. Коган Л.Б. Урбанизация и социально-функциональные исследования в градостроительной науке // Сборник научных трудов «Урбанизация и формирование систем расселения. – М.,1978. С. 30.
8. Левада Ю.А. Статьи по социологии. – М., 1993.
9. Форрестер Дж. Динамика развития города.М.: Прогресс, 1974. -287.

IMOM BUXORIY YODGORLIK MAJMUASINI ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Yormamatov Shohboz Zafar o‘g‘li,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
Samarqand shahar
yormamtov@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170645

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Imom Buxoriy yodgorlik majmuasining ziyorat turizmini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasida turizmni, xususan, ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar va ularning natijalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, Imom Buxoriy hayoti va ilmiy merosi haqida ma’lumot berilib, uning qabri joylashgan hududning turistik salohiyati yoritiladi. Maqolada ziyorat turizmini yanada rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar ham ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar*: Imom Buxoriy, ziyorat turizmi, turizm infratuzilmasi, madaniy meros, islomiy ziyoratgohlar.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль и значение мемориального комплекса Имама аль-Бухари в развитии паломнического туризма. Рассматриваются принятые в Республике Узбекистан решения по развитию туризма, в частности паломнического туризма, и их результаты. Также представлена информация о жизни и научном наследии Имама аль-Бухари, а туристический потенциал территории, где находится его мавзолей, подробно освещается. В статье предложены рекомендации и меры для дальнейшего развития паломнического туризма.*

Ключевые слова: *Имам аль-Бухари, паломнический туризм, туристическая инфраструктура, культурное наследие, Узбекистан, исламские святыни.*

Annotation. *This article analyzes the role and significance of the Imam al-Bukhari Memorial Complex in the development of pilgrimage tourism. The decisions adopted in the Republic of Uzbekistan for the development of tourism, particularly pilgrimage tourism, and their outcomes are examined. Information about Imam al-Bukhari’s life and scholarly legacy is provided, along with an assessment of the tourism potential of the area where his mausoleum is located. The article also presents recommendations and proposals for further development of pilgrimage tourism.*

Keywords: *Imam al-Bukhari, pilgrimage tourism, tourism infrastructure, cultural heritage, Uzbekistan, Islamic pilgrimage sites.*

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 16 avgustdagi “2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida mamlakatimizda turizm industriyasini jadal rivojlantirish uchun qisqa muddatda eng qulay shart-sharoit yaratish yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faolllashtirish aniq qilib belgilab berilgan.Qarorga muvofiq ziyorat turizmini rivojlantirish, unda xorijlik turistlar, ya’ni ziyoratchilar uchun viza, ro‘yxatdan o‘tish tartiblari soddalashtirilishi belgilab berilgan[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-sonli farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilingan.Ushbu qarorning 1-bandida “Tashrif buyuruvchilar uchun shart-sharoitlar yaratilishi rejalashtirilgan turizm salohiyati yuqori bo‘lgan madaniy meros obyektlari ro‘yxati”, Xorijiy tillarga tarjima qilinadigan va targ‘iboti keng amalga oshiriladigan, allomalar va ziyoratgohlar to‘g‘risidagi filmlar ro‘yxatini ishlab chiqish haqidagi ustuvor vazifalar belgilangan[2].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 828-son qarori “Imom Al-Buxoriy” majmuasiga tutash hududlarni turizm infratuzilmasini qurish, shuningdek, ziyoratchilar va turistlar uchun qo‘shimcha qulayliklar, shu jumladan “halol” standarti bo‘yicha umumiy ovqatlanish obyektlari, diniy marosimlar va dam olish uchun joylar yaratish bilan birgalikda rivojlantirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan[3].

Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda xalqaro turistik tashriflar soni 1,3 mlrd. ga, soha tushumlari esa 1,4 trln. AQSh dollariga yetdi va bu pandemiya (COVID-19) dan oldingi davr ko‘rsatkichlarining mos ravishda 88 foizi hamda 93 foizini tashkil etadi. 2023-yilgi xalqaro turistlar soni ko‘rsatkichlari 2022-yil (960 mln. turist) bilan taqqoslaganda 35 foiz, turizm sohasi daromadlari esa, 28 foizlik o‘sishni qayd etdi. Ayrim hisob-kitoblarga ko‘ra 2025-yilga kelib xalqaro turistlar soni 1.7 mlrd. turistni tashkil etishi bashorat qilingan[4].

Mamlakatimizda hozirgi vaqtda turizmni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ziyorat turizmini rivojlantirish haqida gap ketar ekan,butun dunyoga mashhur bo‘lgan, islom svilizatsiyasi yirik markazlaridan biri hisoblanmish Imom Buxoriy yodgorlik majmuasining o‘rni benihoya ahamiyatli sanaladi. Imom Buxoriy majmuasi ma'muriy-hududiy bo‘linish jihatidan Samarqand viloyati, Payariq tumani Xartang qishlog‘i hududida joylashgan.

Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi islom olamida yuksak e'tiborga ega bo‘lgan ziyoratgohdir. Musulmon olamining taniqli muhaddisining to‘liq ismlari Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Imom al-Buxoriy 810 yilda Buxoroda Poykant qishlog‘ida tavallud topgan.

Imom Buxoriy 16 yoshida onasi va akasi Ahmad bilan xaj safariga yo‘l oladi. Xaj ibodatlaridan so‘ng onasi va akasi bilan Makka shahrida xayrlashadi va Payg‘ambar Muhammad (S.A.V) ning sahih (ishonchli) hadislarini to‘plash maqsadida Arabistonda qoladi. Imom Buxoriy qariyb 40 yil davomida 20 dan ziyod

yurtlarda bo‘lib mingdan ziyod ustozlar qo‘lida tahsil oladi va Payg‘ambarimiz (S.A.V)ning 600 000 dan ortiq hadislarini yig‘ishga muvofaq bo‘ladi.

Imom Buxoriy (Imomud dunyo, fil hadis) hadis ilmida dunyo imomi, (Amiril mo‘miniyn fil hadis) hadis mulkining amiri nomli unvonlarni olib, 40 yillik safardan keyin ona yurti Buxoroga qaytadi. Ma’lum muddat muhaddis o‘z vatani Buxoroda ko‘plab shogirdlar va ulamolarga xadis ilmidan saboq berish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ma’lum sabablarga ko‘ra Imom Buxoriy Samarqand tomonga yo‘l oladi va bir qancha muddat shahar yaqinidagi Xartang qishlog‘ida qarindoshi G‘olib ibn Jabroilnikida yashaganidan keyin xastalikkaga chalinib, milodiy 870 yil 1 sentyabrida vafot etadi va shu qishloqqa dafn qilinadi. Uning qabri barcha mo‘min-musulmonlar uchun tabarruk ziyoratgoh, sevimli qadomjolardan hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq O‘zbekiston “Jahon musulmon sayyohlari indeksi” reytingida 10 pog‘ona (32-o‘rindan 22-o‘ringa) ko‘tarilib, Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo mamlakatlar o‘rtasida musulmon sayyohlarni jalb qilayotgan “Eng jozibador” hamda “Xavfsizlik va bag‘rikenglik darajasi yuqori” bo‘lgan 10 mamlakat qatoridan o‘rin egalladi.

Hadis ilmining buyuk muhaddisi, vatandoshimiz Imom Buxoriy hazratlari islom dunyosida nechog‘lik yuqori martabaga ega bo‘lishlariga qaramasdan, sobiq ittifoq davrida o‘zining munosib qadr-qimmatini topmagan siymolardan biri edi. Eng ayanchlisi, xorijiy o‘lkalarda, ayniqsa, arab dunyosida yuksak extirom, cheksiz mehr-muhabbatga sazovor bo‘lgan alloma o‘z yurtida e'tibordan chetda qolgan edi. Buyuk muhaddisning hayoti va bebaho merosi deyarli o‘rganilmas, alloma dafn etilgan maskan tashlandiq holatda bo‘lganligini mahalliy aholining yoshi ulug‘lari yaxshi eslashadi.

Mustaqilligimiz sharofati bilan xalqimizning ma'naviy hayotida ulkan tarixiy o‘zgarishlar yuz berdi. Buyuk vatandoshimiz Imom Buxoriyga munosabat ham batamom o‘zgardi. Uning asarlari har tomonlama o‘rganilib, keng jamoatchilikka taqdim qilinayotir. Jumladan, allomaning shoh asarlari “Al-Jome as-sahih” (4 jildlik) hamda “Al-adab al-mafrad” to‘lig‘icha o‘zbek tiliga o‘girilib, keng kitobxonlar ommasiga taqdim etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1997 yil 29-apreldagi “Muhammad ibn Ismoil Imom al Buxoriy tavalludining xijriy 1225 yilligini nishonlash va uni o‘tkazish to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq bu yodgorlik majmui O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligida yaratilgan.

Hozirda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan Imom Buxoriy majmuasi yangidan qurilmoqda. Maqbara maydoni 600 kvadrat metr, balandligi 28 metr holatda kengaytirildi.10 ming kishiga mo‘ljallangan masjid qurilib tashqi

pardozlash ishlari jadal davom ettirilmoqda. Majmuaning 4 burchagida 75 metrlik minoralar mavjud. Bugungi kunda qurilish va muhandislik ishlari bitkazilib, pardozlash bosqichi boshlangan. Bunda milliy an’analar va issiq ranglarga alohida e’tibor berilgan[5].



1-rasm.Yangi qad roslayotgan Imom Buxoriy majmuasi 28.06.2024-yil.

Respublikamizda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz. Jumladan:

- **“Ziyorat odobi” bo‘yicha qo‘llanmalar** – ziyoratchilar uchun o‘zbek, rus, ingliz va arab tillarida ma’lumot beruvchi yo‘riqnomalar tayyorlash;
- **Malakali xizmat ko‘rsatish xodimlari** – ziyoratchilarga xizmat ko‘rsatuvchi gid va mehmonxona xodimlarining maxsus o‘qitilishini ta’minlash;
- **Ziyoratchilar uchun maxsus mobil ilova ishlab chiqish** – ziyorat maskanlari haqida batafsil ma’lumot, yo‘nalishlar, audio gid va boshqa xizmatlarni o‘z ichiga olgan ilova yaratish;
- **Mahalliy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash** – ziyoratchilar uchun milliy hunarmandchilik mahsulotlari va suvenirlar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarni rag‘batlantirish;
- **Ekologik toza muhitni ta’minlash** – ziyoratgohlar atrofini toza saqlash, chiqindilarni qayta ishlash tizimini joriy etish;
- **Xalqaro reklama va targ‘ibot ishlari** – O‘zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish, hujjatli filmlar, turistik sayohatlar va ommaviy axborot vositalarida maxsus ko‘rsatuvlar tayyorlash.

Xulosa o‘rnida Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi nafaqat islom olamining muqaddas ziyoratgohlaridan biri, balki O‘zbekistonning ziyorat turizmi markazlaridan biri sifatida ham muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda infrastrukturani rivojlantirish, turistlar uchun qulay shart-sharoit yaratish, turistik obyektlarni targ‘ib qilish muhim o‘rin tutadi.

Imom Buxoriy majmuasi nafaqat diniy, balki ilmiy va madaniy meros maskani sifatida ham katta salohiyatga ega bo‘lib, xorijiy va mahalliy ziyoratchilar oqimini jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Majmuaning rekonstruksiyasi va kengaytirilishi turizm sohasi rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Prezidentning 16.08.2017 yildagi PQ-3217-son “2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-sonli farmoni\
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi. Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 828-son qarori.
4. https://www.unwto.World Tourism Barometer and Statistical Annex
5. Kun.uz rasmiy sayti 26.08.2024-yil.

O‘ZBEKISTONDA TASHKILLASHTIRILGAN MEHNAT MIGRATSIYASINING RIVOJLANISHI

Xursanov Sadriddin Mo‘min o‘g‘li,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasi doktoranti
Toshkent. Elektron pochta: sxursanov@gmail.com

Jo‘rayeva Shaxlo Abdurayimovna,
Denov tumani 2-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internatining geografiya fani o‘qituvchisi
Denov. Elektron pochta: shahlojorayeva40@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170655

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston aholisi tashqi migratsiyasida tashkillashtirilgan holda amalga oshrilayotgan mehnat migratsiyasining yillar davomida rivojlanib borishi tahlil etilgan. So‘ngi yillarda mamlakatimiz aholisi ham tashqi migratsiyada xususan mehnat migratsiyasida faol bo‘lgan mamlakatlar toifasiga kiradi va o‘z navbatida tashqi mehnat migratsiyasida mamlakat aholisining geografiyasi kengayib bormqda. Mustaqillikning dastlabki yillarda O‘zbekiston aholisi asosan Rossiya Federatsiyasi va qisman Qozog‘istonga mehnat qilish uchun borishgan bo‘lsa bugungi kunda yangi yo‘nalishlar ochildi va bu davom etmoqda. Bunga esa qator omillar jumladan mamlakatda migratsion islohatlarning o‘rni beqiyosdir, Natijada mamlakatimiz aholisi ko‘plab xorij davlatlariga tashkillashtirilgan holda mehnat qilib kelishmoqda.*

Kalit so‘zlar: *migratsiya, migrant, tashqi migratsiya, mehnat migrantlari.*

Mamlakatimiz katta miqdorda ishchi kuchiga ega bo‘lganligi bois mavjud ishchi kuchidan samarali foydalanish va ularning bandligini oshirish uchun hukumat tomonidan bir qancha qarorlar va farmonlar imzolanib amaliyotga tadbiq etilgan. Natijada bugungi kunda mamlakat fuqorolari bir qancha xorij mamlakatlariga tashkillashtirilgan holda mehnat amaliyotlarini o‘tab kelishmoqda va bunday mamlakatlar soni yil sayin oshib borayotganligini ko‘rish mumkin va bu albatta mehnat migratsiyasini ijobiy tomonga o‘zgarayotganligidan dalolatdir.

Mamlakat aholisi tashqi migratsiyasining rivojlanishida mamlakatimiz Prezidenti tomonidan imzolangan quyidagi 2021-yil 30-iyul, PQ-5205-son, 2020-yil 5-sentabr, PQ-4829-son, 2018-yil 5-iyul, PQ-3839-sonli qarorlarning ijrosi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi [1,2,3]. Natijada tashqi migratsiyada tashkillashtirligan mehnat migratsiyasini amalga oshirish va fuqarolikni rasmiylashtirish yanada takomillashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga qaraganda 2010 va 2015-yillarda mamlakatimizdan tashkillashtirilgan holda asosan uchta mamlakatga mehnat migrantlari yuborilgan. Bu ko‘rsatkich 2020-yilga kelib sezilarli

darajada o‘sib bunday mamlakatlar soni 14 taga yetganligini ko‘rish mumkin. 2024-yilda esa mamlakatimizdan tashkillashtirilgan holda jami 16 ta uzoq va yaqin mamlakatlarda mehnat qilib kelishmoqda. Lekin mamlakatlar va viloyatlar o‘rtasida ham tashkillashtirilgan mehnat migrantlarining soni bo‘yicha sezilarli farqlar mavjud.

1-jadval

O‘zbekiston aholisi tashkillashtirilgan holda eng ko‘p mehnat qilish uchun boradigan mamlakatlar. 2024-yil. (foiz hisobida)

№	Hududlar	Koreya Respublikasi	Rossiya Fedratsiyasi	Buyuk Britaniya
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	3	10,6	3,4
2	Andijon	12,3	7,3	5,1
3	Buxoro	1,7	6,3	2,6
4	Jizzax	7	5,2	4
5	Qashqadaryo	14,2	9,3	4,5
6	Navoiy	1,4	4,5	2,7
7	Namangan	13,2	14,5	5,3
8	Samarqand	7	6,2	25
9	Surxondaryo	15,4	5,4	2
10	Sirdaryo	2,5	4,1	5
11	Toshkent	1,8	5,7	12
12	Farg'ona	12,8	10,4	3,4
13	Xorazm	4,7	3,6	22
14	Toshkent sh.	3	6,9	3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi

Statistik ma’lumotlarga qaraganda bugungi kunda O‘zbekiston fuqorolari tashkillashtirilgan holda mehnat migratsiyasini amalga oshirib kelayotgan mamlakatlar soni 2024-yil holatiga ko‘ra jami 16 ta mamlakatda mehnat qilishgan. Fuqorolarning jami soni esa 14418 kishini tashkil etadi. Bundan demak 6,2 foizi ayollar va qolgan 93,8 foizini erkaklar tashkil etadi. Tashkillashtirilgan mehnat migrantlari eng ko‘p boruvchi mamlakatlar qatoriga Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya va Koreya Respublikasi turadi. Ushbu uch mamlakatga jami tashkillashtirilgan mehnat migrantlarining 90% foizi to‘g‘ri keladi. Mos ravishda ushbu mamlakatlarga 3080, 5342 va 4625 kishi tashkillashtirilgan holda mehnat amaliyotini o‘tab kelishmoqda. Lekin viloyatlarning ulushi turlichadir misol tariqasida olaylik Koreya respublikasiga tashrif buyuradigan mehnat migrantlarining eng qismi Surxondaryo viloyati jami Koreyaga ketuvchilarning 15,4 foizi ushbu viloyatga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari Farg‘ona vodiysi viloyatlari va Qashqadaryoning ham ulushi yuqori hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichda eng pastki

o‘rinlarda esa Navoiy, Toshkent va Sirdaryo viloyatlari bo‘lib mos ravishda jami Koreyaga ketuvchilarning 1,4 foiz,1,8 foiz va 2,5 foizni tashkil etadi. Tashkillashtirilgan holda mehnat qilish uchun mamlakatimiz fuqarolari eng ko‘p boradigan mamlakatlardan yana bir bu Rossiya Federatsiyasi hisoblanadi. Ushbu mamlakatga O‘zbekiston aholisining juda katta qismi mehnat qilish uchun tashrif buyursada bularning juda ozchilligi tashkillashtirilgan holda amalga oshriladi. Milliy statistika qomitasi ma’lumotlariga qaraganda 2024-yilda Rossiya federatsiyasida mamlakatimizning 1 mln 146 ming aholisi mehnat qilmoqda[6]. Tashkillashtirilgan holda mehnat qiluvchilar jami Rossiyaga ketuvchilarnining hatto bir foizni ham tashkil etmaydi 2024-yilda ushbu raqam 0,5 foizni tashkil etadi. Ko‘rinib turibdiki ushbu raqam juda kichik, fikrimizcha tashkillashtirilgan holda mehnat qiluvchilarning ulushini ko‘paytirish kerak. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra 2024-yil tashkillashtirilgan holda Rossiya Federatsiyasiga mehnat qilish uchun ketuvchilarning eng qismi Namangan viloyatiga to‘g‘ri keladi 14,6 foizni tashkil etadi. Keyingi o‘rinlarda Qoraqalpog‘iston respublikasi va Farg‘ona viloyatiga to‘g‘ri keladi mos ravishda 10,6 foiz, 10,4 foizni tashkil etadi. Eng kam ulushga ega viloyat esa Xorazm hamda Sirdaryo viloyatlari bo‘lib mos ravishda 3,6 foiz va 4,1 foizni tashkil etadi.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda migratsiya sohasida amalga oshrilgan islohatlar natijasida mamlakatimiz aholisi Yevropa mamlakatlariga ham tashkillashtirilgan holda mehnat qilishlari uchun sharoitlar yaratilmoqda. 2024-yil hisobi bo‘yicha tashkillashtirilgan holda mehnat qiluvchilar soni bo‘yicha Buyuk Britaniya ham yetakchi mamlakatlar qatoriga kirdi. Ushbu mamlakatga 2024-yilda jami 4625 kishi tashkillashtirilgan holda mehnat qilib kelishmoqda va ko‘rsatkich bo‘yicha Rossiyadan keyingi o‘rinda turadi. Buyuk Britaniyada tashkillashtirligan holda mehnat qiluvchilar soniga ko‘ra mamlakatimizda Samarqand jami mehnat migrantlarining 25 foizi va Xorazm 22 foiz viloyatlari yaqqol ajralib turadi. Eng kam ko‘rsatkichga ega viloyatlar esa Surxondaryo va Navoiy viloyatlari hisoblanadi. Mos ravishda ushbu viloyatlarga jami Buyuk Britaniyaga mehnat qilish uchun ketayotganlarning 2 va 2,7 foizi to‘g‘ri keladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra tashkillashtirilgan mehnat migrantlarining mehnat faoliyatlari migrantlarning borayotgan mamlakatlari kesimida ham farqlarga ega. Jumladan, Rossiya Federatsiyasiga borayotgan migrantlarimiz asosan qurilishda, Koreya respublikasida esa sanoatda, Buyuk Britaniyada qishloq xo‘jaligida va Boltiqbo‘yi mamlakatlarida esa asosan transport va aloqada band hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki mamlakatimiz aholisi tashqi migratsiya jarayonlari rivojlanishda davom etmoqda. Bugungi kunda mamlakat mehnat migrantlari 30 ga yaqin mamlakatda, tashkillashtirilgan holda esa 16 ta mamlakatda mehnat qilib

kelishmoqda. Natijada mamlakatimizga mehnat migrantlari tomonidan keladigan valyuta miqdori ham o‘sib bormoqda. Shu bilan birgalikda aytish joizki mamlakat mehnat migrantlari uchun yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-iyuldagi PQ-5205-sonli qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4829-sonli qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyul, PQ-3839-sonli qarori
4. Imomova.N.A. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi shakillanishining o‘ziga xos xususiy xususiyatlari va muommolari. ILMIY AXBOROTNOMA IQTISODIYOT 2020-yil, 2-son.
5. Tojiyeva Z.N., Xursanov S.M., Pardayev N.S., MIGRATSIYA JARAYONI TURLARINING TASNIFI. O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti 66-jild, 2024-yil.
6. O‘zbekiston migratsiya ma’lumotlari bo‘shliqlarini tahlil qilish Toshkent-2024.
7. https://stat.uz/uz/

MOYNAQ RAYONÍNÍŃ EKONOMIKALÍQ MÚMKINSHILIKLERINEN NÁTIYJELI PAYDALANÍW

Tólebaev S.S.,
Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı Geografiya oqıtıw metodikası kafedrası stajyor oqıtıwshısı

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170663*

Annotaciya. *Bul maqalada Moynaq rayonınıń social-ekonomikalıq rawajlandırıwǵa baylanıslı is-ilájlar hám olardıń nátiyjeli sheshim jolları haqqında sóz baradı.*

Gilt sózler: *Moynaq rayonınıń tariyxiy dáwirlerdegi social-ekonomikalıq jaǵdayı, Aral ekologiyalıq zonası, social-ekonomikalıq rawajlandırıw, rayonnıń ekonomikalıq múmkinshilikleri*

Moynaq rayonı aymaǵı óziniń bay tariyxına iye. Rayonnıń qáliplesiwi Aral teńizi menen tuwrıdan – tuwrı baylanıslı bolıp keledi. Aral teńizi tolıp tasıp turǵan dáwirlerde aymaqta jergilikli xalıq balıqshılıq hám sharwashılıq penen shuǵıllanadı. Balıqshılıq tarawı A.I.Butakov (1848-1849 – jıllar) hám L.S.Berg (1898-1903 hám 1906-jıllar) lerdiń Aral boyın izertlewleri tiykarında bir qansha jaqsı rawajlanadı. Sebebi, bul alımlar evropa hám arab izertlewlerine qaraǵanda aymaqtı kompleks túrde úyrenedi.

Moynaq rayonı tariyxına názer awdaratuǵın bolsaq, rayonnıń social – ekonomikalıq baǵdarlarınıń rawajlanıwınıń ámeliy kórsetkishleri uzaq jıllar dawamında ámelge asırılǵan bolsa, ayrımları qaǵaz júzinde ǵana qalǵan. 1552 – jıllar shamasında patsha Ivan Grozniy dáwirinen 1930 – jıllar aralıǵında rus balıqshılarınıń ústemligi. Bunda jergilikli xalıq rus balıqshılarınan aw quralların ijaraǵa alıp paydalanǵan bolıp, ózlerine tiyisli úlesi kún kóris ushın ǵana jarap turǵan [3].

1931 – jıldan soń Moynaq balıq konserva kombinatı iske túsiriliwi jergilikli xalıq tumısında aytarlıqtay ózgerislerdi payda etti. Lekin 1975 – jılǵa kelip teńiz suwınıń tartılıwı kombinattıń awhalın awırlastıradı. 1980-1985-jıllar aralıǵında Aral teńizi suwlarınıń sezilerli dárejede kemeyiwi, al 1990-2001 jıllar aralıǵında keskin suwsızlıq sebepli jergilikli xalıqtıń mexanikalıq háreketi arta basladı (1960-jılları 33 milletke jaqın xalıq jasaǵan, 1960-1990 jılları 15 mıń adamǵa qısqarǵan) [2] . Bul dáwirlerden soń Moynaq rayonnıń social–ekonomikalıq jaǵdayı tómenlep ekologiyalıq awır shárayatta qaldı. Aral apatshılıǵın saplastırıwǵa baǵdarlanǵan is – ilájlar bolsa, aymaq turmıs – shárayatın kewildegidey ózgerte almadı. Usınday, derlik insanlar itibarınan shette qalıp atırǵan Moynaq rayonın kompleks túrde rawajlanıwına Prezidentimiz Sh.Mirziyoev basshılıq etpekte.

Rayondı kompleks túrde rawajlandırıw ushın baǵdarlamalar islep shıǵıldı. Nátiyjede rayonǵa ishimlik suwı tartılıdı. Balıqshılıq kombinatı, Moynaq aeroportı qayta rekonstrukciyalanıp, qalada zamanagóy obyektler boy tikledi. Rayonnıń social – ekonomikalıq shárayatın rawajlandırıwǵa qaratılǵan baǵdarlamalar tiykarında isbilermenlerdi qollap – quwatlaw haqqında prezidentimizdiń pármanı menen 2031-jıl 1-yanvarǵa shekem Qaraqalpaqstan Respublikasınıń Moynaq rayonındaǵı jergilikli

sanaat, awıl xojalıǵı hám xızmetler tarawlarındaǵı isbilermenlik subektleri ushın payda salıǵı, aylanıstan alınatuǵın salıq, sociallıq salıq, fizikalıq shaxslardan alınatuǵın usı salıqlar boyınsha esaplanǵan summadan 1% muǵdarında belgilew názerde tutılǵanlıǵı isbilermenlik tarawınıń rawajlanıwına imkániyat jaratadı. Sol tiykarda rayonda isbilermenlik tarawı rawajlanbaqta. [1]

Rayondı elede jedel rawajlandırıw barısında awıl hám mákán puqaralar jıyınlarınıń qánigelesiwi hám rawajlanıw drayverleri islep shıǵılǵan.

Moynaq MPJ - xızmet kórsetiw
Aral MPJ - xızmet kórsetiw
Jayhun MPJ - xızmet kórsetiw
Tallıózek MPJ - xızmet kórsetiw
Doslıq MPJ - islep shıǵarıw hám turizm
Tikózek APJ - diyxanshılıq hám sharwashılıq
Úshsay APJ - islep shıǵarıw
Bozataw APJ - qurılıs materialları sanaatı
Mádeli APJ – sharwashılıq
Hákim ata APJ - sharwashılıq
Qızıljar APJ - sharwashılıq
Qazaqdárya APJ – balıqshılıq.

Usı tiykarda rayonnıń ekonomikalıq baǵdarlarınıń rawajlanıwı kózde tutılǵan.

Juwmaq retinde Moynaq rayonınıń ekonomikalıq múmkinshiliklerine tómendegishe analiz bersek boladı.

SWOT-analizi

STRENGTH (Kúshli tárepi)	**WICKNESS (Kúshsiz tárepi)**
- Rayon aymaǵında 50 mıń gektar qamıs shiyki ónimi bazasın esapqa alǵanda qurılıs materialları sanaatın rawajlandırıw.	- Rayonda gósh, sút hám miywe-palız ónimlerin qayta islew kárxanaları joq ekenligi;
- Balıq jetistiretuǵın suw háwiz maydanı 66, 1 mıń.ga bolıp, suw háwizlerde jılına 5,0 - 5,3 mıń. tonna balıq jetistireledi.	- Rayonda aymaǵında xalıq aralıq temir jol tarmaǵı hám stanciyası joq ekenligi;
- Rayonda eksport kóleminiń tiykarǵı bólegin artemiya cistası quraydı.	
- Rayon aymaǵında sapalı gaz hám gaz kondensatları kánleri bar ekenligi.	
- Jolawshı tasıwshı Moynaq aeroportı bar ekenligi	
OPPORTUNITY (Múmkinshilik)	**THREATS (Qáwip)**
- Rayon aymaǵında sharwashılıq tarawın rawajlandırıw ushın jetkilikli dárejedegi jaylaw maydanlarınıń bar ekenligi.	- Sanaat kárxanalarınıń shiyki ónim bazasın basqa aymaqlardan alıp keliwi
- Moynaq rayonında isbilmenlik júrgizetuǵın isbilermenler ushın salıq jeńilliklerinıń bar ekenligi.	- Respublika paytaxtı Nókis qalasınıń uzaqlıǵı sebepli alıp kelinetuǵın tovarlardıń transport qárejetleri kópligi.
- Jasalma háwizlerdi payda etip, balıqshılıqtı rawajlandırıw múmkinshiligi bar.	- Ekologiyalıq zonada jaylasqanlıgı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2017-jıl 28-fevralda «Qaraqalpaqstan Respublikasınıń Moynaq rayonın 2017-2018-jıllarda sociallıq-ekonomikalıq rawajlandırıw hám xalıqtıń bántligin támiyinlewge baylanıslı qosımsha ilajlar haqqında» ǵı qabıl etiligen qararı.
2. Ж. Уббиниязов. «Түслик Аралда балық аўлаўшылық ҳәм балық санаатын раўажландырыўдың гейпара мәселелери». Нөкис. 1961 ж.
3. Рафиков А. Орол тақдири. Т.: Фан, 1990. – 120 б. 3. Ходжаева Г.А., Орынбаев Н. Мойнақ районының социал-экономикалық жағдайы // Биология, география, экология ҳәм топырақтаныў тараўларының актуал мәселелери. Илимий семинар топламы. – Нөкис, 2017. – Б. 73-75.
4. Turdimambetov, I., Joldasov, A., Iskenderov, A., & Uzaqbaev, Q. (2022). Qaraqalpaqstannm ekonomikaliq ham socialliq geografiyasi.
5. Uzakbaev K. K., Qurbaniyazov Q. A., Xidirbaeva N. A. GEOGRAPHICAL LOCATION OF OIL-GAS RESOURCES THE REPUBLIC KARAKALPAKSTAN AND THEIR USE IN INDUSTRY //Экономика и социум. – 2023. – №. 3-2 (106). – С. 325-328.
6. Uzakbaev K. K., Uzbekistan K., Nukus Baltabaev O. O. GEOGRAPHICAL BACKGROUND OF ARAL GEO-ECOLOGICAL DISASTER //Доктор экономических наук, профессор ЮВ Федорова Доктор философии педагогических наук (PhD), доцент, Мухаммадиев КБ Доктор социологических наук, доцент ТВ Смирнова. – 2023. – С. 3.
7. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИ ГЕОГРАФИЯСИДА ЯРАТИЛГАН НАЗАРИЯЛАР ТАҲЛИЛИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 919-929.
8. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛЛАШТИРИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 233-240.
9. Узакбаев К. К. ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 845-857.
10. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.
11. Раджапов М.Я., Ешпанова Г., Матмуратов Е.Р. Локальные геоэкологические проблемы и их последствия. – Международный научно-практический журнал «Экономика и социум». 03(118) 2024.
12. Eshimbetov U. et al. Territorial composition of agriculture in the Aral Sea Region of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 510. – С. 01040.
13. Ешимбетов У., Наурузбаева Г., Дальжанов К. Методические вопросы анализа и прогнозирования индустриального развития региона с учетом рационального использования минеральных ресурсов //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 532-540.
14. Ешимбетов У. Х. Формирование точек производственного роста на базе минерально-сырьевых ресурсов как совершенствование территориальной организации промышленности региона (на примере Республики Каракалпакстан) //Экономика и предпринимательство. – 2017. – №. 11. – С. 232-237.
15. Раджапов М. Я., Умаров Е. К., Искендеров А. Б. Қорақалпоғистон ҳудудининг географик ўрганилиш тарихи //Ўзбекистон география жамияти ахбороти. – Т. 22. – С. 74-76.
16. Radjapov M. et al. Qoraqalpogiston hududining tabiati va tabiiy boyliklarining geografik organilish tarixi //in Library. – 2021. – Т. 21. – №. 4. – С. 56-57.

17. Искендеров А. Б., Абдираманов Б. С. У. ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИДАГИ ТАБИИЙ ГАЗ КОНЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 335-339.
18. Вахобов Х. В. Вахобов Улугбек Хурбоевич, Искендеров Алишер Базарбаевич. Типизация горнодобывающих и горно-перерабатывающих сооружений по степени их влияния на окружающую среду //Табиий географиянинг регионал муаммолари Илмий конференция материалари тўплами. – 2002. – С. 103-105.
19. Умаров, Е. К., Искендеров, А. Б., Раджапов, М. Я., & Айтуганова, А. К. Қорақалпоғистон Республикаси халқ хўжалигини ҳудудий такомиллаштириш муаммолари. *Ўзбекистон География жамияти ахбороти*, *22*, 57-59.
20. Искендеров А. Б., Абдираманов Б. С. У. ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИДАГИ ТАБИИЙ ГАЗ КОНЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 335-339.
21. Iskenderov A. B. GEOGRAPHICAL LOCATION OF CONSTRUCTION RAW MATERIAL RESOURCES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-2. – С. 150-153.
22. Iskenderov A. B. THE CURRENT STATE OF USE OF NATURAL GAS FIELDS IN THE ISLET REGION OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-2. – С. 139-142.
23. Искендеров А. Б., Раджапов М. Я., Жолдасов А. К. КоракалпоҒистон Республикасини географик районлаштиришда табиий ресурсларнинг ахамияти //Табиий ва иктисодий географик районлаштиришнинг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари.-Т.: УзМУ. – 2004. – С. 85-87.
24. Вахобов Х., Искендеров А. Б., Саидкаримова З. С. Научно-методические основы изучения основных тенденций изменения литогенной основы ландшафтов в горнопромышленных районах //Ўзбекистон География жамияти ахбороти. – Т. 23. – С. 14-15.

JERGILIKLI TOPONIMLER (KEGEYLI RAYONÍ MÍSALÍNDA)

Saliyev E.P,
Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Jumatov J.B.
Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170675

Kegeyli rayonı Qaraqalpaqstan Respublikasınıń paytaxtı Nókis qalasınıń arqa tárepinde jaylasqan. Orayı Kegeyli qalashası. Nókis, Shımbay, Qaraózek, Nókis rayonı hám Bozataw rayonları menen shegaralas. Rayonǵa boysınıwshı 1 qala Xalqabad qalası, 8 awıl puxaralar jıyını, 8 máhelle puxaralar jıyınına bólingen.

Rayon tariyxına qaraytın bolsaq XX ásirde hám XXI ásirdiń basında Kegeyli rayonınıń shegarası sol rayon bolıp dúzilgenli berli bir neshe márte ózgergen. 1928-jıl 6-avgust óz aldına rayon bolıp dúzilgen kúni dep esaplanadı. 1959-jılı Kuybishev rayonı Kegeylige qosılıp onıń territoriyası jánede úlkeydi. 1969-jılı Kegeyli rayonınan tiykarınan tolıǵı menen Nókis rayonı, 2019-jılı Bozataw rayonı bólinip shıqtı hám olar hazirgi kúni óz aldına rayon sıpatında rawajlanıw jolında. Rayon jer maydanı tolıǵı menen Ámiwdáryanıń oń jaǵına jaylasqan bolıp, ol 920 kvadrat kilometr jerdi iyeleydi Arqadan qublaǵa 40 kilometr, Shıǵıstan batısqa 100 kilometrden ziyat, aralıqqa sozılǵan.

Kegeyli rayonındaǵı toponomikalıq atamalar gáp bolǵanda birinshi gezekte onıń etimologiyasına úlken dıqqat awdarıladı. Olar haqqında gúrriń hám ápsanalar da bar, ilimiy miynetlerde de jazılǵan. Burın usı átirapta Kurder degen dárya taqlettegi aǵǵar bolǵan. Ol haqqında talay pikirler bar. Solarǵa súyenip aytatuǵın bolsaq Qaraqalpaqlardıń XVIII ásirde usı házirgi átirapqa qaytadan tiykarlı túrde bekinisiwinen (dáslepki posıw Shıńǵıs xan basqınshıları jábirinen bolǵan) Kegeyli ataması jáne de kóbirek tilge alına baslaǵan. Sol esaptan qaraǵanda Kegeyli kanalı – aǵǵarı burınnan bar bolıwı kerek. Al, Kegeyli dep aytılıwınıń mánisi kanal boyı hám onıń átirapında qalıń Kegey aǵashları ósken. Olar tiykarında Kegey eli yamasa Kegeyli atalıp ketken, degen pikirler bar. Akademik S.Kamalovtıń 1953-jılı shıqqan miynetinde*: Kegeyli áyyemgi dáwirlerden berli kiyatırǵan atı emes ol XVIII ásirdiń baslarında qaraqalpaqlardıń usı kanal boyına kóship kelip, qonıs basqannan keyin atalǵan bolsa kerek. Qaraqalpaqlar bul jerge kóship kelgennen keyin, olar Kegeylinıń saǵasın jańadan qazıp aladı* degen pikirleri bar.

Biz bul miynetimizde Kegeyli rayoni aymaginda jaylasqan ayrım toponimlerge sıpatlama beriwge háreket qıldıq.

Kegeyli – ótken ásirlerde házirgi Kegeyli kanalın qazǵan waqıtları sol kanaldıń jaǵalarına kóplep Kegey terekleri otirǵizilǵan. Soniń ushında bul kanaldıń atın jergilikli xalıq Kegeyli dep atap ketken. Kegey terektiń mıqlı, bekkem bolǵanlıǵı

sebepli burınları adamlar arbaǵa gúpshek retinde hám taǵi basqada kerekli jerinde paydalanǵan. házirgi waqitta bul atama rayonniń da, sovxozdiń da atına berilgen.

Xalqabad – Erterekte revolyutsiya jılları yaǵnıy 1917-1919-jılları baspashılardan qorǵanıw ushın qamal bolıp, qalada bazar payda bolǵan eken. Jergilikli xalıq «Jawdan aman qaldıq, elimiz abad boldı» dep qalanıń atın «Xalqabad» qoyǵan eken.

Júzim baǵ - Xalqabad qalasinan 10 laǵan km uzaqliqta, Nókis-Shimbay joliniń shiǵis tárepinde, erterekte úlken júzim baǵı bolǵan. Ol jerler óziniń júziminiń kópligi menen elimizge jayılıp ketken. Házirgi waqıtta ol jerdiń júzimleri joq bolıp ketken. Biraqta házirge shekem ol jerdi Júzimbaǵ dep ataydı.

Mámleketimizde kompetenciyalıq qatnasqa tiykarlanǵan bilimlendiriw standartı, Milliy oqıw baǵdarlamalarınıń engiziliwi, ulıwma orta bilim beriw mektepleri oqıtıwshıları aldına úlken wazıypalardı qoymaqta. Bul wazıypalardı orınlaw ushın oqıwshılardı bilimli, átirapımızda júz berip atırǵan waqıyalardı tez hám real bahalaytuǵın, sonday-aq, hár qanday mashqala boyınsha durıs sheshim qabıl ete alatuǵın shaxslar etip tárbiyalawımız zárúr. Sebebi, Mámleketlik bilimlendiriw standartınıń tiykarǵı maqsetinde ulıwma orta bilim beriw sistemasın mámlekette ámelge asırılıp atırǵan social-ekonomikalıq reformalar, rawajlanǵan shet el mámleketleriniń aldınǵı tájriybeleri, ilim-pán hám zamanagóy informaciya-kommunikaciya texnologiyalarına tiykarlanǵan halda shólkemlestiriw, ruwxıy barkamal hám intellektual rawajlanǵan shaxstı tárbiyalawdan ibarat ekenligi belgilep berilgen. Bul maqsetti ámelge asırıwda oqıwshılarǵa tayar oqıw materialları emes, al bilimdi ózleri iyelewge, alǵan teoriyalıq bilimlerin oqıwshınıń kúndelikli turmısında qollana alıwına baǵdarlanǵan, sonday-aq, kreativ hám sınlı pikirlew kónlikpelerin qáliplestiriwshi tapsırmalardı, olardıń orınlanıwın qadaǵalawǵa kóbirek itibar qaratıw talap etilmekte.

Sonlıqtanda mámleketimizdiń tálim-tárbiya processinde pedagogikalıq innovaciyalardı keń kólemde qollaw, bilimlendiriw sıpatın asırıwdıń nátiyjeli jollarınıń biri bolıp esaplanadı. Pedagogikalıq innovaciyalar kóleminiń artıp barıwı, mámlekette modernizaciya processleri tez pát penen rawajlanıp atırǵan bir dáwirde bilimlendiriw tarawına jańalıqlardı sistemalı tárizde kirgiziwge óz aldına itibar qaratılmaqta. Hámmemizge belgili búgingi bilimlendiriw sisteması eski mazmundaǵı oqıw baǵdarlamalarınan waz keship, innovaciyalıq sanlı ekonomika hám málimleme jámieti ushın kadrlar tayarlaw imkaniyatın beretuǵın oqıtıw sistemasına ótpekte. Sonlıqtanda usıǵan sáykes tárizde bilim beriwge kózqaraslar da ózgerip, internet hám málimleme texnologiyaları sebepli oqıtıwshılar ápiwayı bilim beriwshiden, shólkemlestiriwshige yaki baǵdar beriwshige aylanbaqta. Interaktiv metodlar basqa

metodlar sıyaqlı oqıw shınıǵıwınıń quram bólegi sıpatında oqıtıwshı hám oqıwshınıń birge islesiwin shólkemlestiriwge járdem beredi. Yaǵnıy, texnologiyalıq procestiń tolıq ámelge asırılıwı ushın xızmet etedi. Interaktiv metodlardıń tiykarǵı ózgesheligi hám áhmiyeti sonda oqıwshılardı aktivlestiriw hám pikirlewdi rawajlandırıwǵa imkaniyat beriwinde. Biraq interaktiv metodlardan paydalanamız dep oqıwshılarǵa tek tapsırma berip erkin qoyıw da orınlı emes, sebebi interaktiv metodlar jana bilimlerdi beriwge xızmet etpeydi. Mine sonlıqtanda sabaq dawamında bir neshe ásirlerden berli qollanılıp kiyatırgan sáwbet, gúrriń, túsindiriw, kórsetiw, didaktikalıq oyın sıyaqlı metodlardı shetke shıǵarıp taslay almaymız [1]. Sebebi bul metodlardan da kópshilik jaǵdaylarda taza temanı túsindiriw basqıshında paydalanamız.

Mámleketlik bilimlendiriw standartında kórsetip berilgenindey basqa ulıwma bilim beriw pánleri menen bir qatarda geografiya páninde de oqıtıwdıń tiykarǵı maqseti-oqıwshılarda tayanısh hám pánge tiyisli ulıwma kompetenciyalardı qáliplestiriwden ibarat [2]. Bul pánge tiyisli kompetenciyalardıń elementleri milliy standart dárejesi kóleminde oqıwshılarda geografiya pánin ózlestiriw barısında qáliplesip barıwı kerek. Bizińpikirimizshe házirgi waqıtta ulıwma orta bilim beriw mekteplerinińmuǵallimlerinen kóbirek óz ústinde izleniwin talap etedi. Mine sonlıqtanda oqıtıwshılar arasında hár qıylı usıllarda tájiriybe almasıwlar maqsetke muwapıq dep esaplayman. Interaktiv metodlar tiykarında ótilgen sabaqlardı shólkemlestiriw procesinde hár bir oqıwshı sabaqqa tolıq qamtıp alınadı yaǵnıy olar kórgen, bilgen, oylaǵan pikirlerin ashıqtan-ashıq bildiriw imkaniyatlarına ie boladı. Oqıwshılar birge islesiwde óz-ara bilimleri, ideyaları menen almasadı, olarda óz-ara doslıq múnásibetleri júzege keledi. Bunıń tárbiyalıq áhmiyeti de júdá úlken. Oqıtıwshı interaktiv sabaqlardı shólkemlestiriwde oqıw procesinde jeke tártipte, juplıqta hám kishi toparlarda islew, olardıń óz betinshe kishi toparlarda izleniwine tiykarlanǵan joybarlar dúziwi, rolli oyınlar, hújjetler menen islew, ǵalaba xabarlardan paydalanıp islew imkaniyatları artadı. Tek ǵana bul metodlardı óz ornında sheberlik penen durıs paydalana alsa oqıwshılar aktivligin asırıp nátiyje beredi. 4 Stanciya metodinda oqıwshılar kishi toparlar arqalı, sabaq temasınıń túrli táreplerin arnawlı shólkemlestirilgen stanciyalarda úyrenetuǵın interaktiv qatnas bolıp tabıladı. Hár bir stanciyada belgili bir tapsırma yamasa qandayda bir iskerlikke baǵdarlanadı hám oqıwshılar izbe-izlik penen barlıq stanciyalarda jámáát bolıp jumıs alıp baradı.

Ulıwma orta bilim beriw mekteplerinde 7-klassta “Materikler hám okeanlar tábiyiy geografiyası” kursında “Geografiyalıq kartalar” babın úyreniwde 4-Stanciya metodınan paydalanıw usılın kórsetip ótpekshimiz. Bunıń ushın 4-Stanciya bolıp hár

bir stanciya ushın hár qıylı tapsırmalar beriledi [3]. Oqıwshılar toparlarǵa bólinedi hám hár bir stanciyadaǵı tapsırmalardı orınlaydı. Al, oqıtıwshı hár bir stanciyadaǵı tapsırmaǵa belgili bir waqıttı ajıratadı. Belgilengen waqıt juwmaqlanǵannan soń oqıtıwshı oqıwshılarǵa stanciyaǵa keldik endi keyingi stanciyaǵa ótemiz dep orınların ózgertedi. Solay etip, oqıwshılar hár bir stanciyadaǵı tapsırmalardı orınlap shıǵadı. Soń oqıtıwshı oqıwshılarǵa óz mánzillerine kelgenligin anıqlap tapsırmalardı birge analiz qıladı. Bunda tapsırmalardı hár bir stanciyaǵa tómendegishe tayarlasaq boladı:


1-Stanciya. Masshtabqa tiyisli esaplardı isleń.

Tapsırma: 1. Oqıwshı A noqattan B noqatqa 360° lı azimut boynsha 110 metr júrdi. Ol B noqattan D noqatqa shekem 90° lı azimut boyınsha 420 metr, D noqattan E noqatqa bolsa 135° lı azimut boyınsha 300 metr, E noqattan F noqatqa shekem 45° lı azimut boyınsha 200 metr júrdi. Oqıwshı júrgen joldı 1:10 000 sxemalıq tárizde súwretleń.

2. Globusta A hám B noqatlar arasındaǵı aralıq 41 km ge teń. Sol aralıqtı 1:500 000 masshtabta dápterińizge tuwrı sızıq kórinisinde túsiriń.

2-Stanciya. Dáreje torı járdeminde noqattıń qaysı yarım sharda jaylasqanlıǵın anıqlań.

Tapsırma:1.Tómendegi sızılmalardan paydalanıp, D hám N noqatlar qaysı yarımsharlarda jaylasqanlıǵın anıqlań:



2. Tapsırma. Tómendegi geografiyalıq koordinatalarda qaysı geografiyalıq obyektler jaylasqanlıǵın anıqlań:

a. 11° qubla keńlik hám 143° shıǵıs boylıq;

b. 39° qubla keńlik hám 146° shıǵıs boylıq;

d. 12° arqa keńlik hám 72° batıs boylıq;

e. 5° qubla keńlik hám 81° batıs boylıq.


3-Stanciya. Ámeliy jumıs.

Tapsırma. Sabaqlıq hám de oqıw atlasındaǵı maǵlıwmatlar tiykarında tómendegi tapsırmalardı orınlań.

a) “Tańlań” bántinen paydalanıp qatardı toltırıń: Geografiyalıq keńlikler globusta parallellerge ..... qaptalına jazıp qoyılǵan graduslar járdeminde anıqlanadı. Geografiyalıq boylıqlar bolsa ..... ústine jazıp qoyılǵan graduslar járdeminde bilip alınadı.

Tańlań: Bas meridian, ekvator sızıǵı.


b) tómedegi súwretke dıqqat penen qarań hám A, B, D hárepler menen belgilengen meridianlardı Bas meridianǵa eń jaqın jaylasqanınan uzaǵına qarap kestege jaylastırıń.



Jaqınnan uzaǵına ⟶		

4-Stanciya. Bálentlikler hám tereńlikler shkalasın anıqlań.

1-Tapsırma. Bálentlikler shkalasınan paydalanıp jer betindegi biyik hám teńiz túbindegi tereńlik diapazonların anıqlań. Hárbir diapazon ushın reń hám biyiklik/tereńlik aralıǵın jazıń.



2-Tapsırma. 0 m den (teńiz qáddinen) 200 m ge shekem bolǵan orınlar kartada qanday reńler menen kórsetiledi hám bul jerler qanday ataladı.

Solay etip 4 stanciya metodi zamanagóy bilim beriw procesinde joqarı nátiyjelilikke iye bolgan interaktiv usıllardan biri. Bul metodınıń abzal tárepi sonda oqıwshılar passiv emes, al ámeliy qatnasıwshılar bolıp hár bir stanciyada óz betinshe jumıs isleydi, analiz hám tájiriybe tiykarında bilim aladı. Toparlarda islew arqalı oqıwshılarda óz pikirlerin erkin bildiriw, sóylesiw hám bir-birinen úyreniw imkaniyatına iye bolıp birge islesiw hám kommunikaciya kónlikpeleri payda boladı. Juwmaqlap aytqanda bul metod arqalı oqıwshılarda tereń bilim, erkin pikirlew hám sóylesiw kónlikpeleri rawajlanadı. Metodtiń beyimlesiwsheńligi oni túrli pánlerde hám hár túrli temalarda qollanıw imkaniyatın beredi. Sonday-aq, oqıwshılar XXI ásirde zárúr bolǵan turmıslıq kónlikpelerdi de payda etedi.

Paydalanǵan ádebiyatlar:

1. Умумий ўрта таълимда география фанини ўқитиш методикаси. Т-2020.
2. Ходжаева Г.А., Жиемуратова Г.О. География сабақларын оқытыўда өзбетинше тапсырмаларды пайдаланыўдың әҳмийети. // Илим ҳәм жәмийет, №2, 2020. 66-68 б.
3. Fedorko V.N., Safarova N.I., Ismatov J.A., Nazaraliyeva E.Ya.. Geografiya 10-klası ushın sabaqlıq- T-2022.

MEKTEP GEOGRAFIYASINDA DIDAKTIKALIQ QURALLARDAN PAYDALANIWDIŃ ÁHMIYETI

Gaypova Roza Tursinbaevna,
Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya oqıtıw metodikası kafedrası docenti, p.i.k.

Qallibekova Venera,
Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya hám ekonomikalıq bilim tiykarları bakalavr tálim baǵdarı studenti

Rajabova Mardona,
Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya hám ekonomikalıq bilim tiykarları bakalavr tálim baǵdarı studenti

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170742*

Búgingi kúnde tálimniń zamanagóy tálim qurallarınan paydalanıw tálim procesine olardı en jaydırıw dáwir talabı bolıp esaplanadı, biraq tálim sıpatın asırıwda hár bir pánniń ózine tán ózgeshelikleri bar. Geografiya páni sıyaqlı hesh bir pán kórgizbelilikti kóp talap qılmaydı. Onda úyreniletuǵın hár bir tema ushın tábiyattıń bir bólegi kórinisi yaki qandayda bir asbaplar kerek bolıp tabıladı. Sabaqtıń mazmunlı bolıwı ushın áne usı tábiyat bólegin klass xanasına kiritiwimiz lazım. Oqıwshılar biraz waqıt bolsada tábiyattıń qubılısları hám processleriniń guwası bolıwı múmkin. Bunıń ushın bolsa barlıq geografiya táliminde didaktikalıq kórgizbeli qurallar tayarlawdı puxta biliwimiz hám sınap kóriwimiz lazım.

Prezidentimiz búgingi kúnde jaslardı, ulıwma ilim-pán tarawı xizmetkerlerin, alımlar ósip jetilisken mámleketler ilimiy jámiyetshiliginiń itibar orayında turǵan, eń aldıńǵı, rawajlanǵan ilimiy izleniw hám ónimli jumısları elimizdi rawajlandırıwǵa baǵdarlap, usı maqsette Ilimler akademiyası hám joqarı oqıw orınları quramında laborotoriyalar payda etiw, olardıń mámleketlerdegi ilim-pán orayları menen nátiyjeli baylanıs ornatıw zárúrligine itibar qarattı.

Solay eken, ulıwma bilim beretuǵın orta mekteplerinde oqıwshılardıń geografiyalıq bilimlerin asırıw, pikirlew qábiletlerin rawajlandırıwǵa geografiya pániniń áhmiyeti úlken. Geografiya sabaqlarında oqıwshılardıń sanasın rawajlandırıw, ózi jasap turǵan aymaq hám basqa mámleketlerdiń geografiyalıq ornı, ıqlımı, tabiyiy sharayatı hám paydalı qazılmalardı biliwi, geografiyanı oqıp úyreniwdegi tiykarǵı wazıypalardan biri bolıp esaplanadı. Oqıwshılardıń tiykarǵı wazıypası bolsa, bulardan oqıw processinde tuwrı paydalanıwı bolıp tabıladı. Geografiya táliminde didaktikalıq qurallardan paydalanıw usılları hám jolların shólkemlestiriw procesinde oqıwshılardıń erkin pikirlew qábiletlerin rawajlandırıwǵa

erisiw imkanıyatları payda boladı. Sabaq barısında didaktikalıq qurallardan paydalanıw hám úyreniw kóp qırlılıǵı menen ajıralıp turadı.

Birinshiden, olarda pikirlew iskerligi jedellesedi, **ekinshiden,** oqıwshılarda dúnya qarastı qáliplestiredi, **úshinshiden,** yadı bekkemlenedi. Sonıń menen birge oqıwshılar hár bir tapsırmanı sheshiw menen birge bir neshe wazıypalardı orınlaydı. Máselen, modeller jasaw hám reńli porlardan paydalanıw hám tayarlaw usılları, applikaciyalar, pape-mashe hám gipstan qılınatuǵın jumıslar, relef, taw modellerin jasaw hám taǵı basqa. Didaktikalıq qurallardan geografiya sabaǵında beriletuǵın hár bir tapsırma aqlıy sıpatlardı rawajlandırıwǵa baǵdarlanǵan bolıwı kerek. Aqıl menen hár túrli mashqalalardı sheshiwdegi iskerligin ámelge asırırwda eń qolay tiykar bolıp xızmet etedi.

Geografiya taliminde didaktikalıq qurallardan paydalanıw usılları hám jolların úyreniw bilim, kónlikpe hám uqıpların asırıw maqsetinde oqıw processin tarbiyaǵa kiritilgen túrli bilim dereklerinde jánede jetilistiriwden ibarat.

Geografiya taliminde didaktikalıq qurallardan paydalanıw ushın oqıtıwshı kórgizbeli hám texnikalıq qurallardı tańlawda jáne paydalanǵanda oqıtıw procesi payda qılıw túrlerin, qollanatuǵın innovaciyalıq hám xabar texnologiyalar menen oqıtıw metodların esapqa alıw lazım. Tálim processinde joqarı natiyjeli bilim beriwi, oqıwshınıń qalewi, umtılıw, ózbetinshe pikirlewin támiyinlewge baǵdarlaw úlken áhmiyetke iye.

Geografiya táliminde didaktikalıq qurallardan paydalanıwdıń áhmiyeti hám paydalanıw usılları hám jolların úyreniw bilim, kónlikpe hám tájriybelerdi qáliplestiriw maqsetinde oqıw processine kiritilgen hár túrli bilim dereklerinde jánede rawajlandırıwdan ibarat.

Geografiya táliminde didaktikalıq qurallardan paydalanıw ushın oqıtıwshı kórgizbeli hám texnikalıq qurallardı tańlawda hám paydalanǵanda oqıtıw processin payda etiw túrlerin, qollanılatuǵın pedagogikalıq texnologiyalar menen oqıtıw metodların esapqa alıw lazım. Onıń tálim processine joqarı nátiyje beriwi, oqıwshınıń qálewi, umtılısı, erkin pikirlewdi támiyinlewge baǵdarlanıwı dástúriy áhmiyetke iye bolıp tabıladı. Demek, úzliksiz tálimniń barlıq basqıshlarında tálimdi rawajlandırıw, oqıtıw quralları oqıwshı iskerligine baǵdarlaw, oqıw-biliw iskerligin payda etiw hám onı basqarıw, shaxs kórinislerin qáliplestiriwge baylanıslı metodlardı qollap-quwatlawdı talap etedi.

Juwmaqlap aytqanımızda, geografiya táliminde didaktikalıq qurallardan paydalanıw sabaq nátiyjeligin jánede asıradı hám oqıwshılarda kónlikpe hám bilimlerdiń qáliplesiwine jaqınnan járdem beredi.

Paydalanǵan ádebiyatlar:

1. 1.Vahobov X.; Alimqulov N.; Sultanova N.Geografiya óqitish metodikasi Toshkent OOO «Aktiv print» 2021 359b.
2. 2.Bahromov Q.; Gaypova R.; Utepova G. Geografiya tálimida interfaol usullar Nukus. «Avangard- Baspa» 2022y.152b.
3. Matcaydova S. Geografiya ta`limida didaktik kórgazma qurollar tayyorlash(Oliy ta`lim yurtlarning geografiya ta`limi yónalishi talabalari uchun o`quv qo`llanma) Urganch 2004 y.58b.
4. Gaypova R. TRENDS IN ORGANIZING GEOGRAPHY LESSONS THROUGH UNTRADITIONAL METHODS //International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 1. – №. 2. – C. 1060-1063.
5. Tursinbaevna G. R., Muzapparovna T. Z., Turganbaevna K. M. The implementation of innovative technologies in teaching geography //International Journal of Pedagogics. – 2023. – T. 3. – №. 10. – C. 53-56.
6. Гайпова Р., Турдыбекова З., Байрамова А. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ГЕОГРАФИИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 1037-1041.

TALABALARNING GEOGRAFIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Matsaidova Sayyora Xudayberganovna,
Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, p.f.n.
e-mail: matsaidovasayyora@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170749

Madaniyat shaxsning butun ichki, mafkuraviy va axloqiy dunyosiga ta'sir qiladi: kelajakka intilishlar, qadriyatlar yo'nalishlari, qiziqish va ehtiyojlar, his-tuyg'ular va aql idrok mahsuli hisoblanadi. Bu ta'lim jarayonining barcha subyektlaridan yuqori darajadagi umumiy va maxsus madaniyatni talab qiladi, uning intensiv shakllanishi talabalik davrida sodir bo'ladi [1].

Zamonaviy dunyoda atrofdagi voqelikning dinamizmi va o'zgaruvchanligi shaxsning unda to'g'ri yo'naltirilishi, mazmunli xulq-atvori va o'z makonining ijodiy rivojlanishi, dunyodagi odamlarning madaniy xilma-xilligini va ularning Yerdagi potentsial hamjamiyatini tushunish va qadrlash, boshqa odamlarning kundalik hayotiga ta'sirini anglash va qadrlash qobiliyati uchun mas'ul bo'lgan bunday tarkibiy fazilatlarning namoyon bo'lishini tobora ko'proq talab qilmoqda. Bu shaxsning umumiy madaniyatida geografik komponentning kuchayishiga olib keladi [2].

Ko'pgina tadqiqotchilar, mashhur madaniyat va san'at arboblari umumbashariy madaniyatda geografik komponentiga katta ahamiyat berishgan: M.V. Lomonosov, A.N. Radishchev, N.V. Gogol, V.G. Belinskiy, N.A. Dobrolyubov, K.D. Ushinskiy, K.G. Paustovskiy va boshqalar; Geograf olimlari: D.N. Anuchin, L.S. Berg, N.N. Baranskiy , RM Kabo, Yu.G. Saushkin.

Ularning asarlari geografik madaniyat orqali tabiat va jamiyatdagi bir qator jarayonlar va hodisalarni tushunish, ijtimoiy ishlab chiqarishning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy asoslari bilan tanishish, odamlarning atrof-muhitdagi oqilona va axloqiy xulq-atvoriga yo'naltirilganligini amalga oshirish funktsiyasini bajarishga e'tibor qaratadi [3].

Madaniy yondashuv nuqtai nazaridan olib borilgan tadqiqotlar bu hodisani o'qituvchining kasbiy faoliyatining asosi, uning shaxsiy muhim fazilatlari (E.V.Bondarevskaya, I.F.Isaev, A.V.Mudrik, N.D.Nikandrov, V.A.Slastenin va boshqalar) shakllanishining ko'rsatkichi sifatida ko'rib chiqiladi.

Madaniyat hodisasining nazariy va uslubiy asoslari quyidagi pedagoglar asarlarida ko‘rib chiqilgan. Abulxanova-Slavskaya, A.I.Arnoldova, M.M.Baxtina, V.S.Biblera, M.C.Kogan, L.N.Kogan, E.S.Markaryana, M.K.Mamardashvili va boshqalar.

Geografiya fanining madaniy mazmunini o'rganishning zamonaviy davri “geografik madaniyat” tushunchasini o'rganishga qaratilgan bo'lib, u shaxs rivojlanishining xilma-xil xususiyatlari va parametrlarini aks ettiradi: geografik tafakkur, dunyo va uning qismlarining geografik manzarasini o'zlashtirish, bilish usullarini egallash, geografiya tili va boshqalar. Bunday tadqiqotlarni I.V.Barinova., I.P.Maksakovskiy va boshqalarning tadqiqot ishlarida ko’rish mumkin [4,5].

Shu munosabat bilan geografik madaniyatning mohiyatini anglashda yangicha yondashuvlar vujudga keldi. Uning umuminsoniy madaniyat uchun shakllantiruvchi ahamiyati uning qadriyatlarini anglash, dunyoni, o'zini - o'zi bilish, o'zi, tabiat va ushbu makonda yashovchilar bilan uyg'unlikda ushbu murakkab dunyoda o'z o'rnini topish qobiliyati sifatida tobora ko'proq ta'kidlanmoqda. Geografik jihatdan savodli, tafakkurli insongina o‘z ona tabiatining ulug‘vorligi va go‘zalligini ma’naviy quvvat va axloq manbai, milliy madaniyatning asosi sifatida anglab, o‘z yurti, o‘z mahallasining barcha muammolariga daxldor bo‘lib, ularni hal etishga intiladi [6].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunga qadar shaxsning geografik madaniyati mazmunini u yoki bu darajada tavsiflovchi ilmiy manbalar to'plangan. Shu bilan birga, uni oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar yetarli darajada rivojlanmaganligicha qolmoqda. Tadqiqotimiz davomida biz oliy o‘quv yurtlarida talabalarning geografik madaniyatini rivojlantirish nazariyasi va amaliyotida quyidagi qarama-qarshiliklarni aniqladik:



1-rasm. Talabalarning geografik madaniyatini rivojlantirish nazariyasi va amaliyotida aniqlangan qarama-qarshiliklar.

1. Shaxsning geografik madaniyati darajasiga qo'yiladigan talablar va uning tuzilishi, rivojlanish dinamikasi, diagnostikasi va shakllantirish texnologiyalari haqidagi ilmiy bilimlarning cheklangan darajasi o'rtasida;

2. Madaniy xilma-xillik kontekstida geografik ta'lim olish zarurati va ushbu madaniy xilma-xillikni tushunish, qabul qilish va qadrlash qobiliyati o'rtasida; odamlar va ular yashayotgan ijtimoiy sharoitlar haqidagi muqobil nuqtai nazarlarni his qilish va tushunish qobiliyati;

3. Talabalarning geografik madaniyatining ortib borishining ahamiyati va uni amalga oshirish uchun professional kompetentsiyaning etishmasligi o'rtasida. tadqiqot mavzusi tanlandi va muammo shakllantirildi [7,8]:

Talabalarning geografik madaniyatini rivojlantirish uchun bir qator pedagogik shartlar mavjud. Bu shartlar talabalar orasida geografik bilimlarni chuqurlashtirish, qiziqishlarini oshirish va ularning ijtimoiy-ma'rifiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarurdir.

- talabalarga geografik joylashuv, iqlim, va tabiiy resurslar haqidagi chuqur bilimlarni berish;
- har xil millat va xalqlarning madaniyatlari, tarixiy joylar va an'analar to'g'risida ma'lumotlar berish;
- o'quvchilarni muammolarni hal qilish orqali faol qatnashishga undovchi darslar tashkil qilish;.
- geografik mavzularni o'rganish jarayonida loyiha asosida ishlash;
- zamonaviy va sifatli manbalardan foydalanish;
- GIS, raqamli xaritalar va internet resurslari yordamida o'qitishni takomillashtirish;
- o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan tanishtirish.
- o'quv jarayonida talabalarni harakatga keltirish va motivatsiya berish.
- madaniyat va geografiya o'rtasidagi bog'lanish;
- o'quvchilarga turli madaniyatlarni o'rganishda geografik joylar bilan bog'langanligini ko'rsatish.
- talabalarning geografik bilimlarini va madaniyatga oid ko'nikmalarini baholash uchun aniq mezonlarni belgilash;
- talabalarga o'z bilimlarini mustaqil baholash imkoniyatini berish.

Talabalarning geografik madaniyatini rivojlantirish uchun ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, resurslar, o'qituvchilarning malakasi va baholash tizimlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu shartlar talabalar uchun geografiya va madaniyatni chuqurroq o'rganishga va ulardan keng foydalanishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdullaeva, S. Maktabda geografik ta'limni tashkil etishning asosiy tamoyillari. Toshkent: Fan. 2020
2. Aliyev, R.Geografik madaniyat va yoshlar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashri. 2018.
3. Jumaniyazov, A. Geografiyani o'qitishda innovatsion metodlar. Tashkent: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. 2019.
4. Qosimova, N. Talabalarda madaniy bilimlarni rivojlantirish. Buxoro: Buxoro davlat universiteti. 2021.
5. Yunusova, Z. Geografik madaniyat asosi: nazariya va amaliyot. Samarqand: SamDU. 2020.
6. Turdiev, O. Ta'limda madaniy tadqiqotlarning ahamiyati. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi. 2017.
7. Narbekov, M. Jahon madaniyati va geografiya ta'limi. Toshkent: Adabiyot Noshirligi. 2016
8. Xolmatova, Q. Geografik madaniyat va uning ta'limdagi roli. Nukus: Qoraqalpog'iston davlat universiteti. 2022.

GEOGRAFIYA TA’LIMI VA UNI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI MAKTAB DARSLARIDA FAOL QO‘LLASH VA ULARNING AHAMIYATI

Temirov Zokirjon Abdilvohidovich,
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti Geografiya kafedrasi dotsenti, g. f. f. d. (PhD), Andijon, O‘zbekiston,
e-mail: zokirjon82@mail.ru

Abdumannobova Xilolaxon Ikromjon qizi,
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti Geografiya mutaxassisligi magistranti, Andijon, O‘zbekiston,
e-mail: doniyorabdumalikov1@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170756

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi rivojlangan davrda Geografiya ta’limi va uni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni maktab darslarida faol qo'llash va ularning ahamiyati bilan bog‘liq masalalar negizida o‘rganishga qaratilgan. Har qanday ta’lim yoki tashkilotni innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin bo‘lganligi sababli bugungi davrda yangidan yangi texnologiyalardan foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda va shuningdek bir qator rivojlangan mamlakatlarda ham ta’limning turli texnologiyalari faol qo’llanilmoqda.Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarni mohiyati, omillari va shu kabi yangiliklarni xususan o‘rganish ketma ketligini kuchaytirish zarurligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsion texnologiyalar, platformalar, Interaktiv ta’lim platformalaridan foydalanish ,Mobil ilovalar va o‘quv dasturlari ,Virtual va ortografik haqiqat (AR/VR) texnologiyalarini qo'llash, O‘yinlar va gamifikatsiya, Internet resurslari va onlayn kurslar, Sinfdan tashqari faoliyatlar.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается активное использование инновационных технологий на школьных уроках и их значение в образовании по географии и ее преподавании в современную развитую эпоху. Направленное на обучение на основе вопросов, связанных с Поскольку трудно представить любое образование или организацию без инновационных технологий, использование новых технологий в настоящее время становится приоритетным, и различные образовательные технологии активно используются в ряде развитых стран. В данной статье подчеркивается необходимость усиления последовательности изучения сущности, факторов и нововведений инновационных технологий.*

Ключевые слова: *Инновационные технологии, платформы, Использование интерактивных образовательных платформ, Мобильные приложения и образовательные программы, Использование технологий виртуальной и орфографической реальности (AR/VR), Игры и геймификация, Интернет-ресурсы и онлайн-курсы, Внеклассная деятельность.*

Abstract: *This article aims to study the current situation of Geography education and the active use of innovative technologies in school lessons and their importance in teaching it in the modern era. Since it is difficult to imagine any education or organization without innovative technologies, the use of new technologies is becoming a priority in today's era, and various educational technologies are also actively used in a number of developed countries. This article*

emphasizes the essence, factors of innovative technologies, and the need to strengthen the sequence of learning such innovations in particular.

Keywords: *Innovative technologies, platforms, Use of interactive educational platforms, Mobile applications and educational programs, Use of virtual and augmented reality (AR/VR) technologies, Games and gamification, Internet resources and online courses, Extracurricular activities.*

Geografiya, tabiat va jamiyatni o‘rganish bo‘yicha fan bo‘lib, o‘quvchilarga dunyo haqida keng va chuqur tasavvur hosil qilish imkonini bermoqda. geografiya fanini o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini yanada samarali qilishga yordam beradi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga ko‘proq interaktiv va ijodiy yondashuvlarni taqdim etadi va ularning bilimlarini amaliyot bilan bog'lashga imkon yaratadi va o‘qitish jarayonini qiziqarli va faol qiladi.

1. Interaktiv ta’lim platformalaridan foydalanish Innovatsion texnologiyalarni geografiya o‘qitishida qo'llashning birinchi usuli - bu interaktiv ta’lim platformalaridan foydalanishdir. Misol uchun, **Google Earth** va **ArcGIS** kabi platformalar yordamida o‘quvchilar dunyo xaritalarini, shaharlar, davlatlar va tabiiy hududlarni virtual tarzda o‘rganishlari mumkin. Ushbu vositalar yordamida o‘quvchilar nafaqat xaritalarni ko‘rish, balki turli geografik obyektlarning joylashuvini va xususiyatlarini ham tahlil qilishadi. **Google Earth** dasturi orqali o‘quvchilar geografik obyektlar, ularning o‘zgarishlari va tabiiy resurslar haqida kerakli ma’lumot olishlari mumkin. Ular o‘zlari o‘rganayotgan hududlarni 3D ko‘rinishda ko‘rishlari mumkin, bu esa o‘qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

2. Mobil ilovalar va o‘quv dasturlari: Mobil ilovalar geografiya ta’limida samarali vosita sifatida ishlatilmoqda. **GeoGebra** yoki **iGeoGebra** kabi ilovalar matematik va geografik kontseptlarni o‘rganishga imkon beradi. Ular yordamida o‘quvchilar kartalar, grafikalarga asoslangan masalalarni yechish va turli geografik obyektlarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo'lishadi.Shuningdek, **Quizlet**, **Kahoot** kabi o‘quv dasturlari orqali geografiya bo‘yicha testlar va viktorinalar o'tkazish mumkin. Ushbu dasturlar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini tekshirishadi va yangi materialni qiziqarli tarzda o‘rganishadi.

3. Virtual va ortografik haqiqat (AR/VR) texnologiyalarini qo'llash; Virtual va ortografik haqiqat texnologiyalari geografiya ta’limida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. **Virtual haqiqat (VR)** orqali o‘quvchilar geografik joylashuvlarni, tabiiy ofatlar yoki ekologik tizimlarni haqiqiy holatda boshdan kechirishlari mumkin. Masalan, o‘quvchilar VR ko‘zoynaklarini taqib, biror bir manzara yoki mintaqaning tabiiy sharoitlarini real va batafsil ko‘rishlari mumkin. **Augmented Reality (AR)**

texnologiyasi yordamida esa o‘quvchilar real dunyo bilan birga, xarita, diagramma yoki boshqa o‘quv materiallarini ko‘rishlari mumkin. Bu texnologiya o‘quvchilarga ta’limni interaktiv va vizual tarzda o‘zlashtirish imkonini beradi.

4. O‘yinlar va gamifikatsiya: o‘yinlarni va gamifikatsiyani geografiya darslarida qo'llash o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. **GeoGuessr** kabi faol o‘yinlar yordamida o‘quvchilar geografik joylarni aniqlash orqali darsga qiziqish uyg'otadilar. Bu o‘yinlar orqali o‘quvchilar geografik bilimlarini amaliy tarzda oshiradilar.Gamifikatsiya geografiya fanining qiyin va murakkab mavzularini o‘quvchilarga oson va qiziqarli tarzda o‘rgatishga yordam beradi. O‘yin elementlari yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini sinab ko‘rishlari, jamoa bilan ishlashlari va maqsadlarga erishish uchun strategiyalar ishlab chiqishlari mumkin.

5. Internet resurslari va onlayn kurslar: geografiya bo‘yicha o‘quvchilar uchun onlayn kurslar va resurslar yaratish ham juda foydali. **YouTube** kabi platformalarda geografiya bo‘yicha turli mavzularni o‘rganishga qaratilgan videolarni ko‘rish va o‘rganish mumkin. Ushbu platformalarda o‘quvchilarga qarama-qarshi sharoitlarni va mintaqalardagi o‘zgarishlarni ko‘rsatib beradigan videolar bor. Bundan tashqari, onlayn kurslar, misol uchun , **Coursera** yoki **edX** kabi platformalarda geografiya faniga oid darslar va seminarlar ham mavjud.

6. Sinfdan tashqari faoliyatlar: innovatsion texnologiyalarni geografiya ta’limida qo'llashning yana bir muhim yo'nalishi - bu sinfdan tashqari faoliyatlarni tashkil etishdir. O‘quvchilar uchun internetda geografik tadqiqotlar, ekspeditsiyalar yoki turistik sayohatlar tashkil qilish mumkin. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni faoliyatli tashkil etish ta’limning zamonaviy vositalari, o‘qitish vositalari, ta’lim turlarining ta’lim vositalariga muvofiqligini ta’minlashga bog`liq. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda3. Shu o‘rinda «Interaktiv» dars metodini «interfaol» deb chala tarjimasini aytish mazmunan xato ekanligiga e’tiboringizni qaratmoqchimiz. «Interaktiv» so‘zi qo‘shma so‘z bo‘lib, agar tarjima qilish zarur bo‘lsa, unda har bir so‘zni tarjima qilish kerak. «Interaktiv» inglizcha «Interactive» so‘zidan olingan bo‘lib, «o‘zaro harakat va ta’sirlanish» degan ma’noni anglatadi. **Virtual safarlar** va **onlayn konferensiyalar** orqali o‘quvchilar o‘zlari qiziqadigan joylarga sayohat qilishlari mumkin.Sinfdan tashqari o‘yinlar o‘quvchilar ijodkorligini va ularning kayfiyatlarini ko’taradi va yangi darslarga energiya faoliyatini tikkalaydi. Darslarda foydalanadigan xar qanday interfaol metodlar ta’lim xarakteriga ega bo‘lib, o‘quvchilar bilimining mustaxkamlanishiga, aniqlashtirishga va kengayishiga, ularni

umumlashtirishga va tizimga solishga yordam beradi, jamiyat va tabiat xodisalariga qiziqishni oshiradi, o‘quv mazmuni manbalarni yanada mustaxkam tushinib, o‘quvchilar o‘zaro muxakoma asosida mustaqil fikrlash imkoniyatlari rivojlanadi. O‘qituvchi interfaol usullarni hamda didaktik o‘ynlarni o‘quvchilarning yoshini va mashg`ulotlarning maqsadini hisobga olgan holda tanlaydi. Umumlashtirish, taqqoslash muhimini nomuhimdan ajratish, bog`lanish va munosabatlar o‘rnatish, kuchi yetganicha xulosalar chiqarish talab etilgan o‘yinlar eng samarali hisoblanadi. Geografiya darslarida o‘quvchilarga ijodiy topshiriqlar berish orqaligina tabiat va jamiyat haqidagi bilim va tasavvurlari ortadi, o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, ularda mashg`ulotlarga qiziqish, aqliy qobilyati rivojlandi. Geografiya ta’limi va uni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, o‘quvchilarga bilimlarni interaktiv, qiziqarli va samarali tarzda o‘rganishga imkon beradi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, o‘zlarini geografiya olamiga yanada chuqurroq olib kiradi.

O‘qituvchilar uchun ham bu texnologiyalar o‘qitish usullarini yangilash, darslarni ko'proq interaktiv va vizual tarzda olib borish imkoniyatini yaratadi. Shunday qilib, innovatsion texnologiyalar geografiya ta’limida o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali, qiziqarli va zamonaviy qiladi. Olib borilgan tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, geografiya darslarida noan’anaviy dars usullaridan foydalanish asosida o‘qitilishini yo‘lga qo‘yish dars samaradorligini oshirishni kafolatlaydi. Tajriba-sinov ishlarining natijalariga asosan quyidagi xulosalarga kelindi: Tajriba-sinov ishlari jarayonida noan’anaviy usullaridan foydalanish asosida dars izchil, uzluksiz va tizimli olib borilishi geografiya tabiat haqidagi bilimlarni shakllantirish borasida samaradorlikka erishishimizga zamin yaratdi. O‘quvchilarda shakllangan geografiyaga oid bilim darajasi hamda uning sifati tadqiqotni olib borishda ilgari surilgan ilmiy farazlarning to‘g`ri ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, geografiya darslari noan’anaviy dars usullaridan foydalanish asosida tashkil etilsa, o‘quvchi- o‘quvchi (sub’yekt-sub’yekt) munosabati o‘rnatiladi. Ya’ni, bu har bir o‘quvchini yangilik sari yetaklaydi, uning mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, faolligini, o‘qishga mas’uliyatini oshiradi. Ana shunda o‘quvchining bilimlarini mustahkam va puxta o‘zlashtirilishiga erishiladi, dars samaradorligi kafolatlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bernhardsen T. Geographic Information Systems: An Introduction. John Wiley and Sons. 2002.
2. Qodirov R.B., Temirov Z.A. Forecasts and demographic development of the population of Fergana Valley regions of Uzbekistan until 2040 // Journal og geology, geography and geoekology № 3 (30) 2021. –P. 491-499. (doi: 10.15421/112145)

3. Temirov Z.A. Development of demographic processes in the Fergana region of Uzbekistan: yesterday, today, tomorrow // Journal og geology, geography and geoekology № 4 (31) 2022. – P. 736-748. (doi:10.15421/112269)
4. Yurtimizda kechayotgan geoekologik muammolar va ularni yechish masalalari. «ZAMONAVIY GEOGRAFIYA: INNOVATSION RIVOJLANISHINING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (Urganch, 27-28-oktyabr) Urganch.Abdumannobova X.I.*

O‘QUVCHILARNING GEOGRAFIK KARTALAR HAQIDA TUSHUNCHALARNI BOYITISH USULLARI

Gaypova Roza Tursinbaevna,
Ajiniyoz nomidagi NDPI Geografiya o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Hakimov Suhrob Abdunazar o‘g‘li,
Ajiniyoz nomidagi NDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavr ta`lim yo`nalishi 3-kurs talabasi

Sobirova Dona Ziyod qizi,
Ajiniyoz nomidagi NDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavr ta`lim yo`nalishi 3-kurs talabasi

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170763*

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda ta’lim va tarbiyaning bosh maqsadi va mazmuni tubdan yangilanib bormoqda. Binobarin, innovatsion pedagogik texnologiyalar raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari hamda pedagog-o‘qituvchiga qo‘yiladigan zamon talablari, pedagog o‘qituvchining kasbiy mahorati, o‘quvchilarning ongi, bilimi, dunyoqarashini o‘stirish, faolliklarini oshirish orqali ta’lim samaradorligiga erishish bilan bog‘liq masalalar majmuini ifodalaydi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarga ko`rsatilayotgan g`amxurlik, yaratilayotgan imkoniyatlar ularning o`z ustida izlanishlari, tinmay mehnat qilishlari va yangiliklarni tez o`zlashtirishi hamda zamon talablari darajasida bilim olishlari uchun katta imkoniyatlar eshigi ochildi.

Geografik kartalar tabiat va jamiyat tomonidan yaratilgan va atrofimizni o`rab turgan borliqni ma`lum bir vaqtdagi tasvir modeli bo`lib, insonning mehnat mahsulidir. Geografik kartalar yordamida juda ko`plab ilmiy va amaliy muammolar hal qilinmoqda va kelajakda hal qilinishi mumkin.

Geografik kartalar tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasini o`rganishda, geologik tadqiqotlarda, qazilma boyliklarni qidirib topishda, er resurslarini o`rganib undan oqilona foydalanishda, er usti va er osti suvlarini geografik jihatdan o`rganib, ulardan unimli foydalanishda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda, hududlardagi ekologik vaziyatni o`rganib chora va tadbirlarni amalga oshirishda va nihoyat harbiy sohada keng foydalanilmoqda.

Maktab geografik kartalarning boshqa kartalardan farqi ularning o`quvchilarning yoshi va rivojlanishiga moslab chiqarilishi bo`lib hisoblanadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun oddiyroq, tushunishi va o`qilishi ason bo`lgan kartalar chiqariladi.

Umumiy ta`lim maktablarida qo`llaniladigan kartalarni quyidagi guruhlarga taqsimlashimiz mumkin:

- devoriy kartalar;
- darsliklar ichidagi kartalar;
- atlaslar;
- globuslar;
- chiziqli kartalar.

6-sinf «Tabiiy fanlar» darsligida 41-mavzu «Geografik xaritalar» deb nomlanib, unda kartani o`rganish nima uchun zarur va geografik kartalarni qanday sohalarda foydalanish mumkinligi hamda umumiygeografik va mavzuli kartalar haqida so`z boradi.

7-sinfda “Geografiya” fanin o‘rganish jarayonida «geografik xaritalar» mavzusida geografik kartalar, tabiiy geografik kartalar: relef karta, foydali qazilmalar karta, tuproq karta, o`simliklar karta, hayvonot karta, iqlim karta, siyosiy-ma`muriy karta, ijtimoiy- iqtisodiy karta, mavzuli karta, raqamli kartalar hakida ma‘lumotga ega bo`ladi.

Aksariyat o‘quvchilar karta va atlas tushunchalarini farqlamaydilar, ularni sinonim sifatida qo‘llaydilar va o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda karta va atlas tushunchalarini farqlash ko‘nikmalarini shakllantirishga harakat qilinmog‘i lozim.

Nazarimizda o‘quvchilarga karta haqida dastlabki ma‘lumotlarni berishda, avvalo, bu so‘zning lug‘aviy ma‘nosi bilan tanishish va quyidagi ma‘lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da karta (karta) so‘zi quyidagicha izohlangan: Yer sathining qog‘oz, taxta kabi tekislikka chizilgan shartli tasviri. *Geografik karta.* O‘zbekiston milliy entsiklopediyasida karta haqida quyidagi ma‘lumotlarni o‘qiymiz: karta (yun. Chartes – varaq yoki xat yoziladigan papirus) karta – Yer yuzasi, boshqa osmon jismlari yoki kosmik fazoning matematik aniq belgilangan, kichraytirilgan, umumlashtirilgan tasviri. Qabul qilingan shartli belgilar sistemasida ularda joylashgan obyektlar ko‘rsatiladi. O‘yin kartalari dastlab Sharq xalqlarida paydo bo‘lgan, degan naql bor[1].

Ko‘pgina tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, o‘qituvchi materialni shunchaki bayon etmasligi, o‘quvchilarga tayyor xulosalar hamda umumlashmalarni aytib bermasligi lozim. O‘quvchilarning fikrini o‘rganiladigan obyektga jalb qilish, muammoli vaziyat yaratish, ularning diqqatini safarbar qilish, tafakkurini faollashtirish, ta‘limdagi loqaydlikni bartaraf etish, o‘quvchilarni kuzatishga, tasavvur qilishga, eslab

[1] Ўзбекистон миллий энциклопедияси 9- жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат миллий нашриёти, 2005, 395-б.

qolishga, ijodkorlikka, ya‘ni olgan bilimlari bilan kuzatilgan hayotiy faktlar va hodisalarga taqqoslashni o‘rgatish, shu asosda to‘g‘ri xulosalar va umumlashmalar chiqarishga odatlantirish to‘g‘ri yo‘ldir.

Geografik kartalardan o’qitishning barcha shakillarida foydalanish mumkin; dars berishda, amaliy ishlarda, mustaqil ishlarda, bilimlarni baholashda va x.k.

O’quvchilarni geografik kartalarni tuzilishini tushuntirishga o’rgatish uchun joyda amaliy ishlar olib boriladi, joy rejasi bilan ishlanadi, gorizontallarni o’qish bo’yicha amaliy ishlar bajariladi, daraja to’ri bilan mashq qilinadi, turli kartalar solishtiriladi, nuqtalarni geografik kordinatalari aniqlanadi, turli masshtablar bilan mashq qilinadi. Kartalarni tushunishini eng yaxshi yo’li joyni o’rganish va uni kartada qanday tasvirlanganligini aniqlashdir. Bundan tashqari globusdan kartaga o’tish, rejadan geografik kartaga o’tish orqali ham geografik kartalarni tuzilishini tushunishga yordam beradi. Mazkur usullar yordamida o’quvchilarni daraja to’ri, kartografik yiriklashtirish (generalizatsi) va geografik kartalarni tushuntirishga imkon beradi.

Geografiya o‘qitish metodikasida geografik kartalarni o‘rganishning uchta muhim vazifasi ko‘rsatiladi. Bular:

1. o‘quvchilarni kartani tushunishga;
2. kartani o‘qishga;
3. kartani bilishga o‘rgatishdan iborat. Ayniqsa kartani tasniflash, o‘quvchilarga kartalarning turlari haqida ma‘lumot berish ta‘lim sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Kartalar tasnifi quyidagi usulda bayon qilinsa, o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirishda qiziqish paydo bo‘lishi va tez idrok qilishi mumkin deb hisobladik. Buning uchun o‘quvchilarga shunday savol bilan murojaat qilinadi: **Kartalar nima uchun kerak?**



O‘quvchilarning javoblari yozuv taxtasida yoki flipchart qog‘ozga yuqoridagi tarzda yozib boriladi.

Kartalarning asosiy belgilarini tushuntirishda o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratish, guruhlarga savollar yozilgan kartochkalar, dunyo va yarimsharlar kartasi, O‘zbekiston Respublikasi kartasi, Yer qobig‘ining tuzilishi, tabiat zonalari, iqlimi va boshqa, shuningdek, turistik kartalar taqdim qilish, ma‘lum vaqt oralig‘ida guruhda ish olib borgan o‘quvchilarning topshiriq yuzasidan taqdimotini tashkil qilish lozim. Guruhlar ishini tahlil qilish, zarur o‘rinlarni to‘ldirish, o‘qituvchining qo‘shimcha ma‘lumotlari mavzuni yanada chuqurroq o‘rganishga yordam beradi.

O‘quvchilarga yuqoridagi kabi usullar orqali karta haqida ma‘lumot berish, kartalardan foydalanish yo‘llarini o‘rgatish, mushohadaga undash, xulosalar chiqarishga yetaklash ularning geografiya faniga qiziqishlarini orttiradi, bilimlarini boyitadi.

Bu ko‘rgazmali qurol yaxshi natijalar berishini o‘tkazgan ko‘p yillik tajribalarda sinab ko‘rilgan, natijada o‘quvchilar kartalarni oson o‘zlashtirib oldilar. Demak, geografik kartalar darslarning qiziqarli va samarali o‘tishini ta‘minlaydi.

Ma‘lumki, har qanday fan qatorida hozirgi zamon geografiya fani ham o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilmog‘i lozim. Bunda, bizning fikrimizcha, darslarni samarali, ko‘rgazmali qurollar asosida o‘tish yaxshi natija beradi. Shuning uchun ilg‘or tajribalarni sinab ko‘rish, ularni ommalashtirish, ko‘rgazmali qurollarni ko‘paytirish talab etiladi.

Karta maktabda o‘quv jarayonda o‘quvchilarni faolligini kuchaytirishda, fanni mustaqil o‘rganish va unga qiziqishni oshirishda, geografiyani hayot bilan bog‘lashda, o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhda tarbiyalashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston milliy entsiklopediyasi 9-jild. –T.: O`zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat milliy nashriyoti, 2005, 395-b.
2. Geografiya 7-sinf darsligi. Respublika ta`lim markazi Toshkent 2022y.11-b.
3. Tabiiy fanlar 6-sinf darsligi.Respublika ta`lim markazi Toshkent 2022y.91-b.
4. Gaypova R. TRENDS IN ORGANIZING GEOGRAPHY LESSONS THROUGH UNTRADITIONAL METHODS //International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 1. – №. 2. – C. 1060-1063.
5. Tursinbaevna G. R., Muzapparovna T. Z., Turganbaevna K. M. The implementation of innovative technologies in teaching geography //International Journal of Pedagogics. – 2023. – T. 3. – №. 10. – C. 53-56.
6. Гайпова Р., Турдыбекова З., Байрамова А. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ГЕОГРАФИИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 1037-1041.

MEKTEP GEOGRAFIYASÍN OQÍTÍWDÍŃ JETISKENLIK HÁM KEMSHILIKLERI

Uzakbaev K.K.,
Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya oqıtıw metodikası kafedrası úlken oqıtıwshısı, geografiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD)

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170765

Kirisiw. Geografiya ilimi úlken tariyxqa iye ilimlerdiń biri esaplanıp, ótken tariyxıy dáwirler dawamında bul ilimge ilimpazlar hár qıylı kózqarastan baha bergen. Bunıń nátiyjesinde geografiya iliminiń úyreniw obyekti hám predmeti máselesinde túrlishe pikirler júzege kelgen.

Geografiya sózi grek tilinen alınǵan bolıp, “geo” - jer, “grafo” - jazaman degen mánisti bildiredi. Bul ilim júdá erte dáwirlerden baslap qáliplesken bolıwına qaramastan, oǵan usı atamanı b.e.sh. III ásirde grek ilimpazı Eratosfen bergen. Geografiya ilimi búgingi dáwirge shekem birqansha rawajlanıw basqıshların basıp ótti. Hár bir dáwirde oǵan bir-birinen parıq qılatuǵın kózqaraslar menen múnásibette bolındı.


Tiykarǵı bólim. Dúnya júzinde geografiya pánin oqıtıwda jańadan-jańa jetiskenliklerge erisilip atır. Jańa pedagogikalıq texnologiyalarǵa tiykarlanǵan sabaqlıqlar baspadan shıqpaqta. Geografiya xabar sistemaları mektep jasınan balalarǵa úyretilip, óz aldına laboratoriya xanaları shólkemlestirilgen. Mektep jasınan baslap oqıwshılar geografiyalıq programmalarda islewge, kompyuterler hám mobil qurılmalar ushın dástúrler islep shıǵıwǵa úyretilmekte. Ásirese, oqıwshılardı ana watandı súyiwge bolǵan sezimlerin qáliplestiriw maqsetinde tez-tezden tábiyat qoynına sayaxatlar shólkemlestiriw úrdiske aylanǵan. Mısalı, Yaponiya mámleketinde sakura gúllegen waqtında barlıq oqıwshılar tábiyat qoynına alıp shıǵılıp, ana watanı Yaponiyanıń tákirarlanbas gózzallıǵı kórsetiledi. Oqıwshılardıń sanasına Yaponiya bul ózleriniń úyi ekenligi, bul watannan basqa hesh jerde qushaq ashıp hesh kim kútip turmaytuǵınlıǵı, tábiyattı asıraǵan halda Yaponiyanıń hár bir bóleginiń azada bolıwına kómeklesiwi kerekligi sińdiriledi.

Geografiya páninin jetiskenliklerin sanasaq kóp:


1) mısalı, 2022-jılda jańa pedagogikalıq texnologiyalar hám kórgizbeli qosımshalar menen 7 shi hám 10-klasslar ushın jańa sabaqlıqtıń baspadan shıǵıwı úlken áhmiyetke iye boldı;

2) XX ásirdiń ullı geograflardan biri N.N.Baranskiydiń aytqanınday “geografiya sabaǵı karta menen baslanıp, karta menen tamamlanadı” dep aytqan edi. Mektep geografiyasınıń da ajıralmas bólegi bul atlaslar hám jazıwsız kartalar bolıp esaplanadı. Ózbekstanda mektep atlasları hám jazıwsız kartaları jaqınǵa shekem


ózbek hám rus tillerinde Tashkent qalasında jaylasqan “Kartografiya” ilimiy-islep shıǵarıw mámleketlik kárxanasında baspadan shıǵadı. 2022-jıldan tariyxta birinshi márte qaraqalpaq tilinde 5-klass Tábiyiy geografiya baslanǵısh kursı hám 7-klass Materikler hám okeanlar tábiyiy geografiyası atlasları hám kontur kartaları, 2024-jılda jańalanǵan hám tolıqtırılǵan 7-klass Materikler hám okeanlar tábiyiy geografiyası, 9-klass Jáhánniń ekonomikalıq hám sociallıq geografiyası atlasları hám kontur kartaları baspadan shıqtı;



1-súwret. 5-klass Tábiyiy geografiya baslanǵısh kursı atlası



2-súwret. 7-klass Materikler hám okeanlar tábiyiy geografiyası atlası



3-súwret. 9-klass Jáhánniń ekonomikalıq hám sociallıq geografiyası atlası

3) Qaraqalpaqstan Respublikası Mektepke shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministriniń 2024-jıl 24-iyundaǵı 186-sanlı Qaraqalpaqstan Respublikasındaǵı ulıwma orta bilim beriw mektepleri ushın 2024–2025-oqıw jılına mólsherlengen tayanısh oqıw jobanı tastıyıqlaw haqqında buyrıǵı boyınsha oqıw qaraqalpaq, ózbek, qazaq, túrkmen hám rus tillerinde alıp barılatuǵın ulıwma bilim beriw mekteplerinde 7 hám 8-klasslarda háptelik oqıw saatı kólemi 0,5 saattan bolǵan Qaraqalpaqstan geografiyasın oqıtıw kózde tutılǵan. Biraq eń sońǵı 7-klasslar ushın Qaraqalpaqstannıń tábiyiy geografiyası hám 8-klasslar ushın Qaraqalpaqstannıń ekonomikalıq hám sociallıq geografiyası sabaqlıqları 2015-jılda baspadan shıqqanlıǵı, bul sabaqlıqlardaǵı statistikalıq maǵlıwmatlardıń gónergenligi, ol waqıtta ámelde bolǵan qaraqalpaq tiliniń latın álipbesiniń jazılıwınıń basqasha ekenligin, jańa sabaqlıqlarǵa bolǵan talap joqarılıǵın esapqa alıp Qaraqalpaqstan Respublikası Mektepke shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministrliginiń baslaması menen 7-klasslar ushın Qaraqalpaqstan tábiyiy geografiyası páninen jańa sabaqlıq 2025–2026-

oqıw jılınıń baslanıwına tayarlanıwı kózde tutılǵan. Al, 8-klasslar ushın Qaraqalpaqstan ekonomikalıq hám sociallıq geografiyası páninen sabaqlıq 2026–2027-oqıw jılınıń baslanıwına tayarlanıwı kózde tutılǵan.

Bunday jetiskenlikler menen birge Qaraqalpaqstan mekteplerinde geografiya pánin oqıtıwda qatar kemshiliklerde gúzetilmekte. Bular:

1) 5-klasstaǵı geografiya hám biologiya pánleriniń jámi háptelik 2 saatlıq sabaqlar kólemi 2 saatlıq tábiyiy pánine (sciense) ózgertilgen bolsa, 6-klasslardaǵı háptelik hár biri 2 saattan geografiya, biologiya hám fizika pánleriniń jámi 6 saatlıq saatları kemeytilgen halda, onıń ornına háptelik saat kólemi 3 saat bolǵan tábiyiy pán (sciense) engiziliwi, bul 3 pánniń ulıwma saat kólemi 1 saatqa azayǵanın kórsetedi;

2) geografiya sabaqlıqlarındaǵı maǵlıwmatlardı elede bekkemlew maqsetinde tariyxta birinshi márte qaraqalpaq tilinde tálim alıwshı oqıwshılar ushın mektep atlasları hám kontur kartaları qaraqalpaq tilinde baspadan shıqqanı menen mektep oqıwshılarınıń qolına derlik jetip barmay atır. Sebebi paytaxtımızdaǵı oqıw quralları hám kitaplar satatuǵın dúkánlar bunday atlas hám kontur kartalardı alıp keliwden tǵsetuǵın paydanı azsınıwı sebep bolmaqta. Bizdiń pikirimizshe Qaraqalpaqstan Respublikası Mektepke shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministrligi bul mashqalanı sheshiwde óziniń ámeliy járdemin bermese, keleside bul atlaslar hám kontur kartalar qaraqalpaq tilinde baspadan shıqpay qalıwı anıq.

Juwmaqlaw. Pándi puxta oqıtıw hám úyretiwge tásir etiwshi faktorlarǵa ajıratılǵan sabaq saatları, qánigeligi joqarı kadrlar, sabaqlıq hám oqıw qollanbalar menen támiyinleniw dárejesi sıyaqlı kórsetkishlerdi kirgiziwimizge boladı. Bul kórsetkishler boyınsha geografiya páni basqa pánlerden artta qalıp ketkenligin kóriw qıyın emes. Biraq bir kórsetkish bar bolıp, ol geografiyanı oqıtıw hám úyreniwge bolǵan hám intiliwdiń tiykarsız páseyip ketiwine sebep bolmaqta. Bul joqarı oqıw orınlarına test sınawlarında heografiyanıń tutqan ornı. Eger respublikamızda test sınawları jolǵa qoyılǵan dáslepki jıllarda geografiya sociallıq blok quramında tariyx páni menen birdey abırayǵa iye bolǵan bolsa, házirgi kúnde eki tálim baǵdarında, yaǵniy geografiya hám gidrometeorologiyada saqlanıp qaldı.

Geografiya páni matematika, fizika, ximiya, biologiya, tariyx pánleri qatarında álemdi, barlıqtı úyreniwshi fundamental ilimler qatarına kiredi. Mektep oqıwshıları arasında geografiya pánine bolǵan qızıǵıwshılıq júdá joqarı. Biraq joqarı oqıw ornına tapsırmaqshı bolǵan oqıwshı ózi qızıqqan geografiya páninen tayarlansa tek ǵana eki tálim baǵdarına test tapsıra alıwın bilgennen keyin, geografiyaǵa bolǵan miyiri biraz páseyedi.

Akademiyalıq liceylerde joqarıda sanap ótilgen 5 fundamental pánler, ana tili (qaraqalpaq, ózbek, rus) hám shet tillerinen 4 baǵdar boyınsha tereńlestirilgen bilim

beriledi. Mektep oqıwshısı akademiyalıq liceyde geografiya pánin tereń úyreniwdi qálese de paydasız. Bul pán social-gumanitar pánler baǵdarında da yaki tábiyiy pánler baǵdarında da tereńlestrilip oqıtılmaydı. Sebebi jáne joqarı bilimlendiriwdegi pánler blogına barıp taqaladı. Bunıń sebebinen geografiya páninen qızıǵıwshı aqllılar basqa pánlerge ótip ketiwge yamasa iykemlesiwge májbúr bolmaqta. Bul bazarda geografiya pánine talap bar, biraq usınıstı birew sheklep qoyǵanday kórinbekte.

Ádebiyatlar:

1. Allamuratov E., Habipov S., Allanazarov K. “Qaraqalpaqstan tábiyiy geografiyası” ulıwma orta bilim beriw mekteplerinińn 7-klası ushın sabaqlıq. “Bilim” baspası, 2015-jıl. 128 bet.
2. Umarov E., Allamuratov E., Umarova A. “Qaraqalpaqstannıń ekonomikalıq hám sociallıq geografiyası” ulıwma orta bilim beriw mekteplerinińn 8-klası ushın sabaqlıq. “Bilim” baspası, 2015-jıl. 112 bet.
3. Gaypova R. TRENDS IN ORGANIZING GEOGRAPHY LESSONS THROUGH UNTRADITIONAL METHODS //International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 1. – №. 2. – C. 1060-1063.
4. Tursinbaevna G. R., Muzapparovna T. Z., Turganbaevna K. M. The implementation of innovative technologies in teaching geography //International Journal of Pedagogics. – 2023. – T. 3. – №. 10. – C. 53-56.

GEOGRAFIYA SABAQLARÍN OQÍTÍWDA INFORMACIYALÍQ TEXNOLOGIYALARDÍŃ ÁHMIYETI

Jiemuratova G.Ó.,
Qaraqalpaqstan Respublikası pedagogikalıq sheberlik orayı aǵa oqıtıwshısı

Qutlımuratova D.A.,
Qaraqalpaqstan Respublikası pedagogikalıq sheberlik orayı aǵa oqıtıwshısı

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170767*

Búgingi kúni ulıwma orta bilim beriw mekteplerinde zamanagóy reformalardıń engiziliwi, hár bir oqıw predmetiniń bilim alıwshı tárepinen nátiyjeli ózlestiriwi ushın tálim-tárbiya procesinde qollanılatuǵın zamanagóy innovaciyalar, interaktiv oqıtıw quralları hám kompetenciyalıq qatnas tiykarında informaciyalıq texnologiya qurallarınan paydalanıw, oqıtıwshınıń kásiplik kompetentligine, oqıwshılardıń intellektual dárejesine baylanıslı máselelerden biri esaplanadı. Sebebi búgingi áhmiyetli talaplardan biri artıqsha ruwxıy hám fizikalıq kúsh sarıplamay, qısqa waqıt ishinde joqarı nátiyjelerge erisiw bolıp esaplanadı.

Milliy oqıw baǵdarlamasınıń ámelge engiziliwi tiykarında geografiya pánin oqıtıw proccecine sanlı texnologiyalar hám zamanagóy usıllardı engiziw boyınsha tómendegishe ilájlar kórsetip ótilgen:

zamanagóy sanlı texnologiyalar hám tálim texnologiyalarınıń tıǵız integraciyasın támiynlew, bul boyınsha pedagog kadrlardıń kásiplik sheberligin rawajlandırıw ushın qosımsha sharayatlar jaratıw, geografiya páni boyınsha elektron kitaplardı mobil qurallarǵa júklep hám kóshirip alıw maqsetinde QR-kod járdeminde klasslar kesiminde oqıw metodikalıq kompleksler (innovaciyalıq sabaqlıqlar, oqıtıwshılar ushın metodikalıq qollanba, sabaqlıqtıń multimedialı qosımshaları) haqqındaǵı jaylastırıw sistemasın jaratıw;

oqıwshılardı qosımsha qızıqlı jańalıqlardan tekst, audio, video formasında xabardar qılıp turıw, zamanagóy informaciyalıq-kommunikaciyalıq texnologiyalar tiykarında aralıqtan tálim quralların shólkemlestiriw;

aralıqtan turıp paydalanıw imkanın beriwshi elektron kitapxana sistemasına geografiya páni boyınsha islep shıǵılǵan oqıw-metodikaıq komplekslerin, elektron tálim resursların jaylastırıw hám olardan paydalanıw imkaniyatların arttırıw, tálim procesine elektron resurslar salmaǵın basqıshpa-basqısh asırıp barıw, elektron oqıw ádebiyatlar jaratıw, olardı mobil qurılmalarǵa júklep alıw maqsetinde QR-kod járdeminde elektron resurslar haqqındaǵı xabarlardı jaylastırıw sistemasın jaratıw hám onnan paydalanıwdı jolǵa qoyıw [1].

Solay eken kórsetilgen ilájlardı ámelge asırıwda bilim beriwshide informaciyalıq texnologiyalar boyınsha bilimi jeterli bolıwı kerek hám úzliksiz óziniń ústinde izleniwin talap etedi [2]. Sebebi sabaqlardı nátiyjeli oqıtıwda informaciyalıq texnologiyalardıń imkaniyatları júdá úlken. Sonlıqtanda dáslep pedagog kadrlardıń ózleri bul imkaniyatlardı joqarı dárejede ózlestiriwi hám paydalana alıwı lazım.

Zaman talabı artqan sayın sanlı bilim beriw platformaları menen baǵdarlamaların talap etiw de joqarılap ketti. Sabaqtıń nátiyjeli bolıwı onıń srukturalıq bólimleriniń mazmunına, sapasına hám bilim beriwshiniń usı sabaqtı qanday jańashıllıq penen, qanday resusrlar menen «tolıqtırǵanlıǵına» baylanıslı. Házirgi waqıtta zaman talabına say resurslarǵa Quizizz.com, Quizlet.com, LearningApps.org, Genial.ly, Geacron.com h.t.b. saytlar menen programmalar jetkilikli. Bul resusrlar ápiwayı usıllarǵa qaraǵanda multimedialı, oqıwshıda bilim alıwǵa bolǵan qızıǵıwshılıqtı oyatatuǵın, tapsırmalar orınlaw, izleniw barısında kómekshi qural bola alatuǵın platformalar.

Interaktiv moduller sistemasınan turatuǵın jańa baǵdarlamalar kúnnen kúnge kóbeyiwde, bul bilim sapasın arttırıwda áhmiyetli, biraq oqıtıwshı bul baǵdarlamalardı sınap kórip, bilim beriw processindegi kólemin analizlep paydalanıw kerek. Bunday platformalardıń ishinde oqıwshınıń alǵan bilimin bahalawda qollanılatuǵın platformalardan oqıtıwshılar keń túrde paydanılmaqta.

Biz sonday platformalardan biri Learning Apps platforması haqqında sóz etpekshimiz. Bul platforma járdeminde oqıwshılardıń ózlestirgen bilimlerin bekkemlewde paydalanıwǵa bolatuǵın interaktiv, multimediyalı, elektron trenajyor shınıǵıwlar jarata aladı. Bul saytta 23 túrdegi interaktiv shınıǵıwlardıń tipi, onnan 5 wi 2 yamasa 4 qatnasıwshı ushın arnalǵan oyınlar bolıp esaplanadı. Bul sayttıń bir neshe tildegi versiyaları bar. Biraq qaraqalpaq yamasa ózbek tilindegi versiyası joq, degen menen bul sayttıń interfeysi júdá qolaylı bolǵanlıqtan paydalanıw onsha qıyınshılıq tuwdırmaydı.

LearningApps servisinde «Pazllar», «Jubın tap», «Sáykeslendir», «Tártiplestir», «Krossvord» h.t.b. túrdegi interaktiv tapsırmalar konstruktorı bolıp esaplanadı. Bul konstruktorda jaratılǵan shınıǵıwlar járdeminde oqıwshılar óz bilimlerin qızıqlı, oyın formasında sınap kóriwi hám bekkemlewi múmkin.

Biz bul jerde bul platformalarda geografiya sabaqlarında paydalanıw ushın jaratılǵan shınıǵıwlardan úlgilerdi keltirip ótiwdi maqul taptıq.

	Oqıwshılar bertilgen kartoshkalardaǵı maǵlıwmatlardı sáykesleri menen juplastırıń!

		Berilgen kesteni toltırıń
		Oqıwshılar Arqa Amerika materigi haqqında berilgen sipatlamalarda túsip qalǵan sózlerdi orınlarına jazıp shıǵıń

Juwmaqlap aytqanımızda informaciyalıq texnologiyalardan paydalanıp oqıtıw arqalı oqıwshılardı sabaqqa qızıqtıra alıw imkaniyatına iye bolamız. Bul imkaniyatlardan oqıtıwshılar nátiyjeli paydalanıp oqıwshılardıń interaktiv kartalar, geografiyalıq maǵlıwmatlar, video hám basqa xabar dereklerinen óz betinshe bilim alıwında támiyinleydi. Sonday-aq, oqıwshılarda tek ǵana geografiyalıq bilimlerin emes bálkim sanlı texnologiyalar menen islesiw kónlikpelerin, hár qıylı dástúrler hám texnologiyaları menen islesiw qábiletin rawajlandırıwǵa járdem beredi.

Paydalanǵan ádebiyatlar:

1. Milliy oqıw dástúri 2020-jıl
2. G.Ó.Jiemuratova “Geografiya darslarining samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” // Ilm sarchashmalari” ilmiy-nazariy, metodik jurnal , №10,2023. 116-120 б.

MAKTAB GEOGRAFIYA TA’LIMIDA O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Madiyar Abdullayev,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi
www.geograf.uz@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15170774

Pedagogika va metodika bir biriga mos tushunchalar bo‘lib, u asosida o‘quv jarayonini rivojlantirish orqali ta’lim-tarbiya jarayoninig natijadorligini yuqori saviyaga ko‘tarish asosiy maqsad hisoblanadi. Bu esa dars jarayonida pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanishga bog‘liqdir. Shunday oqilona shakllarning biri - o‘yinlar hisoblanadi. O‘yinlar orqali o‘quvchilar mavzuni osonroq o‘zlashtiradilar, fanga qiziqishlari ortadi va mavzuda faol ishtirok etadilar. O‘yin shakllari o‘quvcilarning mantiqiy fikrlashini, ijodkorligini, va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Darslarda o‘quvchilar qiziqarli o‘yinlarga qatnashishi orqali, o‘yinning qoidalariga bo‘ysunishga, adolatga va haqiqatga o‘rganadi. Shuningdek, o‘yinlar o‘quvchilarda topqirlik, ziyraklik, ishtiyoq, intiluvchanlikni shakllantiradi. Raqib jamoa bilan o‘z imkoniyatlarini, o‘z kuchini to‘g‘ri foydalana bilishga, do‘stlikga, o‘zaro yordamga o‘rganib, jamoada ishlash hamda tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantiradi.

O‘yin darslarini tashkil etishda belgilangan mavzu asosida, uning matnida berilgan ma’lumotlaridan foydalanish rejalashtiriladi. O‘quvchilar bu jarayonda yangi bilimlarni o‘zlashtirishi yoki o‘tilgan bilimlarni takrorlashni amalga oshirishlari mumkin. O‘yin darslari o‘quvchilar faolligini kerakli darajada shakllantiradi, boshqa dars shakllarida o‘zlashtira olmaydigan katta ko‘lamdagi bilimlarni o‘zlashtirishga imkon beradi.

O‘yin - o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, geografik bilimlarini orttiradi, mulohaza bilan fikr yuritishga va topqirlikga o‘rgatadi. Geografik fanida xarita bilan ishlashga ko‘nikma hosil qiladi. O‘quvchilar o‘yinlarni qiziqish bilan o‘ynaydi, ayniqsa g‘alabaga erishgan paytda o‘z bilimiga bo‘lgan ishonch yanada ortadi va o‘zining bilim darajasi qanday ekanligini bilib oladi. Mag‘lubiyatga uchraganda o‘zining nimalarni bilmaydiganligini va o‘z bilimini yanada boyitishga intiladi. Quyida esa ayrim o‘yin turlarini misol sifatida keltiramiz.

*“**Anogramma” o‘yini.*** Berilgan aralash harflarning o‘rnini almashtirish orqali ma’lum mavzuga tegishli geografik termin va tushunchalarning nomi topishga “anogramma” deyiladi. Ushbu o‘yinni “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanining “Jahon dehqonchiligi geografiyasi” mavzusi misolida ko‘rishimiz mumkin.

VTENSKIES - *EKSTENSIV*

TSEINIVN - *INTENSIV*
OCHY - *CHOY*
AXPAT - *PAXTA*
TOYXI - *XITOY*

“Akrostika” o‘yini. Bu o‘yinda ma’lum bir mavzuga oid geografik atama beriladi va shunga mos bo‘lgan termin va tushunchalarni uning bosh yoki oxirgi harfiga moslab yuqoridan pastga tomon yozib chiqish mumkin. O‘yinda atamaning savoli ham beriladi. Ushbu o‘yinni “Mamlakatlarning boshqaruv shakli va davlat tuzilishi” mavzusi “Monarxiya” akrostikasi misolida ko‘rishimiz mumkin.

M - *Mutloq monarxiya*
O - *Osiyo*
N - *Nepal*
A - *Avstraliya*
R - *Respublika*
X - *Xonlik*
I - *Imperator*
Ya - *Yaponiya*

Akrostika savollari:
1. Monarxiya davlat turi?
2. Qaysi qit’ada monarxiyalar soni 9-ta?
3. Qaysi davlat 2008-yilda monarxiya tuzumidan voz kechgan?
4. Britaniya Hamdo‘stligi tarkibidagi konstitutsion monarxiya davlat?
5. Mamlakatni siyosiy boshqarishning ikkinchi shakli qanday nomlanadi?
6. O‘zbekiston tarixida mavjud monarxiya turi qanday nomlangan?
7. Yaponiya monarx qanday nom bilan nomlanadi?
8. Naruxito qaysi davlarning imperatori?

“Trafareta” o‘yini. Ushbu o‘yinda ma’lum bir harflar ko‘rsatilgani holda o‘ynaladigan geografik o‘yindir. Bunda ma’lum mavzuga oid topilishi kerak bo‘lgan termin va tushunchalarning bosh harflari yashirilgani maqsadga muvofiqdir. Masalan, “B” harfidan boshlanadigan davlatlarni yozing.

Davlatlar. “B” - *Bolgariya, Belgiya, Belorus, Boliviya, Butan…*
Poytaxtlar. “M” - *Montevideo, Mexiko, Monroviya, Maputu, Maseru…*
Xalqlar. “I” - *Ispan, Italyan, Irland, Island…*
Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari. “P” - *Paxtachilik, Pillachilik, Parrandachilik…*

“Geografik zanjir” o‘yini. **G**eografiya darslarida o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, yodlash qobiliyatini rivojlantirish va diqqatni oshirish uchun qo‘llaniladigan samarali interfaol o‘yinlardan biri hisoblanadi. Ushbu o‘yinda

o‘quvchilar bir-birlariga bog‘liq tarzda so‘zlar aytib, ularning xotirasini kuchaytirishga, ma’lumotlarni izchil tarzda qayta tiklashga o‘rganadilar. Ushbu o‘yinni “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanining “Jahon siyosiy xaritasi” mavzusi misolida ko‘rishimiz mumkin. O‘yin boshlanishida o‘qituvchi yoki birinchi o‘quvchi biror mamlakat yoki shaharni aytadi. Masalan, “Toshkent”. Keyingi o‘quvchi esa “Toshkent” so‘zining oxirgi harfi bilan boshlanadigan yangi geografik atamani aytishi kerak. Oxirgi harf “T”, shuning uchun o‘quvchi “Tokio” deb aytishi mumkin. O‘yin shu tarzda davom etadi va har bir o‘quvchi oldingi so‘zning oxirgi harfi bilan yangi atama aytib boradi. O‘yin davomida so‘zlarni takrorlamaslik va aniq, to‘g‘ri geografik nomlar aytilishi talab qilinadi. Bu o‘yin o‘quvchilarga geografik atamalarni yodlab olishga yordam beradi, ularning xotira imkoniyatlarini kuchaytiradi. O‘yinda vaqt cheklovini qo‘yish orqali o‘quvchilar tezda javob topishlari talab qilinishi mumkin, bu esa ularning tez fikrlash qobiliyatlarini sinaydi. Bu o‘yin o‘quvchilarning bilimini qiziqarli va interfaol usulda sinab ko‘rishga, shuningdek, dars jarayonini jonlantirishga yordam beradi.

“Geografik pazl” o‘yini. Bu o‘yin geografiya darslarida o‘quvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantirish, joylarni tanish, joylashuvni o‘rganish uchun foydalaniladigan qiziqarli o‘yin hisoblanadi. Ushbu o‘yinda o‘quvchilar xaritalarni va geografik obyektlarni tanish uchun pazl (pazzle) qismlarini birlashtiradilar. Bu oyinni “Xitoyning siyosiy xaritasi” misolida amalga oshirish mumkin (1-rasm).



1-rasm. “Geografik pazl” o‘yini.

O‘yinni amalga oshirishda o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘linishi tavsiya etiladi. O‘quvchilarga pazl qismlari tarqatiladi va ma’lum vaqt ichida ularni birlashtirib, to‘g‘ri tasvir yoki xarita yaratishlari zarur bo‘ladi. O‘yinning oxirida har bir guruh o‘z pazl qismlarini qanday joylashtirganligini ko‘rsatishi va u joylar haqida ma’lumot berishi kerak. O‘quvchilar o‘yinda orqali joylarning nomlarini, ularning joylashuvini yaxshi biladi va bir-biriga yordam berib, muammolarni birgalikda hal

qilishadi. *“**Geografik pazl”*** o‘yini qiziqarli va ta’sirli ta’lim vositasi bo‘lib, o‘quvchilarning geografik bilimlarini amaliy tarzda o‘rganishga yordam beradi.

Texnologiyalarga asoslangan o‘yinlar. Texnologiyalarga asoslangan geografik o‘yinlar - bu zamonaviy texnologiyalarni, jumladan, internet, mobil ilovalar, virtual haqiqat (VR) va interaktiv xaritalarni qo‘llab-quvvatlaydigan o‘yinlardir. Ushbu o‘yinlar o‘quvchilarning geografik bilimlarini rivojlantirish, mintaqalar va mamlakatlar haqidagi ma’lumotlarni o‘rganish hamda amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

“GeoGuessr” o‘yini. Bu o‘yinda o‘quvchilar tasodifiy ravishda tanlangan joyga “tushadilar” va o‘sha joy, masalan, mamlakat haqida ma’lumot berishi kerak bo‘ladi. O‘yin davomida o‘quvchilar mamlakatlar, shaharlar, aholi va madaniyatlar haqida ma’lumot oladilar. Bu o‘yin geografik ko‘nikmalarni rivojlantirishning qiziqarli usuli hisoblanadi.

“Seterra” o‘yini. Bu o‘yin o‘quvchilarga davlatlar, shaharlar, daryolar va boshqa geografik obyektlar haqida savollar beradigan interaktiv viktorina hisoblanadi. O‘yin davomida o‘quvchilar xaritada ko‘rsatilgan joylarni tezda aniqlashlari kerak. Bu o‘yin qiziqarli va interfaol tarzda geografik bilimlarni o‘rganishga yordam beradi.

“Kahoot” o‘yini. Ushbu platformalarda o‘quvchilar geografik mavzular bo‘yicha savollar tayyorlashlari va boshqa o‘quvchilar bilan raqobatlashishlari mumkin. O‘yin qiziqarli va tezkor ravishda o‘tkaziladi, bu esa o‘quvchilarning bilimlarini sinovdan o‘tkazish hamda yanada qiziqarli o‘rganishiga imkon yaratadi.

“Quizizz” o‘yini. bu onlayn viktorina platformasi bo‘lib, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun interfaol o‘yinlarni hamda savol-javoblarni o‘tkazish imkoniyatini beradi. Ushbu platforma yordamida o‘qituvchilar turli mavzular bo‘yicha savollar yaratishi, ularni o‘quvchilarga taqdim etishi va o‘quvchilar o‘z bilimlarini baholashi mumkin. Quizizz platformasi o‘quvchilarning geografiyaga bo‘lgan qiziqishini oshirish, bilimlarni mustahkamlash va tezkorlik bilan eslab qolishga yordam beradigan vositadir. O‘qituvchilar ushbu platformani darslarni interfaol qilish va o‘quvchilarning o‘zaro raqobatlashib, bilimlarini sinovdan o‘tkazishlari uchun muvaffaqiyatli qo‘llashlari mumkin.

Geografiya ta’limida o‘yinlarni qo‘llashning zarurati o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish va bilimlarni samarali tarzda o‘zlashtirish uchun muhim omil sifatida qaraladi. O‘yinlar murakkab geografik tushunchalarni oddiy, qiziqarli va interfaol shaklda tushuntirishga imkon beradi, bu esa o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq hamda uzoq muddatga eslab qolishlariga yordam beradi. Shuningdek, o‘yinlar ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirib, amaliy tajriba hamda jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, o‘yinlar geografiya fanining

turli aspektlarini integratsiyalashgan tarzda o‘rganishga imkon beradi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlik qilish ko‘nikmalarini oshiradi, bu esa hozirgi ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonniyozov R. Geografiya o’qitish metodikasi. –Urganch: 2001. –212 b.
2. Qurbonov T., To‘xtaboyev N. *Geografiyani o‘qitish nazariyasi va metodikasi.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
3. Rustamova Z. *Boshlang‘ich sinflarda geografik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi.* – Qarshi, 2015.
4. Sayfiddinov N. *Geografiyani o‘qitishda STEAM yondashuvi.* – Toshkent: 2023.
5. Yo‘ldoshev M. *Geografiyani o‘qitish metodikasi: amaliy qo‘llanma.* – Namangan: 2020.
6. www.wikipedia.org

BO‘LAJAK GEOGRAFIYA O‘QITUVCHILARIDA LOYIHALASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK METODLARNING SAMARADORLIGI

Alimkulov Jamshid,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170778*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion pedagogik metodlarning samaradorligi o‘rganilgan.*
Kalit so‘zlar: *loyihalash kompetensiyasi, innovatsion pedagogika, STEAM-ta’lim, gamifikatsiya, muammoli ta’lim, raqamli texnologiyalar, geografiya ta’limi, pedagogik innovatsiyalar.*

Аннотация. *В данной статье изучена эффективность инновационных педагогических методов в развитии компетенции проектирования у будущих учителей географии.*
Ключевые слова: *компетенция проектирования, инновационная педагогика, STEAM-образование, геймификация, проблемное обучение, цифровые технологии, географическое образование, педагогические инновации.*

Abstract. *This article examines the effectiveness of innovative pedagogical methods in developing design competence among future geography teachers.*
Keywords: *design competence, innovative pedagogy, STEAM education, gamification, problem-based learning, digital technologies, geography education, pedagogical innovations.*

Kirish. Ta’lim jarayonida o‘qituvchining dars va loyihalarni puxta rejalashtirishi, ya’ni loyihalash kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda an’anaviy yodlashga asoslangan ta’lim usullari zamon talablari uchun yetarli emasligi ta’kidlanmoqda [1]. O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalari – tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va raqamli savodxonlikni shakllantirish uchun o‘qituvchilar ham o‘z ustida ishlashi, dars berishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashi zarur. Xususan, O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyalarida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan (masalan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi) [2]. Shu ma’noda, mazkur tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usullarini o‘rganish va amaliy jihatdan asoslashdir. Tadqiqot mavzusi dolzarb, chunki geografiya ta’limida dars sifatini oshirish, o‘quvchilarni tadqiqotchi va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash bevosita o‘qituvchining loyihalash ko‘nikmalariga bog‘liq.

Asosiy qism. Zamonaviy ta’limda bir qator innovatsion metod va texnologiyalar o‘qituvchi kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, STEAM-ta’lim (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi turli fanlararo integratsiyani nazarda tutadi. STEAM – bu tanqidiy fikrlash, tadqiqotchilik

va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida bir necha fan yo‘nalishlarini birlashtirgan yangi ta’lim texnologiyasi bo‘lib, unda beshta fandan alohida emas, yagona integratsiyalashgan dastur orqali ta’lim beriladi. Mazkur yondashuv geografiya fanida tabiiy-ilmiy bilimlarni texnologiya va san’at bilan uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarning real muammolar yechimiga qaratilgan ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar STEAM loyihalari bilan ishlash jarayonida dars mazmunini turli fanlar bilan bog‘lash, amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish kabi loyihalash ko‘nikmalarini egallaydi.

Loyiha metodi (project-based learning) ta’limning ilg‘or usullaridan biri bo‘lib, ayniqsa geografiya o‘qituvchilarini tayyorlashda ahamiyatlidir. Tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, puxta loyihalashtirilgan dars mashg‘uloti kutilgan natijaga kafolat bo‘ladi. Loyiha usuli orqali ta’lim oluvchilar turli fanlardagi bilimlarini bir butun holga keltirib, muammolarni topish va yechish, mustaqil qaror qabul qilish hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini hosil qiladi. Demak, bo‘lajak geografiya o‘qituvchisi loyiha metodikasini o‘zlashtirar ekan, u darslarni rejalashtirish, o‘quv faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil ishlashini yo‘lga qo‘yish kabi kompetensiyalarini shakllantiradi. Loyiha dasturini tuzish va uni amaliyotga joriy etish jarayonida talabalarda mas’uliyat, tashabbuskorlik va ijodiy yondashuv rivojlanadi.

Ta’limda gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) va muammoli ta’lim texnologiyalari ham katta samara bermoqda. Gamifikatsiya – bu o‘yin elementlarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali motivatsiyani oshirish usuli hisoblanadi [3]. Geografiya darslarida o‘yin elementlari (masalan, viktorinalar, rol o‘yinlari, interaktiv ilovalar) qo‘llanganda, o‘quvchilarning darsga qiziqishi va diqqatini tortish osonlashadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan gamifikatsiya mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishga yordam beradi. Masalan, onlayn xaritalar yoki geografic quiz (kvest) shaklidagi o‘yinlar yordamida talabalar geografik ma’lumotlarni o‘zlari kashf etadi, bu esa ularning mustaqil o‘rganish ko‘nikmasini mustahkamlaydi.

Muammoli ta’lim esa o‘quvchilarni dars jarayonidayoq muayyan ilmiy-amaliy muammoni hal etishga yo‘naltiradi. Geografiya fanida bu usulni qo‘llash o‘quvchilarning tanqidiy va tizimli fikrlashini shakllantirishda juda foydali. Masalan, o‘qituvchi darsda Orol dengizining qurishi, iqlim o‘zgarishi kabi real muammoni muhokamaga qo‘yib, yechim topishni topshirsa, o‘quvchilarda nafaqat geografik bilim, balki muammolarni tahlil qilish ko‘nikmasi ham shakllanadi. Tadqiqotlar tasdiqlashicha, muammoli ta’limda o‘quvchilarning bilish faolligi tezkor sur’atlarda rivojlanadi, ularning ijodiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari o‘sadi

[4]. Shu tariqa, kelgusida geografiya o‘qituvchisi bo‘ladigan talaba bu metod yordamida darsni loyihalashda murakkab vaziyatlarni oldindan ko‘ra bilish, savollarga yechim topishga doir ssenariylar yaratish malakasini oladi.

Bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish yuzasidan o‘tkazilgan eksperimental tadqiqot natijalari ijobiy o‘zgarishni ko‘rsatdi. Tajriba-sinov ishlari 131 nafar (shundan, tajriba guruhi – 69 nafar, nazorat guruhi – 62 nafar) pedagogik ta’lim yo‘nalishi talabalari ishtirokida amalga oshirildi. Dastlab, har ikki guruh tinglovchilarining dastlabki tayyorgarlik darajasi aniqlanib, dars ishlanmasi tuzish, interaktiv usullarni qo‘llash, o‘quv jarayonini rejalashtirish kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha boshlang‘ich diagnostika o‘tkazildi. Natijalarda ikki guruh ko‘rsatkichlari deyarli teng, ko‘pchilik talabalarda loyihalash kompetensiyasi o‘rtacha darajada ekani ma’lum bo‘ldi.

Tajriba guruhida bir semestr davomida maxsus dastur joriy etildi: unga ko‘ra, talabalarga STEAM elementlari bilan boyitilgan maxsus geografiya darslarini loyihalash topshiriqlari berildi, loyiha metodikasiga oid amaliy mashg‘ulotlar, darslik yaratish bo‘yicha mini-loyihalar, gamifikatsion o‘yinlar va muammoli vaziyatlarni hal etish bo‘yicha treninglar tashkil etildi. Talabalar kichik guruhlarda geografiyadan integrativ mavzularda loyiha ishlari ishlab chiqishdi (masalan, “Mening maktabim hududidagi ekologik muammolar” mavzusida loyiha) va ushbu loyihalarni amalga oshirish ssenariylarini taqdim etdilar. Shuningdek, har bir talaba raqamli prezentatsiyalar va interaktiv materiallar yordamida dars loyihasini himoya qildi. Bu jarayonlarda o‘qituvchi-tadqiqotchilar kuzatuv olib bordi va talabalarning faolligi, ijodkorligi hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarida sezilarli o‘sish kuzatildi.

Semestr oxirida har ikkala guruh tinglovchilari qayta attestatsiya qilinib, yakuniy diagnostika o‘tkazildi. Solishtirma tahlil shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida talabalarning loyihalash kompetensiyasi sezilarli darajada oshgan. Xususan, tajriba guruhidagi talabalarning 11 % foizi dars loyihasini tuzish va innovatsion usullarni qo‘llash bo‘yicha yuqori darajaga erishgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich atigi 5 % foizni tashkil etdi. Kompetensiyaning o‘sish dinamikasi ham tajriba guruhida ancha yuqori bo‘lib, dastlabki va yakuniy testlar ballari orasidagi farq o‘rtacha 75 ballni tashkil qildi (nazorat guruhida esa faqat 59 ball). Shuningdek, talabalar bilan suhbatlar va so‘rovnomalar ularning innovatsion metodlarga qiziqishi ortganini, darslarni loyihalashga ijodiy yondasha boshlaganini ko‘rsatdi. Eksperiment natijalari ushbu ilmiy gipotezani tasdiqladi: innovatsion pedagogik texnologiyalar kompleks qo‘llanganda bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihalash kompetensiyasi samarali rivojlanadi. Mazkur tajriba-sinovdan kelib chiqib, ayrim kuzatishlarni alohida qayd etish mumkin. Avvalo, talabalar boshida loyihalash faoliyatida

qiynalgan bo‘lsa-da, tegishli metodik ko‘rsatmalar va amaliy mashqlar yordamida ularning ishonchi ortdi, jamoada loyiha ustida ishlash ko‘nikmasi shakllandi. Ayniqsa, gamifikatsiya elementlari bilan tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning darsni rejalashtirishga qiziqishini oshirgani kuzatildi – ular oddiy semestr rejalaridan farqli o‘laroq, har bir darsni ijodiy yangicha usulda o‘tish g‘oyalarini taklif eta boshladilar. Bundan tashqari, raqamli platformalarda onlayn loyiha taqdimotlari o‘tkazilishi talabalarga zamonaviy muhitda ishlash tajribasini berdi. Bu omillar kompleks holda ta’sir etib, tajriba guruhida yuqori natijalarni ta’minladi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining loyihalash kompetensiyasini shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar katta samara berishini tasdiqladi. Kirish qismida ko‘rsatib o‘tilganidek, bugungi kunda ta’lim sohasida yangicha fikrlovchi, darslarni ijodiy loyihalantira oladigan o‘qituvchilarga talab ortib bormoqda. Asosiy qismda tahlil qilingan STEAM-ta’lim, loyiha metodi, gamifikatsiya, muammoli ta’lim va raqamli texnologiyalar integratsiyasi talabalarda bir vaqtning o‘zida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va kreativ yondashuvni shakllantirishi bilan ahamiyatli ekani aniqlandi. Eksperimental tadqiqot natijalari esa ushbu metodlarni kompleks qo‘llash natijasida talabalarning dars dizayni bilan bog‘liq kompetensiyalari sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Xorijiy tajriba misollaridan kelib chiqib, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham innovatsion metodlarni joriy etish bo‘yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish va pedagog kadrlarni yangi usullarni qo‘llashga tayyorlash zarurligi ma’lum bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Glide Education Platform.** (2025).*21st Century Skills Development: Innovative Approaches in Education and Digital Learning*.https://glide.partidosa.com
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirish”ga oid Davlat Dasturi / 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son Farmoni//Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/
3. Berdiyev M. RAQAMLI PEDAGOGIKA ASOSIDA TABIIY FANNI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH // Inter education & global study. 2024. № 9. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-pedagogika-asosida-tabiiy-fanni-oqitish-metodikasini-takomillashtirish. – B. 14-19.
4. Allaxova G.Ye. (2023). Geografiya darslarini muammoli ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 17–20. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.271.

DARSLARNI O‘RGANISHDA DASTURIY SAYTLARDAN FOYDALANISH USULLARI “Flippity.net” SAYTI MISOLIDA

Ortiqova Iqbol Olimboyevna,
UrDUPI “Tarix va geografiya” kafedrasi o‘qituvchisi
iqbola@pmkhiva.com

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170784*

Annotatsiya: *Ushbu maqola geografiya darslarida davlatlarni o‘rganish jarayonida dasturiy saytlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va samaradorligini o‘rganadi.Dasturiy saytlar o‘quvchilarga davlatlar haqida keng qamrovli ma’lumot olish, ularning geografik o‘rni, tabiati, aholisi, iqtisodiyoti, siyosiy tuzumi, madaniyati va boshqa xususiyatlari bilan tanishish imkoniyatini beradi. Maqolada o‘qituvchilar uchun tavsiyalar beriladi va kelgusida o‘rganilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishlar ko‘rsatiladi.*


Kalit so‘zlar: *geografiya ta’limi, davlatlar, dasturiy saytlar, internet resurslari, ta’lim samaradorligi, AKT, interaktiv ta’lim, mustaqil o‘rganish, ma’lumotlar tahlili.*


Kirish. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta’lim sohasida muhim o‘rin egallab, o‘quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, geografiya ta’limida ham zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, geografik tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

“Flippity.net” dasturiy sayti geografik ob’ektlar, hodisalar va jarayonlarni vizual ravishda namoyish etish, o‘quvchilarning bilimlarini sinash va ularni baholash imkonini beradi. Masalan, “Davlatlar poytaxtlarini aniqlang”, “Geografik koordinatalar bo‘yicha joylashuvni toping”,“Iqlim mintaqalarini ajrating” kabi interaktiv topshiriqlarni“Flippity.net”sayti yordamida osonlik bilan yaratish mumkin [2,3].

1-qadam.

Google.Sheetsga kirib [https://flippity.net//[EQmF3eEY3QnHCtYvtGKyF6tvDAQziZpJ9xRzreyTo] “Flippity.net” havolasini oling. “Flippity.net” saytida 27 ta shabloni mavjud. Bu shablonlardan barcha fanlardan qiziqarli savollar yaratishga qulay [7].







"Flippitity.net" saytnini shu shabloni geografiya darslarida o'rganishda afzalliklari bor.

2-qadam: Bu shablonni geografiya darslarida afzalliklarini ko'rib chiqamiz ,davlatlarga oid 10-ta ma'lumot kiritilgan bo'lib har bir ma'lumot qiziqarli tarzda aks ettirilgan.

“Flippity.net” dasturiy sayti geografiya ta’limida o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, geografik tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam beradigan samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi.



3-qadam. 10-ta ma’lumot berilgan.1-chi davlatni tanlaymiz va ma’lumotlarni ketma ketlikda ko‘rib chiqamiz.Har bir davlat haqida yetalicha ma'lumot berilgan

(qirralarga joylashtirilgan)

4-qadam.Davlat haqida qiziqarli ma'lumot va 3-qirrada o'rganilayotgan davlat bayrog'i ko'rsatilgan.Har bir davlat bayroqlari rasm ko'rinishida tasvirlangan.10 -ta davlatni bayroq rasmi joylashtirilgan.

5-qadam Davlat siyosiy xaritasi joylashtirilgan.Xarita orqali mavzuni o'quvchilarga batafsil tushuntirish mumkin. Davlatni joylashgan geografik o'rni ,davlat rivojlanishida tabiiy va iqtisodiy chegaralarning ahamiyati haqida o'quvchilar qiziqarli tahliliy ma'lumotlarga ega bo'ladilar.



6-qadam .O'rganilayotgan davlat tarixi va siyosiy jarayonlari haqida ma'lumot kiritilgan.



7-qadam.O'rganilayotgan davlat haqida video ko'rsatma.Davlat geografik o'rni ,tabiiy va iqtisodiy resurslari yi yirik shaharlari,aholining turmushtarzi yashash darajalari haqida qiziqarli videolarni ko'rishingiz mumkin.



8-qadam .O'rganilayotgan davlat haqida qo'shimcha vikipediya ma'lumotlari joylashtirilgan. Barcha qirralardagi ma'lumotlarni geografiya dars jarayonlarida foydalanishimiz mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “Flippity.net” dasturiy sayti geografiya darslarida samarali ta’lim vositasi bo‘lib,o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish,ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam

beradi. Geografiya o‘qituvchilari ushbu saytdan foydalanish orqali o‘quv jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali qilishlari mumkin. Kelajakda “Flippity.net”saytining boshqa ta’lim sohalaridagi imkoniyatlarini o‘rganish va uning yordamida yangi o‘quv materiallarini yaratishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prensky,M.(2001)Digital Natives,Digital Immigrants Part 1.On the Horizon, 2. Koehler,M.J.,Mishra,P.(2009).What is technological pedagogical content knowledge? Contemporary Issues inTechnology andTeacher Education, 9(1),60
2. Zhao,Y.,Lei,J.,Yan, B.,Lai,C.,Tan, H.S(2005)What Makes theDifference? A Practical Analysis of Research on the Effectiveness of Distance Education. Teachers College Record, 107(8), 1836-1884.
3. Dichev, C.,Dicheva, D. (2017).Gamification in Education: A Systematic Mapping Study.Journal of Educational Technology Society, 20(3), 75-96.
4. Lee,J.J.,Hammer,J.(2011).Gamification in Education: What, How, Why Bother? Academic Exchange Quarterly, 15(4), 146-156.

Veb-Saytlar:

5. Flippity.net:(https://www.flippity.net/)
6. Google forEducation: (https://edu.google.com/)
7. TeachersFirst:(https://www.teachersfirst.com/)

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MAHALLIY TARIXIY MATERIALLAR VOSITASIDA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Kosbergenov Raxat Maxsetbaevich,
Ajiniyoz nomidagi NDPI assistent o‘qituvchisi

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.15170788*

Har bir oilada o‘ziga xos an’analar mavjud. Bu an’analar bolaning ongiga, xulq-atvoriga juda kuchli ta’sir o‘tkazadi. Masalan, oila a’zolarining tug‘ilgan kunlarini o‘tkazish, qarindosh-urug‘lar holidan xabar olish va hokazo. Eng muhimi ota-onalarning hurmatini farzand doimo sezib turishi kerak.

Shu o‘rinda farzandlarga oilaviy shajarani tuzish bo‘yicha mustaqil ishni topshirish maqsadga muvofiq.

Bu bejizga emas. Chingiz Aytmatov bolalik paytlarini eslab, nuroniylar to‘y-tomoshalarda bolalardan etti bobosining nomini aytib berishini so‘raganliklarini qayd etib, shu yo‘sinda yosh avlod qalbida avlo-ajdod, qon-qardoshlik tushunchalari singdirib borilganini xulosa qiladi. [1,101]

Ma’lumki, “shajara”- arabcha so‘z bo‘lib, “daraxt” degan ma’noni anglatadi. Arablar o‘zlarining ota shajaralarini daraxtga va uning shoxlariga qiyoslashgan, daraxt uch qismga-tana, shox va shoxchaga bo‘lingani sababli, arablarning ota shajaralari ham uch qismga-nasl (aniqrog‘i, millat), toifa (qabila) va uruqqa bo‘lingan. Bunga misol qilib, payg‘ambarimiz Muhammad (SAV)ning ota shajarasini ko‘rsatish mumkin. Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Tarixi Muhammadiy” asarida aytilishicha: “Payg‘ambarimizning o‘zlari arab naslidan, Quraysh qabilasi, Bani Hoshim urug‘idan bo‘lib, otalari Abdulloh, uning otasi Abdulmutallib, uning otasi Hoshim, uning otasi Abdulmanof....., o‘n binichi otalari Quraysh, yigirma birinchi otalari Adnondur.... Payg‘ambarimizning yuqoridagi otalari Ibrohim Xalilullohdir”.[2,14]

Fanda shajarani o‘rganish-“geneologiya”, ya’ni kishilarning kelib chiqishi, o‘tgan avlodlari va qon-qarindoshlik aloqalari majmuini anglatadi.

“Og‘zaki yoki yozma shaklda otadan bolaga o‘tib kelgan va har bir kishining etti otasidan boshlab, toki uning etmish etti otasigacha bo‘lgan otalarini bir-biriga bog‘lab, ketma-ketdikda, uzviylikda, birini ikkinchisidan keltirib chiqarib, shulardan o‘rgigan (tug‘ilgan), urchigan (ko‘paygan), unib-o‘sgan urpoq (avlod)larning og‘a-ini, qarindosh hamda eldoshlarning bir-biriga borib qo‘shilishiga va o‘sha otalardan birining nomi bilan, ba’zan laqab oti bilan, ba’zan tamg‘asining nomi bilan, ba’zan umumiy bir etnik nom bilan atalishiga ota shajara deyiladi.”[3,16]

Shajarani tuza olish, ya’ni “7 pusht” (farzand, nyevara, chyevara, yevara, duvara, ovora, begona)ni bilish- yoshlarda o‘z ajdodlari. sulolasi, ota-onasi bilan faxrlanish tuyg‘usini shakllantiradi. Bu tuyg‘u yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishning muhim omilidir. O‘z shajarasini bilgan yoshlarda xotira bo‘ladi. Xotirasi bo‘lgan yoshlar irodali bo‘lishadiva aslo turli yot yo‘llarga kirib ketib, vataniga, xalqiga xiyonat qilmaydi. Ayrim yoshlar, shajara u yoqda tursin, o‘z oilasidan naryog‘ini bilmaydi, pasportiga millati yozilgani uchun men shu millatning vakiliman, deydi. Shajarani bilishning ahamiyatini yanada teran tushunish uchun ma’rifatparvar, jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan etakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning quyidagi so‘zini keltirish joiz: “Qabilasining ismini va etti otasining otini bilmay turg‘onlarni qul-marquq derlar.” [4,194-195]

Oilaviy shajarani tuzishni ommalashtirishda OTMlarining tarix fani o‘qituvchilari tashabbuskor bo‘lishlari lozim, chunki tarix fani nafaqat davlatlar, balki insoniyatning kelib chiqishi, oilalarning paydo bo‘lish tarixini ham o‘rganadi.

Yuqorida farzandlarga vatanparvarlik ruhini singdirishda oilaning barcha a’zolari, ayniqsa ota-ona ma’rifatli bo‘lmog‘iga urg‘u bergan edik, shu o‘rinda mamlakatimizda oilaviy kitobxonlikni rivojlantirish va rag‘batlantirish yo‘lidagi sa’y-harakatlar juda o‘rinli. Bolalarga mamlakatimiz tarixi haqida badiiy adabiyotning ta’siri juda katta ekanligini qo‘yidagi xulosalarda anglashimiz mumkin:

-buyuk ajdodlarimizning boy va takrorlanmas merosidan bahramand bo‘linadi;

-milliy o‘zligini teran anglay olishi uchun zarur bilimga ega bo‘linadi;

-asrlar mobaynida millatimizga xos bo‘lgan mehnatsyevarlik, axloq-odob, jasurlik, qahramonlik, insonparvarlik, e’tiqod kabi qadriyatlar ongu-shuuriga tezroq singadi;

Shuningdek, qahramonlik eposlarida turkiy xalqlarga xos qahramonlik, vatanparvarlikni aks ettirgan “Alpomish”, “Ravshan”, “Shiroq”, “Tumaris” kabi asarlar, qadimdan xalqlarimizning kundalik turmushida rioya qiladigan odob-axloqni ko‘rsatuvchi pandnoma ruhidagi “Saddi Iskandariy” “Qutadg‘u bilik” kabi asarlar Bo’lajak o’qituvchiga millatimizning buyuk o‘tmishi, merosi, turmush tarzi, o‘z vatani uchun jonini ham ayamagan ajdodlarimiz to‘g‘risida ta’sirli ma’lumot bera oladi. Bo’lajak o’qituvchilarga yoshlikdan aytilgan ertak va dostonlardagi obrazlar har bir bolaning jismonan baquvvat, botir, qo‘rqmas, shijoatli va eng muhimi o‘z Vatani va yurti uchun jon fido qilishga tayyor bo‘lib ulg‘ayishida juda muhim omil hisoblanadi. To‘marisning: “Kimki dushman nayrangiga duchor bo‘lsa, halok bo‘ladi, kimki ona Vatan mehr-muhabbatini diliga tugib dushmanga qarshi mardonavor kurashsa g‘alaba qozonadi”, degan hayqirig‘iga mos ibratli g‘oyalar ajdodlarimiz yuragini zabt etgan. Shiroq o‘z jonidan kechib, Doroning katta qo‘shinini suvsiz

sahroga etaklab, mag‘lub etadiki, buni tarix unutgan emas. Spitamen: “Sen Iskandarga qarshi mardona kurashga asos qo‘yding. Sening noming kelajak avlodlar uchun yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qiladi. Bir yildan so‘ng yuzta Spitamen chiqadi, o‘n yildan so‘ng Spitamen mingtaga etadi. Yuz yildan so‘ng o‘n minglab Spitamen bosh ko‘taradi. Sen tashlagan bitta urug‘dan ko‘plab, hadsiz hisobsiz nihollar tug‘iladi. Ular ham yangi hosil beradi va nihoyat, ertami-kechmi dushman munosib jazosini oladi. Buyuk ishlar bir zumda amalga oshib ketmaydi. Hujum qil! Kurash! Lozim bo‘lganda orqaga chekin. Ammo nima uchun kurashayotganiningni unutma.” [5, 156] Tadqiqotimiz mavzusi bo‘lgan vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari haqida xalq pedagogikasining manbaalarida juda ko‘p misollar keltirilgan. Jumladan, namuna ko‘rsatish, tushuntirish, tilak-istak bildirish, undash, ma’qullash, olqishlash, ta’qiqlash, koyish, ta’na (gina) qilish, qo‘rqitish, kaltaklash va hokazo. [6,87]

Ammo tadqiqotlarimizda Bo’lajak o’qituvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ibrat, ko‘rsatish, vaziyat orqali tarbiyalash, ma’qullash va maqtash, mukofotlash, munosabat orqali tarbiyalash kabi metodlar ko‘proq samara berdi. Aholining turmush tarzi, o‘z-o‘zini himoya qila olishi xalq o‘yinlarida ham o‘z aksini topgan. Bolalarga ushbu o‘yinlarni o‘rgatish orqali jismoniy kuchli qilish bilan birgalikda metin irodali, o‘z kuchiga ishonish kabi malakalarni shakllantiramiz. Misol uchun, “Quvlamachoq”, “Bekinmachoq”, “Oq terakmi, ko‘k terak?”, “Chavandoz”, “Chillak”, “Chaqqonlar va merganlar” kabi o‘yinlar ularni kelgusida sergak, chaqqon va jangovar qilib tarbiyalashda muhim o‘rin egallaydi. Xalqimizning kiyinish madaniyati, pazandalik, alla aytish san’ati, milliy kuylar va cholg‘u asboblaridan foydalanishi, kashta, do‘ppi, qiyiq tikish kabi urf-odatlari ham oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. Demak, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash bugungi kundagi pedagogika fani oldida turgan o‘ta muhim masaladir. Shu ma’noda O.Musurmonovaning ilmiy ishlari diqqatga sazovor, uning ta’kidlashicha “.... shaxsning ichki ma’naviy dunyosi- ma’naviy ehtiyoj, ma’naviy qiziqish, ma’naviy faoliyat va ma’naviy qadriyat kabi asosiy belgilar tizimidan iborat.”[7,112]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Маънавий ҳаёт” журнали, 2021, № 4 101-бет. “Чингиз Айтматов огоҳлантиради” мақоласи.
2. Алихонтўра Соғуний. “Тарихи Муҳаммадий” Тошкент, 2007, 14-бет.
3. Ўроқов Б. ва бошқалар. “Ўзбекнинг туркман-юз эли ва унинг шажараси” Гулистон, “Зиё”, 2011.-16 б.
4. Беҳбудий Маҳмудхўжа. Танланган асарлар. Т., 1999, 194-195-бет
5. Илёсов Явдат. “Суғдиёна” (тарихий роман). – Тошкент, “Шарқ” нашриёти, 1994. – Б.156.
6. Мавлонова Р. ва бошқ. “Педагогика”. – Тошкент, “Ўқитувчи”, 2001.
7. Мусурмонова О. “Ўқувчиларнинг маънавий маданиятини шакллантириш”. – Тошкент: “Фан”, 1993. – Б.112.

